

ОҚИДА
22.4.97
О. - 97

QO'SHMURODOV OCHIL

MINERALOGIYA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

QO'SHMURODOV OCHIL

MINERALOGIYA

Toshkent
“Universitet”
2016

UDK 821.512.133

26.31

K.99

Qo'shmurodov O, "Mineralogiya" darslik Toshkent – Universitet, 2016, 280 bet.

BBK.26.31ya7

Mazkur darslik uch bo'limdan iborat. Birinchi bo'limga kristallar, ikkinchi bo'limda mineralogiya fanining maqsad va vazifalari, uchinchi bo'limga mineralogiya nazariyasi kiritilgan.

Mineralogiya darsligi fanning namunaviy dasturiga mos holda tayyorlagan. Darslik Oliy o'quv yurtlarining talabalar, magistrler, doktorantlar va geolog-mutaxassislar uchun mo'ljallangan.

**Mas'ul muharrir: X.D.Ishbayev – Geologiya-mineralogiya
fanlari doktori, professor**

**Taqrizchilar: X.A.Akbarov – Geologiya-mineralogiya
fanlari doktori, professor, akademik. Toshkent
Davlat Texnika Universiteti**

**M.K.Turapov – Geologiya-mineralogiya fanlari
doktori, O'zbekiston Geologiya qo'mitasi
mineral resurslari institutining bo'lim boshlig'i**

Ushbu darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining
2014-yil 9 iyundagi 220-sonli buyrug'iga asosan tasdiqlangan.

**Bakalavr 5441200 – Geokimyo, mineralogiya va
Petrografiya 5140800 – Geologiya**

**Magistr 5A140804 – Mineralogiya,
kristallografiya, petrografiya**

Darslik Mineral resurslar ilmiy-tadqiqot instituti Davlat korxonasi homiyligida
chop etildi.

SO'Z BOSHI

Sanoatning biron sohasi yo'qki, unda foydali qazilmalarni tashkil qiluvchi minerallar bevosita yoki qaytadan ishlangan mahsulot sifatida qo'llanilmagan bo'lsa. Masalan, temir-metallurgiya, mashinasozlik, kemasozlik, temir yo'l, baland inshootlar, asbob-uskunalar, keng iste'mol mollari uchun asosiy manba hisoblanadi.

Sanoatning tez sur'atlar bilan rivojlanishida, suyuq mineral yoqilg'i neft va uning qayta ishlangan mahsulotlari katta rol o'ynaydi. Rangli metallurgiya, elektr sanoati, samolyotsozlik va boshqa turli tarmoqlarda (mis, rux, qo'rg'oshin, alyuminiy, nikel, kobalt) zarur hisoblanadi. Nodir metallar volfram, molibden, sirkoniy, gafniy, niobiyl-tantal, germaniy, reniy, kadmiy va boshqalar Mudofaa quollarini tayyorlashda muhim ahamiyatli. Qishloq xo'jaligining taraqqiyotida mineral o'g'itlar – kaliy minerallari, fosforli o'g'itlar (apatit, fosforit), azotli selitralar va boshqalar asosiy manba hisoblanadi.

Kimyo sanoatining takomillanishi mineral xomashyolarga bog'liq. Masalan, sulfat kislota oltingugurtga boy temir kolchedani (pirit)dan olinadi. Bulardan tashqari, sof tug'ma elementlardan tashkil topgan minerallar – oltingugurt, simob, galoid birikmalar selitra, flyuorit hamda boshqa kimyoviy elementlar – kaliy, natriy, magniy, bor elementlarning minerallari kimyoviy preparatlar tayyorlashda qo'llaniladi. Rezina sanoatida oltingugurt, talk, barit va boshqalar ishlatiladi. O'tga chidamli mahsulotlar tayyorlashda asbest, grafit, magnezit qo'llaniladi. Buyoq-chilikda emal va glazurlar (sirlash) tayyorlashda galenit, sfalerit, barit, mis, temir, marginush minerallaridan foydalaniadi. Yozuv qog'ozlar tayyorlashda talk, kaolin, oltingugurt, achchiqtosh, magnezitlar ishlatiladi.

Inson hayotida bezak va qimmatbaho minerallarning ahamiyati katta. Ko'pincha bezak va badiiy buyumlarda ishlatiladigan minerallar pushti rangli rodonit, rang-barang yashma, marmar, kvarsit va boshqalar bilan bezatiladi. Keyingi yillarda radioaktiv elementlardan reaktor qozonlardan olinadigan ulkan yadro ichki energiyasidan foydalanish jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda.

Geologlar tabiat sirlarini o'rganib, yer bag'rida yashirinib yotgan son-sanoqsiz boyliklarni izlab topish va xalq xo'jaligi hamda sanoatini

kerakli bo'lgan xomashyo bilan ta'minlash yo'lida salmoqli ishlar qilishgan. Bugungi kunga kelib, geologlar mustaqil respublikamizning mustahkam mineral xomashyo bazasini yaratishda katta xizmat qilishmoqda. O'lkamiz zaminidagi oltin, mis, volfram, qo'rg'oshin, rux, uran, fosforit, tuz hamda neft va gaz foydali qazilmalarning zaxirasi bo'yicha dunyoda etakchi o'rnlarga erishdik.

Bulardan tashqari, kristallar va kristallik xususiyatiga ega bo'lgan minerallar yer po'sti va mantiyaning ichki tuzilishida ham muhim rol o'ynaydi. Ularning hosil bo'lishi, o'sishi, yemirilish jarayonlarini o'rganish va undan amaliy hamda nazariy xulosalar chiqarish uchun mineralogiya va kristallografiya fanlariga murojaat qilmasdan iloq yo'q. Shuning uchun ushbu qo'llanma nafaqat yer haqidagi fanlar bo'yicha mutaxassislar uchun, balki boshqa sohadagilar uchun ham zarur. A.G.Betextinning mineralogiya kursi 1969 yilda o'zbek tiliga tarjima qilingan yakkayu-yagona qo'llanma hisoblanadi va ularning soni kutubxonalarda sanoqli. Bunday vaziyatni bartaraf etish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining oliy o'quv yurtlarida ta'lim tarbiya ishlarini davlat tilida olib borish to'g'risidagi qarorni amalga oshirish uchun ushbu darslik tayyorlandi. Darslik oliy o'quv yurtlarining geologiya, foydali qazilma konlar geologiyasi va razvedkasi, neft-gaz konlari, kimyo-texnologiya, kon metallurgiyasi va boshqa yo'naliishlar bo'yicha kunduzgi bo'limda ta'lim olayotgan talabalar uchun tayyorlangan. Ummiy mineralogiya darsligi uch bo'limdan iborat: birinchi bo'limda kристall va kristallografiya fani xususidagi ma'lumotlar, ikkinchi bo'limda mineralarning fizik xususiyatlari, ichki tuzilishi, kimyoviy tarkibi va ular oralaridagi bog'lanishlarni, mineralarning hosil bo'lish jarayonlarini va mineralarning xalq xo'jaligida ishlatalishi haqidagi ma'lumotlar va nihoyat, uchinchi bo'limda Yeming mineralogik modeli, mineralarning paydo bo'lish jarayonlari, endogen-magmatogen va metamorfogen jarayonlar va ekzogen jarayonlarning fizik-kimyoviy omillari, mineralarning hosil bo'lish sharoitlari, mineralarning paydo bo'lish paragenetik assotsiyalari haqidagi ma'lumotlar o'z aksini topdi. Darslik fanning namunaviy dasturiga mos holda tuzilgan. Unda asosiy e'tibor mineralarni aniq tekshirish va ularning tabiatda topilish sharoitlarini aniqlash uchun yo'l ochib beradigan ma'lumotlar beriladi. Shu bilan birga, talabalar uchun mineralarning diagnostik belgilarini bilishgina emas, balki shu mineralarning fizik-kimyoviy sharoitlarda yuzaga kelishi haqida so'z yu-

ritiladi. Bulardan tashqari, ushbu kursning nazariy qismida yer qobig'idagi mineral hosil qiluvchi jarayonlar qisqacha tariflanadi.

Endogen jarayonda hosil bo'lgan minerallar assotsiatsiyalari:

- magmatik minerallarining assotsiatsiyalari;
- pegmatit minerallarining paragenetik assotsiatsiyalari;
- kontakt-metasomatik (skarn) mahsulotlari minerallarining assotsiat-siyalari;

- gidrotermal jarayonlarning minerallar assotsiatsiyalari;
- regional metamorfizm jarayonida yuzaga keladigan minerallar assotsiatsiyalari;
- ekzogen jarayon minerallar assotsiatsiyalari haqida yetarli darajada ma'lumotlar keltiriladi.

Mineralogiya'ning hozirgi vaqtdagi eng muhim vazifalari quyidagilardan iborat:

Minerallarni sanoatning turli tarmoqlarida amalda ishlatish va ularning yangi turlarini ochish maqsadida fizik va kimyoiy xususiyatlarini, ularning tarkibi va kristall tuzilishi bilan bog'liqligini batafsil o'rGANISH.

Minerallarning hosil bo'lish sharoitlarini va mineral hosil qiluvchi jarayonlarni (genezisi) aniqlash, shuningdek, bu jarayonlarning xilmayxil foydali qazilma konlarini qidirish va bashorat qilish ishlarida qo'llash maqsadida minerallarning birga topilishi va mineral uyushma yoki majmularining ruda hamda tog' jinslarida ketma-ket hosil bo'lishi qonuniyatlarini tadqiq etish va boshqalar.

Bu vazifalarni hal qilishda mineralogiya tekshirishlari aniq fanlar – fizika, kimyo, kristallografiya, kristallokimyo, koloidkimyo qonunlariga asoslanadi. Mineralogiya to'plagan ma'lumotlar o'z navbatida geokimyo, petrografiya, foydali qazilmalar haqidagi ilmda, shuningdek, qidiruv-razvedka ishlarida va bir qancha texnik fanlarda, metallurgiyada, foydali qazilmalarni boyitish tog' geologiyasida ishlatiladi.

Ushbu darslik muallifning 45 yillik o'qituvchilik faoliyatida ortirgan tajribasi va yaratgan qator o'quv qo'llanmalari natijasida yaratildi.

Darslikni tayyorlash, jadallashtirish va tahrir qilishda beqiyos yordami uchun fakultet dekani geologiya-mineralogiya fanlari doktori professor, X.D.Ishbaevga muallif o'z minnatdorchiligini izhor etadi.

KIRISH

Mineralogiya – tabiiy kimyoiy birikmalar to‘g‘risidagi fan bo‘lib, mineralogiya geologiya’ning eng qadimiylaridan biri hisoblanadi. Dastlabki ma‘lumotlar eramizdan avvalgi yunon olimi Teofrastning toshlar haqidagi va Katta Pliniyning kitoblarida berilgan. O‘rtalarda Sharqda mineralogiya faniga Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy va boshqalar katta hissa qo‘shgan. Ayniqsa, Abu Rayhon Beruniyning “Kitob al Javohir fi Marifat al-Javohir” deb nomlangan qimmatbaho toshlami bilib olish bo‘yicha ma‘lumotlar to‘plami diqqatga sazovor. Bu kitobda Beruniy 300 dan ortiq minerallar va ular turlari, xususiyatlari, hosil bo‘lish sharoitlari, rangi, qattiqligi va solishtirma og‘irligi to‘g‘risida ma‘lumot beradi. XVII asming birinchi yarmida yozilgan “Baxr ul-Asror” (Sirlar dengizi) asarining muallifi Mahmud Ibn Vali ham mineralogiya taraqqiyotiga katta hissa qo‘shadi, bu asarda qimmatbaho metall va minerallarning sifatini tekshirish usullari haqida ko‘p ma‘lumotlar keltiriladi.

Mineralogiya Yevropada XVI asming boshlarida fan bo‘lib shakllandi. Bu davrda Leonardo da Vinci, keyinroq R.Dekart, N.Steno (1638–1686), X.Guyugens, R.J.Gayui (1733 – 1822) va rus olimlardan M.V.Lomonosov, V.M.Severgin, N.I.Kashkarovlar mineralogiyaga ko‘proq e’tibor bera boshladilar. Shved olimlardan K.Linney va A.Kronstedtlar minerallarning tarkibini kimyoiy tahlil usuli bilan o‘rganishni yo‘lga qo‘ydi. XX asming boshlarida yuzaga kelgan yangi ikki yo‘nalish mineralogiya’ning yanada rivoj topishini ta’miladi. Bulardan biri genetik yo‘nalish bo‘lib, Yer qobiq’ining turli qatlamlardagi minerallarning hosil bo‘lish jarayonlari har tomonlama to‘liq o‘rganildi. Bu yo‘nalishga V.I.Vernadskiy, A.E.Fersmanlar asos soldilar. V.I.Vernadskiy minerallarning fazoviy panjarasida elementlarning o‘zaro izomorf holda joylashish qonuniyatlarini ishlab chiqdi.

Ikkinci yo‘nalish E.S.Fedorov tomonidan geometriya usulida isbotlangan kristallokimyo tahlil nazariyasidir. Uning nazariyasini bo‘yicha, har bir mineral kristall tarkibidagi kimyoiy elementlarning o‘zaro joylashishi qat’iy simmetrik qonuniyatlarga bo‘ysungan bo‘lib, elementlarning joylashishi bilan kristallarning tashqi ko‘rnishi (shakli) bir-biriga mos ekanligini aniqladi.

Bundan tashqari, XX asming 20-yillarda har bir mineral o‘ziga xos ichki tuzilishga ega ekanligi rentgen nurlari yordamida amalda isbot qilindi.

Keyingi yillarda fizika, kimyo fanlari yutuqlarining samarasini texnika va xalq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan mineral xomashyolar izlab topish zaruriyatini mineralogiya'ning tcz sur'atda o'sishiga zamin tayyorladi. Hozir mineralogiya'ning quyidagi tarmoqlari mavjud.

Tasnifiy (sistematik) mineralogiya'ning asosiy vazifasi minerallarning tashqi ko'rinishi, fizik xususiyatlari, kimyoviy tarkibi, paragenetik assotsiatsiyasi, tarqalishi va shular asosida minerallar sietematikasini yaratishdan iborat. Hozirgacha 2500 dan ortiq minerallar va ulaming turlari aniqlangan. Har yili dunyo miqyosida 20-30 dan ortiqroq yangi minerallar topilmoqda.

Genetik mineralogiya, minerallarning paydo bo'lish jarayoni, fizik va kimyoviy sharoiti, o'zgarishi, paragenetik assotsiatsiyalarining yuzaga kelishini aniqlaydi. Genetik mineralogiya taraqqiyoti V.I.Vernadskiy nomi bilan chambarchas bog'langan. U minerallarni Yer qobig'ida molekulalar tarixi deb hisoblagan. D.P.Grigorev tomonidan genetik mineralogiya yangi yo'nalish sifatida rivojlantirildi.

Eksperimental mineralogiya'ning vazifasi sun'iy usulda laboratoriya sharoitida ayrim kimyoviy elementlarni bir-biriga qo'shish natijasida minerallarni, yangi kristallarni olishdan iborat. Bunda texnika va xalq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan minerallar va kristallar ishlab chiqarish hamda sintez qilinayotgan mineralning hosil bo'lismi jarayonini tabiiy sharoitga tadbiq etish asosiy maqsad hisoblanadi. Hozirgacha 2000 ga yaqin minerallar sun'iy usulda olingan.

Kosmik jinslar mineralogiyasi. Oy jinslaridan namunalar keltirilgach, bu sohaning rivojlanishiga imkoniyat tug'ildi. Oy jinslari tekshirilganda Oy sintqi qismlarida mineral hosil bo'lisingining o'ziga xos xususiyatlari haqida dastlabki ma'lumotlar olindi. Meteoritlarning mineral tarkibini o'rganish ham katta ahamiyatga ega.

Minerallar – xilma-xil jarayonlar natijasida hosil bo'lib, kimyoviy tuzilishi va fizik xususiyatlari jihatdan deyarli bir xil bo'lgan tabiiy jism, asosan tog' jinslari, ma'dan va meteoritlarning tabiiy qismidir. Ba'zan suyuq minerallar ham (masalan, tug'ma simob) uchraydi. Suvning mineralga mansubligi munozarali masala, ammo muz ham mineral hisoblanadi. Amorf – metakolloidlar tashqi ko'rinishi kristallarga o'xshash, lekin amorf, shishasimon holatidagi minerallar. Har bir mineral faqat o'ziga xos kristall tuzilishiga ega bo'lgan aniq tabiiy birikma'dan iborat. Bir xil tarkibli (masalan, olmos-grafit, kalsit-aronit), lekin turlicha tu-

zilishiga ega. Kimyoviy tarkibiga yoki morfologik xususiyatlardagi uncha katta bo'Imagan o'zgarishlar minerallarning ichki tuzilishida keskin farqlarga olib kelmasa, ular minerallarning turlari deyiladi (masalan, kvars turida – tog' billuri, ametist, sitrin, xalsedon). Bir-biridan yuza bilan ajralib turuvchi yakka kristallar, donachalar mineral individlarini, ularning o'simtlari mineral aggregatlarini tashkil etadi. Mineral tuzilishida ionlari tartibli joylashgan ideal tuzilishidan chetlashish hollari tez-tez uchrab turadi. Mineral kristall panjarasining tuzilishidagi ayrim elementlari (qatlam, paket, zanjirlar va b.), ichki tuzilishi to'liq saqlangan holda, bir-biriga nisbatan bir oz siljigan bo'lishi mumkin. Buning natijasida mineralning ko'p turli hosilalari yuzaga keladi.

Mineral tarkibini belgilovchi formulalarda transuran va geliy, ksenon va argon kabi gazzlardan tashqari, barcha kimyoviy elementlar bo'lishi mumkin, lekin ularning miqdori turlicha: bir yoki bir necha element asosiy hisoblanadi va mineralning tarkibini belgilaydi, qolganlari mineralda izomorf aralashma (masalan, seriy, indiy, kadmiy, galliy, selen, talliy, reniy, rubidiy va h.k. ko'pgina nodir – kam tarqoq yer elementlari) holida uchraydi. Mineral tarkibining murakkabligi va o'zgaruvchanligi faqat izomorf hodisasi bilangina emas, balki ayrim atom va ularning guruhalidan iborat aralashmani, shuningdek, submikroskopik qo'shilmalarning mineral tarkibiga kirishga ham bog'liqidir. Mineralda submikroskopik qo'shilmalar quyidagi hollarda hosil bo'lishi mumkin:

a) critma, qotishma va boshqalarning kristallanish jarayonida dispers aralashmalarni ushlab qolishi natijasida (masalan, kvarsdag'i suyuq gaz qo'shimchalari, dala shpatdagi gematit qo'shimchalari);

b) haroratning o'zgarishi bilan qattiq qorishmalarning – kaliyli dala shpatlarda pertitlarning hosil bo'lishi, murakkab sulfid va murakkab oksidlar parchalanishi natijasida;

v) metamikt o'zgarishda;

g) bir mineral o'miga boshqasining joylashuvi va boshqalar.

Muayyan strukturali mineralning tarkibi, uning izomorfizmidagi qonuniy o'zgarishlari, atomlarning tuzilishi, kristalloximik xususiyati, ulardagi atomlar radiusi, koordinatsion soni va kimyoviy bog'lanish turi bilan belgilanadi.

Mineral konstitutsiyasi (tarkibi va tuzilishi) formulalarda ifodalanadi. Unda:

a) ionning valentligi (agar turli valentlikdagi elementlar bo'lsa);

b) kompleks anionlar (kvadrat qavslarda), masalan $[SiO_4, AlO_4]$:

v) elementlarning izomorf guruhlari (qavslarga olingen va bir-biridan vergul bilan ajratilgan holda bunda ko‘p uchraydigan element birinchi o‘rinda yoziladi);

g) qo‘sishimcha anionlar ON, F, Si va boshqa anion radikallaridan so‘ng joylashadi;

d) kristallogidratlardagi suv molekulalari (formula oxirida va nuqta orqali u bilan bog‘lanadi);

e) seolit yoki absorbtzion suv ham formula oxirida nuqta orqali yoziladi va N2O tarzida belgilanadi.

Minerallarning tashqi shakli ularning ichki tuzilishi va paydo bo‘lish sharoiti bilan belgilanadi. Ayrim mineral individlarning kattaligi 1–100 mm dan bir necha metrgacha bo‘lishi mumkin. Kristall tuzilishi va o‘sish sharoitiga bog‘liq holda turli ko‘rinishidagi izometrik bargsimon va tangasimon (masalan, molibdenit, slyudalar, talk), taxtasimon, ustunsimon va ignasimon (rutil, aktinolit, turmalin) mineral kristallari vujudga keladi. Mineralning ayrim kristallarida mansub chiziqlar, belgililar, shuningdek, o‘sish va erish shakkari kuzatiladi. Mineral morfologiyasi va qirralar tuzilishini batafsil o‘rganib, ya’ni kristallomorfologik tekshirishlar o’tkazib, mineral individlarning paydo bo‘lish tarixini yaratish mumkin.

Mineralning fizik xususiyati ularning kristall tuzilishi va kimyoviy tarkibiga bog‘liq. Mineralning fizik xususiyatlariiga ularning solishtirma og‘irligi, mekanik, optik, lyuminissent, magnit, elektr, termik va boshqa kiradi. Mineral solishtirma og‘irligiga qarab yengil (1 -2,5 g/sm³) va og‘ir (8g/sm³) turlarga bo‘linadi. Mineralning solishtirma og‘irligi kristall tuzilishiga kiruvchi qismlarning atom og‘irligi, ularning joylashish holati, qo‘sishimcha holati, anionlar va suvning bo‘lish-bo‘lmasligiga bog‘liq. Mineralning solishtirma og‘irligini o‘rganish ular nomini to‘g‘ri aniqlash, ma’danlarni boyitish, bir-biridan ajratib olishga imkon beradi. Mineralning bu fizik xossasiga Abu Rayhon Beruniy ham katta e’tibor bergen va o‘sha davrda ma’lum bo‘lgan mineral va javohirlarning solishtirma og‘irligini aniqlab, shu asosda mineral tasnifini tuzgan. Beruniy keltirgan ma’lumotlar hozirgilardan deyarli farq qilmaydi.

Mineralning mekanik xususiyatlariiga qattiqlik, mo‘rtlik, egiluvchanlik, qayishqoqlik kiradi.

Ulanish tekisligi – mineral yoki kristallarning haqiqiy yoki taxmin qilinadigan tomonlariga parallel tekisliklar bo‘ylab sinish yuzasi hisoblanadi. O‘ta mukammal, mukammal, o‘rta va nomukammal bo‘lib, ma’lum

yo'nalish bo'ylab atomlarning pishiqligi, ularning ulanish kuchi mineral ajralish, ushalish kabilar bilan ifodalanadi.

Optik xususiyatlari. Mineralning rangi, yaltiroqligi, shaffoflik darajas, nur sindirish, nurni ikkilanib sinish ko'rsatkichi, pleoxroizm va boshqa xossalari optik mikroskoplar yordamida o'rganilishi mumkin.

Mineralning yaltiroqligi uning sirtida aks etadigan, nur miqdori va uning nur sindirish ko'rsatkichi bilan bog'liq bo'lib, odatda metall, yarim metall, nometall, olmos, shishasimon, yog'li, ipaksimon kabi turlarga bo'linadi. Mineralning boshqa fizik xususiyatlari (lyuminessensiya, magnitlik, termik) qattiq jismlar fizikasida mukammal o'rganilgan.

Mineralni tadqiq qilish uchun tabiiy ochilmalardan namunalar va burg'u quduqlaridan kermlar olinadi. Kompos yordamida mineralning magnitlik xususiyati aniqlanadi. Karbonat tarkibli minerallar xlorid kislotosining kuchsiz eritmasi bilan oson aniqlanadi. Ba'zan biror kimyo-viy elementning bor yoki yo'q ekanligiga ishonch hosil qilish maqsadida kimyoviy reaksiyalardan foydalaniladi. Mineralning dala sharoitida ma'lum bir guruhga mansubligini belgilashda maxsus aniqlagichlardan foydalaniladi. Ba'zi kam tarqalgan hamda gillar guruhiga mansub minerallarni dala sharoitida aniqlash birmuncha mushkul. Mineralning kimyoviy tarkibi laboratoriya sharoitida fizik va kimyoviy tahlil yordamida aniqlanadi. Shaffof va yarim shaffof mineral qutblangan nurlar bilan ishlatiladigan (polyarizatsion) mikroskop yordamida tekshiriladi, nur o'tkazmaydigan ma'dan minerallar esa, maxsus qaytgan nurlar bilan ishlatiladigan mikroskopda o'rganiladi. Faqat rentgen analiz yo'li bilan mineralning ichki kristall panjarasi tuzilishini to'liq aniqlash mumkin. Juda mayda dispers minerallar elektron mikroskop bilan tekshiriladi. Karbonat va tarkibida suv bo'lgan minerallar termik analiz yo'li bilan o'rganiladi.

Tabiatda tarqalishiga ko'ra, barcha minerallar jins hosil qiluvchi va ma'dan hosil qiluvchi (tog' jinslari yoki ma'danlar tarkibida qatnashuvchi), ikkinchi darajali yoki aksessor (1% dan ko'p bo'limgan), kam uchraydigan va o'ta kam uchraydigan, yakka holda uchraydigan turlarga bo'linadi. Bu juda shartli bo'linish, chunki bir xil jarayonda juda kam hosil bo'lувчи mineral mukammal tekshirilganda boshqa minerali assotsiatsiyalarda keng tarqalganligi ko'rindi.

Har bir mineral aniq geologik, fizik-kimyoviy sharoitda ma'lum bir tabiiy muhitda hosil bo'lib, o'zining rivojlanish tarixiga ega. Mineral rivojlanish jarayonida paydo bo'lish, o'sish va o'zgarish bosqichlarini bosib o'tadi.

Bu bosqichlar rus olimi D.P. Grigorev (1961) tomonidan minerallar ontogeniyasi nomi bilan birlashtirilgan. Mineral turli fazali muhit (eritma, qotishma, gaz) dan paydo bo'ldi. Mineralning o'sish jarayonida izomorf va mexanik ravishda mineral hosil qiluvchi muhitdagi suyuq gaz aralashgan bo'lishi mumkin. Fizik-kimyoviy sharoitning o'zgarishi haroratning pasayishi, bosimning oshishi, yangi aralashmalarning kelib qo'shilishi va boshqalar natijasida quyidagi hollar ro'y berishi mumkin:

- a) mexanik yo'l bilan egizak kristall hosil bo'lishi, dislokatsiya, mozaik va boshqa ichki tuzilishiga olib keladigan deformatsiyalar;
- b) mineralning erishi natijasida tomonlarida o'ziga xos paydo bo'lishi;
- v) polimorf o'zgarishlar;
- g) qattiq qotishmalarning yemirilishida;
- d) qayta kristallanish;
- e) boshqa mineral bilan almashishiga olib keladigan kimyoviy o'zgarishlar va boshqalar.

Agar bu o'zgarishda avval mayjud bo'lgan mineralning tashqi shakli saqlansa, psevdomorfozalar (masalan, limonitning pirit bo'yicha) vujudga kelishi. Bir tarkibning polimorf modifikatsiyalarida ifodalanadigan birlamchi va undan hosil bo'lувчи ikkilamchi mineral psevdomorfozalari (masalan, sfaleritning vyurtsit bo'yicha, grafitning olmos bo'yicha) deyiladi. Turli reaksiyalar natijasida vujudga kelgan har qanday mineral alohida, sof holda deyarli uchramaydi, hamma vaqt boshqa mineral bilan birga keladi. Bir jarayonda va bir vaqtda ma'lum fizik-kimyoviy sharoitda qonuniy ravishda hosil bo'lувчи mineral birikmalar mineral paragenezisi yoki paragenetik assotsiatsiyalar deyiladi. Mineralning bir paragenetik assotsiatsiyasi rivojlanish tabiiy sharoitlar, harorat, bosim va komponentlar konsentratsiyasining o'zgarishi natijasida qonuniy ravishda ikkinchisi bilan almashinadi. Vujudga kelayotgan mineral assotsiatsiyalarini fizik kimyoviy diagrammalar yordamida tekshirish, Rossiya olimi akademik D.S. Korjinskiy tomonidan ishlab chiqilgan paragenetik tahlilining asosi hisoblanadi. Bir mineralning turli vaqtda paydo bo'lishi uning generatsiyasi deyiladi. Tabiiy reaksiyalar mahsuli bo'lgan mineral uni hosil qiluvchi muhit, fazali holat fizik-kimyoviy parametrlar bilan uzviy bog'liq. Bularning hammasi minerallar hosil bo'lish jarayonining har bir bosqichida mineral tarkibi va xususiyatlarda o'zgarib, tipomorf (mansub) xususiyatlami hosil qiladi. Mineral hosil bo'lgan muhit bilan bog'liq bo'lgan kimyoviy, struktura, fizik belgilarning majmuyi mineral tipomorfizmi deyiladi.

Mineral paragenezislari kabi, ularning ayrim belgilari ham tipomorf bo'lishi mumkin. Mineralning tipomorf xususiyatlaridan foydali qazilmalarni qidiruv belgilari sifatida foydalanish mumkin.

Mineral barcha geologik jarayonlarda (endogen, ekzogen, metamorfogen) paydo bo'ladi. Hozirgi zamон mineral genezisi (hosil bo'lishi) tushunchasi bir qator masalalarni o'z ichiga oladi, jumladan:

- a) mineral hosil bo'lish jarayoni kimyosi;
- b) mineral hosil bo'luchchi muhitning fazasi;
- v) mineral hosil qiluvchi sistemaning fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari (harorat, bosim, komponent faolligi, kislorod potentsial-nordon rejim);
- g) mineral hosil bo'lish, o'sish va rivojlanish mexanizmi, xususan uning paydo bo'lishi (erkin kristallanish, metasomatik rivojlanish, qayta kristallanish, parchalanish);
- d) mineralning keyingi o'zgarishlari jarayoni va metamorfizm hodisasi.

Mineralning genezisi paydo bo'lishini o'rganishning bosh yo'llari quydigilar:

- a) mineral mavjudligining geologik sharoitini kuzatish;
- b) mineralning tipomorf (mansub) xususiyatlarini o'rganish;
- v) paragenetik tahlil;
- g) antogenetik tekshirish;
- d) mineralning paydo bo'lish sharoitida unga kirib qolgan gaz, suyuq va qattiq (boshqa mineral zarralari) qo'shimchalarni o'rganish;
- e) tabiiy reaksiyalarning termodinamik hisoboti;
- j) turli geotermometr va geobarometr yordamida termodinamik ko'rsatkichlarni aniqlash;
- z) fizik-kimyoviy muvozanatni o'rganish;
- i) mineral hosil bo'lish jarayonini tajriba yo'li bilan tekshirish;
- k) mineralning izotop tarkibini o'rganish.


Mineral genezisini aniqlovchi obyektiv manbalarni o'rganish foydali qazilmalarni (konlarni) topish, ularning geologik jarayoni, ularni ilmiy asoslash, qidiruv, sanoat ahamiyatini aniqlashga yordam beradi.

Mineralning qaysi sohada ishlatalishi uning xususiyatlariga bog'liq. Masalan, o'ta qattiq minerallar (olmos, korund, granat va b.) obraziv mahsuloti sifatida, pezolelektrik xususiyatiga ega minerallar radioelektronikada qo'llaniladi. Mineralning fizik xususiyatlariga (zichligi, qayishqoqligi, magnitligi, elektr o'tkazuvchanligi, radioaktivligi) qarab ma'dan boyitish va foydali qazilmalar qidirishning usullari belgilanadi.

Mineralning kristallik panjarasidagi nuqsonlami mexanik (maydalash va uvalanish), akustik, issiqlik (qattiq qizdirilishi va tez yoki sekin sovishi), radiatsion (rentgen) usullar bilan yo'qotish istiqbollar ochilishiga imkoniyatlar yaratadi. Xalq xo'jaligida, sanoatda hozirgacha bizga ma'lum bo'lgan minerallarning 20% ishlatiladi. Mineralning tarqalganligi, tarkibi, xususiyatini batafsil o'rganish, yangidan-yangi mineral turlarini topishga imkon beradi. O'zbekistonda geolog, geoximik, mineraloglar va boshqalar tomonidan yangi minerallar ochilgan. Ulardan ba'zilari dunyoda birinchi marta topilgan bo'lib, mashhur olimlar, mutafakkirlar va joylar nomi bilan ataladi. Masalan, avisenit, birunit, nasledovit, uklonskit, ferganit, xamrabaevit, uzbekit. Hozir sanoatda, xalq xo'jaligining ko'p tarmoqlarida Mendeleev jadvalidagi elementlarning ko'philigidan foydalanilmoqda, ular asosiy komponent yoki qo'shimcha element sifatida har xil minerallar tarkibidir. Elektronika, optika, radiotexnikada mineralning monokristallari yoki ularning sun'iy turlari ishlatiladi. Chiroyli va bezakligi bilan ajralib turadigan minerallar qimmatbaho, yarim qimmatbaho, javohirlar (olmos, zumrad, yoqut, safir, nefrit va boshqalar) sifatida qo'llaniladi. Mineralni har tomonlama o'rganmay turib, tog' jinslari va qazilma ma'dan hosil bo'lishini hozirgi zamon geologik va geoximik tekshirishlar talabiga javob berarlik darajasida aniqlash mumkin emas. Yil sayin minerallarning tadqiq etish obyektlari kengayib, oy, koinot, yer po'sti va okcan tubi minerallari o'rganilmoqda.

I BO'LIM
KRISTALLOGRAFIYA
1. KRISTALL VA KRISTALLOGRAFIYA FANI
XUSUSIDA MA'LUMOTLAR

1.1. Kristall haqida umumiy tushunchalar. Odatda tabiiy yoki laboratoriya sharoitida hosil bo'lgan, ko'p tomonli ma'lum bir geometrik shaklga ega bo'lgan qattiq jismlar **kristallar** deyiladi. Kristallarni sirtqi qismi tekis tomonlardan va ularning tutashgan joyida o'zaro kesishgan to'g'ri chiziqlar – qirralardan, qirralari esa bir nuqtada kesishgan cho'qqilardan iborat. Kristallning bunday to'g'ri geometrik shakli uning ichki tuzilishidagi atomlarning tartib bilan joylashishidan vujudga keladi. Bunga osh tuzining (NaCl) kub shaklidagi kristalli, kvarsning (SiO_2) olti tomonli prizma va dipiramida shaklidagi kristalli, temir uchun asosiy ma'dan bulgan magnetitning ($\text{Fe}_2\text{O}_3 \cdot \text{FeO}$) sakkiz tomonli oktaedri va granatning o'n ikki tomonli rombobodekaedr shaklidagi kristallari misol bo'la oladi (1-rasm).



1-rasm. Mineral larning tabiy kristallari:
a) osh tuzi, b) kvars, v) magnetit, g) granat.

Kristall yunoncha «krystallos» so'zidan olingan bo'lib, muz demakdir. Yunonlar tog' billurining (kvars turi) olti tomonli, toza, shaffof kristallik koinot suvining yaxlitlanishidan hosil bo'lgan «tosh» deb hisoblaganlar. Haqiqatdan ham tog' billuri tashqi ko'rinishidan muzni eslatadi. Undan keyingi davrlarda to'g'ri geometrik shakllarga ega bo'lgan barcha qattiq jismlar kristall deb hisoblangan.

Kristallarning tabiatda tarqalishi. Yashab turgan zaminga, atrof-muhitga nazar tashlar ekanmiz, unda kristallar juda kam uchraydigandek tuyuladi. Kristallar faqat ma'lum bir joyda tog'u-toshlardan yoki ba'zi bir ixtisoslashgan, sun'iy usulda kristallar oladigan muassasalardan topiladigandek tuyuladi. Ammo atrofimizdag'i jismlarga sinchiklab qarasak kristallarning juda ko'p tarqalganligining shohidi bo'lamiz. Masalan, har kuni ishlatiladigan osh tuzi, qand, novvot, dori-darmonlar, hattoki qor, sham, kul ham mayda, ko'pincha ko'z ilg'amas kristallardan iborat. Bunday kristallarni amaliyotda mikroskop yordami bilan ko'rish mumkin. Hatto istagan metallning bir parchasini olib tekshirsak, u mayda kristall zarralardan iborat ekanligiga ishonch hosil qilamiz.


Shu kabi Yer qobig'ida kristallarga xos shakllarga ega bo'limgan, lekin kristalllik xususiyatiga molik mayda donachalardan tashkil topgan tog' jinslari ham ma'lum. Masalan, yer qobig'ida ko'p tarqalgan granit tog' jinslari – kvars, dala shpati va slyuda donachalaridan iborat; ohak toshlari, slaneslar ham kristallik xususiyatiga ega bo'lgan mayda donachalardan iborat. Xulosa qilib aytganda, zaminimizda kristallar, ayniqsa, ko'z ilg'amas kristallar ko'p tarqalgan, har qadamda uchraydi hamda ular katta amaliy ahamiyatga ega.

Kristallarning ichki tuzilishi to'g'risidagi tushuncha ularni rentgen nurlari yordami bilan tadqiq etilgandan so'ng yuzaga keldi. Rentgen tahlili kristall tarkibidagi atom, ion va molekulalarning kristallning ichki tuzilishida muayyan geometrik qonuniyat va molekulalarning bunday tartib bilan joylashishi kristallarga xos bo'lib, shuning bilan ular amorf jinslardan farq qiladi.

Zarrachalari o'zaro tartibsiz ravishda joylashgan bo'lsa, uni amorf holatdagi qattiq jism deyiladi. Amorf jismlarga oyna (shisha), plastmassa, mum va boshqalar misol bo'la oladi. Amorfli jism ichki tuzilishi turg'un bo'lmasdan ma'lum vaqtdan so'ng kristallik xususiyatiga o'tishi mumkin. Masalan, oyna vaqt o'tishi bilan kristallanib, mayda kristallchalarga aylanib rangi sarg'ayadi. Qattiq jismining kristallik holati amorf jismga nisbatan ancha turg'un. Chunki kristallning ichki tuzilishidagi zarrachalar ning qonuniy joylashishi va bog'lanishi uning ichki energiyasining hisobiga yuzaga keladi va uni shu potentsial energiya ushlab turadi.

Mana shunday mulohazalardan so'ng kristall nima degan savolga umumlashtirilgan javob berish mumkin: moddiy zarrachalari (atomlari, ionlari va molekulalari) bironqa qonuniyat asosida, fazoviy panjara tugunlari kabi tartib bilan joylashgan barcha qattiq jismlar kristall deb ataladi.

1.2. Fazoviy panjara to^grisida tushuncha. Fazoviy panjaraning tuzilishini chuqurroq tasavvur etish uchun uning bitta tugunchasini Ao ni boshlang'ich tuguncha deb qabul qilamiz. To^g'ri chiziq bo'ylab unga yaqinroq bo'lgan A1 tugunchasi «a» masofada joylashgan bo'lsin. ($a = AoA1$). AoA1 to^g'ri chizig'ini davom ettirsak, muttasil joylashgan A2, A3, A4 va An tugunlarini topamiz. Bularning oraliqlari «a»ga teng bo'lib, jamiga fazoviy panjaraning qatori deb yuritiladi (2-rasm, a).




2-rasm. Kristall fazoviy panjarsining qatorlari va turli tekisliklari.

tasil takrorlanadigan V2, V3, V4 va Vn tugunlarining qaysisidan AoAn to^g'ri chizig'iga parallel chiziqlar o'tkazilib, o'zaro parallel joylashgan bir necha fazoviy panjara qatorlarini hosil qilamiz. Shuning kabi AoBn chizig'iga parallellar o'tkazamiz. Natijada yana bir-biriga parallel joylashgan fazoviy panjara qatorlarini hosil qilamiz. Bularning AoAn tomonlariga parallel joylashgan to^g'ri chiziqlar bo'ylab muttasil takrorlanadigan tugunlarning oralig'i «a» ga teng, AoBn tomoniga parallel bo'lgan to^g'ri chiziq bo'ylab joylashgan tugunlarning oralari «b» ga barobar. Natijada AnAoVn shaklidagi fazoviy panjaraning turli tekisligi hosil bo'ladi (2-rasm, b). Demak, o'zaro teng va parallel bo'lgan bir sistemaga bog'langan parallelogrammlarning cho'qqilarida joylashgan tugunlar yig'indisi fazoviy panjaraning turli tekisligi deb ataladi.

Bunday oraliqlarni bo'sh qoldirmasdan parallelogrammlar bilan chizma tekisligini to'ldirib chiqish mumkin. Shulardan bittasi chiziqlar bilan belgilangan (2-rasm, b). Bu mulohazalardan ko'rinish turibdiki, turli tekislik asosan ikkita qator bilan aniqlanadi. Birinchisi: AoA1An qatori, ikkinchi AnV1.....Vn qatori birikib AnAoVn turli tekisligini vujudga keltiradi.

Undan keyin panjara yasamasini tekislikda tasavvur etish uchun dastlabki Ao tugunidan o'din tuzgan AnAoVn turli tekisligi sathidan tashqari bo'lgan S1 tugunchasini olamiz (3-rasm).

AoS1=c ga teng bo'lgan AoC1 to'g'ri chizig'ini davom ettirib, uning ustida yotgan S2, S3, C4...Cn oraliqlari «s» ga teng bo'lgan tugunlar jami yoki boshqacha qilib aytganda fazoviy panjaraning AoC1...Cn uchinchi qatorini topamiz.



3-rasm. Fazoviy panjara (a) va uning elementar shu'basi (b),
a, b, s – qirralari, a, β, γ – qirralari orasidagi burchaklar.

Panjaraning so'nggi qatorida joylashgan har bir tugundan AnAoVn turli tekisligiga parallel joylashgan tekisliklar o'tkazamiz. Bularning barchasi birinchi turli tekislikka nisbatan va o'zaro birdek bo'lganligi uchun, bir-biri bilan uch o'lchamda uzviy bog'langan teng turli tekisliklarning yig'indisidan iborat. Mana shunday mulohazaga asoslanib, birinchi (AoA1...An) ikkinchi (AoVo...Vn) hamda uchinchi (AoC1...Cn) qatorlar zaminidagi turli tekisliklarni vujudga keltirdik. Bunday turli tekisliklar parallel holda ikkinchi va birinchi turli tekislikning har bir tugunidan o'z navbatida yana ikkita oldingilarga mos turli tekisliklar o'tadi. Uchta yo'nalishda tuzilgan turli tekisliklar bir-biri bilan kesishib muttasil joylashgan yuqorida aytilgan parallelopipedlarni vujudga keltiradi (3-rasmida bit-tasi ajratilgan).

Bu parallelopipedlar, o'zaro teng muttasil parallel zinch joylashganligi va tomonlarining umumiyligi bo'lganligi uchun fazoni ochiq joy qoldirmasdan to'ldiradi. Ularning cho'qqilari fazoviy panjaraning tugunlariga to'g'ri keldi. Bunday yasama cheksiz davom etadigan shakllarga olib keladi. Chunki har bir qatorni istagan masofagacha davom ettirish mumkin.

Yuqorida ko'rsatilganidek, real kristallarning ichki tuzilishidagi fazoviy panjara tugunlari o'mida neytral atomlar, zaryadlangan atomlar (ionlar) yoki bir guruh ionlar va atomlar joylashgan bo'ladi. Agar bunday guruhlar neytral holda bo'lsa uni molekula, agar zaryadlangan bo'lsa

radikallar deyiladi. Shuning bilan, birga kristall cho'qqilar fazoviy panjaraning tugunlariga, qirralari qatorlariغا, tomonlari esa turli tekisliklarga to'g'ri keladi. Ko'tinib turibdiki, kristallarning tabiiy qirralari moddiy zar-rachalar qalin joylashgan qatorlarga va tabiiy tomonlari esa qolgan zar-rachalar bilan qoplangan turli tekisliklarga, boshqacha qilib aytganda katta retikular zichligiga (ma'lum birlikdagi sathga to'g'ri keladigan tugunlar miqdoriga retikular zichlik deyiladi) ega bo'lgan tomonlarga to'g'ri keladi.

Bundan tashqari, har bir fazoviy panjara uni tashkil etuvchi moddiy nuqtalarning shu panjaraga xos tartibda joylashgan elementlar shu'balaridan iborat (3-rasm, a, b).

To'rt tekisligida yotgan cho'qqilardan va tugunlardan iborat bo'lgan bitta parallelopipedli fazoviy panjaraning eng kichik bo'lagi elementlar shu'basi deb ataladi (3-rasm. b). Ular panjara tuzilishida cheksiz va muttasil takrorlanuvchi parallelopipedning shakli va katta-kichikligi bilan xarakterlanadi. Har qaysi kristallning o'ziga xos bo'lgan elementlar shu'balarini bir-biridan qirralarining (a, b, s) uzun-qisqaligi va ular orasidagi burchaklarning (α , β , γ) qiymatlari bilan farqlanadi.

1.3. Kristallarning asosiy xususiyatlari. Kristallar yuqorida ko'rsatilgan belgilardan tashqari yana uchta muhim xususiyatga ega: bir jinslik, anizotropik, kristall tomonlarining o'z-o'ziga parallel o'sishligi.

1. Bir jinslik xususiyati. Kristallar har bir qismlarida birdek, o'zgarmas kimyoviy va fizik xususiyatlarga ega bo'lsa, uni bir jinsli deyiladi. Kristallning har bir qismida tarkibi, ichki tuzilishi va fizik xususiyatlari bir xil bo'lsa, o'z-o'zidan ma'lumki, u bir jinsli bo'lishi shar. Masalan, katta yaxlit tog' billuri kristallining har joyidan shar, kvadrat va kub shaklidagi figuralar kesib olib, ulaming har qaysisining kimyoviy tarkibini, ichki tuzilishini va fizik xususiyatlarini tekshirsak, ular qanday shakida bo'lishidan, kristallning qaysi joyidan olinganligidan qat'iy nazar yuqorida ko'rsatilgan xususiyatlari birdek bo'ladи. Demak, tog' billuri kristallini bir jinsli deb hisoblash mumkin.

Shuni ham aytish kerakki, bir jinsilik ma'lum darajada nisbiy bo'lib, kristallning anizotropik xususiyatini hisobga olsak, hatto ideal kristallarda ham, faqat o'zaro parallel bo'lgan yo'naliishlaridagina bir jinslik bo'lishi mumkin. Shuning bilan bir qatorda bu xususiyatni real kristallar tarkibida-
gi kimyoviy yoki mexanik aralashmalar hisobga olinmagan holda qabul qilishimiz mumkin.

2. Anizotroplik xususiyati (har xil xususiyatlari demakdir). Kris-tallarning muayyan yo'naliishlari bo'yicha xususiyatlarining o'zgarishiga

anizotroplik deyiladi. Boshqacharoq qilib aytganda, kristall har xil parallel yo'nalishi bilan nopalallel yo'nalishidagi xususiyatlari bir-biriga o'xshamaydi. Anizotroplik xususiyat kristallning ichki tuzilishi bilan uzviy bog'langan, chunki uning parallel yo'nalishlarda o'zaro mos bo'lgan atomlar (ionlar, molekulalar) ayniyatli shaklda teng masofalarda joylashgan. Shunga ko'ra, bu yo'nalishlarda kristall xususiyatlari ayniyatli bo'lishi shart. Nopalallel yo'nalishlarda zarrachalar bir-biriga nisbatan turli xil masofada joylashganligi uchun xususiyatlari har xil bo'ladi. Anizotroplik xususiyat slyudalarda yaqqol ko'rindi. Ularning yassi kris-tallari qatlam-qatlam ko'rinishda joylashgan bo'lib, qatlamlar yo'nalishlarda osongina yupqa varaqlarga ajraladi. Bu qatlamlarga perpendikular yo'nalishda varaqlarga ajratib olish ancha murakkab ish. Anizotropik xususiyatiga disten ($A12SiO5$) minerali misol bo'la oladi. Bu mineral kris-talining yo'nalishlari bo'yicha qattiqliklari har xil (4-rasm). Kristall uzunligiga mos yo'nalishda pichoq osongina iz qoldiradi (qattiqligi 3-4), unga perpendikular yo'nalishda pichoq iz qoldira olmaydi (qattiqligi 6-7).

Bundan tashqari, kris-tallarning issiqlik, nur o'tkazish xususiyatlarda ham anizotropik yaqqol sezildi. Bu hodisa darslikning ikkinchi qismida batafsil tushuntiriladi.


3. Kristallarning uchinchi muhim xususiyati hosil bo'layotgan, rivojlanayotgan paytida tomonlari o'z-o'ziga parallel qatlamlar hosil qilib o'sishidir. Masalan, to'yingan osh tuzi eritmasiga kichkinagina kub shaklidagi shu birikmaning kristali tushirilsa, ma'lum vaqtidan keyin kristall hajmining kattalashganligining guvohi bo'lamiz. Buning sababi, kub shakli tomonlarida joylashgan musbat Na^+ eritmadi manfiy zar-yadlangan Si^- ni tortib o'ziga qo'shib oladi va aksincha. Natijada tomonlariga parallel joylashgan $NaCl$ ning yangi qavatlari vujudga keladi, kristall o'sadi, kattalashadi.

Umumlashtirib aytganda, kristall zarrachasi, shu kristall tarkibidagi modda eritmasida o'zining ma'lum qonuniyatlariga asoslangan, shu modda uchun xos kristall shaklini olishga intiladi va u zarur fizik-kimyoviy muhitda bo'lgan o'sha kristall shakliga kiradi.

1.4. Kristallografiya'ning vazifasi va boshqa fanlar orasida tut-gan o'rni. Kristallografiya kristallar va kristallik xususiyatiga ega bo'lgan jismlar haqidagi fan. Bu fanning asosiy negizini kristallar simmetriyalari, panjaralari ichki tuzilishlari va fizik-kimyoviy xususiyatlari tashkil qiladi.

Kristallografiya mineralogiya'ning bir qismi bo'lib, fan sifatida shakllanib, so'nggi davrda matematika, fizika fanlarining aniq qonuniyat-

lari asosida rivojlandi. Kristallami bat afsil o'rganishda nafaqat geologlar, balki matematiklar, fiziklar va kimyogarlar ham qiziqa boshladи. Shuning uchun, kristallografiyaning taraqqiyoti bu fanlar taraqqiyoti bilan chambarchas bog'langan. Bunday bog'lanishni qo'yidagicha ifodalash mumkin:



Geologlar uchun minerallarning kristall shakllarini, fizik-kimyoviy xususiyatlarini, hosil bo'l shini va Yer qobig'iда tarqalishlarini o'rganib, olingan ma'lumotlar natijasida Yer qa'rida yotgan ma'danlar darakhisi sifatida ishlataladi va yangi konlar ochish uchun zamin yaratiladi. Bu muammoni ijobjiy hal qilish uchun kristallografiya fanini mukammal o'zlashtirib olish lozim. Bundan tashqari, kristallografiya fani qimmatbaho toshlar, metallar, kimyoviy birikmalar kristallarini va sun'iy yo'l bilan olingan kristallarni ham tadqiq etadi. Kristallografiya fanining asosiy vazifalari uning quyidagi tarkibiy qismlarida aniq ko'rindi:

- a) birinchi qismi – geometrik kristallografiya kristallarning cheklangan va cheksiz shakllar simmetriya elementlari va turlari, tomonlar orasidagi qonuniyatlar, kristallar tashqi ko'rinishlari, tabiiy va sun'iy kristallarning hosil bo'l sharoitlari, o'sishi va yemirilish qonuniyatlarini bilan shug'ullanadi;
- b) ikkinchi qismi – kristallofizikada esa kristallarning fizik, elektrik, mexanik, optik xususiyatlarini va bu xususiyatlarining ichki tuzilishi bilan bog'liqligini o'rganadi;
- v) uchinchi qismi – kristalokimyo kristallarning ichki tuzilishida atomlar, ionlar va molekulalar o'zaro bog'lanishi, ichki tuzilishi fazoviy panjara bilan shakl o'tasidagi ayniyatlikni, kimyoviy tarkibi bilan fizik xususiyatlarining uzviy bog'lanishlarini teksxiradi.

1.5. Kristallografiya fanining taraqqiyoti bosqichlari. Bashariyat taraqqiyoti tarixiga nazar tashlar ekanmiz, unda biz toshlarning, kristallarning va ma'danlarning ishlab chiqarish qurollari sifatida, kishilarning moddiy, ma'naviy, maishiy hayotida qanchalik muhim o'rinnegallaganligining shohidi bo'lamiz. Ibtideiy jamiyatdan tortib, to hozirgi kungacha kishilar toshlarni (kristallar, minerallar) o'z ehtiyojlarini qondirish uchun

har xil uslubda ishlatib kelganlar. Ibtidoiy jamiyatda toshlarni odamlar o'zlarini yirtqich hayvonlardan muhofaza qilish quroli o'rniда ishlatgan bo'lsa, quldarlik jamiyatiga kelib ulardan bezak va ro'zg'or anjomlarini tayyorlash uchun foydalanganlar. Qimmatbaho toshlarning qadri oshib, unga talab kuchaya bordi. Javohirlar mahsulot sifatida bozorga chiqarilib sotila boshlandi. Sotiladigan javohirlarning sifatini va miqdorini aniqlab, baholash zaruriyati tug'ildi. Bu zaruriyat kristallarning fizik va kimyo-viy xususiyatlarini har tomonlama o'rganishga da'vat etdi. Shu sababli XI asrdayoq Abu Rayhon Beruniy qimmatbaho toshlarning sifatini aniqlash usullarini ishlab chiqdi.

Kristallografiya'ning fan sifatida shakllanishining bosqichlarini uchta davrga bo'lish mumkin.

Birinchi boshlang'ich (embryonal) davr to XI asrning boshlarigacha bo'lgan vaqtini o'z ichiga oladi. Bu davrda tog' billuri, pirit, kalsit, gematit va boshqa minerallar kristallarining shakllari tekshirilgan. Ularning shakllari bilan tarkiblarining fazoda uzviy bog'lanishi borligi taxmin qilina boshlangan. Bu borada, ayniqsa, grek olimlaridan Pifagor, Pliniylar katta hissa qo'shganlar. Kristallar tarkibini, nomini ularning geometrik shakllariga qarab aniqlashni Pliniy ko'rsatib bergen.

X-XI asrlarda kristallarni, aniqrog'i qimmatbaho toshlarni tadqiq etish O'rta Osiyo olimlari o'rtaida ham keng tarqalgan. Bunga butun dunyoga tanilgan, serqirrali, ilm-fanning har bir sohasida o'chmas iz qoldirgan buyuk bobokalon allomalarimizdan Abu Rayhon Beruniy (972-1048) va Abu Ali ibn Sino (980-1037) yozib qoldirgan, o'tmish-ma'daniyatimiz tarixining qatlamlarida javohirlardek saqlanib kelayotgan asarlari dalil bo'la oladi. Bu ikki buyuk allomalar kristallaming va mineralarning fizik-kimyo-viy xususiyatlari asosida ularning tasnifini vujudga keltilishgan. Ayniqsa, Beruniyning «Qimmatbaho toshlarni tekshirish haqidagi kitob» nomli ilmiy asari alohida diqqatga sazovordir. Hozirgacha o'z qiyamatini yo'qotmagan bu asar kristall, mineral va metallarga bag'ishlangan bo'lib, 50 ga yaqin nomdagi qimmatbaho toshlar, metallar haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

O'tgan davr fan va texnikaning qoloqligiga qaramasdan u kristallar solishtirma og'irligini aniqlaydigan maxsus asbob kashf etib, ko'pgina kristallar, metallar solishtirma og'irligini aniqlagan. Jumladan, aniqlangan turmalin kristalining solishtirma og'irligi u mineralning hozirgi solishtirma og'irligidan deyarli farqi yo'q.

XVI asrdan keyin kristallarning ichki tuzilishi to‘g‘risida aniqroq taxminlar yuzaga kela boshladi. Italiya matematigi, shifokori D.Kardano (1501–1576) olti qirrali prizmatik shakldagi tog‘ billurining ichki tuzilishini aniqroq tasavvur etgan. U tog‘ billuri mayda shar shaklidagi zarrachalarning tartibli holda zich joylashishidan hosil bo‘lgan degan g‘oyani olg‘a surgan. Bu masalani 1611 yilda nemis matematigi va astronomi Iogann Kepler qor (qirov) kristallarini o‘rganib, ular suvning sharsimon tuzilishdagi molekulalarining zich joylashishidan hosil bo‘lgan degan xulosaga kelgan. Bundan keyin ingлиз olimi R.Guk (1665), gollandiyalik X.Guygens (1690), rus olimi M.V.Lomonosov (1749) turli xil kristallarni tekshirish asosida, ular mayda shar va ellips shaklidagi zarrachalardan tuzilgan degan xulosa chiqarganlar.

Kristallografiya fanining ilmiy asoslarini yaratishda 1669 yili daniyalik shifokor N.Stenonning geologiya va mineralogiya sohalarida olib borgan kuzatishlarining natijasi muhim rol o‘ynadi. U jahonda birinchi bo‘lib kvars kristallaridagi ayniyatlilik tomonlar orasidagi burchaklarning qiyamti turg‘un o‘zgarmas son ekanligini isbotladi va matbuotda e’lon qildi. Kvars kristallari tomonlarining shakllariga va katta-kichikligiga qaramasdan ayniyatlilik tomonlari orasidagi burchaklar qiyamti doimo birdek degan xulosa chiqardi.

Faqat yuz yildan so‘nggina fransuz olimi Rome Delil va M.V.Lomonosov bilan bir vaqtida bu qonuniyat nafaqat kvars kristallariga emas, balki barcha kristallarga ham xos ekanligini isbotlab, u kristallografiyaning va kristallokiyoning asosiy qonunlardan biri ekanligini qayd qildilar. Shundan so‘ng jahon olimlari buni burchaklar turg‘unlik qonuni, Steno qonuni, ba’zilari esa kristallografiyaning birinchi qonuni deb tan oldilar.

Ikkinci davr XIX asr boshlaridan oxirigacha bo‘lgan vaqtini o‘z ichiga oladi. Bu davrda to‘plangan ma’lumotlar asosida kristallarning shakllarini nazariy jihatdan batatsil o‘rganish, ularni umumlashtirish, ichki tuzilish, nazariy qonuniyatlarini kashf etish davri bo‘ldi. Ikkinci davrning eng muhim yutuqlaridan biri fransuz olimi, professor Rene Jyust Gayui (Ayui)ning kristallarning ichki tuzilish nazariyasini kashf etishidir. R.J.Gayui (1784) o‘z kashfiyotiga «kamaytirish nazariyasi» deb nom berdi va kristallografiya-kristallokiyofanlarning ikkinchi asosiy qonuni bo‘lgan parametrlar nisbatining ratsionallik (ya’ni butun sonlar) qonunini kashf etdi. Ayni shu paytda nemis olimi K.Veys kristallografiyaning uchinchi –

tomonlar va qirralar vaziyatining o'zaro bog'lanishini aniqlovchi qonunlarni ishlab chiqdi va butun dunyoga «mintaqalar qonuni» nomi bilan mashhur bo'ldi. 1830 yilda nemis olimi F.Gessel va 1867 yilda rus olimi A.Gadolin mavjud bo'lgan kristallarning barchasini 32 ta simmetriya turiga mujassamlashtirdilar.

1857 yilda fransuz olimi G.Sorba tomonidan toshlarni qutplashgan nurlar yordami bilan o'rganadigan mikroskop kashf qilingandan keyin kristallarni va minerallarni mikroskop yordami bilan o'rganish keng quloch yozdi va kristallarning noma'lum bo'lgan xususiyatlarini ochib bera boshladi.

XIX asrning boshlarida kristallarning ichki tuzilishi haqida mukammal nazariyalar yaratila boshlandi. Bunday nazariya ni yaratishda rus olimi E.S.Fedorovning xizmati katta bo'ldi. Uning 1890 yili e'lon qilingan «To'g'ri shakllar simmetriyasi» asarida kristallardagi atomlar, molekulalar va ionlarning joylashish jarayonini nazariy talqin qilib, ko'pgina geometrik qonunlarni ochdi. E.S.Fedorov bo'yicha har bir kristall moddiy birliklar (nuqtalar) yig'indisidan iborat bo'lib, o'zaro simmetriya elementlari bilan bog'langan. Bunday cheksiz moddiy nuqtalar yig'indisi kristallarning fazoviy panjarasini hosil qiladi. E.S.Fedorov nazariyasi ko'p vaqtgacha olimlar nazaridan tashqarida qolib keldi. Faqat rentgen nurlari kashf qilingandan keyingina bu nazariyaga qaytadan murojaat qilindi.

Kristallografiya taraqqiyotining *uchinchidavri* 1896 yil rentgen nurlari kashf etilgandan so'ng boshlandi. Bu nemis fizigi Maks Laue nomi bilan bog'liq. U 1912 yilda rentgen nurining kristallar fazoviy panjarasida joylashgan zarrachalar orasidan o'tayotib difraksiya (sinish) hosil qilishini aniqladi. Keyinchalik bu xususiyat asosida kristallarning ichki tuzilishini tekshirish usulini ishlab chiqdi. Shuning bilan u kristallarni tekshirishning va amaliyotda foydalanishning fundamental nazariy asosini yaratdi. Undan tashqari, bu kashfiyat E.S.Fedorovning kristallardagi moddiy zarrachalarning qonuniy joylashishi nazariyasini amalda tasdiqladi.

Kristallarning ichki tuzilishini rentgen nurlarida tadqiq etish usullari 1920 yildan rivojlana boshlandi. Kristallarning ichki tuzilishi modellarini yaratish, fazoviy panjaraning elementar shu'balarini aniqlash bilan jahon fiziklari, kimyogarları, geoglari shug'ullanma boshladi. Ayniqsa, qattingi jismlar fizikasi bilan shug'ullanuvchi olimlar va mutaxassislar yangi usullar va asboblar ixtiro qila boshladi. Buning natijasida XX asrning o'rtalariga kelib fonda ma'lum bo'lgan kristallarning va minerallarning

ichki tuzilishi modellari to'liq ishlanib chiqildi. Kristallarning ichki tuzilishini teksiradigan usullar takomillashtirilishi bilan bir qatorda million marta kattalashtirib ko'rsatadigan elektron, neytron mikroskoplari, rentgen mikrozondlari, elektron, paramagnit rezonanslari kabi yangi zamonaviy asbob-uskunalar yaratildi.

Shuning asosida bugungi kunda kristallografiya va kristallokimyo fan sifatida shakllandi va rivojlandi. Kristallarning va minerallarning ichki tuzilishini to'g'ri aniqlash ularning kimyoviy formulalarini to'g'ri yozishga va eng muhimmi to'rt mingdan ortiqroq minerallarning va ularning turlarin-ing tasnifini aniqrqoq tuzishga asos bo'ldi.

Bu borada rus olimlaridan A.V.Shubnikov, N.V.Belov, G.B.Bokiy, O.M.Ansheles, A.S.Povarenix, G.M.Popov, I.I.Shafranovskiy, V.A. Frank-Kamenetskiy, B.K.Vaynshteyn va boshqalar samarali ishlar olib borganlar.

2. KRISTALLARNING HOSIL BO'LISHI VA O'SISHI

Tabiiy va sun'iy kristallarning hosil bo'lishi va o'sishi (rivojlani-shi) sharoitlarini aniqlash katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Chunki, so'nggi paytlarda xalq xo'jaligida va texnikada ishlatiladigan optik, pezolelektrik, yarim o'tkazgichli xususiyatlariga ega bo'lgan kristallar tobora ortib bormoqda. Hozirgi kunda bunday kristallarni yetish-tirish ustida laboratoriyalar, maxsus ixtisoslashtirilgan ilmgochlari, yirik birlashmalar katta-katta ishlarni amalga oshirmoqda. Shunga qaramasdan oldindan bashorat qilingan xususiyatlari kristallarni etishtirish (o'stirish) hanuzgacha katta muammo bo'lib kelmoqda.

Lekin olimlarning izlanishlari natijasida vujudga keltirilgan, ajoyib xususiyatlari, texnikaning mushkul muammolarini hal qilishda qo'l kelayot-gan yangi kristallarni ham unutib bo'lmaydi. Masalan, tarkibiga xrom aralashgan korund (rubin), samariy aralashgan flyuorit, samariy, tuliy, disproziy elementlari aralashtirilgan grossulyar kristallari lazer va mazer nurlari manbayi bo'lib xizmat qilmoqda. Bu nurlar tibbiyotda, kosmik kemalar bilan aloqa o'rnatishda ishlatiladi. Bundan tashqari, metallarning va qotishmalarning sifatlari ularning sovib kristallanish (qotish) sharoitiga, ular tarkibidagi metall atomlarining o'zaro birikish xususiyatlariga bog'liq. Shuning uchun, domna pechkalarida suyultirilgan metallning kristallanishi metallshunoslarni qanchalik qiziqtirsa, tabiiy kristallarning paydo bo'lishi,

o'sishi ham geologlarni shunchalik qiziqtiradi. Ular tog' jinslari orasidagi kristallarga ko'zları tushsa, albatta sinchiklab teksxiradilar.

2.1. Kristallarning hosil bo'lish sharoitlari. Kristallar oddiy sharoitda suyuqlik eritmalarining, yer qa'rida joylashgan yuqori haroratli magmatik eritmalarining, gazlarning sovib qotishidan, amorf holatdagi moddalarning kristallanishidan, qattiq jismlarning qaytadan kristallanishidan hosil bo'ladi.

Oddiy sharoitda kristallarning suyuqlikdan hosil bo'lishiga, suvning yaxlab muzga aylanishi misol bo'la oladi. Osh tuzi (NaCl) mis kuporosi ($\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$) va boshqa tuzlarning to'yingan eritmalaridan ham shu tuzlarning chiroyli kristallarini olish mumkin. Suv o'tlaridan va gazlardan ham kristall hosil bo'lishi mumkin. Suv bug'larining sovib qotishi natijasida derazalarda turli shakldagi muz kristallari vujudga kelgani kabi vulqondan ajralib chiqqan gazlar ham sovib uning krateri devorida mayda oltingugurt, nashatir va boshqa minerallarning kristallarini hosil qiladi.

Bizga ma'lumki, amorf holatdagi qattiq jism vaqt o'tishi bilan kristallik xususiyatiga ega bo'lgan jinsga o'tadi. Masalan, toza amorf holatdagi oyna vaqt o'tishi bilan asta-sekin kristallanib xira sariq rangga o'tadi. Granit bilan ohaktosh tutashgan joyda (kontaktda) mayda (0,01-0,02 mm) ohaktosh donachalari sovib qotayotgan magmaning taftidan qizib, qaytadan kristallanadi, marmarga aylanadi. Mayda ko'z ilg'amas ohaktosh donachalari bir-biriga qo'shilib yirik (0,5-3,0 sm) yoki ko'p tomonli (poliedrlar) donachalar hosil qiladi.

Hozirgi vaqtida geologlar kristallanish bilan bog'liq bo'lgan tabiatda ko'p uchraydigan metasomatoz jarayoniga katta ahamiyat bermoqdalar. Tog' jinsidagi birorta mineral tashqi muhit ta'sirida o'zgarib boshqa mineralga aylanishiga metasomatoz jarayoni deyiladi. Oldin hosil bo'lgan mineralning o'zgarib yangi mineralga aylanishi bir vaqtning o'zida sodir bo'lganligi uchun tog' jinsi o'zining qattiq jinslik holatini va yaxlitligini saqlab qoladi.

Bundan tashqari, domna pechlarda yuqori haroratda suyuq holatga aylangan metall eritmasining sovib qotishidan (kristallanishidan) metall (temir, alyuminiy, volfram va boshqalar) kristallari paydo bo'ladi. Bu kristallar fazoviy panjarlaridagi metall atomlarining o'zaro joylashishlari, fizik-mexanik xususiyatlari, metall eritmasining sovitilishi va kristallanishi jarayoniga bog'liq.

2.2. Kristallarni laboratoriya sharoitida hosil qilish usullari. Eng osoni kristallarni oddiy to'yingan eritmada o'stirish. Eritmaning

to'yinganini aniqlash ham murakkab emas. Faqat shuni esda tutish kerakki, aniq hajmdagi erituvchida muayyan harorat va bosimda qattiq jismlar eriy boshlaydi (to'yinmagan eritma). Erish ma'lum me'yorga yetgandan so'ng to'xtaydi. Bu esa to'yingan eritma hosil bo'lganligidan dalolat beradi. Bunday eritma isitilib, unga yana o'sha qattiq jism solinsa, erish ma'lum vaqtgacha davom etib, suyuqlikda shu eriyotgan moddaning mayda kristallari paydo bo'la boshlaydi. Bu holat eritmaning o'ta to'yinganligini ko'rsatadi. Lekin kristalchalarining cho'kmaga tushishi tezlashsa, yaxshi shakllangan kristallar hosil bo'la olmaydi. Shuning uchun to'yingan eritmani o'ta to'yinganga o'tkazish, ya'ni kristallanish jarayonini ehtiyyotlik bilan sekin-asta olib borish lozim.

Eritmadagi zarrachalarning miqdori ko'payishi yoki harakatlari ning sekinlashishi natijasida zarrachalar bir-birlari bilan birikishib, avval mayda ko'z ilg'ammas kristalchalar («kurtaklar») hosil qiladi. Keyinchalik ular o'sib yirikroq, ko'zga tashlanarli kristallarga aylanadi. Mana shularni laboratoriya sharoitida suvli eritma'dan sun'iy kristallar olish misolida ko'rshimiz mumkin. Uning uchun dastavval kristallni hosil qilish zaruriyati tug'ilgan tuzni (qattiq jismni) havonchada maydalab, undan ma'lum miqdorini tarozida tortib olinadi. Tayyorlangan tuzni maxsus stakanga solib, menzurkada o'lchab, kerakli miqdorda suv quyiladi. Tuz va suv solingen stakanning og'zi yumaloq yoki to'rtburchak shakldagi oyna bo'lakchasi bilan bekitilib, tuzning erishini tezlashtirish maqsadida qizdiriladi. Shunday usul bilan tayyorlangan critma sovganidan so'ng filtr qog'ozdan o'tkaziladi. Undan o'tgan suyuqlikni tagi keng, baland bo'limgan kristallizator maxsus shisha idishga quyiladi. Kristallizatorda eritma bug'lanib, asta-sekin soviydi. Uning shakli va sathining kattaligi sovish jarayonini tezlashtiradi. Kristallizatorda turib eritmaning bug'lanishi va sovishi natijasida avval to'yingan, so'ng o'ta to'yingan eritma yuzaga keladi. Shuning bilan bir qatorda kristallizatorda mayda kristall zarrachalari cho'kmaga tusha boshlaydi hamda vaqt o'tishi bilan kattalasha boshlaydi. Undan keyingi kuni shu yo'l bilan yangidan eritma tayyorlab boshqa kristallizatorga quyish lozim. Oldingi kristallizatordan yaxshi rivojlangan bitta kristallni olib, ikkinchi kristallizatordagi eritma ichiga tushirib, hajmi kamaygandan so'ng uni yangilash lozim. Eski eritmani to'kib, uning o'miga yangi tayyorlanganini qu'yish, bitta yoki bir nechta kristallarni olib yangi eritmaga tushirib, qo'yish maksadga muvofik. Shunday qilib bir necha marta takrorlansa, kristall o'sadi, kattalashadi. Bundan tashqari, yirik, yaxshi shakllangan kristallar vu-


judga kelishi uchun eritma tagida, cho'kma holida yotgan kristallni har kuni ag'darib pastki tomonini yuqoriga qaratib qo'yish yoki bu kristallni ham ipga bog'lab osib qo'yish kerak.

2.3. Kristallarning hosil bo'lishi haqidagi nazariyalar. Oddiy suvli eritmani yoki yuqori haroratlari magmatik eritmani, bundan qat'iy nazar ularning harorati pasayib-sohib, undagi modda zarrachalari (ionlari, atomlari va molekulalari) harakatlari sustlashib, manfiy va musbat zarrachalari o'zaro tortishib bir-biriga qo'shiladi. Dastavval bir o'lchamli, keyinchalik ikki o'lchamli ko'z ilg'amas mayda «kurtaklar» paydo bo'ladidi. A.A.Kitaygorodskiy «kurtak» o'miga «kristallitlar» deyish maqsadga muvofiq degan fikri bildirdi. Chunki «kristallitlar»da bo'lajak kristallning shakli ma'lum darajada shakllangan bo'ladidi.

A.S.Uklonskiy mulohazasi ham shunga yaqinroq bo'lib, «kurtak»larni «protokristallar» deb yuritish kerak degan taklif kiritdi. U «protokristall» tushunchasida bo'lajak kristallning elementar fazoviy panjarasining vu-judga kelishini nazarda tutadi. Protokristallarning o'zaro tutashishi natijasida kristall tomonlari o'sadi, yiriklashadi. Qanday nom bilan atalishidan qat'iy nazar, yirik kristallarning yuzaga kelishida «kurtak»lar asosiy rolni bajarishi aniq. Chunki keyinchalik ular kristallanish markazi bo'lib astasekin o'sib yirik kristallarga aylanadi. «Kurtak»larning hosil bo'lishi, rivojlanishi haqida olimlar ko'p tajribalar o'tkazganlar, tinimsiz izlanishlar olib borganlar. Bu haqida ko'plab nazariyalar yoritilgan.

Ruaye-Fidel (1928-1935), Kossel-Stranskiy (1927 1928), Hartman (yoki Gartman, 1967) nazariyalari va gipotezalari shular jumlasidandir. Bulardan Kossel-Stranskiy va Hartman nazariyalari va gipotezalari bir-biriga yaqin bo'lib, kristallarning o'sishi, zarrachalar (ionlar, atomlar, molekulalar) kinetikasiga (energiyasiga) asoslangan. Bularning fikricha, kristallning barcha tomonlari bir maromda o'smaydi. O'sayotgan kristall eritmadiagi zarrachalarni qaysi tomonga, qanday tartibda o'ziga tortib olishiga bog'liq. Bu esa, o'z navbatida, o'sayotgan tomonlarning ichki energiyasiga bog'liq. Birinchi navbatda ichki energiyasi ko'proq, undan so'ng kamroq bo'lgan tomon eritmadiagi zarrachalarni o'ziga tortib qo'shib oladi. Natijada tomonlar va qirralar notekis o'sadi. 5-rasmida rivojlanayotgan kristall A tomoniga parallel yangi B qavatning (tomonining o'sish jarayoni modeli keltirilgan). Raqamlar bilan eritmadiagi zarrachalarni qo'shilishi mumkin bo'lgan uchta nuqtasi aks ettilrilgan. Bulardan I raqami bilan ko'rsatilgan maydondagi (1) burchak hosil qilib tutashgan uchta

tomonlar birinchi bo'lib, eritmadiagi zarrachalarni o'zlariga tortib olish qobiliyatiga ega. Chunki bu maydonlarda 2 va 3 maydonlarga nisbatan maksimal energiya mavjud. Shuning uchun zarrachalarni uch yo'naliishda tortib olish kuchiga ega.



5-rasm. O'sayotgan kristall tomonlariga zarrachalarning qo'shilish holatlari (1.2)

Undan so'ng zarrachalar ikkinchi yo'naliish (2) maydonidagi tomonlarga ikki yo'naliish bo'yicha, uchinchi (3) maydondagi tomonga bir yo'naliishda qo'shiladi. Shunday qilib, zarrachalarning tortilishi o'sayotgan B qavatni (tomonini) batamom to'ldirgandan so'ng, uning ustiga joylashadigan navbatdagagi S qavati o'sa boshlaydi. Bu qavatning o'sishi uchinchi (3) maydondan boshlanadi. Bunday jarayonning tinimsiz takrorlanishi natijasida yirik kristallar vujudga keladi. Qavatlar qalinligi kristall ichki tuzilishida qatnashayotgan zarrachalar radiuslariga, tomonlariga zarrachalarning o'zaro bog'lanish turlariga, zinch joylashishiga, kristallanish tezligiga va boshqa omillarga bog'liq.

2.4. Kristallarni hosil qilishdagi usullar. Yuqorida bayon qilingan suvli eritmaning kristallanishidan tashqari, yirik bir jinsli kristallarni boshqa usullar bilan hosil qilish mumkin. Misol tariqasida, korund va kvarsun'iy kristallarini o'stirish jarayonini qisqacha tasvirlaymiz.

Korund (Al₂O₃). Korundning qizil rangli – rubin va havorangli – sifir nomlari bilan atalgan turlari qadim zamonlardan buyon kamyob, qimmatbaho tosh sifatida qadrlangan. Ular asosan bezak anjomlarini tayyorlashda ishlataligan. Keyingi vaqtarda ularning chirolyi ko'rinishi, nafis yaltiroqligi bilan bir qatorda qattiqliklariga ham e'tibor berila boshlandi. Ayniqsa, korund va rubin soatsozlikda, aniq o'lchash asboblari, filtrlar tayyorlashda keng ko'landa ishlatilmoqda. Yaqinda rubindan tayyorlangan mayda tayoqchalar maxsus sharoitda tarqoq nurlarni bir nuqtaga to'plab muayyan yo'naliishli nurlarga aylantirish xususiyatiga ega ekanligi aniqlandi. Bu nurlar kosmik kemalar bilan aloqa bog'lashda ishlatilmoqda. Bugungi kunda korund va rubin sun'iy kristallarini hosil qilish sanoatda yaxshigina yo'lga qo'yilgan. Korundi sun'iy usul bilan hosil qilish jarayoni quyidagilardan iborat. Alyumoammoniy tarkibli achchiqtoshni 1000°S dan yuqoriroq haroratda qizdirib Al₂O₃ uni (upasi) tayyorlanadi. Shundan keyin bu unga rang beruvchi moddalardan (qizil rangga bo'yov-

chi xrom oksidi) aralashtiriladi. Aralashma o'tga chidamli materialdan ishlangan plastinka ustiga qo'yilib maxsus asbob-uskunalar yordamida gaz alangasiga (2000°S) tutiladi. Aralashma to'xtovsiz ketma-ket kelib turishi, yuqori harorat ta'siri natijasida erib, konus shaklidagi qotishmaga aylanadi. Bu konusning choqqisida kristall kurtaklari hosil bo'lib, asta-sekin yiriklashib konus korund buliyasiga o'tadi.

Tekshirishlar natijasida korund buliyasining tashqi qismi xira rangli, murakkab shaklli, mayda korund kristallari bilan qoplanganligi aniqlanadi. Uning ichki qismi toza, yaxlit, bir jinsli korund kristalidan iborat ekanligi ma'lum bo'ldi. Murakkab tuzilishga ega bo'lgan korund kristall shakliga ega bo'limganligi uchun uni maxsus usullar bilan o'rghanish kerak.


Kvars (SiO_2). Hozirgi zamонави техника тараqqiyотидаги квартснинг табиий кристаллари кatta амалий аhamiyатга eга. Asbob-uskunalar ishlab chiqarish, radiotexnika, амалий оптика, тиббиётда бу минерал кристаллари кeng ishlatiladi. Kvars tabiatda keng tarqalgan minerallardan biri. Kvarsнing табиий кристалларидаги ко'пгина nuqsonlar mavjud. Улар ко'pincha yakka kristall bo'imasdan, murakkab qo'shaloqlar tarzida hosil bo'лади. Uning кристалларидаги begona mineral aralashmalari darzlar, suyuqlik va gazlar bilan to'ldirilgan g'ovaklar va boshqa defektlar kristall sifatini pasaytiradi. Yuqorida keltirilgan sohalarning kristallarga bo'lgan talabiga javob bera olmaydi. Shuning uchun o'tgan asrdan boshlab kvars kristallarini sun'iy hosil qilish borasida tajribalar o'tkazila boshlandi. Bu muammoni hal qilishdagi to'liq muvaffaqiyat yaqindagina qo'lga kiritildi.

Kvars kristalini hosil qilish maxsus po'latdan ishlangan, katta bosimga (2000 atm) va $200-500^{\circ}\text{S}$ haroratga bardosh bera oladigan avtoklavlarda – maxsus idishlarda o'stiladi. Avtoklavning pastki qismiga kvars parchalari solinadi va ishqorli suv quyiladi. Ishqorli suv katta bosim ostida $200-500^{\circ}\text{S}$ haroratda qizdirilgandan so'ng pastdagи kvars parchalarini eritib o'ziga qo'shib oladi hamda avtoklavning yuqorisov uquq tomoniga harakat qiladi. Bu joyga toza nuqsonsiz kvars kristallaridan kesib olingan plastinka osib qo'yiladi. U esa kristall o'sishi uchun «kurtak» vazifasini bajaradi. Pastdan ko'tarilgan suyuqlik, sovib o'ta to'yigan eritmaga aylanadi. Eritmadagi kremnezem kvars plastinkasi atrofiga o'tiradi. Natijada plastinkada kvarsнing yangi qavati paydo bo'лади. Sovigan suyuqlik qaytadan avtoklavning pastki qismiga tushib qiziydi, yana kvars parchalarini eritib yuqoriga ko'tariladi. Mana shunday jarayon cheksiz ravishda takrorlanadi. Kvars plastinkasi toza, yirik sun'iy kristallga aylanadi.

3. KRISTALL TOMONLARI, QIRRALARI VA CHO'QQILARI ORASIDAGI QONUNIYATLAR

3.1. Tomonlar orasidagi burchaklar turg'unlik qonuni (Steno qonuni). Kristall tomonlarining o'sish tezligi uning shakli, shu kristall rivojlanayotgan fizik va kimyoviy muhitga, haroratga, bosimga, eritmadagi moddalar konsentratsiyasiga va boshqa omillarga ko'ra, har xil bo'lishi mumkin. Tabiatda shunday bir xil moddalar, birikmalar borki, ular paydo bo'lish muhitga qarab bir-biriga o'xshamaydigan geometrik shakldagi kristallar hosil qiladi. Masalan, kvars va gematit kristallari turli shaklda uchraydi. Mana shunday kristallarni sinchiklab tekshirib, tomonlari orasidagi burchaklarni o'lchab daniyalik olim N. Steno (1638-1687) 1669 yili jahonda birinchi bo'lib, undan keyin M.V. Lomonosov 1749 yili selitra kristallari misolida bir xil modda kristall shakllarining mos tomonlari orasidagi burchaklar qiymati turg'un, o'zgarmas qiymatga ega ekanligini aniqladilar.

Fransiyalik olim J. Rome-Delil (1736-1790) bu qonunni umumlashtirdi. Juda ko'p birikmalar kristallarining burchaklarini o'lchadi. Buning uchun u shogirdi Karanjo tomonidan kashf etilgan maxsus asbob goniometrдан [Gonia (grek.) – burchak, metriya – o'lchash] foydalaniб, kristallar tomonlari orasidagi burchaklarni aniq o'lchadi. Olingan ma'lumotlar N. Stenoning xulosasini tasdiqladi. Hozirgi kunda bu Steno-Lomonosov-Rome-Delil qonuni deb yuritiladi. Bu qonunning umumiylarini shunday ifodalash mumkin. Bir xil modda kristallarining o'xshash tomonlari (qirralari) orasidagi burchaklar qiymati turg'un (o'zgarmas son).



6-rasm. Burchaklarning turg'unlik qonunini isbotlovchi kvars kristallari
(Rome-Delilning «Kristallografiya» kitobidan olingan, 1783).

Yuqorida ko'rsatilganidek, bir xil moddaning kristallari hosil bo'lish sharoitiga qarab tomonlarining ko'rinishi va katta-kichikligi har xil bo'lishi mumkin. Lekin ularning o'xshash (bir xil) tomonlari orasidagi burchaklar qiymati o'zgarmaydi. 6-rasmida kvarsning bir necha shakli ko'rsatilgan. Bir xil harflar bilan o'xshash tomonlari ifodalangan. Kvarsning barcha kristallaridagi o'xshash tomonlari orasidagi burchaklarning qiymatlari turg'un bo'lib, quyidagilardan iborat: ab=141°47'; as=113°08'; bs=120°00 va h.k.


Bir xil modda kristallari burchaklarining turg'unlik qonunini ularning ichki tuzilishi asosida tushuntirish mumkin. Ularning ichki tuzilishlari aynan birdek bo'ladi, bir singoniyada kristallanadi. Bir xil tarkibli modda kristallining bir-biriga mos keladigan tomonlari shu kristall fazoviy panjarasining turli tekisligiga to'g'ri keladi. Shuning uchun ular orasidagi burchaklar turg'un o'zgarmas qiymatga ega. Uning qirralari ham fazoviy panjara qatorlariga mos tushadi.

Bularning barchasini hisobga olgan holda, bu qonunning bugungi kungi ifodasi quyidagicha: moddalarning muayyan sharoitida hosil bo'lgan bir xil modifikatsiyali kristall shakllaridagi mos tomonlarining (qirralaring) katta-kichiklididan qat'iy nazar ular orasidagi burchaklar o'zgarmas (turg'un) qiymatga ega. Bu qonun tarifidagi muayyan va modifikatsiya so'zlariga e'tibor berish lozim. Chunki har xil sharoitda (harorat, bosim o'zgarishlari) paydo bo'lgan modda kristallining ichki tuzilishi, ya'ni zarrachalar oralig'idagi masofa o'zgarishi mumkin. Lekin u tomonlar orasidagi burchaklarga ta'sir qilmaydi. Bu o'zgarishlar shu darajada kichkinaki (10-8 sm), amaliyotda unga e'tibor bermasa ham bo'ladi.

Bir xil tarkibli modda kristallining ichki tuzilishi va kristall shakli har xil bo'lsa, unga shu moddaning polimorf modifikatsiyasi (turi) deyi-ladi. Masalan, kvarsning ko'pgina polimorf modifikatsiyalari ma'lum. Shularidan geksagonal singoniyada kristallanadigan modifikatsiyasini α – kvars, kub singoniyasi – kristobalit deb ataladi. Tarkiblari birdek bo'lishiga qaramasdan kristallarning ichki tuzilishlari va shakli har xil. Kristobalit va α – kvars, kvarsning polimorf modifikatsiyasi hisoblanadi. Burchaklar turg'unlik qonuni kristallografiyaning birinchi va eng muhim qonuni bo'lib, u katta amaliy ahamiyatga ega. Har bir modda o'ziga xos kristaliga va uning tomonlari orasidagi burchaklariga ega. Shunday ekan bu qonunga binoan kristall shakllarining mos tomonlari orasidagi burchaklarining qiymatlariga qarab ularning qanday modda (mineral) kristali ekanligini aniqlash mumkin.

XVIII asrda Karanjo tomonidan kristallar mos tomonlarining orasidagi burchaklarini aniq o'lchaydigan goniometr asbobini kashf etilishi ham mana shu qonun bilan bog'liq. Bu oddiygina asbobning ko'rinishi 7-rasmida keltirilgan. K harfi bilan teksxirayotgan kristall ifodalangan bo'lib, u ikkita kichkina AV va SD lineykalari orasiga joylashtirilgan. Kristall burchagini qiymati SD lineykasiga biriktirilgan trasportirda AV lineyka-si ko'rsatgan raqamlar bo'yicha aniqlanadi. Karanjo goniometring o'lhash aniqligi pastroq bo'lganligi uchun (xatosi $0,5^\circ$ ga teng) so'nggi yillarda burchaklar qiymati nur qaytarish asosida kashf qilingan goniometr yordamida o'lchanmoqda.

Burchaklarning qiymatlarini o'lhashdan olingan ma'lumotlar kris-tallardagi geometrik qonuniyatlar yuzaga chiqarishda muhim rol o'ynaydi. Goniometrik tadqiqotlardan olingan ashyoviy dalillar va simmetriya haqidagi nazariy ta'limotlarni rivojlantirishga asos bo'ldi. Bu qonuniyatning amaliy ahamiyati shundan iboratki, kristall shakllarining mos tomonlari orasidagi burchakka qarab, ularning tarkibini aniqlash mumkin. Bunday usul rus olimlari tomonidan ishlab chiqilgan va maxsus qo'llanma-aniqlovchi tuzilgan.



7-rasm. Karanjo goniometri.

Bunday aniqlovchilar ko'p vaqtini oladigan va katta harajat talab qiladigan kimyoiy tahlillar o'tkazmasdan kristallning tarkibini, qaysi mineral kristali ekanligini aniqlash imkoniyatini beradi. Kristallarning tarkibini va ichki tuzilishini chuqurroq va aniqroq o'rganadigan usullar yaratilganidan so'ng kristallar goniometriyasi amalda kamroq qo'llaniladigan bo'lib qoldi.

3.2. Tomonlar orasidagi burchaklar turg'unlik qonunidan chetlashish. Burchaklar turg'unlik qonuni to'g'ri shakllangan tekis tomonlarga va to'g'ri qirralari mavjud bo'lgan kristallar uchun mos keladi. Lekin har xil defektli kristallarda bu qonundan chetlashish (bo'yusunmaslik) hollari ham kuzatiladi. Kristallardagi bunday holat paydo bo'layotgan vaqtidagi tashqi muhitning ta'siri ostida ro'y beradi. Bunga hosil bo'lgandan so'nggi, erib-yemirilib, tomonlari yumshab, qirralari qiyshayib qolgan kristall shakllari va mexanik deformatsiya natijasida qayrilgan hamda yassilangan kristallar ham taalluqli. Shuning bilan bir qatorda kristall ichki tuzilishi qavatlarining buzilishi va tomonlari sathidagi har xil

notekisliklar, zinapoya ko'rinishida joylashgan yupqa qatlamlar ham bu qonuniyatdan chetlashishga olib keladi.

Tomonlar yuzasidagi notekisliklarning ko'payishi natijasida ular orasidagi burchaklar qiymati o'zgaradi. Tomonlardagi bunday notekisliklar vitsinallar (vitsinal – lotincha qo'shni demakdir) tekis tomonga nisbatan uning ustida joylashgan notekisliklarga qo'shni degan ma'noda) deyiladi. Ular asosan kristall hosil bo'layotgan paytda tashqi muhitning ta'siri natijasida yuzaga keladi.

3.3. Kristallarning tomonlari, qirralari va cho'qqilarini mutanosibligi haqidagi Eyler-Dekart formulasi. Kristallarning ajoyib xususiyatlaridan yana biri ularning tomonlari, qirralari va cho'qqilarini orasida mavjud bo'lган узви bog'lanishdir. Tomonlar tutashgan joyda qirralar, qirralar qo'shilgan nuqtada cho'qqilar yuzaga keladi. Ko'pqirraliklar (kristallar) shakllarining umumiyo ko'rinishi shu tomonlarning, qirralarning va cho'qqilarning miqdori va bir-biriga nisbatan joylashishiga bog'liq. Ular o'rtasida uzviy bog'lanish mavjud bo'lib, uni Eyler-Dekart formulasi bilan ifodalanash mumkin:

$$\text{Tomonlar soni} + \text{cho'qqilar soni} = \text{qirralar soni} + 2.$$

Agar tomonlar sonini «a», cho'qqilar sonini «b» va qirralar sonini «s» harflari bilan belgilasak, Eyler-Dekart formulasi qo'yidagicha ifodalanadi: $a+b=s+2$

Masalan, barchaga ma'lum kub shakli 6 ta to'rburchak shaklidagi tomonlardan, 12 ta qirralardan va 8 ta cho'qqilardan iborat. Eyler-Dekart formulasi bo'yicha: $6 + 8 = 12 + 2$

$$14 \quad 14$$

Hosil bo'lish sharotlarining ta'siri natijasida ba'zan kristallar tomonlarining sathi doira, ellips shakllarida ham bo'lishi mumkin.

4. KRISTALLAR SIMMETRIYASI

4.1. Umumi tushuncha. Kristall shakllarining bir-biridan farqini aniqlashda ularning umumi shaklidan tashqari simmetriyalı tuzilishi katta yordam beradi. «Simmetriya» grek tilida teng, o'xshash demakdir. Simmetriya tushunchasiga kengroq ma'noda qaraydigan bo'lsak, kundalik turmushimizda uchraydigan har bir narsada ko'rishimiz mumkin. Masalan, kapalak va qushlar qanonlari juft bo'lib, bir-biriga teng va o'xshash bo'lib simmetrik holda joylashgan.

Simmetrik shakllar ham qonuniy ravishda takrorlanadigan teng, o'xhash qismlardan iborat bo'ladi. Xulosa qilib aytganda simmetriyalı shakllar tushunchasining tub negizida teng va o'xhash qismlar nazariyasi yotadi. Demak, **bir-biriga teng va o'xhash qismlardan iborat bo'lgan shakllarni simmetriyalı shakllar deyiladi**. Simmetriya tushunchasining geometrik ifodasi quyidagidan iborat: agar birinchi shaklning har bir nuqtasiga to'g'ri keladigan nuqtalar ikkinchi shaklda ham bo'lsa va birinchisining nuqtalarini oralig'i ikkinchi shakldagi shunga mos keladigan nuqtalar oralari teng bo'lsa bunday ikkita shakl o'zaro teng – simmetriyalı shakl deyiladi.


Elementar geometriya tushunchasi bo'yicha ikkita bir-biriga teng shaklni o'zaro jipslashtirganda ularning barcha nuqtalari bir-biriga mos kelsa, ular simmetriyalı shakllar hisoblanadi. Kristallografiyada esa, teng shakllar o'zaro mos bo'lishidan tashqari, ulardan biri ikkinchisining oynadagi aksidek bo'lishi shart.

Agar bu shaklning o'zi o'xhash va teng mos bo'laklardan iborat bo'lsa, uning o'zi simmetriyalı shakl bo'la oladi. Shaklning qismlari orasidagi mana shu teng va o'xshashlikni geometrik vositalalar yordamida tasavvur qilish mumkin. Buni tasavvur etishda qo'llanadigan geometrik vositalar – simmetriya elementlari deyiladi.


4.2. Cheklangan kristall shakllarining simmetriya elementlari. Kristallarning shakli bilan ichki tuzilishi o'rtasidagi uzbek bog'lanish borligini ta'kidlab o'tgan edik. Shulardan kristallar ko'zga ko'rinishdigan qirralar va cho'qqilar bilan chegaralangan makroshakllar bo'lganligi uchun ularni cheklangan geometrik shakllar deyiladi. Ikkinchisi kristallarning ichki tuzilishida qatnashadigan ko'zga ko'rinishmaydigan cheksiz ravishda bir-biri bilan tutashgan elementlar shu'balar (VII bob) shakllarini (mikroshakllarni) cheksiz geometrik shakllar, deb yuritiladi.

Biz bu yerda faqat cheklangan geometrik shakllar simmetriya elementlari bilan tanishamiz. Kristall o'xhash, teng qismlardan iborat bo'lgan cheklangan geometrik shakl. Bu o'xshashlikni, tenglikni simmetriya elementlari vositasida isbotlash mumkin. **Berilgan shaklning simmetriyasini aniqlash uchun ishlataladigan qo'shimcha geometrik vositalarga (nuqta, tekislik, to'g'ri chiziq) simmetriya elementlari deyiladi**. Agar kristall simmetriyasi nuqtaga nisbatan aniqlansa, u inversiya markazi, tekislikka nisbatan aniqlansa – simmetriya tekisligi, to'g'ri chiziqqa nisbatan aniqlansa simmetriya o'qi deb ataladi.

Inversiya markazi. Inversiya markazi eng oddiy simmetriya elementi bo'lib, u kristall shaklining ichida – markazida joylashgan nuqta. Inversiya markazi «S» harfi bilan belgilanadi. Bu tushuncha geometriyada ham ma'lum. Masalan, parallelogramm diagonallarining kesishgan nuqtasi inversiya markazi bo'ladi (8, 9-rasm). Bu nuqtaning ustidan o'tkazilgan har bir to'g'ri chiziqda shu nuqtaning ikkala tomonida bir xil masofada joylashgan nuqtalar mavjud, ya'ni $MC=M1C$. Bunday nuqtalar kristallda ham bor. Biz uni inversiya markazi, ya'ni qarama-qarshi tenglik markazi deb ataymiz.



8-rasm. Parallelogramming diagonallari kesishgan nuqta- inversiya markazi S.




9-rasm. Parallelopipedning inversiya markazi S

Inversiya markazi kristall shakl ichida joylashgan maxsus nuqta bo'lib, uning ustidan o'tkazilgan har bir to'g'ri chiziqda shu nuqtaning ikkala tomonida teng masofada joylashgan bir-biriga o'xshash, teng nuqtalari bo'ladi. Mana shunday shartga javob bera oladigan nuqtani kristall inversiya markazi deya olamiz. Demak, kristallning markazidan bir tomonda, ma'lum uzoqlikda joylashgan cho'qqilarini, qirralari va tomonlari bo'lsa, ikkinchi unga qarama-qarshi tomonida ham ularga o'xshash teng, markazdan bir xil uzoqlikda joylashgan cho'qqilar, qirralar va tomonlar bo'lishi shart. Masalan, berilgan parallelopipedning S nuqtasi (markazi) yordami bilan undagi bir xil, teng masofada, qarama-qarshi tomonlarida joylashgan cho'qqilarini topish mumkin (9-rasm). Buning uchun A nuqtasi bilan S nuqtasini va S bilan A1 ni birlashtiramiz. Natijada bir-biriga teng, S nuqtasidan bir xil masofada joylashgan AS va SA1; kesmalari yuzaga keladi. A nuqtasi markazning bir tomonida joylashgan cho'qqi bo'lsa, A1 qarama-qarshi tomonda joylashgan teng va o'xshash cho'qqidir. Shuning uchun $A1C=AC$. Topilgan A1 nuqtasi, S orqali aniqlangan A nuqtasining oynadagi aksi bo'lib ko'rindi.

Bundan amaliy ahamiyatli muhim xulosa chiqadi. Inversiya markazli kristallarning har bir tomonlarida teng va parallel joylashgan ikkinchi tomoni bo'lishi shart. Boshqacha qilib aytganda kristallarda teng va parallel tomonlar mavjud ekan, unda albatta inversiya markazi bo'ladi.

Bundan tashqari, o'xshash tomonlar o'zaro teskari holda parallel joylashgan bo'lishi mumkin. Bunga AVD uchburchagi bilan unga parallel bo'lgan A1B1D1 uchburchagi misol bo'la oladi (10-rasm). Ular inversiya markazi orqali bog'langan bo'lishiga qaramasdan bir-biriga nisbatan teskari joylashgan.

Amaliyotda kristall shakllarida parallel tomonlar borligini aniqlash uchun uning bir tomonini stol ustiga qo'yiladi. Agar unga parallel tomon bo'lsa, demak, bu kristallda inversiya markazi mavjud. Lekin bunday tekshirishni har bir qarama-qarshi tomonlar uchun o'tkazish muqarrar. Agar kristallning bitta tomoniga qarama-qarshi teng tomon bo'lmasa, u holda S yo'q degan xulosa chiqariladi. Umuman, kristallarda faqat bittasigina inversiya markazi bo'lishi mumkin.




10-rasm Inversiya markazi orqali bog'langan ikkita uchburchakli shaklning teskari parallelligi.

Buning uchun u shaklning har bir nuqtasidan (A , V , D) tekislikka (R), A_1 , V_1 , D_1 perpendikulyarlarini o'tkazamiz; L , M , n nuqtalarini A_1 , B_1 , D_1 kesmalariga teng masofada joylashgan A_1 , B_1 , D_1 kesmalariga teng masofada joylashgan A_1 , V_1 , D_1 nuqtalarini topamiz. Ko'rinish turibdiki, hosil bo'lgan $A_1B_1D_1$ shakl o'zining ABD shakl bilan teng, o'xshash hamda biri ikkinchi-sini takrorlaydi. Shuning bilan birga $AV=A_1B_1$; $BD=B_1D_1$. Simmetriya tekisligini topish uchun kristall markazidan xayolan tekislik o'tkazamiz. Bu tekislik kristallni ikkita bir-biriga oynadagi aksidek teng, o'xshash qismiga ajratadi. Kristallanish o'ng qismidagi barcha nuqtalari, chap qismidagi shunga o'xshash nuqtalar bilan mos kelishi kerak. Aksincha, chap tomondagи qismi o'ng tomondagи qismini takrorlashi shart. Shundagina bu ikkita qism o'zaro simmetrik joylashgan shakl deb atalishi mumkin. Kristallda simmetriya tekisligining soni birdan to'qqizgacha bo'ladi.


4.3. Simmetriya tekisligi. Simmetriya tekisligi deb, berilgan kristall shaklini teng, o'xshash va birinchi yarmi ikkinchi yarmining to'liq oynadagi aksi kabi bo'lgan, kristallni teng ikki qismga ajratadigan tekislikka aytildi. Simmetriya tekisligi R harfi bilan proksiyasini R tekisligiga tusxiramiz (11-rasm).

Buning uchun u shaklning har bir nuqtasidan (A , V , D) tekislikka (R), A_1 , V_1 , D_1 perpendikulyarlarini o'tkazamiz; L , M , n nuqtalarini A_1 , B_1 , D_1 kesmalariga teng masofada joylashgan A_1 , B_1 , D_1 kesmalariga teng masofada joylashgan A_1 , V_1 , D_1 nuqtalarini topamiz. Ko'rinish turibdiki, hosil bo'lgan $A_1B_1D_1$ shakl o'zining ABD shakl bilan teng, o'xshash hamda biri ikkinchi-sini takrorlaydi. Shuning bilan birga $AV=A_1B_1$; $BD=B_1D_1$. Simmetriya tekisligini topish uchun kristall markazidan xayolan tekislik o'tkazamiz. Bu tekislik kristallni ikkita bir-biriga oynadagi aksidek teng, o'xshash qismiga ajratadi. Kristallanish o'ng qismidagi barcha nuqtalari, chap qismidagi shunga o'xshash nuqtalar bilan mos kelishi kerak. Aksincha, chap tomondagи qismi o'ng tomondagи qismini takrorlashi shart. Shundagina bu ikkita qism o'zaro simmetrik joylashgan shakl deb atalishi mumkin. Kristallda simmetriya tekisligining soni birdan to'qqizgacha bo'ladi.




11-rasm. A , V , D nuqtalarining R tekisligidagi aksi.

To'g'ri burchakli ABDE to'rtburchakni olaylik (12-rasm). Uning tomonlariga parallel holda markazidan ikkita R va RI simmetriya tekisligini o'tkazish mumkin. Bu shaklning diagonali bo'yicha simmetriya tekisligini o'tkazib bo'lmaydi. Chunki bunday tekislikni o'tkazishda hosil bo'lgan ikkita bir-biriga teng uchburchak uchlari (A va D) har xil tekislikda joylashgan va ular biri ikkinchisining oynadagi aksini bera olmaydi. AED uchburchakning oynadagi aksi ABD uchburchagiga to'g'ri kelmaydi. Ular bir-biriga nisbatan simmetrik holatda emas. Shuning uchun bu to'rtburchakning diagonali bo'yicha simmetriya tekisligini o'tkazish mumkin emas. G'isht yoki gugurt qutisi shaklidagi kristalda o'zaro perpendikular ravishda joylashgan uchta simmetriya tekisliklari mavjud (13-rasm).



13-rasm. Gugurt qutisi shaklidagi kristalda o'zaro perpendikular ravishda joylashgan simmetriya tekisliklari.



12-rasm. a – ABDE to'g'ri burchakidan o'tadigan R va RI tekisliklarning izi; b – AD va BE to'g'ri chiziqlari shu to'g'ri burchaklining simmetriya tekisligi iziga to'g'ri kelmasligi.

Simmetriya tekisligini aniqlashdagi ba'zi bir amaliy ko'rsatmalar keltiramiz. Doimo yoddingizda bo'lsin, simmetriya tekisligi tomonlar o'rtasini va qirralarini kesib o'tadi, ularga perpendikular yoki qirralar bo'ylab joylashadi, bir xil tomonlarni va qirralarni kesib o'tish burchaklari birdek bo'ladi. Simmetriya kristallni bir xil vaziyatda tutib turish kerak. Chunki bitta simmetriya tekisligining o'zini adashib takror ikki marta hisobga qo'shib yuborish mumkin.

4.4. Simmetriya uchlari. Xayolan tanlangan to'g'ri chiziq atrofida kristall shaklining o'xshash va teng qismlari (tomonlari, qirralari va cho'qqilari) bir necha marta takrorlansa, bu to'g'ri chiziq shu shaklining simmetriya o'qi deb ataladi va L harfi bilan belgilanadi. Kristallning o'xshash va teng qismlari shunday joylashgan bo'lishi kerakki, ularni simmetriya o'qi atrofida 360° ga aylantirganda, kristallning o'xshash qismlari, ma'lum burchak tashkil etib burilgandan so'ng takrorlanib, aylantirishdan oldindi vaziyatga qaytish kerak. Oldindi o'xshash qismi o'miga ikkinchi xuddi shunday qismi takrorlanishi shart, ya'ni kristallning bir xil

qismlari o'z-o'zlar bilan o'rin almashib takrorlanadi. U yoki bu o'qlarni xarakterlash uchun shaklning bir xil qismlarining eng kichik takrorlanish burchagini aniqlab olish lozim. Shaklning o'xshash qismlari takrorlanishi orasidagi burchakni simmetriya o'qining elementar aylanish burchagi deyiladi va α (alfa) harfi bilan ifodalanadi.

Teorema. Har qanday simmetriya o'qi atrofida kristallni 360° ga aylantirganda hosil bo'lgan elementar aylanish burchagi yaxlit son 4 marta takrorlanadi.



14-rasm. Simmetriya o'qui 360° ga aylantirganda uning elementar aylanish burchagi (α) yaxlit sonlarning 4 marta takrorlanishi.

Masalan, elementar aylanish burchagi α ga teng bo'lgan simmetriya o'qi berilgan bo'lsin. Chizma tekisligiga perpendikular joylashgan O nuqtasi o'qning uchiga to'g'ri keladi (14-rasm). Chizma tekisligida yotgan qaysidir bir A1 nuqtani olaylik. Bu o'q atrofida α burchagi hosil qilib aylantirish natijasida shaklning bir xil tomonlari o'z-o'zi bilan o'rin almashishi kerak. A1 nuqtasi α qiymatiga ega bo'lgan burchak hosil qilgandan so'ng, o'ziga mos bo'lgan nuqta A2 bilan o'rin almashishi shart. Bu holatni takrorlab A1 ni A3 nuqtasiga o'tkazamiz. Bunday holatni A1 nuqtasi An holatini egallab, o'zining asl joyiga kelma-guncha takrorlaymiz. Bu yerda uchta holat bo'lishi mumkin:

- 1) $\angle A_n O A_1 = \alpha$; 2) $\angle A_n O A_1 > \alpha$; 3) $\angle A_n O A_1 < \alpha$.

Birinchi holatda teorema sharti qanoatlantirilgan. Ikkinci $\angle A_n O A_1 > \alpha$ uchun α burchagini hosil qilib aylantirishni yanada takrorlash kerak. Undan keyingi qolgan burchakni qoldiq burchak deb hisoblash lozim. Agar $\angle A_n O A_1$ burchagiga teng bo'lsa, birinchi holatni takrorlaydi, katta bo'lsa An nuqtasi A1 nuqtasi ustiga tushmasdan undan chap tomoniga o'tib ketadi. Demak, bizning $\angle A_n O A_1$ deb taxmin qilishimiz teorema shartiga to'g'ri kelmaydi.

Uchinchi holat $\angle A_n O A_1 < \alpha$ aniqlashda ham $\angle A_n O A_1$ uchburchak shaklini o'z atrofida aylantirganda An nuqtasi A1 nuqtasi ustiga tushmasdan hatto A1 nuqtasiga yetmasdan uning o'ng tomonida qolib ketadi. Shunday ekan bizning $\angle A_n O A_1 < \alpha$ deb qabul qilishimiz o'rinsiz. Chunki har qanday o'q atrofida 360° ga aylantirganda teng o'xshash tomonlar o'rin almashinishi kerak. $\angle A_n O A_1$ qiymati α ga teng. Shunday qilib, kristallni 360° ga aylantirganda burchagi n marta yaxlit son bo'lib takrorlanadi va simmetriya o'qining tartibini (darajasini) belgilaydi,

elementar takrorlanish burchagini qiyamatini ham aks ettiradi. Simmetriya o'qi darajasini (tartibini) noldan 360° gacha aylantirganda elementar burchakning necha marta takrorlanishi aks ettiradi. Ayni vaqtida o'qlar darajasi, shu o'q atrofida shaklni to'liq aylantirganda rasmlarning (tomon, qirra, cho'qqi) necha marta takrorlanishini ham ko'rsatadi. Geometrik shakllar uchun har qanday darajali o'qlar bo'lishi mumkin, birinchi darajali bo'lsa ($n=1$), elementar aylanish burchagi (α) 360° ga teng. Shunday ekan, har bir kristallni istagan yo'nalishda 360° ga aylantirganda tomonlari o'z-o'zi bilan so'zsiz o'rinn mashadi. Demak, har bir shakl cheksiz miqdordagi birinchi darajali o'q bo'lishi mumkin. Bunday o'qlar deyarli ahamiyatga ega emas. Shuning uchun u inobatga olinmaydi.

Cheksiz darajali o'qda ($n=\infty$) elementar aylanish burchagi cheksiz ravishda kichkina bo'ladi. Barcha aylanma shakllarda (silindr, konus, aylanma ellipsoid) u aylanma o'q sifatida mavjud. Ayniqsa, cheksiz darajaga ega bo'lgan simmetriya o'qlari shar shakliga xos. Chunki sharning istagan yo'nalishidan diametri bo'yicha o'q o'tkazib 360° aylantirganda o'xshash va teng nuqtalar cheksiz marta takrorlanishi mumkin. Bundan tashqari, ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi, beshinchi, oltinchi va h.k. cheksiz darajali o'qlar bo'lishi mumkin. Har bir bunday o'qlarga o'zining elementar aylanish burchagi to'g'ri keladi.


Masalan, agar $n=1$ bo'lsa, $\alpha=360^\circ$, 1-darajali o'q;

$$\begin{aligned}n &= 2 \text{ bo'lsa, } \alpha = 1800^\circ, 2\text{-darajali o'q}; \\n &= 3 \text{ bo'lsa, } \alpha = 120^\circ, 3\text{-darajali o'q}; \\n &= 4 \text{ bo'lsa, } \alpha = 90^\circ, 4\text{-darajali o'q}; \\n &= 5 \text{ bo'lsa, } \alpha = 72^\circ, 5\text{-darajali o'q}; \\n &= 6 \text{ bo'lsa, } \alpha = 60^\circ, 6\text{-darajali o'q}.\end{aligned}$$

Romb shaklining o'rtasidan, chizma sathiga perpendikular o'tadigan o'q ikkinchi darajali o'qqa misol bo'ladi. To'g'ri ko'pburchaklilar – uch-burchaklar, kvadrat, beshburchak, oltiburchak va h.k. shakllar markazidan chizma tekisligiga perpendikular o'tadigan o'qlar uchinchi, to'rtinchi, beshinchi, oltinchi va h.k. darajali o'qlarga misol bo'lishi mumkin. Xullas, geometriyada cheksiz darajali o'qlar mavjud.

Kristallarda esa bu masala oddiyorqdek tuyuladi. Chunki ichki tuzilishlari panjaralari sistemalarda, jumladan, kristallarda beshinchi darajali o'q bo'lmaydi va oltinchi darajali o'qdan yuqori o'qlarning ham bo'lishi mum-

kin emas. Kristallarning ichki tuzilishi fazoviy panjaradan iborat bo'lganligi uchun bu o'qlarning bo'lishi mumkin emas: buni isbotlash uchun kristallarda beshinchi darajali o'q bo'lishi mumkin deb faraz qilaylik (15-rasm).



15-rasm Kristallardagi beshinchi darajali o'qning tuzilishi.

Bu o'q O nuqtasidan chizma tekisligiga perpendikular holda o'tgan bo'lsin. Ayrim hollarda O nuqtasi fazoviy panjaraning bironta tuguniga to'g'ri kelishi mumkin. O nuqtasi yaqinida joylashgan, lekin beshinchi darajali o'qqa to'g'ri kelmaydigan fazoviy panjaraning A1 tugunini uchratgan bo'laylik. Agar u beshinchi darajali o'qqa to'g'ri keladigan bo'lsa, simmetriya o'qi O atrofida 360° ga aylantirganda bunday tugunlar besh marta takrorlanishi kerak. Bular A1 A2 A3 A4 va A5 tugunlari bo'lib, O nuqtadan bir xil uzoqlikda joylashgan va aylanish elementar burchagi 72° ga teng bo'lardi. Bir tekislikda yotgan fazoviy panjaraning turli tekisligining tugunlarini hosil qilishi kerak. Bizga ma'lum, turli tekislik parallelogrammlardan iborat bo'lib, ularning cho'qqilarida bu tugunlar joylashgan bo'lishi shart. Bunday parallelogrammlardan bittasini topishga harakat qilaylik. Buning uchun A1 va A2 tugunlari A1A2 masofada joylashgan fazoviy panjaraning bir qatoriga to'g'ri keladi deb faraz qilaylik. Bu holda A3 tugunidan A1A2 qatoriga parallel bo'lgan A3A5 qatori bo'lishi kerak. Lekin A3A5 qatorining uzunligi A1A2 ga nisbatan uzun. Holbuki, parallelogrammning tomonlari teng bo'lishi lozim. Shuning uchun A1A2 qatoriga to'g'ri keladigan masofani A3A5 kesmasidan o'chab olamiz.


A3 tugunidan keyingi nuqtani Ax bilan belgilaymiz. Shuning natijasida A1A2 ga teng va parallel to'g'ri chiziq, aniqrog'i tugunli qator hosil bo'лади. A1A2 va A2A3 tugunli qatorlarni parallelogrammning ikki tomoni deb qaralsa, uchinchi va to'rtinchchi tomonlari AxA1 va A3A2 bo'lishi kerak. Demak, A1A2A3AX parallelogrammni, boshqacharoq qilib aytganda, fazoviy panjaraning turli tekisligini hosil qildik. Endi A1 va Ax tuguni punktir bilan o'tkazilgan doira ichida yotadi; ikkinchidan, simmetriya o'qi O nuqtasiga A1 tugunchasiga nisbatan yaqinroq joylashgan. Ikkita tugun simmetriya o'qiga nisbatan har xil masofada joylashgan. Shuning bilan fazoviy panjaraning tugunlari simmetriya o'qiga nisbatan teng masofada joylashish qonuni buzilgan. Bunday beshburchakli shaklning ichki qismini

parallelopipedlar bilan to'ldirib bo'lmaydi. Xullas, beshinchi darajali simmetriya o'qi bo'lishi mumkin emas. Yettinchi va undan yuqori darajali o'qlarning hal bo'imasligi shu tariqada isbotlanadi. Ikkinchisi, uchinchi, to'rtinchi va oltinchi darajali o'qlarning mavjudligi isbot talab qilmaydi. U shakllarni parallelogrammlar bilan aniq, bo'shiqsiz to'ldirish mumkin.


Inversion o'qlar. Kristall shaklining markazidan o'tadigan to'g'ri chiziq atrofida shaklni ma'lum burchak hosil qilib aylantirib va bu shaklning inversion markazi orqali qaraganda uning o'xhash qismlari oynadagi aksi kabi takrorlansa unday to'g'ri chiziqqal inversion o'q deb ataladi. Bunday simmetriya o'qi o'zi mustaqil bo'la olmaydi, doimo oddiy o'q bilan va inversion markazi bilan birgalikda mavjud. Shuning bilan bir qatorda inversiya markazi inversion o'qning bir qismi sifatida qatnashadi, o'zi mustaqil inversion markazi bo'la olmasligi ham mumkin. Masalan, trigonal prizma shaklini tahlil qilib ko'raylik (16-rasm). Bu shaklda uchinchi darajali o'q (L3) mavjud. Shuning bilan bir qatorda u oltinchi darajali inversion o'q (Li6) ham bo'la oladi. Chunki bu shaklini Li3 atrofida 69° ga inversion markazi orqali aylantirib, tomonlarining oynadagi aksini ham hisobga olsak, o'xhash tomonlari olti marta takrorlanaadi. Masalan, AV qirrasini Li3 o'qiga to'g'ri keladigan LL to'g'ri chiziqi atrofida 60° ga burchak, u A1VI holatiga o'tadi. Uning proeksiyasini inversion markaz orqali pastga qarab tushirsak EN qirrasiga to'g'ri keladi. Bu shaklni shu uslubda 360° ga aylantirsak bunday qirralar o'z-o'zlar bilan olti marta takrorlanaadi. Shuning uchun bu shakldagi uchinchi darajali o'q bir vaqtning o'zida oltinchi darajali inversion o'qqa mos keladi, ya'ni uchinchi darajali oddiy va oltinchi darajali inversion o'q bo'la oladi.

Kristallar uchun qo'yidagi inversion o'qlar mavjudligi isbotlangan: Li1, Li2, Li4 Li6. Ko'rinish turibdiki, inversion o'qlar darajalari bilan yuqorida keltirilgan oddiy o'qlar darajalari bir-biriga mos keladi. Amaliyotda faqat so'nggi ikkita inversion o'qlar bilan ishlashga to'g'ri keladi. Boshqalari esa bizga ma'lum bo'lgan o'qlarga to'g'ri keladi. Shuning kabi Li=C (360° ga aylantirganda shakl o'z holatini saqlaydi) Li1=P·LL atrofida 180° ga aylantirganda (17-rasm) A nuqtasi A1 ga o'tadi.

Inversiyadan so'ng OA1A2 ning joyini egallaydi. A2 ni A nuqtaning LL ga perpendikular joylashgan tekisligi R orqali aks



16-rasm. Oltinchi darajali inversion o'q ko'p qirrali shakl.



n. Ikkinchi darajali
rsion simmetriya
kisligiga teng.

ettirib olinadi (bir-biriga mos uchburchaklarning tengligiga $AA2^{\wedge}R$ va $Apn=nA2$ ga binoan shunday holatda ekanligini osongina isbotlash mumkin). Demak, Li_2 ni simmetriya tekisligi R bilan almashtirish mumkin, ya'ni ikkinchi darajali inversion o'q simmetriya tekisligiga teng. Li_3 ham mustaqil simmetriya elementi bo'la olmaydi. U inversiya markazi S va Li_3 bilan birgalikdagina mustaqil uchinchi darajali o'q bo'la olishi mumkin. Shuning kabi kub shaklidagi S va 4 Li_3 har

inchı darajali o'q bir vaqtning o'zida uchinchi darajali inversion 3 bo'la oladi. Kristall shakllaridagi oddiy uchinchi darajali o'qqa ladigan Li_3 odatda ko'rsatilmaydi (yozilmaydi). Shunday qilib, 4 va Li_6 inversion o'qlarigina qoladi, holos. Bu o'qlar mavjudligi a keltirilgan misollarda isbot qilingan edi.

rtinchi darajali simmetriya o'qi $Li_4=Li_2\cdot Li_4$ mavjud bo'lish ko'p arda inversiya markazi S bo'lmaydi. Shuning bilan bir qatorda in-markazi bo'lmayan barcha shakllardagi ikkinchi darajali o'qlar Li_4 rmaydi.

stall shakllarida Li_4 o'qini topish, yuqorida tahlil qilingan sim-elementlariga qaraganda ancha qiyinroq. Oltinchi darajali sim-o'qi Li_6 doimo uchinchi darajali oddiy o'q va unga perpendikularidan simmetriya tekisligiga barobar $Li_6=Li_3P$ [P -harfi bilan shaklda-a yuqori darajali o'qqa perpendikular joylashgan simmetriya tekis-elgilashadi (bunday o'q yakka yo'nalishga mos keladi)]. Bunday irraliklarda inversiya markazi bo'lmaydi. Yuqorida zikr qilingan zalarni jamlab inversion o'qlar uchun quyidagilarni keltiramiz: $Li_2=P$; $Li_3=Li_3S$; $Li_4=Li_2$ – to'rtinchi darajali inversion o'q gan inversion o'q; $Li_6=Li_3P$ (R Li_3) – oltinchi darajali inversion langan inversion o'q (kristallografiyaning ba'zi bir qo'llanmalarida in o'q o'miga aylantirma simmetriya o'qi deb yuritiladi va L harfi ilgilanadi). Ba'zi bir qo'llanmalarda oddiy o'q bilan inversion o'q b yoziladi – $L4$ 2- $L6$ 3 va hokazo.

Simmetriya elementlari teoremlari. Yuqorida ko'rsatib idek, kristallik xususiyatiga ega bo'lgan ko'pqirraliklarda quyida-ietrik elementlari mavjud: S , R , $L2$ $L3$, $L4$, $L6$, $L14$, Li_6 . Kris-bunday simmetriya elementlari faqat yakka-yakka uchrashibgina

qolmasdan, ko'pincha birgalikda ham uchraydi. Masalan, g'isht shaklidagi kristallda 3L23PC simmetriya elementlari birga keladi. Ikkita simmetriya elementi bo'lgan shaklda so'zsiz teng ta'sir ko'rsatuvchi, uchinchi simmetriya elementi bo'lishi shart hamda uchinchi simmetriya elementining ta'sir kuchi oldingi ikkitasining ta'sir kuchlarining yig'indisiga tengligi isbot qilingan. Kristallografiya nazariyasida va amaliyotda simmetriya elementlarini jamlash muhim rol o'ynaydi, chunki kristall shaklidagi mavjud bo'lgan barcha simmetriya elementlarini to'liq topish imkoniyatini tug'diradi.


Simmetriya elementlarining birgalikda kelishini, o'zaro bog'lani shini matematika uslublari bilan isbotlovchi ko'pgina teoremlar mavjud. Shulardan ba'zilarini keltiramiz.

1-teorema. Bir nechta simmetriya tekisligi kesishishidan hosil bo'lgan to'g'ri chiziq bu simmetriya tekisliklariga teng ta'sir etuvchi simmetriya o'qi bo'lib, bu o'qning aylanish elementar burchagi simmetriya tekisliklari hosil qilgan, burchakdan ikki marta kattadir.

Masalan, tetragonal prizma shaklida simmetriya tekisliklari kesishgan nuqtadan o'tadigan to'g'ri chiziq to'rtinchi darajali simmetriya o'qiga to'g'ri keladi. O'qning aylanish elementar burchagi (α) 90° ga teng, simmetriya tekisliklari kesishishidan hosil bo'lgan burchak esa 45° bo'lib, $2\alpha=90^\circ$ ga, ya'ni to'rtinchi darajali o'qning aylanish elementar burchagiga teng. Demak, teorema shartlariga to'g'ri keladi.

2-teorema. Eyler teoremasi. Ikkita simmetriya o'qi mavjud bo'lgan shakl shu o'qlar kesishgan nuqtadan o'tadigan teng ta'sir etuvchi uchinchi simmetriya o'qining bo'lishi shart.

18-rasmda ko'rsatilgandek, ikkita ikkinchi darajali o'qqa perpendikular uchinchisi ham o'tadi. Bundan tashqari, rombik prizmada va gugurt qutisi shaklidagi kristallda uchta ikkinchi darajali o'qlar bir-biriga perpendikular holda joylashgan. Kub shaklida ham 3L4 o'qlar o'zaro perpendikular holda joylashgan. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.



3-teorema. Inversiya markazi (S) va juft darajali simmetriya o'qi (L_{2n} geometriyada n istagan son; kristallografiyada $n=1$ yoki $2, 3$, ya'ni $L_{2n} = L_2$ yoki L_4 yoki L_6 bo'lishi mumkin) bo'lgan shakllarda bu o'qqa perpendikular yo'nalган simmetriya tekisligi (R) ham o'tadi.

Masalan, rombik prizmani yoki gugurt qutisi shaklini olaylik. Bularning ikkalasida ham inversiya markazi S va uchta ikkinchi darajali o'q (3L2) mavjud. Har bir L2 o'qiga perpendikular holda simmetriya tekisligi o'tadi. Shaklning L2 o'qi perpendikular ravishda kesib o'tgan ikkita tomonga parallel holda simmetriya tekisligi o'tadi (3 L2n 3PC). Kub shaklida – 3L2 4L3 6L29RS simmetriya elementlarini topish mumkin. Uchinchi teorema'dan qo'shimcha, amaliy ahamiyatga ega bo'lgan bir necha xulosa chiqarish mumkin:

- a) kristall shakllarida inversiya markazi va shu markaz ustidan o'tgan simmetriya tekisligi bo'lsa, u holda simmetriya tekisligiga perpendikular yo'nalgan juft darajali simmetriya o'qi ham bo'ladi (L2 L4 L6);
- b) kristall shakllarida simmetriya tekisligi bilan shu tekislikka perpendikular yo'nalgan juft darajali simmetriya o'qi mavjud ekan, u holda inversiya markazi S ham bo'lishi muqarrar;
- v) inversiya markazi mavjud bo'lgan kristall shakllarida juft darajali simmetriya o'qlarining soni simmetriya tekisliklarining soniga teng bo'lib, bu simmetriya tekisliklarining har biri o'qlarga perpendikular yo'nalishda joylashadi.

4-teorema. Agar n ta Ln darajali simmetriya o'qi va unga perpendikular joylashgan L2 o'qi bo'lsa, ikkinchi darajali o'qlar soni n ta bo'ladi (nL2). Boshqacharoq qilib aytganda, yuqori darajali (L2 dan yuqori) va unga perpendikular yo'nalishda o'tgan ikkinchi darajali simmetriya o'qlari bo'lgan shakllarda, ikkinchi darajali simmetriya o'qlarining soni yuqori darajali simmetriya o'qining darajasi soniga teng, ya'ni Ln (\wedge_{Ln}) (K.S.Zoxidov, 1987 y). Masalan, L33L2, L44L2, L66L2, L va h.k. Bularning barchasida ham L2 yuqori darajali o'qlarga (L2 L3 L4 L6) perpendikular joylashadi. 19-rasmdagi o'n ikki qirrali shaklni tahlil etaylik.

LL to'g'ri chizig'i oltinchi darajali o'qqa (L6) to'g'ri keladi. Bu o'qqa perpendikular 1-1 yo'nalishda ikkinchi darajali o'q L2 o'tadi. Teoremagaga asosan L2 dan oltita bo'lishi kerak. Haqiqatdan ham bu shaklda L6 perpendikular joylashgan 6L2ni osongina topish mumkin (18-rasm, 1,2,3,4,5,6). Shu kabi holatlarni trigonal, tetragonal dipiramidalarda ham ko'rish mumkin.

5-teorema. Agar shaklda n (\wedge_{Ln}) tartibdagi simmetriya o'qi va bu o'qning ustidan o'tadigan simmetriya tekisligi bo'lsa, simmetriya tekisligining soni n ta bo'ladi (nR). K.S.Zohidovning 1987 yilgi tafsilo-

ti bo'yicha aytsak, kristall shakllarida yuqori darajali o'qlar (L_2 L_3 L_4 L_6) orqali o'tadigan bitta tekislik bo'lsa, simmetriya tekisligining miqdori yuqori darajali o'qning darajasi soniga teng. Masalan, trigonal, tetragonal va geksagonal piramidalarda L_3 L_4 L_6 L_2 simmetriya o'qlari ustidan o'tadigan tekislik soni ZR , $4R$, $6R$ ga teng. $L_{33}P$, $L_4 L_{24}P$, $L_{66}P$ kabi qo'shib yozish mumkin. Umumiylis sol tariqasida, olti tomonli romboedr shaklini tahlil etamiz. Romboedrn kubning uchinchi darajali o'qlaridan bittasi bo'yicha yassilanishidan hosil bo'lgan shakl deb qarash mumkin. Bu shaklda, avvalo inversiya markazini topamiz. Ikkita qarama-qarsi chuqqilarini orqali o'tadigan uchinchi daraja o'q L_3 ni ham osongina topamiz. Uchinchi darajali o'q ustidan bitta simmetriya tekisligi o'tadi. Beshinchchi teorema binoan bunday tekisliklar soni uchta (ZR) bo'ladi.

Boshqa simmetriya elementlari 3-teorema xulosalaridan kelib chiqadi, ya'ni har bir tekislikka perpendikular bittadan juft o'q o'tishi kerak. Natijada $3L_2$ ni topamiz. Bu uchta ikkinchi darajali o'qlar teoremani qo'llamasdan topish ma'qulroq. Shunday qilib romboedrda mavjud bo'lgan barcha simmetriya elementlarini topdik: $L_{33}L_{23}PC$.

4.6. Yakka yo'nalishlar. Kristall shakllaridagi birdan-bir, takrorlanmaydigan yo'nalishga yakka (geometriyada n istagan son; kristallografiyada $n=1$ yoki $2,3$, ya'ni $L_{2n}=L_2$ yoki L_4 yoki L_6 bo'lishi mumkin) yo'nalish deyiladi. Masalan, olti tomonli piramidani olaylik. Undagi simmetriya elementlari $L_{66}R$ dan iborat. Shulardan, L_6 o'qi yakka yo'nalishdir. Shuningdek, L_3 L_4 L_6 simmetriya o'qlari bo'lgan kristall shakllarida ham bu o'qlar yakka yo'nalishga to'g'ri keladi. Kub shaklining qaysi bir yo'nalishini olmang, ular bir nechta marta takrorlanadi. Masalan, uchinchi darajali o'q to'rt marta ($4L_3$), to'rtinchchi darajali o'q uch marta ($3L_4$), ikkinchi darajali o'q olti marta ($6L_2$) takrorlanadi. Demak, kub shaklida yakka yo'nalish yo'q. Barcha yo'nalishlar o'zaro teng va takrorlanadi.

Kristalldagi simmetriya elementlari bilan bog'langan, takrorlanadigan yo'nalishlarga teng – simmetrik yo'nalish deyiladi. Bunday kristall shakllarida yakka yo'nalish bo'lmaydi. Aks holatda simmetriya elementlarisiz yoki faqat inversiya markazi S bo'lgan shakllarda ko'rish mumkin. Ularda yo'nalishlar teng – simmetrik holatda joylashadi. Har bir yo'nalish takrorlanmaydigan, yakka yo'nalish bo'ladi. Masalan, g'isht yoki gugurt qutisi shaklidagi parallelopipedda bir necha yakka yo'nalish mavjud. Bu shakllardagi uchta o'zaro perpendikular ravishda joylashgan ikkinchi darajali simmetriya o'qlarining ($3L_2$) har qaysisi yakka yo'nalish-

ga mos keladi. Chunki o'qlarning tomonlari uzunliklari va katta-kichikliklari har xil. Shunday qilib, kristall shakllari shakliga, simmetriya elementlari va ichki tuzilishlariga qarab ikki guruhga bo'linadi: a) yakka yo'nalishli, b) yakka yo'nalishsiz kristall shakllari.

Yakka yo'nalishli kristallarda, yakka yo'nalish kristallarning simmetriya elementlariga nisbatan qanday vaziyatda joylashadi degan savol tug'ilishi tabiiy. Bunga javob berish uchun yakka yo'nalishning har bir simmetriya elementlariga nisbatan tutgan vaziyatni alohida ko'rib chiqish kerak.

1. Inversiya markazidan boshlaymiz. EE1 to'g'ri chiziqni yakka yo'nalish deb olaylik (19-rasm). Boshqa, o'ziga teng simmetrik yo'nalishsiz bo'lgan EE1 ning o'rtasida inversiya markazi S joylashishi mumkin. Markaz S dan ikkala tomonda joylashgan nuqtalarning oraliqlari o'zar teng. Shuning uchun E nuqtasini S markaz orqali aks ettirsak, u E1 nuqtasining joyini egallaydi, aksincha, E1 nuqtasi E nuqtasining ustiga tushadi. Shuning bilan bir qatorda EE kesma o'z-o'zi bilan o'rinn almashib, yangi teng simmetrik yo'nalish hosil qilmaydi. Demak, yakka yo'nalish mavjud bo'lgan shakllarda uning o'rtasida joylashgan inversiya markazi bo'lishi mumkin.




19-rasm. Inversiya markazining (S) yakka yo'nalishiga EE1 ga nisbatan joylashishi.

2. Simmetriya tekisligiga o'tamiz. Tekislik bu yo'nalishga nisbatan qiya, perpendikular yoki parallel (ustida) joylashishi mumkin. Qiya joylashgan O tekisligi orqali NN1 yo'nalishlari bo'yicha to'g'ri chiziqqa aks ettirib o'tkazsak, ular tekislikning pastki qismida teng-simmetrik N'N yo'nalishini yuzaga keltiradi (20-rasm, a). Shundan ko'rinish turibdiki, simmetriya tekisligi yakka yo'nalishga qiya holda joylashishi mumkin emas. Ikkinci holatda simmetriya tekisligi yakka yo'nalishga perpendikular EE1 kesmaning o'rtasidan o'tadi (21-rasm, b). Bunda kesmaning E uchi R tekisligi orqali aks ettirilsa, E1 nuqtasining ustiga tushadi, E1 esa E nuqtasining o'mini egallaydi. Shuning bilan birga yangi yo'nalish hosil qilmasdan EE1 o'z-o'ziga to'g'ri keladi (mos tushadi). Shunday qilib, simmetriya tekisligi yakka yo'nalishga perpendikular holatda joylashishi mumkin. So'nggi holat simmetriya tekisligining yakka yo'nalish ustidan o'tishi yoki parallel joylashishini ko'rsatadi (20-rasm, v).


Bu holatda so'zsiz EE1 yo'nalishi simmetriya tekisligi R dagi aksiga mos

keladi. Demak, yakka yo'nalish simmetriya tekisligida joylashishi mumkin.

Xulosa. Yakka yo'nalishning mavjudligi simmetriya tekisligining unga nisbatan perpendikular yoki parallel joylashishiga xalaqit bermaydi.



20-rasm. Simmetriya tekisligining yakka yo'nalishiga nisbatan jaylashishi.



21-rasm. Simmetriya o'qlarining yakka yo'nalishga nisbatan joylashishi.

3. Undan keyin o'qlarga o'tamiz. Bunda uchta vaziyat bo'lishi mumkin. O'qlar bu yo'nalishga nisbatan qiya, perpendikular va parallel (ustidan) o'tishi mumkin.

$N \rightarrow L_n$ darajali o'q atrofida barchasi n marta takrorlanadi. Shuning bilan birga qiya olingen yo'nalish (21-rasm, a-NN1) ham L_n (21-rasm, a-L3) n marta (uch marta) takrorlanadi. Agar L_n ustidan o'tadigan simmetriya tekisligi uch marta takrorlansa, tekislikda yotmagan qiya yo'nalishlar (ya'ni NN1 lar) 2 marta (olti marta) takrorlanadi. Bundan yakka yo'nalish L_n ga nisbatan qiya joylashishi mumkin emas degan xulosa chiqarish mumkin. Bu yakka yo'nalishga perpendikular joylashgan L_n darajali o'qlarga ham tegishli. Lekin bu yerda xususiy holatni, ya'ni $L_n L_2$ ni

alohida ko'rsatish kerak. Bunday shaklni L2 o'qi atrofida 180° ga burganda (21-rasm) yakka yo'nalihsining bir uchidagi E tomonidagi kesma (ya'ni L2 o'qining EE1 ni kesib o'tgan nuqtasidan E gacha bo'lgan masofa), E1 tomonidagi kesma bilan o'rinni almashadi. Buning natijasida EE1 yo'nalihs o'z-o'zini takrorlaydi. L2 o'qi yakka yo'nalihsining markazidan o'tgan va bu o'q EE1 ga perpendikular joylashgan degan xulosa chiqadi. Shunday qilib, ikkinchi darajali o'q yakka yo'nalihsiga nisbatan perpendikular joylashishi mumkinligi isbotlanadi.

Endi, so'nggi holat Ln ning yakka yo'nalihsiga mos kelishligi (parallel joylashishini) tafsilotiga o'tamiz (21-rasm). O'z-o'zidan ma'lumki, Ln o'qiga mos kelgan yakka yo'nalihs teng – simmetrik joylashgan nuqtalar hosil qilmaydi. Shuning asosida yakka yo'nalihs bilan simmetriya o'qi bir-biriga mos kelishi mumkin. Demak, yakka yo'nalihsining mavjudligi unga perpendikular o'tgan ikkinchi darajali o'qning bo'lishiga yoki unga mos keladigan (ustiga tushadigan) har xil darajali simmetriya o'qlarining bo'lishiga xalaqtir bermaydi.


Simmetriya turlari deb nom olgan kristall shaklidagi mavjud bo'lgan simmetriya elementlarining barchasini chiqarish mana shu oddiy holdan boshlanadi.

4.7. Simmetriya elementlarining 32 turi. Kristall shakllarida mavjud bo'lgan simmetriya elementlarining yig'indisiga simmetriya turlari deyiladi. Kristallografiyada ma'lum bo'lgan 32 ta simmetriya turlari kristall shakllaridagi yakka yo'nalihsiga asoslangan. Yuqorida aytib o'tganimizdek, kristall shakllarida yakka yo'nalihs bo'lishi ham, bo'Imasligi ham mumkin. Kristall shakllarining simmetriya elementlarining turlari shunga qarab bo'linadi.

4.8. Yakka yo'nalihsli kristall shakllari simmetriya elementlarining turi. Bu turga mansub bo'lgan kristall shakllarda juda bo'lmaganda bitta EE (22-rasm) yakka yo'nalihs bo'lishi shart. Bu yo'nalihsni asos qilib olib simmetriya elementlarini shunday qo'shib chiqamizki, bu yo'nalihs haqiqatdan ham yakka bo'lib qolishi kerak. S, R, Ln, L2, L2 PC larning har qaysini alohida-alohida yakka yo'nalihsiga qo'shamiz.

Simmetriya elementlarining umumiyligini chiqarish jarayonida ularning o'zaro teng ta'sir ko'rsatishlarini hisobga olish kerak.

1. Yakka yo'nalihs bittagina simmetriya o'qi – Ln bilan mos keladi (22-rasm a). Bundan, kristall shakllarida mavjud bo'lgan beshta simmetriya o'qlariga to'g'ri keladigan beshta simmetriya turini chiqaramiz: L1,



22-rasm. Simmetriya elementlarining yakka yo'nalishiga uisbatan joylashishi

L₂, L₃, L₄, L₆ Birinchi holatda (L₁) simmetriya elementi bo'lomaydi, chunki berilgan yakka yo'nalish bitta cheksiz va istagan tomonga qarab yo'nalgan birinchi darajali o'qqa to'g'ri keladi. L₁ shartli ravishda belgilangan, shuning uchun u amaliyotda inobatga olinmaydi. Bu hosil qilingan simmetriya turlari faqat simmetriya o'qlaridan iborat bo'lsa, unga «primitiv» simmetriya turi deyiladi. Bular to'rtta bo'lib, L₂, L₃, L₄, L₆ ga to'g'ri keladi va shunday yoziladi (1-jadval).

2. Yakka yo'nalishga mos kelgan primitiv simmetriya turiga inversiya markazi S ni qo'yamiz (23-rasm, b): L_{1C}; L_{2C}; L_{3S}; L_{4C}, L_{6C}. Bundan 3-teoremaga binoan inversiya markazi va juft darajali o'q bo'lsa simmetriya tekisligi bo'lishi shart (bu simmetriya tekisligini alohida ajratib ko'tsuvchi P harfi bilan belgilaymiz): L₂=CL_{2CP}; L_{4S}=L_{4SP}; L_{6S}=L_{6SP}.

Hammasini jamlab qo'yidagi simmetriya elementlarini hosil qilamiz: L_{1S}=C; L_{2CP}; L_{3S}; L_{4SP}; L_{6SP}. Bular «markazlashgan» simmetriya turi deb ataladi (1-jadval).

3. Primitiv simmetriya turiga yakka yo'nalishga perpendikular bo'lgan simmetriya tekisligini (P) qo'shamiz: L_{1P}=P; L_{2P}; L_{3P}; L_{4P}. Bularni 3-teoremaga binoan shunday yozish mumkin: L_{1P}=P; L_{2PS}; L_{3P}; L_{4PS}. Lekin bunday simmetriya turlari inobatga olinmaydi, chunki oldingi markazlashgan simmetriya turini takrorlaydi (22-rasm, v).

4. Primitiv simmetriya turiga ulardagi o'qlarning ustidan (parallel) o'tadigan simmetriya tekisligini R qo'shamiz (22-rasm, g). Yakka yo'nalish o'qlardan birortasiga to'g'ri keladi. Beshinchi teoremaga binoan, agar L_n o'q va uning ustidan (parallel) o'tadigan tekislik bo'lsa, tekisliklar soni n ta (o'qlar darajasi soniga teng) bo'ladi. Natijada quyidagi yangi simmetriya turlarini vujudga keltiramiz: L_{1P}=P; L_{22P}; L_{3ZR}; L_{44P}; L_{66P}.

5. Yakka yo'nalishga perpendikular joylashgan L2 o'qini qo'shamiz (23-rasm, d). *Qatnashishi mumkin bo'lgan, yakka yo'nalishga mos keladigan simmetriya o'qlanga L2 qo'shiladi.* To'rtinchi teoremaga binoan, agar Ln va unga perpendikular joylashgan L1 bo'lsa, shu ikkinchi darajali o'qlar soni n ta (o'qlar darajasi soniga teng) bo'ladi, ya'ni nL2 (\wedge Ln). Natijada shunday simmetriya turlarini chiqarish mumkin: L1L2=L2; 2L2L2=3L2; L33L2; L44 \leftarrow L2; L66L2. Bu beshta yangi simmetriya qatorlari «aksial-o'qli» simmetriya turi deyiladi (1-jadval).

1-jadval

Yakka yo'nalishli simmetriya turlari

Primitiv	Markaz-lashgan	Tekislikli (planal)	O'qli (aksial)	Tekislikli-o'qli (planaksial)	Inversion primitiv	Inversion-planal
1 L1	2 L1C=C	3 L1H=R	4 L1L2=L2	5 L1L2PC=L2PC	-	-
[L2] (4-qarang)	[L2SP] (5-qarang)	6 L22R	7 L22L2=3L _{..}	8 L22L22RPS= ZL2ZRS	-	-
9 L1	10 L3C	11 L3ZR	12 L33L2	13 L3ZL2ZRS	-	-
14 L4	15 L4 CP	16 L44R	17 L4 4L2	18 L44L2 4RS= L44L2 5PC	19 Li4(=L2)	20 L14(=L2) 2L22P
21 L6	22 L6SP	23 L6 6R	24 L6 6L2	25 L66L26RPS= L6 6L27RS	26 Li6 (=L3P)	27 Li6 (=L2P) ZL2ZR

6. Yakka yo'nalishga markaz S ni, tekislik R ni va L2(L2PC) ni qo'shamiz. Bir vaqtning o'zida bir necha simmetriya elementlarini qo'shib jamlashni ko'rib chiqaylik. Avvalgidek yakka yo'nalish L2, L2, L3, L4

va L6 o'qlariga mos keladi. Bunga inversiya markazi Sni qo'shamiz. Buning natijasida markazlashgan simmetriya turiga o'xshash simmetriya jami kelib chiqadi: L1C; L2SP; L3C; L4SP; L6CP. Undan keyin yakka yo'nalishning ustidan o'tadigan simmetriya tekisligini R, L2 qo'shamiz. Bundan tashqari, inversiya markazi bo'lsa har bir simmetriya tekisligiga perpendikular joylashgan juft darajali o'q bo'lishi kerak. Mana shularning barchasini hisobga olib jamlasak, quyidagi simmetriya turlari kelib chiqadi: L1C; PL2=L2PC; L2SP 2P2L2=3L23PC; L3C3P3L2=L33L23PC; L4CH4P4L2=L44L25PC; L6SP P6L2=L6 6L27PC. Bu beshtasini «tekislikli-o'qli» (planaksial) simmetriya turi deyiladi (1-jadval). Bundan keyin gi mulohazalarimiz inversion o'qlariga nisbatan olib boriladi.

7. Yakka yo'nalishga L1n inversion o'qlar to'g'ri keladi deb qaraylik. U holda quyidagi «primitiv inversion» simmetriya turlarini hosil qilish mumkin: Li2 =C; Li2=P; Li3=L13C; Li4=L42; Li6=L3P. Bu simmetriya turlari inversion-primitiv nomi bilan yuritiladi (2-jadval).

8. Inversion-primitiv simmetriya turiga inversion yakka yo'nalishga moc keladigan simmetriya tekisligini qo'shib ikkita «inversion-planal» nomli simmetriya turini chiqaramiz. Li4=L2 beshinchchi teoremaga binoan Li4 (\rightarrow L2)2L22P=L242L22P yoziladi. Li6 (\rightarrow L3n) beshinchchi teoremaga binoan Li6 (=L3P)3L23P=L33L23P yoziladi.

Mulohazalarimiz oxirida yo'nalishli simmetriya turlari jamlangan jadvalni keltiramiz (1-jadval). Bu jadvalga nazar tashlar ekanmiz, unda takrorlanadigan simmetriya turlarini ko'rish mumkin. Ular kvadrat qavs ichiga olingan va inobatga olinmaydi. Natijada yakka yo'nalishli kristall shakllari uchun 27 ta simmetriya turi mavjudligini ko'ramiz.

4.9. Yakka yo'nalishsiz kristall shakllari simmetriya elementlarining turi. Endi yakka yo'nalishsiz kristall shakllarining simmetriya turlari tafsilotiga o'tamiz. Bu turdag'i kristallarda bir necha o'zaro teng-simetrik yo'nalishlarni chizish mumkin. Shuning asosida har xil darajasi simmetriya o'qlari bir necha marta takrorlanadi. Yakka yo'nalishsiz shakllardagi simmetriya o'qlarining barchasi elementar geometriyadagi to'g'ri ko'p komponenttlilarga mos bo'lgan kombinatsiyalarga javob bera olishi matematik uslublar bilan isbotlangan. Bunday kristallar to'g'ri ko'pburchakli tomonlardan iborat bo'ladi. To'rtta teng tomonli uchburchakdan iborat bo'lgan tetraedr shakli, oltita kvadrat tomonidan tashkil topgan kub shakli, sakkizta uchburchakli tomonidan tuzilgan oktaedr, o'n ikki tomonli dodekaedr va boshqalar shular jumlasidadir. Tetraedr

shaklida $3L24L3$ o'qlari mavjud. Kub va oktaedr shakllarida ham bir xil simmetriya o'qlari – $3L44L36L2$ bo'ladi. 1. Tetraedrdagi mavjud o'qlar jamini, ya'ni $3L24L3$ ni primitiv simmetriya turi deb qabul qilamiz.

Bu simmetriya turini oddiy $L2$ o'qli simmetrik turidan ajratish uchun tenglik belgisining ustiga belgi qo'yiladi.

2-jadval 32 simmetriya turlari

Kate-goriya	Singonija	Simmetriya turlari							
		Primi-tiv	Markaz-lashgan	Tekis-likli	O'qli	Tekislikli-o'qli	Inversion-primitiv	Inversion-planal	
Quyi	Triklin	$1(I)$	$2(I)$						
	Monoklin			3 $P(m)$	4 $L2(2)$	5 $L2PC(2/m)*$			
	Rombik			6 $L22P(mm2)$	7 $3L2(222)$	8 $3L2 3PC(mmm)$			
O'rta	Trigonal	$9L3$ (3)	$10L3C$ (3)	$11L3P$ (3m)	12 $L33L2(32)$	$13L3$ $3L2PC(3m)$			
	Tetragonal	14 $L4(4)$	15 $L4 PC(4/m)$	16 $L4 4P(4mm)$	17 $L2 4L2(422)$	18 $L4 4L25PC(4/mmm)$	19 $L4(=L2)(4)$	20 $L4(=L2)2L2 2P(42m)$	
	Geksagonal	$21L6$ (6)	22 $L6 PC(6/m)$	23 $L6 6P(6mm)$	24 $L66L2(622)$	25 $L6 6L27PC(6/mmm)$	26 $L6(=L3 P)(6)$	$27L1$ $63L23P(=L33L2 4P)(62m)$	

Yuqori	Kubik	28 3L24L, (23)	29 3L24L3 3PC (m3)	30 3L4 4L3 6P (43m)	31 3L3 4L,6L2 (432m)	32 3L4 4L,6L29PC (m3m)		
--------	-------	----------------------	-----------------------------	---------------------------	----------------------------	---------------------------------	--	--

* simmetriya elementlari turlarining German – Mogen tomonidan berilgan belgilari

2. Markazlashgan simmetriya turini hosil etish uchun primitiv simmetriya turiga markaz S ni qo'shamiz. Uchinchi teoremagaga asosan, har bir 1 – 2 ga perpendikular joylashgan tekislik R o'tishi kerak. Shuning uchun ZL24L3ZRS yoziladi (2-jadval). 3. Undan keyin har bir uchinchi darajali o'qlar bo'ylab o'tuvchi simmetriya tekisligini hisobga olsak, «planal» simmetriya turi kelib chiqadi. Har bitta L3 ustidan o'tuvchi simmetriya tekisliklarining soni uchta bo'lishini, shuning bilan bir qatorda har qaysi simmetriya tekisligi ikkita L3 ustidan o'tishini hisobga olsak, u holda quyidagi simmetriya elementlarining turi 3L24L36P kelib chiqadi (2-jadval). 4. Oqli aksial simmetriya turini chiqarish uchun har qaysi uchinchi darajali o'qlar ustidan o'tadigan, shu o'qlarga perpendikular yo'nalgan ikkinchi darajali o'qlar qo'shiladi. Bunda har qaysi L1 ikkita L3 ustidan o'tadi va «primitiv» simmetriya elementlari turidagi 3L2 bu yerda 3L4 ga aylanadi. Natijada simmetriya elementlari turi quyidagicha ifodalanadi: ZL44L36L2 5. Oqli (aksial) simmetriya turiga markaz S ni qo'shib, 3-teoremagaga binoan tekislikli – oqli (planaksial) simmetriya turini chiqaramiz: ZL44L3 6L29RS. Shunday qilib, yuqorida zikr qilinganlarni jamlab yakka yo'nalishsiz kristallar uchun mumkin bo'lgan quyidagi beshta simmetriya turlarini keltiramiz: primitiv 4L3ZL2; markazlashgan 4L3ZL23RS; tekislikli (planal 4L3Z L2 6RS; oqli (planal) – 3L44L3 6L2, tekislikli-oqli (planaksial) – ZL44 L36 L2RS.

Bular 2-jadvalning pastki qismida keltirilgan. Natijada kristall shakkllarida mavjudligi mumkin bo'lgan 32 simmetriya elementlarining turini chiqardik. Bularning barchasi amaliyotda qo'llash osonroq bo'lishini nazarda tutib 2-jadvalda umumlashtirib keltirilgan. Ularning miqdorini va tarkibini o'zgartirish yoki ularning o'rinalarini almashtirish mutlaqo mumkin emas, chunki ularning jadvaldagi joylashish vaziyatlari qat'iy matematik uslublar bilan asoslangan.

Chegaralangan shakkllarning simmetriya elementlarining jami birinchi marta I.Gessel (1830) tomonidan berilgan edi. 1867 yili rus olimi A.V.Gadolin o'zining 32 simmetriya elementlari turini chiqardi. Uni butun dunyo olimlari tan oldi.

4.10. Toifalar va singoniyalar. O'ttiz ikkita simmetriya turlari jadvaliga (2-jadval) nazar tashlar ekanmiz, undagi har bir gorizontal kataklardagi simmetriya turlarining o'xshashligini ko'ramiz. Masalan, eng pastdagi gorizontal beshta kataklarda 4L3 mavjud. Undan yuqorida yettiata kataklardagi simmetriya turlarining barchasida bittadan L6 va Li6 borilagini qayd qilamiz. Pastdan uchinchi qatorda L4 yoki Li4 ni, to'rtinchchi qatorida L3, beshinchi qatorda bir necha L2, oltinchida esa bittadan L2 yoki R qatnashishi yaqqol ko'zga tashlanadi. Yettinchi qatorda esa simmetriya o'qlari va tekisliklari umuman yo'q. Shundan ko'rinish turibdiki, har bir gorizontal qatorlar singoniya deb nomlangan ma'lum simmetriya turlarining qatorlariga mos kelmoqda.

Yakka yo'nalishlar soni birdek bo'lib, bitta yoki bir nechta simmetriya elementlari o'xshash bo'lgan simmetriya turlari qatorlariga singoniya deyiladi.

Shuni qayd qilish kerakki, har qaysi singoniya kristallari o'ziga xos shakllarga, simmetriya elementlariga va shu kristallni ifodalovchi fazoviy panjara elementar shu'balarning shakliga ega. Ular bir-biridan katta farq qiladi. Kristallografiyada barcha simmetriya turlari yettiata singoniyaga bo'linadi: triklin, monoklin (mono (grek)-bir; di-ikkita, tri-uchta; tetra-to'rtta; penta-beshta; geksa-olti; gepta-yetti; okta-sakkiz; ennea-to'qqiz; endeka-o'n; dodeka-o'n ikki) rombik yoki ortonombik, trigonal, yoki romboedrik, tetragonal, geksagonal va kubik. Ularning nomlari fazoviy panjara elementar shu'basi tomonlarining uzun-qisqaligiga va ular orasidagi burchaklarning qiymatlariga asoslangan. Masalan, triklin singoniyasi kristallarining elementar shu'basini ifodalovchi parallelopipedning qirralari orasidagi uchala burchagi ham qiyshiq. Monoklin singoniyasi kristallarida yuqorida aytilgan qirralar orasidagi bitta burchagi qiyshiq, ikkitasi to'g'riburchakli. Rombik singoniyasiga taalluqli oddiy shakllarda va elementar shu'balarda ikkinchi darajali simmetriya o'qiga perpendikular olingan ko'ndalang kesimi ko'rinishi romb ko'rinishida bo'lganligi uchun shunday nomlangan. Trigonal, tetragonal va geksagonal singoniyalarini nomlari ular kristallarining har biriga xos bo'lgan simmetriya o'qlarining darajasiga qarab berilgan. Trigonal singoniyasi ko'pincha romboedrik nomi bilan yuritiladi. Chunki singoniyadagi ko'pgina simmetriya turlarining oddiy shakllari romboedrdan iborat. Kubik singoniyali kristallarning elementar yachevkasi kub shaklida bo'lganligi uchun shunday nomlangan.

Yakka yo'nalishlariga va xarakterli simmetriya o'qlari darajalariga qarab, yuqorida keltirilgan singoniyalar uchta kategoriyaliga jamlanadi:

Quyi kategoriya kristallarida ikkinchi darajali o'qlardan yuqorisi bo'lmasligi va bir nechta yakka yo'nalishining mavjudligi bilan ajralib turadi. Quyi kategoriya triklin, monoklin va rombik singoniyalaridan iborat. O'rta kategoriya kristallari faqat bitta yakka yo'nalishga ega bo'lib, u ham bo'lsa L2 dan yuqori o'qlardan biriga mos keladi. Bu kategoriya trigonal, tetragonal va geksagonal singoniyalarini o'ziga mujassamlashtirgan. Yuqori kategoriya kristallarida yakka yo'nalish bo'lmaydi. Barcha kristallarda bir nechta L2 dan yuqori o'qlarning mavjudligi bilan boshqa kategoriyalardan farq qiladi. Bu kategoriya bitta kubik singoniyasidan iborat. Singoniyalarning xususiyatlari quyida keltirilgan.

4.11. Quyi toifa kristallari. Ularda bir necha yakka yo'nalish mavjud bo'lib, ikkinchi darajalidan yuqori o'qlar bo'lmaydi (3-jadval). Triklin singoniyasidagi barcha simmetriya o'qlarining yo'nalishlari yakka bo'lib, simmetriya tekisligi ham, o'qlari ham bo'lmaydi. Mutlaqo simmetriya elementlari yo'q. (-), yoki faqat bittagina S mavjud. Monoklin singoniyasida yakka yo'nalishlar va teng simmetrik yo'nalishlar ko'p. Simmetriya elementlaridan bittagina R yoki bitta L2, yoki L2PC(L2 ^P) qatnashadi. Yakka yo'nalishlar simmetriya tekisligi ustida yoki L2 ga perpendikular o'tgan tekislikda yotadi, hamda L2 ga mos keladi, yoki R ga qiya yo'nalishlarga to'g'ri keladi. Rombik singoniyalarida uchta yakka yo'nalishga ega bo'lib, ular L2 yoki R ga perpendikular yo'nalishlarga mos keladi. Simmetriya elementlari: L22P; 3 L2; 3L2 ZRS.

4.12. O'rta toifali kristallar. Ular bitta yakka yo'nalish bo'lib, ikkinchidan yuqori darajali o'qlarga mos keladi. Trigonal singoniyasida yakka L3 o'qi yakka yo'nalish ustidan o'tadi (mos keladi). L3 o'qiga qiya joylashgan tengsimmetrik yo'nalishlar kamida uch marta takrorlanadi. Tetragonal singoniyada bittagina L4 (yoki Li4) o'qi yakka yo'nalishga mos keladi. L4 qiya joylashgan teng simmetrik yo'nalishlar kamida to'rt marta takrorlanadi.

4.13. Yakka yo'nalishsiz yuqori toifa kristallar. Doimo bir necha ikkinchi darajalidan yuqori o'qlar qatnashadi. Masalan, kubik singoniyada 4L3 bo'lishi shart. Ayrim ko'ptomonliklarning u yoki bu simmetriya turiga taalluqli ekanligi undagi mayjud bo'lgan barcha simmetriya elementlarini topish yo'li bilan isbotlanadi. Bunday misollar yuqorida keltirilgan edi. Masalan, olti tomonli, asosli to'g'ri oltiburchakli bo'lgan piramidada L66P simmetriya elementlari topilgan. Bu topilgan simmetriya elementlarining jamini simmetriya turlari keltirilgan jadvalga (2-jadval) taqqoslab, bu kristall modeli geksagonal singoniyasining planal simmetriya turiga to'g'ri

kelishi aniqlanadi. Gugurt qutisi yoki g'isht shaklidagi modelda simmetriya elementlarining jami 3L23PC ga teng. Shu 2-jadvaldan bunday simmetriya elementlariga ega bo'lgan shakllar rombik singoniyasi planaksial simmetriya turiga mansubligini aniqlaymiz. Kub shaklining simmetriya elementlari – ZL44L36L29RS ga teng. Jadval yordami bilan kubik singoniyasi planaksial simmetriya turiga taalluqli ekanligining guvohi bo'lamiz. Shunday qilib, 2-jadvaldan foydalanib, o'rganayotgan kristallning qaysi simmetriya turiga, singoniyaga, kategoriyaga taalluqli ekanligini batatsil aniqlab olish mumkin.

Kristallarning simmetriya elementlarining jamini to'liq chiqarish uchun quyidagi holatlarni nazarda tutish lozim (3-jadval): 1) L6 (yoki Li6) o'qlari faqat bittadan ortiq bo'lmaydi; 2) L4 (yoki Li4 o'qlari bitta (L4, Li4) yoki uchta bo'lishi (3L4, 3Li4) mumkin; 3) La o'qi bitta, yoki to'rtta (4L3) bo'ladi; 4) I2 bitta yoki ikkita (2L2), uchta (3L2), to'rtta (4L2) va oltita (6L2) bo'lishi mumkin; 5) R faqat bittagina (R), yoki ikkita (2R), uchta (ZR), to'rtta (4R); beshta (5R), oltita (6R), ettita (7R) va to'qqizta (9R). Kubik singoniyalarining simmetriya turlarini aniqlash murakkabroq. Bu masalani ozgina bo'lsa ham osonlashtirish uchun 4-jadvalni keltiramiz.

Kristallarning qaysi singoniyaga taalluqli ekanligini amaliyotda ko'pincha simmetriya elementlarini chiqarmasdan turib, taxminan aniqlashga to'g'ri keladi. Shuning uchun 3,4-jadvallarda har bir singoniyaning o'ziga xos belgilarni mukammal o'zlashtirib olish lozim. Bu yerda yakka yo'naliш katta yordam beradi. Masalan, kubik singoniyasi kristallarida yakka yo'naliшning yo'qligi xarakterlidir. Natijada ideal sharoitda rivojlangan kubik singoniyasi kristallari modellarida alohida ajralib turadigan yo'naliш bo'lmaydi. Shuning uchun bu singoniyalarining shakllari cho'zinchoq ham emas, yassi ham emas, izometrik shar shakliga yaqinlashib keladi. Ko'ptomonliklarning shakllari shar sathini eslatadi.

O'rta kategoriya kristallarida ularning cho'zinchoq yoki yassi yo'naliшga to'g'ri keladigan bittagina yakka yo'naliш yaqqol ko'zga tashlanadi. Bunday yo'naliшga mos keladigan o'qlarning darajasini aniqlab kristall singoniyasini topamiz (masalan, kristallning cho'zinchoq yo'naliш L4 o'qiga to'g'ri kelsa, demak, u tetragonal singoniyasiga tegishli). Buni yuqorida keltirgan olti tomonli piramida misolida ham tasdiqlash mumkin. Bu kristalldagi yakka takrorlanmaydigan, piramida cho'qqisi bilan uning olti burchakli asosi markazini birlashtiruvchi to'g'ri chiziq yakka yo'naliшga to'g'ri keladi. Shuning bilan bir qatorda bu to'g'ri

chiziq oltinchi darajali o'q ham bo'ladi. Demak, u geksagonal singoniyasi-ga mansub bo'lgan kristall degan xulosa chiqarish mumkin.

**3-jadval
Singoniya xususiyatlari**

Kategoriya	Singoniya	Yakka yo'nalish miqdori	Karakterli simmetriya elementlari
Quyi Bir necha yakka yo'nalish mavjud, ikkinchi darajalidan yuqori o'qlar bo'lmaydi	Triklin	Barcha yo'nalishlar	S
	Monoklin	Ko'p	R L2 L2PC
	Rombik	Uchta	L23P 3L2 3 L23PC
O'rta Bitta yakka yo'nalish bo'lib, u ikkinchidan yuqori darajali o'qlar bilan mos tushadi	Trigonal	Bitta	L3
	Tetragonal	Bitta	L4 yoki L14
	Geksagonal	Bitta	L6 yoki L16
Yuqori Yakka yo'nalish yo'q. Bir necha yuqori darajali o'qlar bilan mos tushadi	Kubik	Yo'q	4L3

4-jadval

R bor			R yo'q.	
L4 bor	L4 yo'q		L4 bor	L4 yo'q
	S bor	S yo'q		
Planaksial simmetriya turi	Markazlashgan simmetriya turi	Planał simmetriya turi	Aksial simmetriya turi	Pri-mutiv sim-metri-ya turi

32 simmetriya turi va ularning belgilari

Singoniya	Simmetriya turining nomi	Belgilari			
		Grot	Shen-flis	German — Mogen	Shubni- kov
1	2	3	4	5	6
I. Triklin	Monoedrli	-	S1	1	1
	Pinakoidli	S	S	1	2
II. Monoklin	Diedr o'qli	2	S2	2	2
	Diedr o'qsiz	R	Sa	m	m
	Prizmali	L2PC	S2h	2/m	2.m
	Rombotetraedrli	3 L2	D2=V	21.2	2.2
III. Rombik	Rombopiramidalni	L22P	C2V	mm2	2 m
	Rombo-dipiramidalni	3L23PC	D2h=Vh	mmm	m 2 m
IV. Tpogonal	Trigonalpiramidalni	L3C	S3i	3	3
	Romboedrli	L3CL2	C3i=S6	3	6
	Trigonal-trapetoedrli	L33L2	D3	32	3.2
	Ditrigonal-piramidalni	L33P	C3v	Za	3.m
	Ditrigonal-skalenoedrli	L33L23PC	D3d	3m	3.m

V.Terparonal	Tetragonal – piramidali	L4	C4	4	4
	Tetragonal – dipiramidali	L4PC	C4h	4/m	4.m
	Tetragonal – trapetoedri	L44L2	D4	422	4.2
	17. Ditetragonal piramidali	L44P	C4v	4mm	4.m
	18. Ditetragonal – dipiramida-li	L44L25PC	D4h	4mmm	m 4: m
	19.	L24	S4	4	4
	Tetragonal – tetraedri				
VI Geksa gonal	20.	L242 L22P	D2d=Vd	42m	4.m
	Tetragonal – skalenocedri				
	21.	L6	C6	6	6
	Geksagonal – piramidali				
	22. Geksagonal – dipiramidali	L6PC	S6h	6.m	6.m
	23. Geksagonal – trapetoedri	L66L2	D6	622	6.2
	24. Digeksagonal – piramidali	L66P	C6V	6mm	6.m
VII. Trigonal	25. Digeksagonal – dipiramidali	L66 L27PC	D6n	6mmm	m 6: m
	26. Trigonal – dipiramidali	L3P	C3h	6	3.m
VIII. Ditrigo	27. Ditrigonal – dipiramidali	L33 L24P	D3h	6m2	m.3.m

VII Kubik	28. Pentagon – tritetraedrli	4L33L2	T	23	3:2
	29. Didodekaedrli	4L33L23PC	Th	m3	6/2
	30. Pentagon – trioktaedrli	3L44L36L2	O	432	¾
	31. Geksatetraedrli	3L24L36P	Td	43m	
	32. Geksaoktaedrli	3L44L36L-29PC	Oh	M3m	

Xuddi shunday uslub bilan yakka yo'nalishlardan foydalanib, quyi toifali ko'p tomonlarining singoniyalarini ham aniqlaymiz. Agar uchta bir-biriga perpendikular joylashgan yakka yo'nalishlar bo'lsa, u rombik singoniyasiga to'g'ri keladi. Agar yakka yo'nalishlar soni cheksiz miqdorda ko'p bo'lsa, kristall shakllaridagi mavjud bo'lgan simmetriya elementlariga qarab monoklin yoki triklin singoniyasiga tegishli shakl bo'ladi va ularning belgilari bilan ifodalanadi (5-jadval).

5-jadvaldagagi simmetriya turlari va ularni ifodalovchi xalqaro miqyosda qabul qilingan maxsus belgililar (Grot, German-Mogen) ko'rinishida yozilgan. Bunday belgilarni Grot, German-Mogen, Shenflis va Shubnikovlar tavsiya etganlari uchun ularning nomlari bilan yuritiladi. Masalan, Grot belgisi, Shenflis belgisi, Shubnikov belgisi va h.k.

Shunday qilib, kristall modellarini o'rganishda qabul qilingan yozish tartibini keltiramiz: 1. Simmetriya elementlari. 2. Yakka yo'nalishlar soni va joylashishi. 3. Singoniyalar toifasi. 4. Singoniyasi. 5. Simmetriya turining nomi.


5. KRISTAL SHAKLLARI

5.1. Umumiyl tushuncha. Kristallarning shakllari, shakllari (gabituslari) mineralshunoslar uchun katta katta amaliy ahamiyatga ega, chunki ular kristallarning tashqi ko'rinishiga qarab, kimyoviy tahlil o'tkazmasdan turib, minerallarni aniqlaydilar. Kristall hosil bo'lish sharoitlari o'zgarib turishi natijasida ularning shakllari har xil bo'lishiga qaramasdan, har bir muayyan birikma (mineral) faqat o'ziga xos bo'lgan kristall shakliga ega. Shu qonuniyat asosida so'nggi yillarda foydali qazilmalarni qidirish-

da maxsus kristallomorfologik usullar yuzaga keldi va amaliyotda keng ko'lamda ishlatalmoqda. Masalan, pirit FeS₂ kristallarining shakliga qarab oltin konlarining zaxiralarini bashorat qilish mumkin. Agar oltin konlari ning chuqurlasha borishi bilan kub shaklidagi pirit kristallari, kub va oktaedr kombinatsiyalari yoki pentagondodekaedr shakllari bilan almashsa, oltin zaxirasining ko'pligidan dalolat beradi.

Biz oldingi bobda kristall shakllari, simmetriya elementlari va turlari bo'yicha bir-biridan ajralib turishiga ishonech hosil qilgan edik. Lekin ko'pincha tashqi shakli har xil bo'lishiga qaramasdan ularning simmetriya elementlari birdek bo'ladi. Masalan, kub va oktaedr. Bularning simmetriya elementlari bir xil: ZL44L36L29RS. Shuning uchun kristallarni geometrik tekshirishda simmetriya elementlari bilan bir qatorda shaklning o'zini ham o'rganish zaruriyati tug'iladi. Ularning shakllari turli xil va murakkab shakllarda uchraydi.

5.2. Oddiy shakllarni chiqarish haqida tushuncha. Oddiy shakllarni chiqarishning negizini tushunish uchun bir necha misollarni keltiramiz. Monoklin singoniyasi aksial simmetriya turida bittagina L2 o'qi mavjud. Bu yakka o'qqa nisbatan tomonlar har xil vaziyatda: (23-rasm); qiya (a), perpendikular (b), yoki parallel (v) shakli joylashishi mumkin.



23-rasm. L2 o'qiga nisbatan tomonlarning joylashishi

takrorlanadi. Natijada bir-biri bilan ma'lum burchak hosil qilib joylashgan ikkita teng tomonidan iborat bo'lgan, ikkinchi darajali o'q bilan bog'langan (α 'qli diedr deb nomlangan) oddiy shakl yuzaga keladi. Tomon L2 o'qiga nisbatan perpendikular joylashgan bo'lsa, bundan biron ta yangilik chiqarib bo'lmaydi, chunki ikkinchi darajali o'q atrofida aylantirganda bu tomonning faqat qirralari o'zaro o'rinn almashtadi, xolos. Bu holatda faqat yakka tomonli oddiy shakl (monoedr) hosil bo'ladi. Tomonni L2 o'qiga parallel joylashtirib, bu atrofida 180° aylantirib, aynan shunday, o'qqa parallel joylashgan ikkinchi tomonni topamiz. Ikkita o'zaro parallel tomonlardan

Boshqa chacha joylanishini tasavvur etib bo'lmaydi. Tomon L2 o'qiga nisbatan qiya joylashgan bo'lib, bu o'q atrofida 180° ga aylantirganda, aynan shuningdek, ikkinchi tomon

iborat bo'lgan, uchinchi oddiy shakli (pinakoidni) vujudga keltirdik. Demak, monoklin singoniyasining aksial simmetriya turida uch turdag'i oddiy shakllar bo'lishi mumkin: diedrlar, monoedrlar va pinakoidlar. Shuning kabi tomonlari simmetriya elementlariga nisbatan turli vaziyatda joylashtirib, kristallardagi 32 simmetriya turiga mansub bo'lgan barcha oddiy shakllarni chiqarish mumkin.


Oddiy shakllar tomonlari barcha simmetriya o'qlariga va tekisliklarga nisbatan qiya joylashgan bo'lsa, u umumiyligi oddiy shakl deb ataladi (kubik singoniyasining kristallarining ba'zi bir oddiy shakllari bundan mustasno). Masalan, primitiv simmetriya turida pentagonitetratetraedr umumiyligi shaklning tomonlari uchinchi darajali o'qlarga parallel joylashgan.

Oddiy shakllar tomonlari bitta simmetriya o'qiga yoki tekislikka, yoki bo'limasa ikkita yoki bir nechta ekvivalent simmetriya o'qlariga yoki simmetriya tekisliklariga nisbatan parallel joylashgan bo'lsa, ulami xususiy shakllar deb ataladi. Yuqorida mulohaza qilingan monoedr (tomoni L2 o'qiga nisbatan perpendikulyar) va pinakoid (tomonlari L2 o'qiga parallel) xususiy shakllar uchun misol bo'la oladi. Bular kabi shakllar boshqa simmetriya turlarida ham kuzatiladi.

Har bir simmetriya turida faqat bir xil turdag'i va bitta nomdag'i umumiyligi shakl bo'ladi. Boshqa simmetriya turlarida bu oddiy shaklning o'zi xususiy holatda bo'lishi mumkin. Yuqorida tasvirlangan simmetriya o'qlariga va tekisliklariga nisbatan nuqtalarini har xil vaziyatda joylashtirib, berilgan simmetriya turining barcha oddiy shakllarini chiqaramiz. 32 ta simmetriya turlari bo'yicha shunday tajribalarni o'tkazib takrorlanganlarini o'chirib kristallografiyada mumkin bo'lgan barcha oddiy shakllarni yuzaga keltiramiz.

5.3. Oddiy va murakkab (kombinatsiyali) shakllar. Kristallar tomonlarining shakli bo'yicha ikki guruhsiga bo'linadi: birinchi guruhsiga tomonlari o'chamlari, ko'rinishlari bir xil bo'lgan, o'zaro simmetrik holda joylashgan kristallar mansub. Bunday kristallar ideal sharoitda rivojlangani uchun doimo to'g'ri geometrik shaklga ega. Kub, oktaedr shular jumlasidandir. Tomonlari, shakllari va o'chamlari har xil bo'lgan kristallar ikkinchi guruhsiga taalluqli. Masalan, geksagonal piramidan olaylik. U ikki xil ko'rinishdagi tomonlardan iborat: birinchisi o'zaro teng, o'xshash oltita uchburchakli tomonlardan va olti burchakli asosdan iborat. G'isht yoki gugurt qutisi shaklidagi kristallar uchta juft o'zaro parallel, uch o'chamda har xil bo'lgan (katta, o'rtacha va kichkina) to'g'ri burchakli to'rtburchak ko'rinishidagi tomonlardan iborat.

Birinchi guruh ko'p tomonlilarni oddiy shakllar, ikkinchi guruh-dagilarni esa murakkab (kombinatsiyali) shakllar deyiladi. O'zaro simmetriya elementlari orqali bog'langan tomonlar yig'indisiga oddiy shakl deb ataladi. Bitta ideal sharoitda rivojlangan oddiy shakl tomonlarining fizik va kimyoviy xususiyatlari, tashqi shakllari, o'chamlari, o'zaro joylashishlari birdek bo'lishi shart. Chunki ularning barchasi o'zaro simmetriya elementlari bilan bog'langan, ya'ni ular simmetriya elementlari orqali berilgan bitta tomon asosida chiqariladi. Oddiy shakllarga misol tariqasida, oktaedri (24-rasm) keltirish mumkin.



24-rasm. Oktaedr

Darhaqiqat, bunday kristallarning barcha tomonlari, berilgan bitta tomon orqali simmetriya elementlari (ZL44L36L29RS) vositasida chiqariladi. 24-rasmdagi 2,3,4 tomonlarni aynan shularga o'xshash 1-raqamli tomonni to'rtinchidagi (L4) o'q atrofida aylantirish natijasida chiqarish mumkin. O'z navbatida 5,6,7,8 pastki tomonlar ham ularga o'xshash bo'lgan yuqori tomonlarni gorizontal holatdagi simmetriya tekisligi orqali aks ettirib chiqarish mumkin. Ikkita va undan ortiq shakllarning birikishidan iborat bo'lgan shakllarga murakkab (kombinatsiyali) shakllar deyiladi. Ular tomonlarining soni, ko'rinishlari, o'chamlari va boshqa xususiyatlari har xil bo'lganligi uchun, barcha tomonlari yaxlit simmetriya elementlari bilan iboratligini aniqlashda, shu kristallda nechta turli tomon borligini aniqlab olish lozim. Har qaysi alohida-alohida ko'rinishga ega bo'lgan tomonlar har xil oddiy shakllarga mansub. Shakllarni aniqlashda tomonlar soniga va ularning bir-biriga nisbatan joylashishiga jiddiy e'tibor berish zarur. Bir turli tomonlar jami, ko'pincha bitta oddiy shaklni ifodalaydi (bundan tashqari ular simmetriya elementlari bilan bog'lanishi shart). Murakkab shakldagi tomonlar turining soni, odatda oddiy shakllar miqdoriga teng bo'ladi (undan kam bo'lmasligi kerak). Murakkab shaklga olti tomonli piramida misol bo'la oladi. Uning oltita uchburchakli tomonlari o'zaro simmetriya elementlari bilan bog'langanligi uchun bitta oddiy shakl bo'la olaadi. Chunki uning tomonlaridan bittasini belgi qilib olib L6 o'qi atrofida aylantirganda shunga o'xshash tomonlar olti marta takrorlanadi. Piramida asosi bitta bo'lgan tomon, ko'rinishidan bu tomonlardan katta farq qiladi, bu tomon yuqoridagidek takrorlanmaydi. Shuning uchun u boshqa oddiy shaklga mansub. Natijada olti tomonli piramida murakkab shakl bo'lib, u

ikkita oddiy shakldan (geksagonal piramida va monoedr) iborat ekanligini ko'ramiz.

5.4. Ochiq va yopiq oddiy shakllar. Kristall oddiy shakllari ochiq va yopiq bo'lishi mumkin. Kristall har xil tomonlar bilan chegaralangan bo'lsa, bu tomonlarni xayolan davom ettirganda, ular fazoda kesishib kristall ustini to'liq qoplamasdan bo'sh joy qolsa uni ochiq shakl deyiladi. Masalan, prizmalar va piramidalar. Bularni tashkil qiluvchi tomonlari ning shakli va katta-kichikligi har xil. Tomonlari o'zaro kesishib kristall sathi to'liq qoplangan bilan, asoslari ochiq qoladi. Shuning uchun bunday ochiq oddiy shakllar mustaqil kristall bo'la olmaydi. Ularning to'liq oddiy shakllar bo'lishi uchun, oddiy shakllar soni ikkita yoki undan ortiq bo'lishi kerak, ya'ni kombinatsiya holida bo'ladi. Masalan, trigonal, tetragonal va geksagonal piramidalar, ikkita oddiy ochiq shakldan: piramida va uning asosi monoedrdan iborat. Trigonal, tetragonal va geksagonal prizmalar, prizma bilan pinakoidning kombinatsiyasidan iborat. Ikkitasi qo'shilib yaxlit bitta ochiq kristall shaklini hosil qiladi. Kristall bir xil tomonlar bilan chegaralangan bo'lsa, ularni xayolan fazoda davom ettirganda o'zaro kesishib ochiq joy qoldirmasdan tutashsa, unga yopiq shakl deyiladi. Masalan, kub shakli bir xil va o'zaro parallel tomonlardan iborat bo'lib, bu tomonlarni fazoda xayolan davom ettirsak, ular kesishib kub sathini ochiq joy qoldirmasdan to'liq qoplayadi, Shuning uchun u yopiq oddiy shaklga taalluqli. Shu kabi oktaedr, trapetoedrlar, dipiramidalar, romboedr, tetaedrlar va skalenoedrlar ham yopiq oddiy shakllarga mansub. Kristallografiyada 47 oddiy shakllar ma'lum. Ularning barchasi 32 simmetriya turi asosida jiddiy matematika uslublari bilan isbotlangan. Har bir oddiy shakllar o'zlariga xos shaklga, simmetriya elementlariga va boshqa xususiyatlarga ega. Shunga qarab ularning qaysi toifaga (quyi, o'rta, yuqori) singoniyalarga (triklin, monoklin, rombik, trigonal, tetragonal va geksagonal) tegishli ekanligi aniqlanadi.

5.5. Quyi toifali oddiy shakllar. Quyi kategoriya triklin, monoklin va rombik singoniyalarida yettiha oddiy shakl mavjud. Ular tomonlaringi miqdori va o'zaro joylashishi to'g'risidagi ma'lumotlar 6-jadvalda keltirilgan.

5.6. Triklin singoniyasi. Triklin singoniyasining (-) primitiv simmetriya turida simmetriya elementlari bo'lmaganligi uchun, unda faqat alohida-alohida, hech nima bilan bog'lanmagan tomonlar yig'indisidan iborat bo'lgan oddiy shakllar (umumiy) bo'lishi mumkin. Shunday bir


tomonli oddiy shakllar monoedr (grekcha monos – yakka, edra – tomon) deb yuritiladi (26-rasm, a). Simmetriya markazi mavjud bo'lgan shakllarda barcha tomonlari ikkitadan, juft-juft va o'zaro parallel bo'lib bog'lana-di. Bu holatda monoedr bo'lishi mumkin emas. Shuning uchun triklar singoniyasining markazlashgan simmetriya turida (S) faqat o'zaro parallel juft tomonlardan iborat bo'lgan oddiy shakllar (umumiy) uchraydi. Ikkita o'zaro teng va parallel tomonlardan iborat bo'lgan oddiy shaklga pinakoid [pinaks (grck.) – taxta] deyiladi. O'z-o'zidan ma'lumki, monoedrlar va pinokoidlar alohida yakka-yakka bo'lmasdan, doimo kombinatsiya holatida uchraydi. Demak, triklar singoniyasida ikkita turdag'i oddiy shakllar monoedrlar va pinakoidlar uchraydi (faqat umumiy shakl holida).

5.7. Monoklin singoniysi. Ularning kristalida monoedrlardan va pinakoidlardan tashqari diedrlar va rombik prizmalar mavjud (so'nggi ikkitasi umumiy shakl holida). Ikkita neparallel (kesishadigan) tomonlardan tashkil topgan oddiy shaklga diedr deyiladi. Diedr ikki shaklda uchraydi. Birinchisi o'qsiz diedr-simmetriya elementlari faqat bitta tekislikdan (R) iborat; ikkinchisi – o'qli diedr shaklida bo'lib, faqat bitta L2 mavjud.

Rombik prizma – to'rtta, bir xil o'lchamli tomonlardan iborat bo'lgan. Ko'ndalang kesimi romb (25-rasm, g). Monoedrlar va pinakoidlar kabi, diedrlar va rombik prizmalar ham bir-biri bilan tutashib ketgan yopiq ko'ptomonlilar hosil qilmaydi, ular faqat kombinatsiyalar holida uchraydi. Darhaqiqat, rombik prizmaning to'rtta tomonini alohida olib qarasak, ularning ikki uchi (yuqorigisi va pastkisi) ochiq holatdag'i (ikki uchini xayolan cheksiz davom ettirish mumkin) shaklni ifodalaydi; yopiq ko'ptomonliklarda bu ikkala cheti (oxiri) boshqa oddiy shakllar bilan qoplangan bo'ladi. Monoklin singoniyasida to'rtta tipdag'i oddiy mavjud: monoedrlar, pinakoidlar, diedrlar va rombik prizmalar.

5.8. Rombik singoniyalı kristallar. Oldingi zirk qilingan to'rtta oddiy shakllardan tashqari rombik tetraedrlar, rombik piramidalar va dipiramidalar (so'nggi uchtasi faqat umumiy shakl sifatida) ishtirok etadi. Rombiktetraedr – to'rtta bir-biriga o'xshash, bir xil o'lchamli tomonlarning uchtasi bitta cho'qqiga birlashishidan hosil bo'lgan oddiy yopiq shakl.

Ko'ndalang kesimi rom shaklida. Bunday tetraedrlarning bir-biriga oynadagi aksidek teng bo'lgan ikki turi mavjud (26-rasmda ikkala tetraedrlar aks ettirilgan). Shunga o'xshash oynadagi aksi kabi teng ko'p tomonliklar boshqa singoniyalarda ham uchraydi. Bu hodisani enantiomorfizm (enatios – grek. qarama-qarshi demakdir) deyiladi.




25-rasm. Quyi kategoriya singoniyalarining oddiy shakllari.

a – monoedr; b – pinakoid; v – diedr; g – rombik prizma; d – rombik tetraedr; e – rombik piramida; j – rombik dipiramida.

Ikkita teng shakllardan birinchisi ikkinchisining oynadagi aksi kabi o'xshash bo'lsa, ular enantiomorf shakllar deb ataladi. Shunga binoan ularni bir-biridan farq qilish uchun o'ng va chap enantiomorf shakllar deb yuritiladi (26-rasm). Enantiomorf – teng bo'lgan shakllarni faqat oynadagi aksi orqali o'zaro moslashtirish mumkin. Bunday ko'p tomonlilarda simmetriya elementlaridan bitta oddiy o'q ishtirot etadi. Bunday enantiomorf shakllarda inversion o'q L1, simmetriya tekisligi (R) va inversiya markazi (S) bo'lmaydi, kristallari fizik xususiyatlari bilan bir-biridan ajralib turadi (qutlashish sathining aylanishi, qutplashgan piro va pezolektrikligi).

Rombik-piramida – to'rtta bir xil tomonlari bitta nuqtada (cho'qqida) kesishgan va asos romb ko'rinishida bo'lgan oddiy shakl (25-rasm, e). Rombik piramida ochiq oddiy shakl bo'lib, faqat kombinatsiya holida uchraydi. Rombik dipiramida – teng va o'xshash sakkiz tomonidan iborat bo'lgan oddiy shakl (25-rasm, j). U ikkita rombik piramidalarning asoslari bo'yicha jipslashgan oddiy yopiq shakl. Rombik singoniyasida yettita oddiy shakllar: monoedr, pinakoid, diedr, rombik prizma, rombik tetraedr, rombik piramida va rombik dipiramida bo'lishi mumkin.



26-rasm. o'ng tetraedr (a), chap rombik(b).

Ko'pincha talabalar kombinatsiyada ishtirok etayotgan oddiy shakllarni aniqlashda qiynaladilar. Bunday hollarda aniqlayotgan asosiy shaklning bir xil tomonlarini, kombinatsiyada ishtirok etayotgan boshqa tomonlarga e'tibor bermasdan, xayolan kesishguncha davom ettirishlari maqsadga muvofiqdir. Bunday uslub u yoki bu oddiy shaklni aniq tasavvur etish imkoniyatini beradi. Kombinatsiyalardagi oddiy shakllarni aniqlashni osonlashtirish maqsadida quyidagi 6-jadvalni keltiramiz.

6-jadval
Quyi kategoriya oddiy shakllari
(V.B.Tatarskiy bo'yicha, 1978 yil)


Bir xil tomonlar soni	Tomonlarning o'zaro joylashishi	O'zaro shakllar nomi
1	-	Monoedr
2	Tomonlari parallel	Pinakoid
2	Tomonlari kesishadi	Diedr
4	Qarama-qarshi tomonlari teng va parallel	Rombik prizma
4	Barcha tomonlari bitta nuqtada kesishadi	Rombik piramida
4	Tomonlari parallel emas, barchasi ham bir nuqtada kesishmaydi	Rombik tetraedr
8	Tomonlari ikki nuqtada kesishadi	Rombik dipiramida

5.9. O'rta toifali oddiy shakllar. Yuqorida keltirilgan quyi kategori oddiy shakllaridan o'rta kategoriya da faqat ikki tipdagi shakllar – monoedrlar va pinakoidlar ishtirok etadi. Bundan tashqari, trigonal, tetragonal va geksagonal singoniyalari kristallarida 25 yangi turdag'i oddiy shakllar uchraydi. Bunga prizmalar, piramidalar va dipiramidalar taalluqli. Bu shakllar yuqoriqoq simmetriyalig'i bo'lganligi uchun, ular rombik prizmaga, rombik piramidaga, rombi dipiramidaga va quyi kategoriya boshqa shakllariga to'g'ri kelmaydi. Prizmalar turkumidan boshlaymiz (27, 28-rasmlar).


Trigonal prizma – L3(Li6) o'qiga parallel joylashgan uchta tomonidan iborat bo'lib, ko'ndalang kesimi teng tomonli uchburchak (trigon) shaklida bo'ladi. Ditrigonal prizmaga trigonal prizma tomonlarining ikkilanishidan hosil bo'lgan shakl deb qarash mumkin. Uning ko'ndalang

kesimi teng tomonli olti burchakli shakl bo'lib bir xil burchaklar galma-gal takrorlanadi. Bunday kesmani ditrigon deyiladi. Geksagonal prizma L6 yoki Li6 o'qlariga parallel joylashgan oltita teng tomonli shakl. Asosining ko'ndalang kesimi teng tomonli olti burchakli shakl geksagon deb ataladi. Digeksagonal prizma – geksagonal prizma tomonlarining ikkiga bo'linishidan paydo bo'lgan shakl. Uning o'n ikki teng tomonli asosining ko'ndalang kesimi 12 ta burchakli shakl bo'lib, bir xil qiymatli burchaklar ketma-ket takrorlanadi. Bunday kesma digeksagon deyiladi. Tetragonal singoniyasida ikkita prizma mayjud: tetragonal va ditetragonal. Tetragonal prizma L4 yoki Li4 o'qlariga parallel joylashgan to'rtta teng tomonli shakl. Asosining ko'ndalang kesimi kvadrat shaklida bo'lib, tetragon deyiladi. Ditetragonal prizma – tetragonal prizma, tomonlarining ikkiga bo'linishidan hosil bo'lgan shakl. Asosining ko'ndalang kesimi teng tomonli, sakkizburchakli shakl – ditetragon deb ataladi. Yuqorida keltirilgan prizmalarning barchasi ham xususiy oddiy shakllarga mansub, chunki tomonlar asosiy, ya'ni yuqori darajali simmetriya o'qlariga parallel joylashgan.

Quyida tasvirlanadigan o'rta singoniya shakllari, simmetriya turlariga qarab ba'zilari xususiy, ba'zilari esa umumiy oddiy shakllarga mansub. Piramidalar va dipiramidalar turkumi ham prizmalar kabi mulohaza qilina-



27-rasm. O'rta toifali singoniyalaringin piramidalari. A-prizmalari.
a-trigonal; b – tetragonal; v – trigonal; b – tetragonal; v – geksagonal;
g-geksoganal; g-ditetragonal; d-ditetragonal; ditrigonal; d-ditetragonal;
e-digeksagonal kesimlari.



28-rasm. O'rta toifali singoniyalarning prizmalari.


a-trigonall; b-tetragonal, v-geksagonal; g-ditrigonal, d-ditetragonal, e-digeeksagonal va ularning ko'ndalang dikgeeksagonal kesimlari.

di. Piramidalarning barcha tomonlari yuqori darajali simmetriya o'qlarini (L_3 , L_4 , L_4 , L_6 , L_6) bitta nuqtada kesadi va bu o'qlarga nisbatan qiya joylashadi. Shuning uchun ular umumiy shakllar hisoblanadi.

Trigonal singoniyasida quyidagi oddiy shakllar mavjud: trigonal piramida uch tomonli, asosi teng tomonli uchburchakdan (trigon) iborat bo'lgan umumiy oddiy shakl. Ditrigonal piramida, trigonal piramida tomonlarining ikkiga bo'linishiida hosil bo'lgan shakl. Asosi teng olti tomonli olti burchakli bo'lib, ditrigo deyiladi. Bir xil qiymatli burchaklar ketma-ket takrorlanadi. Geksagonal singoniyasida geksagonal piramida va digeeksagonal piramida oddiy shakllar ishtirok etadi. Geksagonal piramida olti tomonli, asosan teng tomonli olti burchakli (geksagon) monoedrdan tashkil topgan umumiy oddiy shakl.

Digeeksagonal piramida geksagonal piramida tomonlarining ikkiga bo'linishidan hosil bo'lgan umumiy oddiy shakl. Asosi o'n ikki tomonli, o'n ikki burchakli monoedr bo'lib, digeeksagon deb ataladi. Bir xil qiymatli burchaklar ketma-ket takrorlanadi. Tetragonal singoniyasida to'rt tomonli tetragonal piramida va sakkiz tomonli tetragonal dipiramidalar mavjud. Tomonlari va asoslaridagi monoedrlar burchaklarining qiymati trigonal, geksagonal piramidalar va dipiramidalardagidek. Birinchisining asosi tetragon (kvadrat), ikkinchisini esa ditetragon deb yuritiladi. Nihoyat dipiramidalar (qo'shaloq piramidalarda) ham shunday holatni ko'rish mumkin (29-rasm).

Ularning tomonlari yuqori pastki L3, L4, Li4, o'qlarning ko'ndalang kesimlari. L6 Li6 larining tagida mos holatda joylashadi. Tegishli dipiramidalar tomonlarining soni oddiy piramida (yoki prizma) tomonlari sonidan ikki barobar ko'p.




29-rasm. O'rta kategoriya dipiramidalari: a – trigonal; b – tetragonal; v – geksagonal; g – darajali o'qlarni ikki nuqtada ditrigonal; d – ditetragonal; e – dikgeksagonal va (cho'qqida) kesadi.


Trigonal va geksagonal singoniyalarida trigonal (olti tomonli) va geksagonal (o'n ikki tomonli) dipiramidalar oddiy shakllar qatnashadi. Ularning ko'ndalang kesimi to'g'ri uchburchakli va to'g'ri oltiburchakli shakllardan iborat. Bundan tashqari, trigonal va geksagonal singoniyalarda ditrigonal va digeksagonal dipiramida oddiy shakllari ham uchraydi. Ditrigonal dipiramida – trigonal dipiramida tomonlarining ikkiga bo'linishidan hosil bo'lgan oddiy shakl. Ko'ndalang kesimi ditrigon. Bir xil qiymatga ega bo'lgan burchaklar ketma-ket takrorlanadi. Digeksagonal dipiramida – geksagonal dipiramida tomonlarining ikkilanishidan hosil bo'lgan shakl. Yigirma to'rtta tomonga ega. Asosining ko'ndalang kesimi digeksagonal. Asosi tomonlari orasidagi bir xil qiymatga ega bo'lgan burchaklar digeksagonal piramidadagidek takrorlanadi.

Tetragonal singoniyasida tetragonal va ditetragonal dipiramida oddiy shakllari ko'p tarqalgan. Tetragonal dipiramida sakkizta oddiy shakl. Asosining ko'ndalang tomonlarining tagida mos holatda joylashadi. Ditetragonal dipiramida o'n oltita tomonli, asosining ko'ndalang kesimi ditetragon. Asosiy tomonlari orasidagi burchaklar qiymati har xil bo'lib, bir xil burchaklar ketma-ket takrorlanadi.


O'rta toifali shakllarda tetragonal tetraedr, romboedr, skalenoedrlar va trapetsoedrlar alohida o'rin egallaydi. Tetragonal tetraedr – to'rtinchidagi darajali inversion o'q (rombik tetraedr tomonlari har xil uzunlikdagi uchburchak shaklida) orqali bog'langan to'rtta teng yonli uchburchakli tomonlardan iborat. Uning ikkita yuqoridagi tomonlari orasida pastdagi bitta tomon joylashgan. Romboedr – trigonal singoniyasining oddiy shakli. Bu muhim shaklga alohida e'tibor berish lozim. Chunki u kub shaklini $4L3$ o'qlaridan bittasi bo'yicha qisman yassilanishidan yoki cho'zilishidan hosil bo'lgan shakl. Romb shakli oltita tomondan iborat. Yuqori tomonlariga nisbatan pastki tomonlari simmetrik holda joylashgan (30, 31, 32-rasmlar).




30-rasm. Tetragonal



31-rasm. Tetraedr
(Li42L22P) (L33L23PC)



a




b

32-rasm. Romboedr. Skalenoedrlar:
a – trigonal (Li42L22P); b – tetragonal (L3ZL2ZRS)

Bundan keyingi oddiy shakllarga tetragonal va trigonal skalenoedrlar (skalenos (grek. – qiyishiq, qiya) kiradi (32-rasm)). Tomonlari asosiy o'qlarni (L_4 va L_3) ikki nuqtada kesadi. Pastdan bitta juft tomonlari yuqoridagi ikkita juft tomonlari orasida simmetrik ravishda joylashgan. Har xil o'lchamli uchburchaklar ko'rinishidagi tomonlarga ega. Tetragonal skalenoedrlar L_4 o'qi mavjud, ya'ni tetragonal singoniyasiga mansub

bo'lgan oddiy shakl. O'xhash sakkizta tomonlari ikkilangan tetragonal tetraedrga o'xshaydi. Trigonal skalenoedr – trigonal singoniyasiga mansub oddiy shakl. Uning o'n ikki tomoni ikkilangan romboedrga to'g'ri keladi. Tomonlari L3 o'qini ikki nuqtada kesadi.

Oxirida trapetsoedrlar (trapeza – grek. stol) bilan tanishamiz (33-rasm). Bu shakllarning tomonlari asosiy o'qlarni (L3, L4, L6) ikki nuqtada (cho'qqida) kesadi. Lekin pastki tomon yuqorigi ikki tomonga nisbatan nosimmetrik holatda joylashgan. Tomonlar to'rburchakli-trapetsoedr shaklida. Trapetsoedrlarda faqat oddiy o'qlar qatnashadi, L1, R va S bo'lmaydi. Shuning munosabati bilan enantiomorf shakllarga xos bo'lgan o'ng va chap trapetsoedrlar mavjud. Trigonal singoniyasida trigonal (olti tomonli), tetragonal singoniyasida tetragonal (sakkiz tomonli) va geksagonal singoniyasida geksagonal trapetsoedr oddiy shakllari ishtirok etadi.



33-rasm. Trapetsoedrlar: a – trigonal (L33L2); b – tetragonal (L44L2),
v – geksagonal shakllar keltirilgan.

O'rta toifali kombinatsiyalarda uchraydigan oddiy shakllarni aniqlash uchun tomonlar soni va ularning asosiy o'qlarga nisbatan joylashini aks ettiruvchi 7-jadvaldan foydalanish tavsiya qilinadi. Bunday o'qlar trigonal singoniyasida L3 tetragonal singoniyasida L4, Li4 va geksagonal singoniyasida L6 va Li6 larga to'g'ri keladi. Yuqorida zikr qilingan kabi bu o'qlarni (yakka yo'nalishli) doimo tik holatda tutish kerak. Mulohazalarning barchasini umumlashtirib o'rta toifada ishtirok etadigan oddiy shakllarning ro'yxatini va simmetriya elementlarini singoniyalar bo'yicha keltiramiz.

7-jadval
O'rta toifali oddiy shakllar

Tomonlarning asosiy o'qqa (yakka yo'nalishga) nisbatan joylashishi	Bir xil tomonli soni	Oddiy shakllar nomlari	Ko'ndalang kesim	
Tomonlari asosiy o'qqa perpendikular	1 2	Monoedo Pinakoid		
Tomonlari asosiy o'qqa parallel	3 4 6 6 8 12	Trigonal prizma Tetragonal prizma Geksagonal prizma Ditrigonal prizma Ditrigonal prizma Digeeksagonal prizma	Trigon Tetragon Geksagon Ditrigon Ditetragon Digeeksagon	
Tomonlari asosiy o'qni bir nuqtada kesadi	3 4 6 6 8 12	Trigonal piramida Tetragonal piramida Geksagonal piramida Ditrigonal piramida Ditetragonal piramida Digeeksagonal piramida	Trigon Tetragon Geksagon Ditrigon Ditetragon Digeeksagon	
Tomonlar asosiy o'qni nuqtada kesadi	A. Pastki tomon yuqori tomonga mos joylashgan	6 8 12 12 16 24	Trigonal dipiramida Tetragonal dipiramida Geksagonal dipiramida Ditrigonal dipiramida Ditetragonal dipiramida Digeeksagonal dipiramida	Trigon Tetragon Geksagon Ditrigon Ditetragon Digeeksagon

	B. Pastki tomon yuqorigi ikkita tomon o'rtasida simmetrik holda joylashgan	4 6	Tetragonal tetraedr Romboedr	-
	V. Pastki bitta juft tomon yuqorigi ikkita juft tomon o'rtasida joylashgan	8 12	Tetragonal skalenoedr Trigonad skalenoedr	-
	G. Pastki tomon yuqorigi ikki tomonga nisbatan nosimmetrik joylashgan	6 8 12	Trigonal trapetsoedr Tetragonal trapetsoedr Geksagonal trapetsoedr	-

a. Trigonal singoniyasi

Trigonal prizma – (Li6)3L2 4P
 Ditrigonal prizma – Li63L2 4P
 Geksagonal prizma – L66L27PC
 Digeksagonal prizma – L66L27PC
 Trigonal piramida – L33P
 Geksagonal piramida – L66P

Trigonal dipiramida – L33P
 Geksagonal dipiramida – L66P
 Trigonal skalenoedr – L33L23PC
 Trigonal trapetsoedr – L33L2
 Pinakoid – C

b. Tetragonal singoniyasi

Tetragonal prizma – L44L25PC
 Ditetragonal prizma – L44L25PC
 Tetragonal piramida – L44P
 Ditetragonal piramida – L44P
 Tetragonal dipiramida – L44L25PC
 Ditetragonal dipiramida – L44L25PC


Tetragonal tetraedre – Li42L22P
 Tetragonal – Li42L22P
 Tetragonal trapetsoedr – L44L2
 Monoedr – –
 Pinakoid – S

v. Geksagonal singoniyasi

Trigonal prizma – Li63L24P
 Ditrigonal prizma – Li63L24P
 Geksagonal prizma – L66L27PC
 Digeksagonal prizma – L66L27PC
 Geksagonal piramida – L66P
 Digeksagonal piramida – L66P
 Pinakoid – S

Trigonad dipiramida – L33P
 Ditrigonal dipiramida – L33L24P
 Geksagonal dipiramida – L66P
 Digeksagonal dipiramida – L66L27PC
 Geksagonal trapetsoedr – L66L2
 Monoedr –

5.10. Yuqori toifali oddiy shakllar. Yuqori toifaga faqat kubik singoniyasi mansub. Kubik singoniyali kristallarda 15 ta yangi turdag'i oddiy shakllar uchraydi. Oldingi tanishgan oddiy shakllardan, tetracdrdan tashqari bironiasi ham qatnashmaydi. Hech qanday pinakoid, prizma, piramida, dipiramida va boshqalar bu singoniyada bo'lishi ham mumkin emas. Kubik singoniyasi oddiy shakllarning nomlanishida asosan tomonlar soniga va ba'zi bir oddiy shakllar murakkablashtirishdan hosil bo'lgan shakllar ko'rinishga e'tibor beriladi. Shunday oddiy shakllar quyidagilardan iborat:




34-rasm. Kubik tetraderni murakkablashtirishdan hosil bo'lgan oddiy shakllar:

a - tetrader, b - trigon tritetrader, c - tetragon -tritetrader,

d - pentagon -tritetrader, e - geksatetrader.


Tetrader (kubik) to'rtta teng tomonli uchburchakdan iborat bo'lgan oddiy shakl (34-rasm, a). Tetragonal va rombik tetraderlardan uchburchakli tomonlarining tengligi bilan farq qiladi. Geksaedr (kub) (35-rasm, a). Kvadrat shaklidagi oltita tomonlardan iborat bo'lgan oddiy shakl. Oktaedr - sakkizta teng tomonli uchburchakli tomonlardan tashkil topgan oddiy shakl (35-rasm, b). Pentagon - R dodekaedr - beshburchakli, o'n ikki tomonli shakl (36-rasm).




35-rasm. a - geksaedr (kub); b - tetragonal dodecahedron.

Rombododekaedr - romb shaklidagi o'n ikki tomonidan iborat bo'lgan oddiy shakl (37-rasm).

Endi tetraderning, geksaedrning va oktaedrning tomonlarini




36-rasm. a – pentagon–dodekaedr.



b

gon – tritetraedr tetraedrning tomonlari bo'lingan (34-rasm, v) oddiy shakl.



37-rasm. Rombododekaedr

qismlarga bo'lish yo'li bilan olinadigan shakllar bilan tanishamiz. Trigon – tritetraedr – tetraedrning har bir tomonlarini uchta teng tomonli uchburchakli yuzaga bo'linishidan hosil bo'lgan oddiy shakl (34-rasm, b). Tetraedrning uchta to'rtburchakli yuzaga bo'lingan oddiy shakl (34-rasm, v) oddiy shakl.

Pentagon – tritetraedr-tetraedrning tomonlari uchta beshburchakli yuzaga bo'lingan (34-rasm, g) oddiy shakl. Geksatetraedr – tetraedrning tomonlari oltita to'g'ri burchakli uchburchakka bo'lingan (34-rasm, d) oddiy shakl. Tetrageksaedr – kubning (geksaedrning) har bir tomoni to'rtta teng tomonli uchburchakli yuzaga bo'linishidan hosil bo'lgan oddiy shakl (35-rasm, b). Trigontrioktaedr – oktaedrning har bir tomoni uchta teng yonli uchburchakli yuzaga bo'linishidan paydo bo'lgan oddiy shakl (38-rasm, b). Tetragontrioktaedr – oktaedrning har bir tomoni uchta to'rtburchakli yuzaga bo'linishidan hosil bo'lgan oddiy shakl (38-rasm, v). Pentagontrioktaedr – oktaedrning tomonlari uchta beshburchakli yuzaga bo'lingan oddiy shakl (38-rasm, g). Geksaoktaedr – oktaedrning tomonlari oltita to'g'riburchakli uchburchak yuzaga bo'linishidan paydo bo'lgan oddiy shakl (38-rasm).



a




b



v




g



d

38-rasm. Oktaedrdan chiqariladigan oddiy shakllar: a – oktaedr; b – trigon – trioktaedr; v – tetragon – trioktaedr; g – pentagon – trioktaedr; d – geksaoktaedr.


Kubik singoniyasidagi bir necha oddiy shakllar tomonlarining soni bilan to'liq xarakterlanadi. O'zaro bog'langan teng, bir xil to'rtta tomon



39-rasm. Geksaedr (kub) bilan tetraedning kombinatsiyasi.

tetraedrga, olti tomon geksaedrga (kubga), sakkiz tomon – oktaedrga, qirq sakkiz tomon esa geksaoktaedrga xos. Boshqa o'n bitta oddiy shakllar (beshta o'n ikki tomonlilar va olti yigirma to'rt tomonlilar) kombinatsiya holida uchraganda, ularni boshqa oddiy shakllardan ajratib olish ancha mushkul ish. Tomonlar soniga va shakllariga yoki maxsus o'qlar bo'yicha hosil qilgan kesmalar o'lchamiga (8,9-jadvallar) qarab

kombinatsiyalarda ishtirok etayotgan kubik singoniyasining oddiy shakllarini aniqlashga yordam beradigan ikkita jadvalni keltiramiz. Kom-binatsiyalarda qatnashayotgan oddiy shakllar tomonlarining shakllari boshqa shakllar tomonlari hisobiga ancha buzilgan bo'lib ko'rindi. 39-rasmida geksaedr bilan tetraedning kombinatsiyasi aks ettirilgan. Bunda kubning kvadrat shaklidagi tomonlarini tetraedr tomoni kesganligi uchun uning tomonlari oltiburchakli bo'lib ko'rindi. Geksaedr ishtiroki natijasida to'rtburchakli tetragon – trioktaedr tomoni uchburchak shaklida kubning tomoni esa sakiz burchakli bo'lib ko'rindi (40-rasm).



40 – rasm. Geksaedr (kub) bilan tetragon – trioktaedring kombinatsiyasi.

8-jadval Kubik toifasining oddiy shakllari

O'xhash tomonlar soni	Tomonlar shakli	Oddiy shakl nomi	Simmetriya elementlari
4	Teng tomonli uchburchak	Tetraedr	4L33L26P
6	Teng tomonli uchburchak	Trigon-titetaedr	4L33L26P
12	To'rtburchakli	Tetragon-tritetraedr	4L33L2(3L+4)6P
12	Beshburchakli	Pentagon-tritetraedr	4L33L29PC
24	To'g'ri burchakli	Geksatetraedr	
6	Kvadrat		
24	Teng tomonli uchburchak	Geksaedr (kub)	3L44L36L29PC
		Tetrageksaedr	L44L36L29PC

8	Teng tomonli uchburchak	Oktaedr Trigon – Trioktaedr	3L44L36L29PC 3L44L36L29PC
24	Teng tomonli uchburchak To'rtburchakli	Tetragon – Trioktaedr Pentagon – Trioktaedr Geksa-oktaedr	3L44L36L29PC 3L44L36L2 3L44L36L29PC
24	Beshburchakli		
24	To'g'ri burchakli uchburchak		
48			
12	Romb	Rombododekaedr	3L44L36L29PC 4L33L23PC
24	To'rtburchakli	Didokaedr	
12	Beshburchakli	Pentagondodekaedr	4L33L2

Yuqorida zikr qilinganidek, kombinatsiyada qatnashayotgan odidiy shakllarning haqiqiy shaklini tasavvur etish uchun, uning tomonlarini fazoda xayolan kesishguncha davom ettirish kerak. Kubik singoniyasining kristallarida bunday masalani osonlashtirish uchun maxsus 9-jadvaldan foydalanish tavsiya etiladi. Bu jadvalning tuzilishi quyidagi qoidalarga asoslangan. Jadvalning har bir gorizontal qatori kubik singoniyasidagi beshta simmetriya turining bittasi tegishli. Vertikal bo'yicha maxsus hkl, hh2, hkk va h.k. tomonlari ramzlarini keltirilgan. Kubik singoniyasi kristallari tomonlarining bunday ramzlarini aniqlash uchun o'zaro perpendikular holda joylashgan 3L4 o'qlari, ular bo'lmasa 3; o'qlari bo'ylab o'tadigan uchta X, Y, Z kristallografik koordinat o'qlar xayolan o'tkaziladi.

Kubik singoniyasida to'rtinchchi yoki ikkinchi darajali simmetriya o'qlari bo'ylab x koordinat o'qi kuzatuvchi gavdasiga perpendikular holda, γ o'qi o'ngdan chapga qaratilib, z o'qi yuqoridan pastga, parallel holda o'tkaziladi. Koordinat o'qlarni xayolan belgilab kristall tomonlarining shu o'qlarga nisbat joylashishi aniqlanadi. Buning uchun kristall shaklining ixtiyoriy olingan bitta tomonini o'qlar bilan kesishguncha davom ettiramiz. Bunda bir necha holat bo'lishi mumkin:

1. Agar bu tomon x , y , z koordinat o'qlari kesishgan nuqtadan (markazdan) har xil uzunlikdagi kesmalar hosil qilsa, unda hhl belgisi qo'yiladi.
2. Ikkita o'q bo'yicha uzunligi birdek kesma, uchinchi o'q bo'yicha uzunroq kesma hosil qilsa, hi belgisi qo'yiladi.
3. Ikkita o'q bo'yicha uzunligi birdek kesma, uchinchi o'q buyicha qis-qaroq kesma hosil qilsa – hkk.

4. Agar kristall tomoni uchala o'qlar bo'yining uzunligi birdek kesma hosil qilsa, hhi belgisi qo'yiladi.

5. Tomon ikkita koordinat o'qi bo'yicha hosil qilgan kesma uzunligi har xil bo'lса, uchinchi o'qqa parallel vaziyatda bo'lса hko deb belgilanadi.

6. Tomon ikkita koordinat o'qi bo'yicha bir xil uzunlikdagi kesma hosil qilib, uchinchi o'qqa parallel bo'lса, u holatda PO belgisi qo'yiladi.

7. Kristall tomoni ikkita koordinat o'qiga parallel bo'lib, bittasi kesishsa 100 ramzi yoziladi (geksaedr: L4 tomon Li4 yoki L2. Yuqorida keltirilgan belgilar (hkl, PO va h.k.) tomonlar ramzi (belgisi) deyiladi va shunga qarab oddiy shakllar tomonlarining fazoda kristallografik koordinat o'qlarga nisbatan joylashishini ko'rsatadi. Berilgan ko'p tomonlining simmetriya elementlari aniqlangandan so'ng shunga qarab 9-jadvaldagi gorizontal qatorlaridan bittasini topamiz. Har bir qatorda shu simmetriya turiga taalluqli yettita oddiy shakl keltirilgan (bittasi umumiy, oltiasi xususiy). Kristallografik koordinat o'qlarini tanlab olib va ular bo'yicha tomonlarning hosil qilgan kesmalarining nisbatini (ramzlarini) aniqlab tik qatorda joylashgan oddiy shakllar nomlarining bittasini topamiz. Gorizontal va tik qatorlar kesishgan joydagi katakda yozilgan oddiy shakl nomi, biz izlagan shaklga to'g'ri keladi. Kubik singoniyasining asosiy shakllari uchun 10-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarni mustahkam o'zlashtrishni tavsiya qilamiz.

Quyida kristallarni o'rganish jarayonida olingan ma'lumotlarni yozish tartibi keltirilgan:

1. Simmetriya elementlari.
2. Yakka yo'nalish miqdori va ularning joylashishi.
3. Singoniya va toifa.
4. Simmetriya turining nomi.
5. Oddiy shakllar soni va nomlari.
6. Umumiy va xususiy shakllarga ajratish.

9-jadval
Kubik singoniyasining oddiy shakllari

Simmet-riya turlari	Oddiy shakl						
	Umumiy	Xususiy					
		Hkl	Hhl	Hkk	III	hko	110
1	2	3	4	5	6	7	8

Primitiv (Penta-gon do-dekaedrik) 4L33L2	Penta-gon tritet raedr (12)l	Tetra-gon tritet- raedr (12)	Trigon- tritet raedr (12)	Tetra- edr (4)	Penta- gon dodekaedr (12)	Rombododekaedr (12)	Geksaedr (6)
Markaz- lashgan dido- kaedrik 4L34L23PC	Dido- kaedr (24)	Tri- gon- tri- oktaedr (24)	Tetragon - trioktaedr (12)	Oktaedr (8)	Pentagon - dodekaedr (12)	Rombo- dodeka- edr (12)	Geksaedr (6)
Planal (geksa-tetra- edrik) 4L33L2 (3L,4)6P	Geksate traedr (24)	Tetra- gontritet raedr (12)	Trigon tritet raedr (12)	Tetra - edr (4)	Tetra- geksaedr (24)	Rombo- dodekaedr (12)	Geksaedr (6)
Aksial (penta gon-trioktaedrik) 3L44L36L2	Pen- tagon - tri - oktaedr (24)	Trigon -triok -taedr (24)	Tetragon - trioktaedr (24)	Oktaedr (8)	Tetra - geksaedr (24)	Rombo - dodekaedr (12)	Geksaedr (6)
Planaksial (geksa oktaedrik) 3L44L36L29 PC	Geksa- ok- taedr (48)	Trigon -triok -taedr (24)	Tetragon - trioktaedr (24)	Oktaedr (8)	Tetrageksae dr (24)	Rombo - dodekaedr (12)	Geksaedr (6)

10-jadval

Oddiy shakl nomi	Tomonlar soni		Ramzları
Geksaedr (kub)	6		100
Oktaedr	8		111
Tetraedr	4		111
Rombododekaedr	12		110
Pentagon - dodekaedr	12		hko
Tetrageksae dr	24		hko
Geksaoktaedr	48		hk1

'qavs ichidagi raqamlar shu oddiy shakl tomonlarining sonini ko'rsatadi.

5.11. Haqiqiy (tabiiy) kristall shakllari. Biz tanishib o'tgan kristall shakllarning geometrik ta'limoti asosida, o'zaro simmetrik elementlari bilan bog'langan tomonlar yig'indisidan iborat bo'lgan oddiy shakl haqidagi tushuncha yotadi. Ma'lumki, tabiiy kristallarda bitta oddiy shaklning barcha tomonlari shakllari o'lchamlari birdek bo'lishi kerak. Biz shu vaqtgacha tomonlar soni, shakllari o'lchamlari birdek bo'lgan va tomonlari o'zaro bir xil vaziyatda joylashgan oddiy shakllarning barchasini birlashtirib bitta oddiy shakl nomi bilan atab keldik. Masalan, bir-biri bilan bog'langan, teng va o'zaro parallel bo'lgan ikki tomonli shaklni doimo pinakoid deb atadik. Holbuki, geksagonal singoniyasini kristallaridagi pinakoid o'zining simmetriyasi bilan tetragonal, rombik, monoklin va triklin singoniyasi kristallarida uchraydigan pinakoidlardan keskin farq qiladi. Demak, o'zlarining simmetriyalari bilan bir-biridan farq qiladigan ko'ptomonlilar ko'pincha bitta oddiy shakl nomi bilan yuritiladi. Kub shaklidagi qo'rg'oshin yaltirog'inining PbS va piritning FeS₂ tabiiy kristallarini bir-biri bilan taqqoslab ko'raylik. Birinchi qarashda bu minerallar kub shaklidagi kristallarning simmetriya elementlari birdek tuyuladi. Aslida bunday mulohaza noto'g'ri, chunki qo'rg'oshin yaltirog'i va pirit kristallarining tomonlarida har xil yo'nalishdagi chiziqlar (shtrixlar) uchraydi. Ular bu kristallar simmetriya elementlarining har xil ekanligini ko'rsatadi. Darhaqiqat, PbS kristallining simmetriya elementlari ZL44L36L29RS, FeS₂ kristalliniki esa 4L33L26L-23Plardan iborat. Demak, qo'pg'oshin yaltirog'inining va piritning real kristallari kub shaklida bo'lishiga qaramasdan simmetriya elementlari bo'yicha bir-biridan farq qiladi. Geksaedr tomonlari sathidagi har xil yo'nalishda joylashgan chiziqlarga qarab A.V.Shubnikov kubik singoniyasining beshta simmetriya turiga to'g'ri keladigan besh xil kub shakllari mavjudligini isbotladi (41-rasm).



41-rasm. Kristallografik besh xil kub tomonlari sathidagi mavjudligi mumkin bo'lgan chiziqlar ko'rinishi (A.V.Shubnikov bo'yicha 1957 yil).

$$\frac{OA}{OAI} \cdot \frac{OV}{OVI} \cdot \frac{OS}{OSI} = r:q:r$$

r, q, r lar 10 dan kichik bo'lgan butun va oddiy sonlarga teng. Gayui qonunining tub negizi ham shundan iborat. Bu qonunda ikkita masalaga ahamiyat berish lozim: parametrlarning qo'sh nisbatidan hosil bo'lgan yaxlit sonlarning o'zaro proporsionalligi; oxirgi hosil bo'lgan qiymat kichkinha sonlar bo'lib, ayrim vaqtlardagina 10 dan yuqoriroq bo'lishi mumkin. Ikkalasiga ham izoh berish lozim. Buni izohlash uchun kristallar panjarali ichki tuzilishi nazariyasiga murojaat qilamiz. Ma'lumki, kristallarning har bir qirrasi fazoviy panjaraning qatori to'g'ri keladi. Bu esa to'g'ri chiziq bo'lib, u bo'ylab tugunlar (moddiy zarrachalar) bir xil masofada joylashadi. 45-rasmda 0I, 0II va 0III panjara turining qatorlar ifodalangan: a - 0I, b - 0II va s - 0III qatoridagi tugunlar oraliqlari. O'z navbatida tomonlar sathi turli tekisliklarga to'g'ri keladi. Shunga ko'ra, A1B1C1 va A2V2S2 tomonlari ham turli tekisliklarga mos keladi. Lekin bulami turli tekislikda deyish uchun, hech bo'lmasganda, ular uchta tugun bilan tutashgan bo'lishlari zarur. Agar bunday tugunlar 0I, 0II va 0III qirralarida joylashgan bo'lsa, Gayui qonunida ko'rsatilgan butun sonlarni osongina isbotlash mumkin. Darhaqiqat, A1B1C1 tomon sathi 0I, 0II va 0III qirralarida joylashgan A1,B1 va S1 tugunlari orqali o'tadigan bo'ladi. Bu holatda OA1=r:a; OB1=s:b; OC1=t:c;r,s,t - yaxlit sonlarga teng (44 rasmda r=2, s=3, t=1), a,b,c - 0I, 0II va 0III qirralaridagi tugunlar oralig'i masofalarini ko'rsatadi. O'z navbatida A2V2S2 tomon sathi 0I, 0II va 0III qirralarida joylashgan A2, V2, S2 tugunlari orqali o'tadigan bo'lsin. U holatda:

$$OA2=r:a; OB2=q:b; OS2=k:s$$

P,q,k - yaxlit sonlar (44-rasmda r=6, q=4, k=2). Parametrlar qo'sh nisbati quyidagicha bo'ladi:

r, q, k va r, s, t - yaxlit sonlar. Bularning o'miga yuqoridagi raqamlarni

$$\frac{r:a}{r:a} \cdot \frac{q:b}{s:a} \cdot \frac{k:s}{t:c} = \frac{r}{r} \cdot \frac{q}{s} \cdot \frac{k}{t}$$

keltirib, ularning nisbatlarini aniqlasak yaxlit sonlar kelib chiqadi.

Lekin turli tekislik o'tadigan tugunlar 0I, 0II va 0III qatorida tash-

$$\frac{P}{r} \cdot \frac{q}{s} \cdot \frac{k}{t} = \frac{6}{2} = \frac{4}{2} \cdot \frac{2}{1} = 9:4:6$$

qarida ham bo'lishi mumkin. Bu holatda turli tekisliklarning ratsional sonlardan iborat bo'lgan parametrlari bo'lishi muqarrarligi nazariy jihatdan isbotlangan. Bunday sonlar yaxlitmi yoki kasrimei, hech vaqt ratsional sonlar bo'lmaydi. Parametrlarining nisbatini olib, hisob-kitob qilsak, oxiri yaxlit sonlar chiqadi. Nima uchun bular nisbatan kichik sonlar bo'lib, faqat ba'zan 10 dan ortiqroq bo'lishining isbotini G.M.Popov va I.I.Shafanovskiyarning «Kristallografiya» (1972) darsligidan topish mumkin (131 – 132-betlar).

6.2. Tomonlar belgilari. Gayui qonuni (yoki butun sonlar qonuni) kristall tomonlarining bir-binga nisbatan joylashishini butun sonlar bilan ifodalash imkoniyatini tug'diradi. Buning uchun kristallning uchta neparallel qirralarini koordinat o'qlar deb qabul qilamiz (45-rasm). Agar qirralar kesishmaydigan bo'lsa o'z-o'ziga parallel yo'nalishda, to bir-biri bilan kesishguncha davom ettirish kerak.

Bu tomonning birinchi nisbati qirralarning bunday ko'chirishidan o'zgarmaydi. Shu tomonning birinchi OI o'qini kesishidan hosil bo'lgan OA1 kesmani bu o'q uchun o'lcham birligi (yoki mashtab) qilib qabul qilamiz. Birinchi o'q bo'yicha hosil bo'ladigan barcha kesmalar OA1 kesmasi bilan o'lchanishi kerak, ya'ni uzunligi shunday bo'lishi shart.

OVI kesmasi ikkinchi OII o'qiga o'lcham birligi bo'lib xizmat qilaadi. OS1 kesmasi OIII o'qidagi kesmalarga birlik bo'ladi. Agar AXVXSX tomoni berilgan bo'lsa, Gayui qonuniga asosan quyidagi butun sonlar yuzaga keladi:

p,q,r – oddiy yaxlit sonlar. Lekin AXVXSX tomonini muayyan sonlar


$$\frac{OAx}{OA1} : \frac{OVx}{OVI} : \frac{OSx}{OS1} = r : q : r \quad (1)$$

bilan ifodalash uchun ularning teskari qiymatini olish kerak:

Bu nisbatlar AXVXSX tomonining ramziga to'g'ri keladi. Ularni

$$\frac{1}{OAx} : \frac{1}{OVx} : \frac{1}{OSx} = \frac{OA1}{x} : \frac{OVI}{OVx} : \frac{OS1}{OS} \quad (2)$$

$$\frac{OAx}{OA1} : \frac{OVx}{OVI} : \frac{OSx}{OS1} = p : q : r$$



45-rasm. AXVXSX (hkl) tomonining ramzi qo'sh nisbatda kelib chiqishi

umumiyl maxrajga keltirib, qisqartirib, bir-biriga bo'lgan nisbatini aniqlab, uchta butun sonlar keltirib chiqaramiz:

h,k,l – oddiy butun sonlar.

$$\frac{OA_1}{OAx} \cdot \frac{OB_1}{OVx} \cdot \frac{OC_1}{OSx} = h : k : l \quad (3)$$

Demak, AXVXSX tomonining ramzi uchta nisbatlaridan iborat bo'lib, uning sur'atida yakka tomon (OA_1 , OB_1 , OC_1) parametrлари, maxrajida esa berilgan tomon (OAx , OVx , OSx) parametrлари o'z aksini topadi. Bu uchta son shu tomonning belgilari (indekslari) deyiladi. Kristall tomonlarining ramzlarini bo'lgan indekslar jami hech qanaqa belgi qo'yilmasdan qavs ichiga olinadi (hkl). 45-rasmida ifodalangan A2V2S2 tomonining ramzlarini topamiz.

A2V2S2 tomonining ramzlarini shunday yoziladi: (496). Kristall tomonlari ramzlarini haqidagi barcha ta'limotlarning negizida mana shu.

$$\frac{OA_1}{OAx} \cdot \frac{OB_1}{OVx} \cdot \frac{OC_1}{OSx} = \frac{r}{u} \cdot \frac{a}{u} \cdot \frac{t}{w} = \frac{2}{6} \cdot \frac{3}{4} \cdot \frac{1}{2} \quad (4)$$

Amaliyotda tomonlarning ramzlarini aniqlash uchun uchta qirraga parallal joylashgan, bitta nuqtada kesishadigan uchta yo'nalishni kris-

$$\frac{OA_1}{OAx} \cdot \frac{OB_1}{OVx} \cdot \frac{OC_1}{OSx} = hkl \quad \text{ifoda etadi.}$$

tallografik koordinat o'qlar deb qabul qilinadi hamda yakka (bitta) tomonni tanlab olish lozim. Kristall qirralariga parallel bo'lgan koordinat o'qlar deb qabul qilingan yo'nalishlar kristallografik o'qlar deyiladi. Yakka tomonni va kristallografik o'qlarni tanlash uchun kristallarni bu o'qlarga nisbatan ma'lum bir vaziyatda o'rnatish lozim. Buning uchun birinchi kristallografik o'q – Xni kuzatuvchiga perpendikulyar; yo'nalishda (gorizontal ravishda) o'tkazamiz, ikkinchi o'q – Uni kuzatuvchi parallel, gorizontal holida o'ngdan chapga qaratib o'tkazamiz, uchinchi o'q – z ni vertikal holatda uzunligiga parallel, yuqorida pastga qaratib o'tkazamiz. Birinchi o'q uchun o'ng tomonдан O nuqtasigacha bo'lgan qismi (kesma ijobjiy, bu nuqtadan orqa tomongacha bo'lgan masofa) salbiy hisoblanadi. Ikkinci o'q uchun S nuqtasining yuqori qismi ijobjiy, pastki qismi salbiy hisoblanadi. O'qlarning ijobjiy qismini plus (+), salbiy qismini minus (-) ishoralar bilan belgilanadi. Bir necha xususiy holatlarni tahlil qilamiz:

(III) ramz doimo yakka (birgina) tomoniga javob beradi. Darha-qiqat birligina tomonning ramzini aniqlashda yuqorida keltirilgan (3) tenglama'dan $OAXOVXOSX$ o'miga, shu tomonning r parametri bo'lgan OA_1, OB_1, OC_1 ni qo'yish kerak. Natijada:

Demak, uchta koordinat o'qlar bo'yicha kesmalar bir-biri bilan teng

$$\frac{\text{OA1}}{\text{OAX}} : \frac{\text{OB1}}{\text{OVX}} : \frac{\text{OC1}}{\text{OSX}} = 1:1:1$$

bo'lish ham (III) doimo yakka tomon ramzini ifodalaydi.

Kristallografik o'qlarning birontasiga parallel joylashgan tomon ramzining indeksi shu o'q bo'yicha nolga teng. AXVXSX tomoni birinchi kristallografik o'qqa parallel ravishda joylashgan bo'lsin. Shunga ko'ra, uning kesmasi X o'qi bo'yicha cheksizlikka ($\text{OAx}=\infty$) teng. OAX ning qiyimatini tomonlar ramzlarini aniqlaydigan tenglamaga qo'yib quyidagini hosil qilamiz:

$$\frac{\text{OA1}}{\text{OVX}} \cdot \frac{\text{OB1}}{\text{OSX}} \cdot \frac{\text{OC1}}{\text{OVX}} = \frac{\text{OA1}}{\text{OVX}} \cdot \frac{\text{OB1}}{\text{OSX}} \cdot \frac{\text{OC1}}{\text{OSx}} = \frac{\text{O}}{\text{O}} \cdot \frac{\text{OV1}}{\text{OSx}} = \frac{\text{O}}{\text{O}} \cdot \frac{\text{OV1}}{\text{OVx}} = \frac{\text{OS1}}{\text{OSx}}$$

Shunga o'xhash, ikkinchi kristallografik o'qqa parallel tomon ramzining $\text{OA1} \cdot \text{O} \cdot \text{OS1}$

$\frac{\text{OAx}}{\text{OVx}} \cdot \frac{\text{OSx}}{\text{OSx}}$ va uchinchi kristallografik o'qqa parallel tomon ramzini

$$\frac{\text{OA1}}{\text{OAx}} \cdot \frac{\text{OV1}}{\text{OVx}} \cdot \frac{\text{O}}{\text{O}}$$

$\frac{\text{OAx}}{\text{OAx}} \cdot \frac{\text{OVx}}{\text{OVx}}$ topamiz. Bu yerda uchta xususiy holat bo'lishi mumkin: birinchi kristallografik o'jni kesadigan va ikkita kristallografik o'qqa parallel joylashgan tomon ramzi (100) ko'rinishda bo'ladi:

$$\frac{\text{OA1}}{\text{OAx}} \cdot \frac{\text{OV1}}{\text{OVx}} \cdot \frac{\text{OS1}}{\text{OSx}} = \frac{\text{OA1}}{\text{OAx}} \cdot \frac{\text{OV1}}{\text{OAx}} \cdot \frac{\text{OS1}}{\text{OAx}} = \frac{\text{OA1}}{\text{OAx}} \cdot \frac{\text{OV1}}{\text{OAx}} \cdot \frac{\text{O}}{\text{O}}$$

2) shuning kabi ikkinchi kristallografik o'jni kesadigan va ikkita parallel joylashgan tomon (010) ramziga ega;

3) agar tomon birinchi va ikkinchi kristallografik o'qlarga parallel bo'lib, uchinchi kristallografik o'qlariga parallel bo'lib, uchinchi kristallografik o'jni kessa, bu tomon ramzi (001) ko'rinishida yoziladi.


Bunda kristallografik o'qlarni bir-biriga parallel bo'lgan bir nuqtada kesishadigan uchta qirralarga parallel holda o'tkazamiz. Koordinat o'qlarni xayolan shakl markaziga ko'cxiramiz va o'qlarni 46-rasmda ko'rsatilganidek o'tkazamiz. Yuqorida aytilganidek, oldindi R1 tomoni (100) bilan xarakterlanadi. Unga parallel orqadagi R1 tomoni (100) ramzi bilan belgilanadi. O'ng va chap yonlaridagi R2, R2 tomonlarga (010) va (010) ramzları qo'yildi. Yuqori va pastki R3 va R3 tomonlari (001) va (001) ramzları bilan belgilanadi. Quyi kategoriya kristallaridagi pinakoidli RI va R1.

Tomonlari (100) va (001) ramzlariga ega bo'lib, birinchi pinakoid deb


yuritiladi: (010) va (100) ramzlari bo'lgan R2 va R2 tomonlar ikkinchi pinakoid deyiladi: (001) va (001) ramzlariga ega bo'lgan R3 va R3 tomonlari uchinchi pinakoid deyiladi. Kristallografik o'qlar kristallar simmetriya o'qlariga, simmetriya tekisliklariga perpendikular yo'nalishlarga, real va ehtimoliy parallelepiped tomonlarga mos kelishligi teoremlalar asosida isbotlangan.

6.3. Kristallografik o'qlarni tanlash.


Kristallografik o'qlarni va yakka tomonlarni tanlash, ya'ni mavjud bo'lgan singoniyalar kristallarini o'matish asoslari bilan tanishamiz. Kristallografik o'qlarni tanlash uchun asos qilib qirralari va kristallografik koordinat o'qlar (0I, 0II, 0III yoki x, u, z) oralaridagi burchaklar qiymati va yakka tomonning (OA1OB1OC1) bu o'qlarni kesishi natijasida hosil bo'lgan kesmalarining nisbatlari olinadi. Bundan so'nggi mulohazalarimizda bu ko'rsatkichlarni quyidagicha qisqartirib belgilaymiz (47-rasm): $\angle OI:OII=\alpha$; $\angle OI:OI-II=b$; $\angle OII:OIII=\gamma$; $OA1=a_0$; $OB1=b_0$; $OC1=c_0$.



46-rasm. To'g'riburchakli parallelepiped tomonlarning ramzlar



47-rasm. Kristallning geometrik ko'rsatkichlari u , b , γ .
 $a_0:b_0:c_0 = a:1:c$



48-rasm. A b y burchaklari,
 $a_0:b_0:c_0 = a_0:b_0:c_0 = a:b:c$
 $b_0:b_0:b_0$

nisbatlari tomonlar parametrlari yoki geometrik ko'rsatkichlari (konstantlari) deb yuritiladi.

6.4. Triklin singoniyali kristallarda kristallografik o'qlarining joylanishi. Triklin singoniyasi kristallarida faqatgina birinchi darajada simmetriya o'qi bilan simmetriya markazi bo'lganligi uchun kristallografik o'qlarga mos keladigan simmetriya elementlari yo'q. Shuning boisida kristallografik o'qlarning yo'nalishi 90° ga yaqin burchak hosil qilib kesishadigan, neparallel bo'lgan (bir tekislikda yotmaydigan) uchta qirralar yo'nalishiga mos qo'yiladi, o'sha uchta kristallografik o'qlarni

kesib o'tadigan har qanday tomon yagona tomon deb qabul qilinadi. Kristallografik o'qlar orasidagi burchaklar 90° ga teng bo'limganligi uchun $\alpha = \beta = 90^\circ$ deb yoziladi (48-rasm). Bu singoniya ning triklin (tri-uch, klin-qiyshiq) deb nomlanishining sababi ham shunda.

Yakka tomonning (AlB1C1) kristallografik o'qlar bo'yicha hosil qilgan kesmalari: OI (0X) o'qi bo'yicha -a0, OII (0u) o'qi bo'yicha b0, OIII (0z) o'qi bo'yicha so kesmalari ham bir-biriga teng emas, ya'ni $a \neq b \neq c$. Bu yakka tomonning ramzik yoki bironqa boshqa AXVXSX tomonining ramzini aniqlash uchun bizga ma'lum bo'lgan tenglama'dan foydalanamiz:


$$\frac{OA_1}{JAx} \cdot \frac{OV_1}{OBx} \cdot \frac{OS_1}{OSx} = \frac{ao}{OAx} \cdot \frac{bo}{OVx} \cdot \frac{co}{SVx} = \frac{so}{OSx}$$

Triklin kristallarini quyidagi ko'satkichlar (belgilar) bilan xarakterlash lozim a,b,c burchaklarning qiymati va a:v:s kesmalarning uzunligi.

48-rasmda triklin singoniyasiga taalluqli primitiv simmetriya kristallarida kristallografik o'qlarning joylashishi va tomonlarning ramzları aks ettirilgan (uchinchи kristallografik o'q vertikal holda o'tkazilgan).

6.5. Monoklin singoniyalı kristallarida kristallografik o'qlarning joylanishi. Monoklin singoniysi kristall shakllarida doimo bitta L2 yoki L2RS (tekislik L2 ga perpendikular joylashadi) simmetriya elementlari mavjud. Bunda shakllarda ikkinchi darajali simmetriya o'qiga yoki simmetriya tekisligiga perpendikular yo'nalish, ikkinchi kristallografik koordinat o'qi (OII yoki Y) yo'nalishiga mos tushadi (49-rasm).

Boshqa koordinat o'qlari – OI(X) va OIII(z) ikkinchi darajali simmetriya o'qiga perpendikular yoki simmetriya tekisligi ustida, shu tekislikka parallel kristallning mavjud yoki bo'lishi mumkin bo'lgan qirralariga mos yo'nalishda tanlanadi. Shunday tanlangan o'qlar orasidagi burchaklar: $a=c=90^\circ$ Neb ga teng bo'ladi. Singoniya nomi ham shundan kelib chiqqan (mono – bir, klin – qiyshiq, ya'ni bir o'qi qiyshiq degan ma'noda). Yakka tomonning kristallografik o'qlar bo'yicha paydo bo'lgan kesmalar nisbati bir-biriga teng bo'lmaydi: $a=l=s$.




49-rasm. Monoklin singoniyalı kristallarda kristallografik o'qlarning joylashishi va tomonlarning ramzları (L2PC)

Bular monoklin singoniyali kristallning yakka tomoni parametrlari hisoblanadi. Endi ayrim AXVXSX tomonining ramzlarini (hkl) aniqlash uchun odatdag'i tenglama'dan foydalanamiz:

$$h:k:l = \frac{ao}{OAX} : \frac{bo}{OB} : \frac{co}{OSX}$$

Demak, monoklin singoniyasini xarakterlash uchun quyidagi shartlar bo'lishi kerak: $a=c=90^\circ$; $a_0 = \text{Nebo} = \text{Nes}0$. Monoklin kristallarining geometrik ko'satichchlari $a:l:s$ kabi ifodalanadi.

6.6. Rombik singoniyali kristallarda kristallografik o'qlarning joylanishi.



50-rasm. Rombik singoniyali kristallarda kristallografik o'qlarning joylashishi va tomonlarning ramzları (3L23PC).

Rombik singoniyasi kristall shakllarida doimo bir-biriga perpendikular joylashgan uchta yakka yo'nalishlarga, ya'ni uchta ikkinchi darajali simmetriya o'qlariga to'g'ri keladi. Kristallografik koordinat o'qlar shu uchta: ikkinchi darajali simmetriya o'qlariga mos keladi. Shulardan bittasi uchinchi kristallografik o'q (0III, z) deb qabul qilinadi (50-rasm). Rombik singoniyasining planal simmetriya turida (L22P) yakka ikkinchi darajali o'q doimo uchinchi kristallografik o'q (0III, z), ya'ni vertikal yo'nalgan o'q deb qabul qilinadi. Ikkita simmetriya tekisligiga perpendikular ravishda birinchi (01,X) va ikkinchi (0IL,X) kristallografik o'qlar tanlanadi. Yuqorida ko'satilganidek, bu singoniya kristall shakllaridagi uchta L2 o'qlari o'zaro perpendikular joylashganligi uchun ularga mos keladigan kristallografik o'qlar orasidagi burchaklar ham 90° ga teng. Shuning uchun uni $a=b=c=90^\circ$ shaklida yoza olamiz. Rombik piramida, dipiramida yoki tetraedr tomonlaridan biri yakka tomon, deb qabul qilinadi.

Yakka tomonning koordinat o'qlari bo'yicha hosil qilgan kesmasi $a_0:1:s_0$ bir-biriga teng emas, ya'ni $a_0 = \text{Nebo} = \text{Nes}0$. Boshqa istagan AXVXSX tomonining ramzi odatdagidek quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$h:k:l = \frac{ao}{OAX} : \frac{bo}{OB} : \frac{co}{OSX}$$

Rombik singoniyali kristallarining geometrik konstantalari $a:l:s$ dan iborat.

6.7. Tetragonal singoniyali kristallarda kristallografik o'qlarning joylanishi.


Tetragonal singoniyasi kristall shakllarida doimo bitta L4 yoki Li4 o'qi mavjud. Bu singoniyali kristallari uchun asosiy o'q deb tanlangan

uchinchchi kristallografik o'q (OIII, z) to'rtinchi darajali o'qqa mos keladi. Birinchi (01, X) va ikkinchi (OII,Y) kristallografik o'qlar esa ikkinchi darajali simmetriya o'qlarining bir-biriga perpendikular yo'nalgan ikkisiga mos joylashtiriladi. 12 o'qlari bo'limgan kristall shakllarida simmetriya tekisligiga perpendikular o'tkaziladi. Simmetriya tekisligi bo'limgan shakllarda esa kristallning mavjud yoki bo'lishi mumkin bo'lgan qirralariga parallel holda tanlanadi.

Tetragonal kristall shakllarida ikkinchi darajali o'qlari o'zaro ham, to'rtinchi darajali o'qqa ham perpendikulyar, ya'ni 90° burchak hosil qilib kesishadi. Shuning uchun $a=b=c=90^\circ$ teng bo'ladi. Tetragonal piramida, dipiramida yoki tetraedr tomonlaridan bittasi yakka tomon deb belgilanadi (51-rasm).

Tanlangan yakka tomon OI(X) va OII(Y) o'qlari bo'yicha o'zaro teng hamda OIII(z) o'qi bo'yicha ularga teng bo'lмаган кесмалар hosil qiladi, ya'ni $a0=b0=s0$. Agar bo=1 deb olsak, u holda shu кесмалар nisbati $1:1:s0$ ga teng. Ko'rinib turibdiki, bunda faqat s qiymatini aniqlash lozim.

Tetragonal singoniyasiga mansub kristall shakllarining ko'ndalang



51-rasm. Tetragonal singoniyalı kristallarda kristallografik o'qlarning joyylanishi va tomonlarning ramzlari

(3L2) simmetriya o'qlari mayjud. Ular kristallografik o'qlar (01,X; OII, Y; OIII, Z) deb tanlanadi. Bu singoniya kristall shakllarida shu uch xil darajali o'qlardan birontasi bo'lishi shart. Ular o'zaro perpendikular holda joylashganligi uchun hosil qilgan burchaklar qiymati 90° ga teng. Shunga asosan $a=b=c=90^\circ$ deb yozish mumkin. Barcha kubik singoniyalari kristallarining fazoviy panjaralarini aks ettiradigan parallelopipedlar kub shakliga ega. Shu boisdan kubik singoniyalari kristallarda barcha kristallografik o'qlar bo'yicha bir xil o'lchamli kesmalar hosil qiladigan tomonni yakka tomon deb qabul qilish kerak. Bunday shartga tetaedr va oktaedr tomonlari javob bera oladi. Shuning uchun ular tomonlarining ramzi (III) ga teng, ya'ni $ao=bo=so$.


mansub kristall shakllarining ko'ndalang kesimi to'g'ri to'rtburchakli – kvadrat shaklida bo'lganligi uchun tetragonal (tetra – to'rt, gonal-burchak) singoniyasi deviladi.

6.8. Kubik singoniyali kristallarda kristallografik o'qlarning joylanishi. Kubik singoniyasi kristall shakllarida doimo $4L3$ yoki o'zaro perpendikular holda joylashgan uchta to'rtinchi daraiali ($3L3$) yoki uchta ikkinchi daraiali

Demak, kubik singoniya kristallinish yakka tomoni parametrlarini quyidagicha ifodalash mumkin: $a=b=c=90^\circ$, $a_0=b_0=s_0$. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida kubik singoniyalı kristallarning istagan tomon ramzini quyidagi nisbatlar yordamida aniqlash mumkin:

$$h : k : l = \frac{ao}{OAx} : \frac{bo}{OVx} : \frac{bo}{OVx} : \frac{co}{OSx} = \frac{ao}{OAx} : \frac{ao}{OVx} : \frac{l}{OAx} : \frac{l}{OVx} : \frac{l}{OSx}$$

52-rasmida $3L24L33PC$ simmetriya elementiga ega bo'lgan pentagonalodekaed shakli ifodalangan. Kristallografik o'qlar $3L2$ simmetriya o'qlari ustiga tushadi. Kristallning d harfi bilan belgilangan tomoni birinchi



52-rasm. Kubik singoniyalı kristallarda kristallografik o'qlarning joylanishi va tomonlarining ramzları ($3L24L33PC$).

$o'q$ ($01, X$) bo'yicha 1 smlı kesma hosil qiladi, ikkinchi $o'q$ (OII, u) bo'yicha 2 smlı kesma, uchinchi $o'q$ ($OIII, z$) d tomoniga parallel. Mana shundan keyin d tomonining ramzi quyidagicha topiladi:

$$\frac{1}{1} : \frac{1}{2} : \frac{1}{\infty}, \text{ ya'ni } d(210).$$

Bundan tashqari, 5-bobda keltirilgan kubik singoniyalı kristallari ayrim tomonlarining ramzlarini aniqlash usulini mukammal o'zlashtirib olish shart.


6.9. Trigonallar va eksagonallar singoniyalı kristallarda o'qlarning joylanishi. Bu singoniyalar shakllarida kristallografik o'qlar o'zga singoniyalarga nisbatan mutlaqo boshqacha tanlanadi, chunki ularda to'rtinchchi kristallografik o'qlar mayjud. To'rtinchchi kristallografik $o'q$ (OII, Z) vertikal yo'nalishda o'tadigan asosiy simmetriya o'qlarining birontasiga ($L3$, yoki Li_6 , Li_6) mos keladi. Qolgan uchta kristallografik o'qlar ($01, X; OII, Y; OIII, Z$) $L3$, $L6$ yoki Li_6 simmetriya o'qlariga perpendikular tekislikda joylashgan, uchta teng simmetrik yo'nalishlar bo'yicha o'tadigan $L2$ o'qlariga mos tushadi.

Kristallografik o'qlar ikkinchi darajali simmetrik o'qlari bo'lib yoki simmetriya tekisliklari perpendikular yoki kristallarning haqiqiy hamda nazariy mavjudligi ehtimoli bo'lgan qirralar parallel holatda tanlanadi. Ko'rinish turibdiki (53-rasm) bunday o'qlar o'zaro 120° burchak hosil qilib kesishadi.


Kristallografik o'qlar soat strelkasiga teskari tartibda joylasha-

di. Bulardan birinchi o'qning (01,X) ijobiy uchi kuzatuvchining chap tomonidan, ikkinchisining (0II, Y) ijobiy uchi kuzatuvchining o'ng tomonidan o'tadi. Uchinchisining salbiy uchi (0III, Z) esa kuzatuvchi tomonga yo'nalgan bo'ladi. O'z-o'zidan ma'lumki, uchta teng simmetrik gorizontallikda joylashgan o'qlarning hosil qilgan kesmalari bir-biriga ayniyatlari bo'lishi kerak.

To'rtinchı kristallografik o'q (0II,Z) L3, L6, Li6 simmetriya o'qlari bo'ylab, bu uchta o'qqa perpendikular joylashganligi uchun, uning hosil



53-rasm. Geksagonal singoniyali kristallarda uchta gorizontal kristallografik o'qlarning joylanishi.



54-rasm. (1011) (a) va (1121) (b) ramzli tomonlarning gorizontal kristallografik o'qlarga nisbatan joylanishi.

qilgan burchagi va kesmasi boshqacha, o'ziga xos mashtabga ega. Ba'zan bu tekislikda yotgan o'qlar kesmalari bir-biriga to'g'ri kelmasligi ham mumkin. Agar shaklda 2-darajali o'qlar bo'lmasa, u holda x,y,z o'qlari o'zaro 60° li burchak hosil qiladigan qirralar bo'yicha yoki shunday yo'nalgan simmetriya tekisliklariga perpendikular yo'nalishda olinadi. Shuning uchun trigonal va geksagonal singoniyali kristallarda ikkita gorizontal o'qlar bo'yicha o'zaro teng va to'rtinchı o'q bo'yicha ularga teng bo'lмаган kesmalar hosil qiladigan tomon yakka tomon deb olinadi. Bu yerda ikki holat bo'lishi mumkin.

1. Kesishish burchaklari 60° li ikkita yondosh kristallografik o'qlar bo'yicha bir-biriga teng kesmalar hosil qilgan tomon uchinchi kristallografik o'qqa parallel holda joylashadi (MM tomoni, 54-rasm, (a). MM tomonning ramzi 1011).

2. Gorizontal ravishda joylashgan kesishish burchaklari 120° li ikkita kristallografik o'qlar bo'yicha teng kesmalar hosil qilgan tomon uchinchi gorizontal o'qni ham kesib o'tadi (NN tomoni, 54-rasm, (b)). O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, uchinchi o'q bo'yicha hosil bo'lgan kesma ikkita o'qdagi kesmaga nisbatan ikki marta qisqa. NN tomoni ramzi (1121). Uchta o'q bo'yicha hosil bo'lgan bir xil o'lchamli kesmalarni a0 va to'rtinchı o'qni


so bilan belgilab, trigonal va geksagonal singoniyali kristallari uchun quyidagi nisbatni olamiz:

$$h : k : i : l = \frac{ao}{OAx} : \frac{ao}{OVX} : \frac{ao}{ODX} : \frac{co}{OSX}$$

Bu nisbatdagi birinchi o'qqa indekslarning algebraik yig'indisi doimo nolga teng. Shuning uchun, masalan, birinchi va ikkinchi indekslarni topsak, oddiy solishtirish bilan uchinchi indeksni ham topishimiz mumkin: $ao \neq bo \neq co$. Shunday qilib, bu yerda boshqa singoniyalardagidek uchta indekslar aniqlanadi, holos. Kristallografik o'qlar orasidagi burchaklar yuqorida ko'rsatilganidek ifodalananadi:

$$\langle 0I:0III \rangle = \langle 0II:0III \rangle = \langle 0III:0I \rangle = 120^\circ$$

$$\langle 0I:0IV \rangle = \langle 0II:0IV \rangle = \langle 0III:0IV \rangle = 90^\circ$$



55-rasm. Geksagonal singoniyali kristallarda (L66L27PC) kristallografik o'qlarning joylanishi va tomonlar ramzları

ya'ni $a=b=90^\circ$, $c=120^\circ$. Tetragonal singoniyasi kristallari kabi trigonal geksagonal singoniyalari ham bitta geometrik ko'satkichlari bilan, ya'ni 1:1:1:s nisbatlari bilan xarakterlanadi.

55-rasmda geksagonal singoniyasi planaksial simmetriya turiga mansub bo'lgan kristallida kristallografik o'qlarning ikkita yo'nalishda joylashishi aks ettiligini

6.10. Trigonal singoniyali kristallarda kristallografik o'qlarning ikkita usulda joylanishi.

Trigonal singoniyasidagi romboedr shakl tomonlarining ramzları ikkinchi usul bilan aniqlanadi va uchta kristallograf o'qlardan foydalanaadi. Bu usul trigonal singoniyasining boshqa kristallarida ham qo'llanishi mumkin. Yuqorida aytilganidek, romboedrnı uchinchi darajali o'qlarning birontasi bo'yicha qisman yassilangan kub deb ham hisoblash mumkin. I shaklida kristallografik o'qlar (3L4 yoki ular bo'lmanida 3L2) doimo kub qirralariga parallel ravishda joylashadi.

Shunga o'xshash romboedrda ham kristallograf o'qlarni uchinchi darajali simmetriya o'tadigan nuqtada kesishgan uchta qirralarga parallel ravishda o'tkaziladi. Natijada o'q kesishishidan yuzaga kelgan burchaklar qiymati o'zaro teng bo'lgan, lekin qiyshayib joylashgan koordinatlar sis-

temasini eslatadi: $a=c=90^\circ$. Yakka tomon uchun, uchinchi darajali simmetriya o'qiga perpendikular joylashgan (kubik singoniyasidagi tetraedr yoki oktaedr tomonlariga o'xshash) tomon qabul qilinadi. Bunday shartni monoedr yoki pinakoid tomonlari qanoatlantira oladi. Ularning ramzları (III) kabi ifodalanadi. Shunga qarab yakka tomonning uchala o'qlari bo'yicha hosil qilgan kesmalari quyidagiga teng: $ao=bo=co$.

Bu yerda kristallografik o'qlar orasidagi a burchagi xarakterli konstanta hisoblanadi.

56-rasmida trigonal singoniyasi planaksial simmetriya turiga taalluqli kristallda kristallografik o'qlarning joylashishi va tomonlarining ramzları aks ettirilgan.

Yozish tartibi:

Simmetriya elementlari.


Singoniyasi va toifasi.

3. Simmetriya turining nomi.

4. Oddiy shakllar nomi va miqdori.

5. Kristallografiya o'qlarining joylanishi.

6. Tomonlar ramzi (har bir oddiy shaklning bitta tomoni uchun).



56-rasm. Trigonal singoniyali planaksial simmetriya turiga taalluqli kristalda kristallografik o'qlarning joylanishi va tomonlarining ramzları.

7. KRISTALLARNING ICHKI TUZILISHI

Biz oldingi boblarda geometrik kristallografiyaning asoslari bilan tanishdik. Kristallografiya'ning undan keyingi kristallokimyo va kristalofizika tarkibiy qismlarini boshlashdan avval kristallarning ichki tuzilishi haqidagi ma'lumotlarni qisqacha bayon etish maqsadga muvofiqdir. Shuni qayd qilish kerakki, kristallarning ichki tuzilishi olimlarni qadimdan qiziqtirib kelayotgan muammolardan biri. Lekin kristallarning ichki tuzilishini aniq, tajribalar asosida isbotlash, uning ilmiy asosini yaratish imkoniyati kristallarni rentgen nurlari yordami bilan tekshirish usuli (rentgenostruktur tahlil) yo'lga qo'yilgandan so'ng tug'ildi. Shundan keyin kristallar ichki tuzilishi haqidagi kristallokimyo fani vujudga keldi, fundamental nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni hal qila boshladi.


7.1. Kristallarning ichki tuzilishi xususidagi nazariyalar. Kristallarning ichki tuzilishi xususida qadimdan buyon ko'pgina nazariyalar

yaratilganligi va amaliy tajribalar o'tkazilganligi yuqorida qayd qilingan edi. Mayjud bo'lgan nazariyalarning barchasini umumlashtirib to'rtta guruhgina bo'lish mumkin:

Birinchi guruh nazariyachilar I.Kapler (1571–1630), R.Guk (1635–1703), V.Lomonosov (1749) va boshqalar bo'lib, ular kristallar mayda shar va ellips shaklidagi zarrachalarning zinchiyishidan iborat degan xulosaga kelganlar.

Ikkinchi guruh namoyondasi mashhur kristallshunos olim Rene Jyust Gayui bo'lib, uning fikricha kristallar mayda muayyan geometrik shakldagi zarrachalarning (molekulalarning) muntazam ravishda zinchiyishidan iborat. Kristallarning o'zi ma'lum shakklardagi zarrachalarning (molekulalarning) qat'iy tartibda fazoda bo'shliq qoldirmasdan zinch taxlanishidan yuzaga keladi. Bunday zarrachalar shakkiali ko'pincha kristallarning ularish tekisliklari shakkiliga mos keladi. Masalan, osh tuzi (galit) va qo'rg'oshin yaltirog'i (galenit) kristallari ham, ularish tekisliklari ham kub shaklida bo'ladi. R.Gayui mulohazasi bo'yicha bu kristallar «molekulalari» mayda kub shaklidagi bo'lakchalarning muttasil zinch taxlanishidan tashkil topgan. Kalsitning romboedrik shaklidagi ularish tekisligi esa uning fikricha romboedr shaklidagi «molekulalar»ning zinch taxlanishidan hosil bo'lgan (57-rasm). O'z-o'zidan ma'lumki, R.Gayui nazariyasini kristallar ichki tuzilishini tasavvur etishdagi dastlabki dadil qadam edi. Shunga qaramasdan keyinchalik uning nazariyasini tarafdarlari bilan bir qatorda qarshi chiqqanlar ham tobora ko'paya bordi.

Ular, ayniqsa, ularish tekisligi oktaedr shaklida bo'lgan bir qator kristallar Gayuining nazariyasiga to'g'ri kelmasligini qayd qildilar. Masalan, flyuoritning (CaF_2) ularish tekisligi oktaedr shaklida bo'lishiga qaramasdan u kub shaklidagi kristallar hosil qiladi. Oktaedr shaklidagi molekulalar bilan fazoni bo'shliq qoldirmasdan to'ldirish mumkin etmas.




57-rasm. R.Gayui tasavvuri bo'yicha skalenoedr shaklidagi kalsit kristalinining ichki tuzilishi.

Uchinchchi guruhga jahon kristallshunoslari ma'qul bo'lgan, kristallar ichki tuzilishining zamona viy nazariyasiga asos qilib olingan fransuz olim O.Braevening (1811 – 1863) nazariyasini misol bo'la oladi. U Gayui nazariyasini inkor etib, kristallarning asosiy xususiyatlarini bir jinsligini, anizotropligini simmetriya elementlari turlarini hisobga olgan

holda ularning ichki tuzilishida eng mayda zarracha molekula bo'lmasdan, balki fazoviy panjara tugunlarida joylashgan moddiy zarrachalar – ionlar va atomlardan iborat degan xulosa chiqardi Shu nuqtayi nazardan, bunday tugunlarning fazoda bo'shilq qoldirmasdan to'ldirish mumkin bo'lgan o'n to'itta fazoviy panjaralar shakllarini va ularning simmetriya elementlarini matematika qonunlari asosida isbotlab berdi. Ularni yettita singoniyaga taqsimladi. Bugungi kunda ular O.Brave fazoviy panjaralarining elementlar shu'balari deb yuritiladi. Shu bobning keyingi qismlarida bu shu'balar haqidagi batafsil gap yuritiladi.

To'rtinchı guruhgaga E.S.Fedorovning kristallar ichki tuzilishi nazariyasi misol bo'la oladi. Uning 1890 yili chop etilgan «To'g'ri shakllar simmetriasi asarida kristallardagi atomlar, ionlar va molekulalarning joylashishi jarayonii nazariy talqin qilib, kristall shakllariga xos bo'lgan ko'pgina geometriya qonuniyatlarini kashf etdi. E.S.Fedorov bo'yicha har bir kristall moddiy birliklar (nuqtalar) yig'indisidan iborat bo'lib, ular o'zaro simmetriya elementlari bilan bog'langan. Bunday cheksiz moddiy nuqtalar yig'indisi kristallarning fazoviy panjarasini hosil qiladi. Uning nazariyasi ko'p vaqtgacha olimlar diqqatidan tashqarida qolib keldi. Faqat rentgen nurlari kashf etilgandan so'ng bu nazariyaga qaytadan murojaat qilindi.



58-rasm. Biita rombik fazoviy panjaraning turli tekisligida yotgan t1 va t2 (a), va t3 larni (b) o'z-o'ziga parallel joylashtirish (translyatsiya) asosida tuzilgan parallelopipedlar (parallelogrammlar) takrorlanishi.

Lekin yuqorida zikr qilingan yo'nalishlar orasida O.Bravening atomistik nazariyasini haqiqatga yaqin bo'lib, eksperiment uslublari bilan tasdiqlandi.

7.2. Brave fazoviy pan-

jaralarining o'n to'rt turli shu'balari. Kristallarning zamonaviy ichki tuzilishi nazariyasi XIX asr boshlarida Gayuuning zich joylashgan molekulalar tushunchasi, ingliz olimi Vollastonning kristallar ichki tuzilishi fazoviy panjara qonuniyatları asosida tashkil topgan degan fikr bilan o'rin almashgandan so'ng shakllandı. Keyinroq bu fikrni nemis fizigi M.La eksperimental ravishda isbotladi.

1842 yili nemis kristallshunosi M.L.Frankengeym fazoviy panjara tushunchasidan kelib chiqib fazoda tugunlarning (nuqtalarning) simmetrik

holda joylashishi 15 xil ko'rinishda bo'lishligini qayd qildi. Olti yildan so'ng O.Brave uning to'g'rilingini qaytadan tekshirib chiqib, Frankengeym chiqargan ikkita fazoviy panjaraning ayniyatli ekanligini isbotlab, ularni 14 turga keltirdi. Shundan buyon ular O.Bravening 14 turdag'i fazoviy panjarasi deb yuritila boshlandi.

O Bravening fazoviy panjaralari bilan tanishish uchun bir-biriga ayniyatli bo'lgan parallelopipedlarning (shu'balarning) qirralari yo'naliishlari va ularning o'lchamlari kattaligi bo'yicha o'z-o'ziga parallel ravishda muttasil joylashtirilib, cheksiz miqdordagi fazoviy panjaralar hosil qilinadi. Agar yakka bitta fazoviy panjara (shu'ba) misolida mulohaza qiladigan bo'lsak, u parallelopipedni qaysi tomonga yo'naltirib takrorlashni tanlashda ko'pgina usullar qo'llash mumkin. Masalan, 58-rasmida rombik singoniyasi panjarasining t1 va t2 t3 (59-rasm, a), t3 lar (58-rasm, b) translyatsiya vaziyati asosida chizilgan parallelopipedlar (parallelogrammlar) takrorlanishining bir qismi tasvirlangan. Shuning uchun O.Brave panjaralarini tahlil qilishga asos qilib olingan fazoviy panjara elementar shu'balarning takrorlanishi quyidagi shartlarga javob bera oladigan parallelopipedlar bo'lishi kerak.

1. Takrorlantirish uchun tanlangan parallelopipedning (shu'baning) singoniyasi shu singoniyadagi barcha kristallarning fazoviy panjarasiga to'g'ri kelishi shart.


2. Parallelopipeddag'i teng qirralar va bu qirralar orasidagi burchaklar soni maksimal miqdorda bo'lishi kerak.

3. Parallelopipedning qirralari orasidagi burchaklar to'g'ri burchakli bo'lsa, ularning soni ko'p miqdorda bo'lishi lozim.

4. Yuqoridagi shakkarga rivoja qilinsa, tanlangan parallelopipedning hajmi kichkina bo'lishi kerak.

Demak, elementar shu'bani tanlashda bizga ma'lum bo'lgan kristallarning koordinat o'qlarini aniqlash qoidalaridan foydalananamiz. Jumladan, elementar shu'balar qirralari uning koordinat o'qlariga mos kelganligi uchun, ularni albatta translyatsiya qilinadi. Avvalo, diqqat-e'tiborimizni O.Brave elementar shu'balarning tashqi ko'rinishiga qaratamiz. Bunday shakkni tahlil qilish uchun elementar shu'baning a,b va c qirralari uzunligidan va ular orasidagi burchaklar qiymatlaridan (59-rasm) foydalananamiz.


Kristallarning ichki tuzilishi, ya'ni fazoviy panjarasi mana shunday cheksiz miqdordagi elementar shu'balarning uch o'lchamda fazoda



59-rasm. Elementar shu'baning qirralarini va burchaklarini belgilash

bo'shliq qoldirmasdan taxlanishidan tashkil topgan. Ular takrorlanishidan hosil bo'lgan parallelopipedlar qirralari, elementar shu'basi translatsiyasiga to'g'ri keladi. Bular va yuqorida keltirilgan to'rtta shart asosida barcha singoniyalar elementar shu'balarini tanlab olish mumkin. Shular asosida har bir singoniya uchun alohida bitta elementar shu'bani olib mulohaza qilamiz (60-rasm).

Kubik singoniyalari kristallarda doimo o'zaro perpendikular joylashgan uchta to'rtinchi yoki uchta ikkinchi darajalari.



60-rasm. Singoniyalar elementar shu'balarining shakllari.

li o'qlar (L_4 , $3L_4$, yoki $3L_2$) mavjud. Ma'lumki, kub shaklidagi kristalda uchta to'rtinchi va ikkinchi darajali o'qlar shu kristallning o'zidagi uchinchi darajali o'qlar bilan bog'langan. Demak, uch tomonga qarab yo'nalghan qirralar uzunligi va ular orasidagi burchaklar bir-biriga teng (60-rasm, a): $a=b=s$; $a=b=c=90^\circ$.

Tetragonal singoniyalari elementar shu'basidagi «s» qirrasi (tomoni) uzunroq bo'lib, L_4 yoki L_4 o'qlari yo'nalishlariga parallel joylashadi. Gorizontal ravishda ikkita «a» va «b» qirralari esa bir-biriga teng va o'zaro perpendikular hamda L_2 o'qlariga parallel vaziyatda bo'ladi. Shuning uchun $a=b=s$; $a=c=90^\circ$. Tetragonal singoniya elementar shu'basining shakli tetragonal prizma bilan pinakoidning kombinatsiyasidan iborat ekanligini anglab olish murakkab emas (60-rasm, b).

Rombik singoniya elementar shu'basi qirralari uchta ikkinchi darajali o'qlariga yoki bitta ikkinchi darajali o'qqa parallel va ikkita simmetriya tekisligiga ($L_{22}P$) perpendikular holda tanlanadi. Qirralari bir-biriga nisbatan perpendikular joylashishiga qaramasdan ular o'zaro simmetriya elementlari bilan bog'lanmagan. Demak, bir-biriga teng emas. Xulosa qilib aysak, rombik singoniya elementar shu'basi g'isht shakliga o'xshaydi (60-rasm, v): $a \neq b \neq c$; $a=b=c=90^\circ$.

Yakka ikkinchi darajali simmetriya o'qiga yoki simmetriya tekis-

ligiga perpendikular holda joylashgan qirrani monoklin singoniyasi parallelopipedining (elementar shu'basining) «b» qirrasi deb qabul qilinadi. Elementar shu'baning qolgan ikkita «a» va «b» qirralari uchun, ikkinchi darajali o'qqa perpendikular yoki simmetriya tekisligida yotgan o'zaro teng bo'lmagan (har xil uzunlikdagi) qirralar xizmat qiladi. Bunday parallelopipedning ko'rsatkichlari quyidagicha bo'lishi mumkin (60-rasm, g): $a=b=c=90^\circ$.

Triklin singoniyasida simmetriya o'qlari va tekisliklari bo'lmaganligi uchun parallelepiped qirralarini bu singoniya kristallari elementar shu'balaridagi istagan uchta tomon bilan moslashtiriladi. Natijada qirralari har xil uzunlikda bo'lgan qiyshiq burchakli elementar shu'ba yuzaga keladi (60-rasm, d): $a=b=c=90^\circ$.

Geksagonal (trigononal) singoniyasida «s» qirrasi oltinchi darajali simmetriya o'qlari (L_6 yoki Li_6) bo'ylab o'tkaziladi. «a» va «b» ularga perpendikular joylashgan ikkita qirraga mos keladi deb qabul qilinadi. Bunday parallelopipedlar uchun: $a=b\neq c$; $a=b=90^\circ$ $c=120^\circ$. Ko'rning turibdiki, geksagonal singoniyasida yuqorida keltirilgan singoniya shu'basi bilan elementar shu'baning bir-biriga mos bo'lishi haqidagi birinchi shart bajarilishi mumkin emas, chunki oltinchi darajali simmetriya o'qli parallelepiped bo'lishi mumkin emas. Hosil qilingan elementar shu'baning geksagonal singoniyasiga to'g'ri kelmasligini isbotlash uchun ko'pincha unga yana bir-biriga nisbatan 120° burilgan ikkita elementar shu'ba qo'shiladi. Natijada uchta elementar shu'baning jipslashishidan bitta geksagonal prizma shakli yuzaga keladi (60-rasm, j). Trigononal singoniyasidagi L_3 yoki Li_6 o'qlarini elementar shu'baning «s» qirrasiga mos keladi deb qabul qilib va bu o'qlar atrofida takrorlanadigan ikkita qirrani shu'baning «a» va «b» qirralari bilan moslashtirilsa, yuqorida keltirilgan geksagonal parallelopipedi (shu'basi) hosil bo'ladi: uchun: $a=b\neq c$; $a=b=90^\circ$ $c=120^\circ$. Trigononal singoniyasi fazoviy panjara tugunlari ning boshqacha joylashishi, qirralari yakka L_3 o'qi bilan bog'langan va unga nisbatan qiyshiq burchak hosil qilib joylashgan romboedr shaklidagi parallelepiped tanlab olishga imkoniyat beradi (60-rasm, e). Uning ko'rsatkichlari quyidagicha: $a=b=s$; $a=b=c=90^\circ$. Ayrim olimlar trigonal va geksagonal panjaralari bir xil elementar shu'badan iboratligini nazarda tutib, ularni umumlashtirib geksagonal singoniyasi nomi bilan yuritishni tavsiya etadi. Bizning fikrimizcha, ular alohida nomlangan maqsadga muvofiqdir. Chunki o'xshashligi bilan bir qatorda farq qiladigan belgilari ham ko'p. Shunday qilib, biz barcha singoniyalar elementar shu'balarining

shakllari bilan tanishib chiqdik. Ko'rinib turibdiki, fazoviy panjara tugunlari doimo shu'balar cho'qqilarida joylashadi. Bundan tashqari, ular ba'zan elementar shu'balarning markazlarida yoki tomonlari markazlardidan ham o'rIN oladi. Lekin tugunlar qirralarda joylashmaydi. 11-jadvalda o'n to'rtta O.Brave fazoviy panjara shu'balarining singoniyalar bo'yicha taqsimlanishi ko'rsatilgan. Undagi chizmalardan ko'rinib turibdiki, shu'balar primitiv (R), asoslari markazlashgan (S), hajmi markazlashgan (I), qo'shaloq markazlashgan (R) va tomonlari markazlashgan (F) bo'lishi mumkin.

Fazoviy panjara tugunlari elementar shu'baning cho'qqilarida joylashsa, bu primitiv (F) tur hisoblanadi. Tugunlar cho'qqilarida va o'zaro parallel bo'lgan ikkita tomonlar markazlarida joylashsa bunga hajmli markazlashgan (I); cho'qqilarida va tomonlarda ikkitadan tugun joylashgan shu'balar geksagonal singoniyasi shu'basiga (R) yoki romboedrik shu'baga taalluqli; tugunlar cho'qqilarda va tomonlar markazlarida joylashsa, tomonlari markazlashgan (F) elementar shu'balar deb ataladi. Bundan tashqari, 11-jadvalda shu'balarning singoniyalar bo'yicha taqsimlanishi ham aks ettirilgan. Masalan, triklin singoniyasida bitta primitiv elementar shu'ba, monoklin singoniyasida 2 ta shu'ba – bittasi primitiv, ikkinchisi asoslari markazlashgan, rombik singoniyasida 4 ta primitiv, asoslari markazlashgan, hajmli markazlashgan va tomonlari markazlashgan turdag'i shu'balar mavjud. Trigononal (romboedrik) singoniyasida esa 2 ta primitiv va hajmli markazlashgan shu'ba turlari ajratilgan. Geksagonal singoniyasida asoslari markazlashgan bitta shu'ba, kubik singoniyasida esa 3 ta primitiv, hajmli markazlashgan va tomonlari markazlashgan shu'ba turlari ma'lum.

Asosiy mazmun shundan iboratki, biz O.Brave elementar shu'balari andazalari yordamida kristallarning ichki tuzilishlarini to'liq tushuntira olamiz va ularni ko'z oldimizga keltira olamiz. Buning uchun bir turdag'i, bir xil o'lchamdag'i elementar shu'balarni uch o'lchamda bir-biriga parallel holda taxlab chiqish kifoya. Bunday bir-biriga teng, o'xshash shu'balarni ayniyatli (aynan o'xshash) shakllar deyiladi. Ayniyatli shu'balarni uch o'lchamda o'z-o'ziga parallel joylashtirish (qalashtirish) translyatsiya deb ataladi. Demak, har bir shaklli, ayniyatli O.Brave elementar shu'basining andazasini bir-biriga nisbatan uch o'lchamda muttasil translyatsiya qilish natijasida real kristallarning ichki tuzilishini hosil qilish mumkin. O.Brave shu'balarining amaliy mohiyati ham shundan iborat. Masalan, osh

tuzi (NaCl) ichki tuzilishini olaylik. Uning ichki tuzilishini primitiv kub elementar yacheysasining translatsiyasi sifatida tasavvur qilish mumkin.

Agar har bir elementar shu'bani bu kristalning bir bo'lagi, o'ziga alohida mustaqil kristall deb faraz qilinsa, unda bu cheklangan kub shaklining simmetriya elementlari uning elementar shu'basida ham takrorlanishi muqarrar. Bizga ma'lumki (5-bob), o'zaro simmetriya elementlari orqali bog'langan tomonlar yig'indisi oddiy shakl deyildi. Demak, har bir elementar shu'bani bitta oddiy mikroshakl deb qarash mumkin. Bunda oddiy mikroshakllar bu kristalda son-sanoqsiz. Shuning uchun ular cheksiz shakllar deb nom olgan. Mikroshakllar kattaligi ang-strem birligi bilan o'chanadi ($I = 10^{-3}$ sm). Kubik singoniyasiga taalluqli cheksiz shakllar (elementar shu'balar) tomonlarining uzunligi 5 – 6 dan 11 – 12 E gacha bo'ladi. Cheksiz shakllarning simmetriya elementlarini aniqlashda cheklangan shakllarga xos bo'lgan sakkizta simmetriya elementlaridan tashqari translatsiya usuli, sirg'anma siljish tekisligi, 2,3,4 va 6 darajali vintsimon o'qlar hisobga olinadi. Cheksiz shakllar mavjudligi va ularning simmetriya elementlari geometrik uslublar bilan isbotlangan.

II BO'LIM

MINERALOGIYANING TEKSHIRISH USULLARI

Tabiiy kimyoviy birikmalar tarkibini to'liq va batafsil aniqlash kerak bo'lgan holatda ko'pincha quyidagi rentgenometrik, termik, spektral, kimyoviy tahlil, lyuminessent tahlil, shlix tahlili, elektron mikroskop tekshirish, eksperimental tadqiqotlar usullari qo'llaniladi.

Rentgenometrik tahlil. 1895 yili nemis fizigi Rentgen ichiga ikita elektrod kavsharlangan shisha naychadan havoni 10 – 5 mm simob ustuni bosimigacha haydar chiqarib, undan elektr toki o'tkazilganda, elektrodlarda o'ziga xos ko'zga ko'rinnmaydigan nurlar chiqishini aniqlaydi, bu nurlar keyinchalik rentgen nurlari deb ataldi. To'lqin uzunligi 10 – 2 102A° bo'lgan elektromagnit to'lqinlar rentgen nurlari deyiladi. Rentgen nurlari turli asboblarda olinadi. Lekin ularning hammasida nur olish bir xil prinsipga, ya'ni qatorga yuqori kuchlanish berilganda o'zidan elektronlar chiqarishi va bu elektronlar harakati yo'nalishida joylashgan, qarama-qarshi qutblangan elektrosga urilishi natijasida antikatordan juda katta tezlikda zarrachalar otilib chiqishiga asoslangan.

Tekshirilayotgan moddalarning kristall yoki amorf holatdaligini va ularning tuzilishini rentgen nurlari minerallarning kristall panjarisiga tushirilganda struktura elementlari bilan ta'sirlanishi natijasida hosil bo'ladigan difraksiyon manzara yordamida aniqlash mumkin.

Kristall holatdagi har qanday modda aynan shu modda uchun mos bo'lgan strukturaga ega bo'lib, undagi ionlar (atomlar) o'ziga xos tartibda joylashadi. Ma'lumki, ba'zi minerallarning kimyoviy tarkibi bir xil bo'лади. Masalan, rutil-brukit-anataz, kvars-tridimit-kristabolit yoki kalsit-aragonit minerallarning kimyoviy tarkibi o'xshash, lekin ular strukturasini tashkil qilgan zarrachalarning bir-biriga nisbatan turliha joylashganligi bu moddalarning strukturasidagi va boshqa xossalardagi farqni keltirib chiqaradi. Ikkinci tomondan, kimyoviy tarkibi bir-biridan boshqacha bo'lgan bir qancha mineralllar, masalan, flyuorit, uraninit, serianit, tarianit va boshqalarga kation va anionlarning joylashishi o'xshash bo'лади. Bu moddalarning strukturaviy parametrlari kimyoviy tarkibiga bog'liq ravishda bir-biridan farq qiladi. Kristall panjara tekisliklari orasidagi masofaning qiymati minerallarni strukturasi haqida ancha aniq ma'lumot beradi, chunki u ion va atomlar joylashishi davriyiligi bilan bog'liq. Atom-

lar tekishliklari esa atomlarning fazoviy panjarada koordinata o'qlariga nisbatan joylashishiga bog'liq.

Debay usuli shunday muhim afzalliklarga egaki, u mineral massalarni shu bilan birga yashirin kristallangan va mayin dispers moddalarini ham o'rganishga imkon beradi. Odatta debaygramma deb aytildigani rentgenogramma maxsus kamerada yorug'lik sezuvchi plyonkaga tushirib, olinadi, shu plyonka ishlanganidan keyin unda to'q-ochligi turli bo'lgan chiziqlar-yoychalar ko'rindi (tekshirilayotgan modda kukuni bo'laklarining zichroq joylashgan tekisliklaridan qaytgan rentgen nuri konuslari bilan hosil qilingan halqalarning qismi). Olingen debaygrammani tashqi ko'rinishidan tekshirilayotgan moddaga o'xshab ketadigan tekshirib ko'rilgan boshqa moddalar debaygrammasi bilan taqqoslab (chiziqlarning to'q ochligiga va tekisliklar orasidagi hisoblab chiqilgan masofaga qarab) berilgan mineralni aniq bilish mumkin.

Termik tahlil amaliy ish uchun N.S.Kurnakov tomonidan kiritilgan bo'lib, u haroratning ko'tarilishi bilan o'sha tekshirilayotgan mineralda yuz beradigan o'zgarishlarga fizik va kimyoiy almashinislarga (suvning ajralishi, oksidlanishi, qaytarilishi, boshqa polimorf turiga o'tish va h.k.) bog'liq bo'lgan endo va ekzotermik effektlarni bilish maqsadida moddalarning qizdirish (yoki sovitish) egri chiziqlarini olishdan iboratdir.

Bu usul mineraloziya'ning amaliy ishlarida ko'z bilan (yoki boshqa usul bilan) aniqlash qiyin bo'lgan yashirin kristallangan va mayin dispers moddalarini tekshirishda qo'llaniladi. Bir qator mineral mahsulotlar (kaolin, glinozem gidratlari, temir gidrooksidlari, karbonatlar, xloritlar va boshqa minerallar) uchun mineral turlarini aniqlashga yordam beradi.

Kimyoiy tahlil – bu asosiy tekshirish usulidir. To'liq kimyoiy tahlildan og'irlik foizi hisobida olingen ma'lumotlarni mineralning kimyoiy formulasini aniqlash uchun atom (molekular) miqdoriga aylantrib hisoblanadi. Shu maqsadda har qaysi elementning (oksidning) og'irlik miqdorini atom og'irligiga (oksidning «molekular» og'irligiga) bo'linadi. Olingen son mineral tarkibiga kiruvchi shu elementlarning (oksidlarning) qanday nisbatda bo'lganligini ko'rsatishi lozim. Shuni uqtirib o'tish kerakki, komponentlar (elementlar)ning kimyoiy tahlillardan olingen ma'lumotlardan hisoblab chiqilgan nisbati, o'sha tahlillarning yetarli darajada juda aniq bo'lmagidan yoki boshqa sabablarga ko'ra, hech vaqt butun sonlar nisbatida bo'lmaydi. Buni ko'rsatish uchun ikkita tahlil kelтирмиз.

11-jadval
Burnonitning kimyoviy tahlili ma'lumotlari

	% og'irligiga ko'ra	Atom og'irligi	Atom miqdori	Nisbati
Pb	42,75	207,2	0,204	1
Cu	12,77	63,6	0,201	1
Sb	24,76	121,8	0,206	1
S	19,40	32,0	0,606	3
Jami	99,68			

Shunday qilib, mineralarning kimyoviy formulasi PbCuSbS₃ shaklida yozilishi kerak.

12-jadval
Rodonitning kimyoviy tahlili ma'lumotlari

	% og'irligiga ko'ra	Molekulyar og'irligi	Molekulyar miqdori	Nisbati
SiO ₂	46,06	60,1	0,767	1
Al ₂ O ₃	0,11	101,9	0,001	-
Fe ₂ O ₃	Yo'q	-	-	-
FeO	1,83	71,8	0,025	1
MnO	44,76	70,9	0,630	1
CaO	6,59	56,1	0,117	1
Jami	99,35			

Bu mineralning formulasini (Mn, CaO · SiO₂) yoki (Mn, Ca SiO₃) shaklida ifoda etish mumkin.

Atom og'irliliklari Mendeleev jadvalidan olinadi. Oksidning molekular og'irligi elementlar atom og'irligi yig'indisidan tashkil topadi, masalan: SiO₂ uchun u 28,1+2x16,0=60,1.

Rentgen spektral (rentgen-kimyoviy) tahlilni tekshirish maqsadida moddaning katod nurlari ta'sirida shu modda tarkibida ishtirok etayotgan kimyoviy elementlarning o'ziga xos, to'lgan uzunligiga ega bo'lgan rentgen nurlari chiqarishiga asoslangan.

Lyuminessent tahlil. Lyuminessensiya hodisasi qorong'ida yaxshi ko'rinishadi. Shunday xususiyatga ega bo'lgan minerallar nur ta'sirida biror rangga bo'yalgandek ba'zan ochiq rangli bo'lib yarqirab ko'rinishadi.

Oddiy ko'z bilan ko'rib aniqlash qiyin bo'lgan minerallarning tog' jinslardagi hol-xol donalarini shunday yo'l bilan aniqlash juda osondir. Masalan, sheelit (CaWO_4) kabi shunday muhim ahamiyatli mineral simobli kvars lampasi ostida chiroyli havorang (bazan ko'kимти) yoki sarg'ish-yashil rangli bo'lib, flyuorit CaF_2 tiniq ko'k tusli bo'lib flyuoressentsiyalanadi va boshqalar. Tarkibida uran, turlicha tarkibli bitum-lari bo'lgan bir qator minerallarning shunday nur chiqarishi juda yaqqol ko'rinish turadi.

Shlix tahlili. Shamol ta'siri ostida tog' jinslari va ma'danlar ning nurashi natijasida yer yuzida parchalanishga bardoshli minerallar to'planadi. Ular orasida kimyoviy barqaror minerallar – kvars, magnetit (Fe_3O_4), sirkon (ZrSiO_4), turmalin, rutil (TiO_2), ba'zan kassiterit (SnO_2), oltin, platina va boshqa minerallar saqlanib qoladi. Ular oqin suvlar bilan yuvilib, soylar va dengiz qirg'oqlari bo'ylab yotqizilgan jinslar orasida sochilma kon shaklida to'planadi. Shu bo'shoq jins namunalarini oddiy asbob-uskunalar yordamida yuvib, shlix deb aytildigan eng og'ir minerallar konsentrati olinadi.

Shlixlardagi minerallarning diagnostikasi va miqdorini aniqlash uchun olingan materialning o'rtacha hajmidagi namunasi (10-20 g miqdorda) avvalo standart elaklardan o'tkaziladi va donalarning katta-kichikligiga qarab fraksiyalarga ajratiladi. Shundan keyin har qaysi fraksiyalar magnit yordamida magnitli fraksiyaga ajratib olinadi. Magnit tortmagan qoldiq elektromagnit yordamida har xil magnit tortuvchi (berilayotgan tok kuchiga qarab) yana bir qator fraksiyalarga ajratilib, shundan keyin minerallarni solishtirma og'irligiga ko'ra, maxsus suyuqliklarga (bromoform, Tule suyuqligi va boshqa) solib, maxsus bo'lgich yoki oddiy kimyoviy voronkalarda ajratiladi.

Minerallarning shunday usullar bilan olingan fraksiyasi avval binokulyarda ko'rib, tashqi belgilariiga (donalarining shakli, shaffofligi, yaltirashi, rangi, qattiqligi va boshqa xususiyatlariga) qarab terib olinadi, undan keyin muayyan sindirish ko'rsatkichiga ega bo'lgan immersion suyuqliklar yordamida optik konstantalari aniqlanadi va zarur bo'lgan hollarda mikrokimyoviy sifat reaksiyalarini, spektral, lyuminessensiya va boshqa tekshirish usullari qo'llaniladi. Shaffof bo'lmanan ma'dan minerallarni sementlovchi moddalar yordamida yaxlitlab, ulardan jilolangan shrif tayyorlanadi va ularni tekshirish mikroskopda qaytgan yorug'lik nuri ta'sirida olib boriladi.

Elektron mikroskopda tekshirish. Ma'lumki, mikroskopning ko'rish chegarasi (katta-kichikligiga ko'ra, juda mayda zarrachalarni ko'rib ajratish mumkin bo'lgan qobiliyati) ko'p jihatdan teksxirayotgan jism ustiga tushayotgan yorug'likning to'lqin uzunligiga bog'liq (yorug'lik to'lqin uzunligi qanchalik kichik bo'lsa, mikroskopda shunchalik mayda zarrachalarni ko'rish mumkin). Mavjud optik mikroskoplarning ko'rish qibiliyati unchalik katta emas.

Jinslarni tekshirish uchun «replika usuli» (mayin kolloid yoki kvars-polistirolli va boshqa plynokalar hosil qilish yo'li bilan o'sha jins yuzasi rasmini tushirib, olish usuli) ham mavjud bo'lib, bu usul kris-tallar yonlari sathining, shuningdek, minerallardagi reaktiv ta'sir etmagan yuzalarning xossalarni ko'rsatadi.

Eksperimental tahlil laboratoriya sharoitlarida tabiiy jinslar, shuning-dek, minerallar tarkibiga mos keladigan sun'iy birikmalami olishda juda muhim ahamiyatga ega. Shu yo'l bilan, ayrim hollarda tarkibi va shakliga ko'ra, tabiiy minerallarga juda o'xshab ketadigan birikmalarni olish va o'sha minerallarning kristallanishi ham paydo bo'lishini aniqlash mumkin bo'ladi.

Keyingi yillarda laboratoriya usulida tabiatda kam uchraydigan bezak va qimmatbaho minerallarni olish jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda.

8. MINERALLARNING FIZIK XUSUSIYATLARI

Har qanday mineral o'ziga xos biron xususiyat bilan xarakterlanadi, ana shu xususiyatiga qarab uni doimo boshqa minerallardan ajratish mumkin.

Quyida minerallarning eng ko'p aniqlash ahamiyatiga ega bo'lgan asosiy xususiyatlari ustida to'xtalib o'tamiz. Bunday xususiyatlarga: morfologik xususiyatlar-kristallarning shakli, qo'shaloq kristallar, kristall yonlariidagi chiziqchalar; optik xususiyatlar shaffofligi, minerallar rangi, chizig'inинг rangi, yaltirashi; mexanik xususiyatlar ulanish tekisligi, sini-shi, qattiqligi, mo'rtligi, qayishqoqligi, shuningdek, solishtirma og'irligi, magnit tortishi, radiaktivligi va boshqa xususiyatlari kiradi.

8.1. Minerallarning morfologik xususiyatlari. Kristallar shakli. Har qanday jismning bo'shliqda uch o'Ichamda bo'lishiga qarab, xilma-xil shaklli kristallar va kristallangan donalar orasida avvalo quyidagi asosiy turlar ajratiladi.

1. Izometrik shakllar, ya'ni bo'shliqda hamma uch yo'nalish bo'yicha barobar rivojlangan shakllar. Granat rombobodekaedrlari, magnetit ok-taedrlari, pirit kublari va boshqalar buning misoli bo'lishi mumkin.

2. Bir yo'nalish bo'yicha cho'ziq shakllar, ya'ni prizmatik ustunsimon, nayzasimon, ignasimon, qildek kristallar, tola-tola bo'lib tuzilgan kristallar. Masalan: akvamarin, turmalin, antimonit va boshqa mineral kristallari.

3. Uchinchi yo'nalish qisqaligicha saqlangan ikki yo'nalish bo'yicha cho'ziq shakllar. Bularga tabletkasimon, qavat-qavat, varaq-varaq va tangachalar shaklidagi kristallar kiradi. Masalan, gemititning (Fe_2O_3) qavat-qavat holida topiladigan kristallari, slyudalar va boshqalardan iborat. Ana shu asosiy shakl turlari biri ikkinchisiga o'tadigan o'tkinchi shakllar ko'p tarqalgan. Masalan, distenning (Al_2SiO_5) ikkinchi va uchinchi turlar orasida bo'lgan (yassi ustunsimon kristallar) taxtachasimon kristallari: shakliga ko'ra, birinchi va ikkinchi turlar orasida bo'lgan korundning (Al_2O_3), bochkasimon kristallari yoki kalsitning ($CaSO_3$) skalenoedrik shakllari, linzaga o'xshash (birinchi va uchinchi turlar o'rtaida bo'lgan) shakllar – sfenning ($CaTiSiO_5$), monatsitning ($SeRO_4$) va boshqa minerallarning yassilangan kristallari shular jumlasidandir.

8.2. Minerallarning shaffofligi. Minerallarning o'zidan nur o'tkazish xususiyati ularning shaffofligi, deb ataladi.

Hamma minerallar shaffoflik darajasiga qarab quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- Shaffof minerallar; tog` billuri, island shpati, topaz va boshqalar;
- Yarim shaffof – zumrad, sfalerit, kinovar va boshqalar;
- Shaffof bo'limgan minerallar – pirit, magnetit, grafit va boshqalar.

8.3. Minerallarning rangi. Tabiiy kimyoiy birikmalarning rangi kelib chiqishiga ko'ra, uch xil bo'ladi: 1) idioxromatik, 2) alloxromatik va 3) psevdoxromatik.

Idioxromatik. Tabiiy birikmalarning rangi minerallarning ichki xususiyatlari bilan bog'liqdir. Masalan, qora rangli magnetit ($FeO \cdot Fe_2O_3$), sariq pirit (FeS_2), to'q qizil kinovar (HgS), misning yashil va ko'k rangli kislorodli tuzlari (malaxit, azurit, feruza va boshqalar), to'q-ko'k rangli lazurit.

Minerallarning shunday o'ziga xos rangi idioxromatik rang deyiladi. Bular har xil minerallarda turli sabablar bilan bog'liq ravishda namoyon bo'ladi.

Juda ko'p minerallarda rangning paydo bo'lishi tarkibida (xromofor) u yoki bu kimyoviy elementning ishtirok etishiga bog'liq. Bunday xromoforlar jumlasiga: Ti, V, Cr, Mn, Fe, Co, Ni, ya'ni Mendeleevning kimyoyaviy elementlar jadvalining markazidan joy olgan temir guruhi elementlari, ba'zan – W, Mo, U, Cu va TR elementlarining natijasida yuzaga keladi.

Alloxromatik. Mineral rangining o'zgarishini ko'rsatuvchi xususiyat. Masalan, odatda rangsiz, ko'pincha butunlay shaffof kristallar bo'lib topiladigan kvars (tog' billuri) ko'r kam gunafsha rangli (ametist), pushti, sarg'ish-qo'ng'ir (temir oksidlari bo'lgani uchun), tilla rang (sitrin), kulrang yoki tutun rang (rauxtopaz), to'q qora (morion), nihoyat sutdekoq ham bo'lishi mumkin. Xuddi shunga o'xshash osh tuz galit-oq, kulrang, qo'ng'ir, pushti va ba'zan ko'k rangli bo'lishi mumkin.

Psevdoxromatik. Ayrim shaffof minerallarning rangi ba'zan xilmashil bo'lib tovlanib turadi, bu tushayotgan nurning ularish tekisligi darzlar ichki yuzalaridan, ba'zan qandaydir aralashmalar yuzasidan qaytishi interferensiysi bilan bog'liq. Misol uchun suv ustida suzib yurgan kerosin, yog' va neftning har xil «kamalak rangidek» tovlanib turadigan pardasini kuzatish mumkin. Bu shaffof moy po'stining ostki (suvdan ajratib turadigan) va ustki (havo bilan cheklangan) yuzalaridan qaytgan yorug'lik nurining interferensiyanishi bilan bog'liqdir.

Bunday aldamchi rang hodisasi qattiq shaffof minerallarda ham bo'ladi. Labradorit minerali bunga ajoyib misoldir. Uning ayniqsa, jilolangan yuzasiga ma'lum burchak bilan qaraganda chiroyli ko'k va yashil bo'lib tovlanadi. Bu hodisani "prizatsiya" deyiladi, ya'ni mineral tarkibiga ko'ra, asosiy massadan ajralib turadigan minerallarning yupqa plastinkachalari aralashmasi borligi bilan bog'liq bo'lsa kerak.

Amaliyotda minerallarning rangi aniq bo'lgan jism yoki modda rangi bilan taqqoslanib, qiyosiy aniqlanadi. Shuning uchun ham minerallarning rangi ko'pincha qo'sh nom bilan yuritiladi. Masalan: sutdek oq, asaldek-sariq, jezdek-sariq, qirmizi-qizil, zumraddek-yashil, olmadek yashil, jigarrang-qo'ng'ir, qo'rg'oshindek kulrang, qalaydek oq va h.k. Bunday anqliashlar qiyosiy (nisbiy) bo'lishiga qaramay, ular qabul qilingan va mineralogiyaga oid jahon adabiyotida uchraydi.

Quyidagi minerallarning rangi doimiy bo‘ladi:

1. Gunafsha rang – ametist	9. Qalayi – oq-arsenopirit
2. Ko‘k – azurit	10. Qo‘rg‘oshin kulrang – molibdenit
3. Yashil – malaxit	11. Po‘lat-kulrang – aynama ma’dan
4. Sariq – auripigment	12. Temir-qora – magnetit
5. Sarg‘ish-qizil – krokoit	13. Havo rang – kovellin
6. Qizil – kinovar (kukuni)	14. Mis-qizil-sof tug‘ma mis
7. Qo‘ng‘ir – limonitning g‘ovalk xili	15. Jezdekkariq – xalkopirit
8. Sarg‘ish-qo‘ng‘ir – limonit	16. Tilla-sariq – oltin

8.4. Solishtirma og‘irlilik. Solishtirma og‘irlilik kristallarning asosiy fizik xususiyatlaridan biri bo‘lib, u kristallning kimyoiy tarkibi, tarkibidagi izomorf aralashmalarining o‘zgarishini, fazoviy panjaralar shu‘balarining va shu‘balar tarkibidagi formula birligini aniqlashda katta ahamiyatga ega.

Kristall (jism) og‘irligining hajmiga nisbatli solishtirma og‘irlilik deyiladi, ya’ni kristall og‘irligini (grammda) uning 40 S sharoitdagi hajmiga teng bo‘lgan suv og‘irligi nisbatiga teng. Agar kristallning havodagi (bo‘shliqdagi) og‘irligini r va suvgaga tushirib, tortilgan og‘irligini r1 harflari bilan belgilasak, u holda kristall solishtirma og‘irligini qo‘yidagicha ifodalash mumkin:

$$D = \frac{R}{R - R_1}$$

Bundan tashqari, kristall solishtirma og‘irligini, solishtirma og‘irliliklari aniq bo‘lgan va suvda yoki benzolda eriydigan maxsus og‘ir suyuqliklar yordami bilan o‘lchash mumkin. Masalan, bromoform suyuqligining solishtirma og‘irligi 2,88 ga teng, benzolda eriydigan suyuqlik metilenyodid solishtirma og‘irligi 3,32 ga barobar, solishtirma og‘irligi 4,25 ga teng bo‘lgan suvda yaxshi eriydigan Klerichi suyuqligi shular jumlasidandir. Bu usul bilan kristall solishtirma og‘irligini aniqlash uchun uni yuqorida ko‘rsatilgan og‘ir suyuqliklardan birontasiga tushiriladi. Kristall solishtirma og‘irligi suyuqliknikidan katta (og‘irroq) bo‘lsa u suyuqlikda cho‘kadi, yengil bo‘lsa suyuqlik, yuzasida qalqib yuradi. Solishtirma og‘irliliklari bir-bi-

riga teng bo'lsa suyuqlik solingan probirkaning o'rta qismida turadi. Bu usul bilan mayda kristallarning solishtirma og'irliklari aniqlanadi.

Kristall solishtirma og'irligini (D) uning molekular og'irligini (M), elementar shu'basi hajmini (V) va formula birligining miqdorini (molekulasini) «n» o'zaro bog'laydigan formula yordami bilan ham aniqlash mumkin:

$$D = nM/NV$$

N – Avogadro soni, $6,02 \cdot 10^{23}$ ga teng.

Kristallarning solishtirma og'irligi ularning tarkibidagi kimyo-viy elementlarning atom og'irligiga, ionlarining radiuslariga, valentli-giga va ichki tuzulishlariga bog'liq. Kristallarning tarkibidagi elementlar atom og'irliklari bilan ularning solishtirma og'irliklari o'rtasida to'g'ri mutonosiblik mavjud, ya'nii atom og'irliklari oshishi bilan solishtirma og'irliklari ham orta boradi. Kristallar tarkibida Mendeleev kimyo-viy jadvalining yuqori – qismida joylashgan elementlar qatnashsa, ularning solishtirma og'irligi 2 – 3,5ga teng pastki qismidagi elementlar bo'lsa, og'irroq 3,5 – 10 ga barobar.

Bu qonuniyatni «sulfatlar guruhiiga» mansub bo'lgan minerallarda yaqqol ko'rish mumkin (13-jadval).

13-jadval
Kation atom og'irligi bilan solishtirma og'irlik o'rtasidagi bog'lanish

Mineral nomi	Kimyo-viy formulası	Solishtirma og'irligi	Kation atom og'irligi
Angidrid	CaSO ₄	2,98	40,08
Selestin	SrSO ₄	3,97	87,63
Barit	BaSO ₄	4,50	137,36
Anglezit	PbSO ₄	6,38	207,21


Tarkibida «qo'shimcha» (OH,F) anionlari ishtirok etgan kristallarning solishtirma og'irligi pasayadi. Masalan, serusitning (PbCO₃) solishtirma og'irligi 6,5 ga teng, gidroserussit (Pb₃[(OH)CO₃]₂) va fosgenit Pb₂[CO₃]Cl₂ solishtirma og'irliklari 6,1 gacha pasayadi.

Kristall tarkibidagi izomorf aralashmalar ham uning solishtirma og'irligiga ta'sir etishi mumkin.

Ulanish tekisligi. Kristallarning ma'lum yo'naliishlari bo'yicha aniq tomonlariga yoki bo'lish mumkin bo'lgan atomlariga parallel holda silliq

yuza hosil qilib sinishiga (ajralishiga) ulanish tekisligi deyiladi. Ulanish tekislik darajasiga, yangi silliq yoki notejis yuza hosil qilib sinishiga qarab ulanish tekislik bir necha turga bo'linadi: juda silliq yuzali (slyudalar), silliq yuzali (kalsit, galenit) aniq yuzali (ortoklaz, amfibollar), notejis yuzali (kvars). Sinish shakliga qarab-notejis, donasimon, yoysimon, zirapchasimon, ninasimon turlariga ajratiladi.

Simmetriya turlariga binoan, kristallar faqat bitta yo'nalishda (slyudalar), ikkita yo'nalishda (ortoklaz, amfibollar, piroksenlar), uchta yo'nalishda (galit, galenit, kalsit) va undan ham ko'proq (flyuorit) yo'nalishlarda sinishi mumkin. Ularning ulanish tekisliklik darajalari har bir yo'nalishda, har xil yuzali bo'lish mumkin. Masalan, slyudalar faqat bitta yo'nalishda osongina (001) pinakoidi bo'yicha yupqa, silliq varaqalarga ajraladi. Angidrid mineralining, ulanish tekisligi uch yo'nalishi bo'lib: birinchi (001) yo'nalishi bo'yicha silliq yuzali; ikkinchi (010) yo'nalishida aniq yuzali; uchinchi (100) yo'nalishida notejis yuzali bo'ladi. Kristall ulanish tekisligi bilan uning ichki tuzilish orasida uziyi bog'lanish mavjud. Chunki ulanish tekisligi kristallning fazoviy panjarasidagi tugunlarning siyrakroq joylashgan yo'nalishga mos keladi.



61-rasm. 1-1 yo'nalishi bo'yicha, 2-2 yo'nalishiga nisbatan osonroq ajraladi.

61-rasmda fazoviy panjaraning turli tekisligi ifodalangan va undagi tugunchalarning (atomlarning, ionlarning) AV yo'nalishida AS yo'nalishiga nisbatan bir-biriga yaqinroq joylashganligi ko'rsatilgan. Bunday fazoviy panjarali kristallni AV yo'nalishi bo'yicha sindirish uchun AS yo'nalishiga nisbatan ko'proq kuch surf qilish kerak. AS yo'nalishi bo'yicha tugunlar bir-biridan uzoqroq joylashganligi uchun ularning o'zaro tortish (bog'lanish) kuchi AV yo'nalishidagi tugunlarga nisbatan kamroq (zaifroq). Shu sababli AS yo'nalishi bo'yicha osongina sinadi. Kristall ulanish tekisligi shu yo'nalishga mos keladi. Umumlashtirib aytganda kristallarning ulanish tekisliklari o'zaro zaif bog'langan turli tekisliklarga parallel holda o'tadi. Bu turli tekisliklar bir-biridan uzoqroq joylashgan bo'ladi. Bu xususiyat dastavval O.Brave tomonidan bayon etilgan bo'lib, ko'pincha to'g'ri keladi. Lekin G.V.Vulf tomonidan taklif etilgan kristall tarkibidagi elementlarning kimyoviy bog'lanish jipslashish kuchlarini ham hisobga olish zarur.

8.5. Qattiqlik. *Qattiqlik – deb jism larning tashqi ta'sir etuvchi mexanik kuchga qarshilik ko'rsata olish darajasiga aytildi. Bugungi*

kunda kristallarning faqat nisbiy qattiqligini aniqlash mumkin. Mutloq qattiqligini aniqlash usuli hali ishlab chiqilmagan. Ularning nisbiy qattiqligini aniqlaydigan, amaliyotda keng ko'lamda qo'llaniladigan oddiy usullar juda ko'p. Bu usullar asosan kristallarning biri ikkinchisining tomonlari yuzasida iz (chiziq) qoldirishga asoslangan. Qattiqligi yuqoriroq bo'lgan mineral undan yumshoqroq bo'lgan mineral yuzasida iz qoldiradi. Iz qoldirgan mineral qattiqligi yuqoriroq degan xulosa chiqariladi.

1822 yili Avstriya mineralogi Fridrix Moos (1773 – 1839) tomonidan etalon sifatida nisbiy qattiqlik jadvali (shkalasini) ishlab chiqildi (14-jadval).

**14-jadval
F.Moos qattiqlik jadvali**

Mineralning nomi	Nisbiy qattiqligi	Kimyoziy formulasi	Singoniysi
Talk	1	Mg3[Si4O10] (OH)2	Monoklin
Gips	2	CaSO4 • 2H2O	monoklin
Kalsit	3	CaCO3	Trigonal
Flyuorit	4	CaF2	Kubik
Apatit	5	Ca5[PO4]3 (F,Cl)	Geksagonal
Ortoklaz	6	K [AlSi3O8]	Monoklin
Kvars	7	SiO2	geksagonal
Topaz	8	Al2[SiO4] F2	Rombik
Korund	9	Al2O3	Trigonal
Olmos	10	S	Kubik

Qattiqlik jadvali har xil qattiqlikdagi o'nta minerallardan iborat bo'lib, eng yumshoq-talkdan boshlab to olmosgacha qattiqligi tobora oshib boradigan qonuniyatlikka asoslangan. Bu jadvaldagi har bir keyinigi mineral oldinda turgan mineralni chizadi (iz qoldiradi). Masalan, qattiqligi aniqlayotgan kristall yuzasida qattiqligi beshga teng bo'lgan kristall (14-jadval, apatit) iz qoldirsa, bu kristallning o'zi jadvaldagi qattiqligi to'rt bo'lgan kristallni chizsa, uning qattiqligi 4,5ga teng bo'ladi. Agar aniqlayotgan kristall qattiqligi flyuoritga yaqinroq bo'lsa 4,25, apatitga yaqinroq bo'lsa 4,75 – deb belgilanadi.

Qattiqlik jadvalida olmos eng yuqori o'rinni egallaydi, chunki shu kungacha olmos yuzasiga iz qoldiradigan kristall (mineral) ma'lum

emas. Uning o'zi barcha kristallarda iz qoldiradi. Demak, olmos qattiqligi bo'yicha birinchi o'rinda turadi. F.Moos jadvali asosida kristall qattiqligini o'lhash nisbiy bo'lishiga qaramasdan, uning yordami bilan ba'zi bir kristallardagi qattiqlik anizatropligi aniqlash mumkin. Masalan, disten kristallining bitta yo'nalishi bo'yicha qattiqligi 4,5ga teng bo'lgan apatit chizadi, flyuorit esa iz qoldirmaydi, ikkinchi yo'nalishi bo'yicha 7ga (topaz iz qoldiradi, ortoklaz esa chizmaydi) teng.



62-rasm. Xrushev
M.M., Berkovich
E.S. Sklerometr.
a – olmos piramidasi,
b – tekshirilayotgan
kristall

Sklerometr (qattiqlik o'lchagich) deb nomlangan maxsus asbob yordamida kristallarning (minerallarning) qattiqligini aniq o'lhash mumkin. 15-rasmida amaliyotda keng ko'larda ishlataladigan sklerometr tasvirlangan. Mikroskopga o'xshash asbobga maxsus indikator joylashtirilgan. Indikator uchiga kvadrat shakldagi olmos piramidasi o'matilgan. Indikator qattiqlikni aniqlaydigan, silliqlangan (sayqallangan) kristall yuzasiga qo'yiladi. Undan keyin ma'lum bir og'irlik ta'sirida indikator uchidagi olmos piramidasi kristall yuzasiga botaadi. Bundan hosil bo'lgan chuqurcha tasviri mikroskop tagida ko'rilib, chuqurchaning diagonali o'lchanadi va mikroqattiqligi aniqlanadi. (Mikroqattiqlik mikroskop yordamida 2-3 mm yuzada aniqlangan qattiqlik, shunday nom bilan yuritiladi). Mikroqattiqlik H bilan belgilanadi va qo'yidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$H = 2 \sin \alpha / 2 \cdot P/d^2$$

α – 1360 ga teng bo'lgan olmos piramidasi tomonlari orasidagi burchak; R – og'irlik (kg hisobida); d – chuqurlik diagonali (mm hisobida). Shu usul bilan hisoblab chiqarilgan mikroqattiqlik kg/mm² bilan ifodalanadi. Quyi-da keltirilgan etalon sifatida Moos jadvaldag'i minerallarning qattiqlik soni professor Xrushev tomonidan aniqlangan:


Talk	2,4	Ortoklaz	795
Gips	36	Kvars	1120
Kalsit	109	Topaz	1427
Flyuorit	189	Korund	2060
Apatit	536	Olmos	10060

Qattiqlikni aniqroq o'lchaydigan usullar kristallarning yo'nalishlari bo'yicha har xil mikroqattiqlikga ega ekanligini tasdiqlashdi, ya'ni qat-

tiqlik anizotropining mavjudligini isbotladi. Kristallar qattiqligi ularning ichki tuzilishlari bilan chambarchas bog'langanligi isbotlandi.

8.6. Mexanik deformatsiyalar. Deformatsiya so'zi lotin tilidan olingan bo'lib tashqi kuch ta'sirida qattiq jismning hajmi yoki shakli o'zgarishi demakdir. Tashqi kuchlarning kristallarga ta'sir etish darajasiga qarab mexanik deformatsiya ikkiga bo'linadi: Elastik (egiluvchanlik) va plastik (siljishlik).

Jismlarning, jumladan, kristallarning biron tomoniga yoki qirrasiga katta og'irlik yoki bosim kuchi ta'sir etilsa uning avvalgi vaziyati o'zgaradi (zichlashadi, egiladi, qiyshayadi va h.k.). Agar tashqi ta'sir etuvchi kuch bo'lmasa, kristall avvalgi holatiga qaytadi, bu esa elastik deformatsiyasi deyiladi. Kalsit, slyuda va boshqa minerallar kristallarida bu hodisa yaqqol ko'rindi.



63-rasm. Osh tuzining (NaCl) (110) tekisligi bo'yicha siljishi (plastik deformatsiyasi)

fazoviy panjaraning to'qli tekisliklari bo'yicha yuzaga keladi. Bu yo'nalish siljish tekisligi deyiladi. 63-rasmda Osh tuzining to'qli tekisligi (a) va uning tashqi kuch ta'sirida o'zgarishi (b) aks ettirilgan. Tashqi kuch ta'sirida (strelka bilan ko'rsatilgan) dd tekisligi bo'yicha kristall to'qli tekisligi tugunlari pastga qarab (o'ng tomondag'i qismiga nisbatan) siljiydi, ya'ni plastik deformatsiyasiga uchraydi. Dd-siljish tekisligiga to'g'ri keladi. Bu holatda to'qli tekislikning (63-rasm, b) bir qismida faqat xlor qatorlari, ikkinchi qismida natriy qatorlari vujudga keladi. Ustki qo'shni turli tekislikda esa xlor ionlari qatoriga qarama-qarshi natriy ionlari qator joylashadi, aksincha, natriy qatoriga qarama-qarshi xlor ionlari joylashadi.

Kristallarning bunday deformatsiyalarini (siljishlari) natijasida qo'shaloqlar paydo bo'lган holatlar ko'p uchraydi. Masalan, granitoid intruzivlari bilan ohak toshlar tutashgan joylarda (kontaktda) hosil bo'lган kalsitlarda polisintetik qo'shaloqlar yuzaga keladi.

Yuqorida aytildigan tashqi kuch ko'p vaqtgacha o'z ta'sirini o'tkazib tursa kristalda qaytmash (qaytarib bo'lmaydigan) jarayonlar (fazoviy panjara tugunlarning, to'qli tekisliklari siljishi, darz ketishi, uzilishi va h.k.) yuzaga keladi. Bunday hodisalar plastik deformatsiya deb ataladi. Kristaldagi o'zgarish jarayonlar

Plastik deformatsiya tabiiy va sun'iy kristallarda juda ko'p tarqalgan. Ayniqsa, metallarda ko'p uchraydi. Kristall qiyshayishi, egilishi, zirap-chaga o'xshab ko'rinishi plastik deformatsiya ta'siri ostida vujudga keladi. Bu esa real kristallar simmetriya elementlarining o'zgarishiga sababchi bo'ladi.

Hozirgi kunda kristallar plastik deformatsiyalarini o'rganish kristallofizikaning eng asosiy muammolaridan biri bo'lib qoldi. Chunki yangi, yuqori sifatli, mustahkam zamonaaviy texnika talablariga javob bera oladigan sun'iy kristallarni barpo etishda ularning mexanik xususiyatlari e'tibor berish zarur.

Yuqorida ko'rsatilganidek plastik deformatsiya natijasida yuzaga keladigan siljish, qo'shaloqlar paydo bo'lish jarayonlari, kristallardagi mayda ko'zga ilg'amas darzlar, fazoviy panjaralarning bir-biriga nisbatan teskari joylashib qolishi, tugunlarning o'rin almashib qolish, dislokatsiyalar (ma'lum yo'nalishlar bo'yicha kristall ichki tuzilishining buzilishi) bilan bog'liq. Kristallarning ichki tuzilishidagi defektlari ularning fizik (mexanik) xususiyatlari to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun hozirgi paytda kristallardagi defektlar keng ko'lama o'rganiqmoqda.

Bu masalaning amaliy ahamiyati ham katta. So'nggi yillarda o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar asosida quyidagi kristall defektlarning turlari aniqlanadi:

1. Nuqta defektlari (kristallning fazoviy panjaralarning tugunlari orasida joylashgan atomlar, bo'sh qolgan tugunlar, kristall rangini o'zgartiruvchi markazlar (atomlar, ionlar) va h.k.)
2. Yo'nalish defektlar (dislokatsiyalar).
3. Yuzali defektlar (donachalar chegarasi, qo'sholoqlar, ichki tuzilishidagi ma'lum bir qismining siljishi va h.k.).
4. Hajmli defektlar (kristall ichidagi bo'shliqlar, begona jinslar aralashmalari va hokazo).

Fan-texnika va gemmologiya sohalarida ishlataladigan kristallarni defektsiz sun'iy usulda hosil qilish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda.

8.7. Kristallarning tarangligi. Ma'lumki qattiq jismlargacha tashqi mexanik kuchlar (siqish, cho'zish, bosish va h.k.) ta'sir etsa, ularning tashqi ko'rinishi va hajmi o'zgaradi, ya'ni oldindi bo'limda aytilganidek deformatsiyalarinadi. Agar tashqi kuch ta'siri ma'lum me'yorda bo'lib undan keyin olib tashlansa, qattiq jism o'zining avvalgi holatiga (ko'rinishiga) qaytadi.

Tashqi kuch ta'siri me'yordan oshib ketsa, qattiq jismning ichki tuzilishi buziladi. Bu qaytmas deformatsiya deyiladi. Qattiq jism deformatsiyalangandan so'ng o'zining avvalgi holatiga qaytishi qattiq jismning tarangligi, deb ataladi.

Kristallarda ham taranglik hodisasi yaqqol kuzatiladi. Bunga kalsit, siderit, dolomit, barit, va boshqalar misol bo'la oladi.

Agar kristall uzunligining (cho'zinchoqligining) o'zgarishini – λ (iyamda) harfi, bosimni – R bilan belgilasak, yo'nalishli siqilish koefitsienti – KI ni aniqlash mumkin.

$$KI = \lambda/R$$

Kristallarning siqilish koefitsienti ta'sir etuvchi kuchning yo'nalishiga, ularning qattiqligi, ichki tuzilishi, hosil bo'lish sharoitlari, tarkibidagi kimyoviy elementlarning o'zaroborligi xususiyatlariga, ayniqsa, ularga ta'sir etuvchi tashqi kuchlarga qarshilik ko'rsata olish imkoniyatiga bog'liq.


Kristallarning tashqi mexanik kuch ta'siriga qarshilik ko'rsata olish imkoniyatiga taranglik moduli (E) yoki Yung moduli deyiladi va quyidagicha ifodalilanadi: $E = P/N=I/KI$

Kristalldan kesib olingen uzunligi 1 sm, ko'ndalang kesimi 1 mm² ga teng bo'lgan kesmaga ta'sir etgan kuch qiymati kg bilan o'lchanadi.

Agar uzunligi – L va ko'ndalang kesimi q-ga teng bo'lgan kristall kesmasini stol ustiga qo'yib, uning yuqorisiga og'irligi R bo'lgan bitor yuk bostirib qo'yilsa, kesma siqiladi va uning uzunligi bir miqdorida qisqaradi. U holda kesma uzunligi $L-\ell$ tga teng bo'ladi. Shu kesmani biron joyga mahkamlab uning pastki qismiga og'irligi R-ga teng bo'lgan yukni osib qo'ysak cho'ziladi. Bu kesma uzunligi $L-\ell$ ga barobar bo'ladi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, yuqorida aytilgan ikkala holatda ham ℓ ning qiymatini quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$\ell = RL/q \cdot E \quad (\text{Guk qonuni}).$$

Shunday qilib kristall kesmasining qisqarishi yoki cho'zilishi unga ta'sir etuvchi R – yukning og'irligiga (kuchiga) hamda uning uzunligi L-ga to'g'ri proporsional, aksincha, ko'ndalang kesimi q ga teskaridagi qisqarishga proporsional.




64-rasm. R-yuk ta'sirida kristallning siqilishi (a) va cho'zilishi (b).

proporsional holatda bo'ladi. Bundan tashqari, ℓ – siqilish va cho'zilish koefitsienti deb atalgan E- qiymatiga doimo proporsional ravishda bo'ladi. Agar R=1, L=1, q=1 bo'lsa koeffitsient E= ℓ cho'zilish koefitsienti bir xil jismlarda to'g'ri qiyamatga ega bo'lib, kesma o'chamiga bog'liq emas. Har qaysisi bir jinsli amorf jismlarda cho'zilish koefitsienti ma'lum bir qat'iy qiyamatga ega bo'lib, bu jinsning yo'nalishlari bo'yicha o'zgarmaydi.

Kristallarda esa tamomila boshqacha holatni kuzatish mumkin. Ularning yo'nalishlari bo'yicha qirqib olingan kesma o'chamlari birdek bo'lishiga qaramasdan, siqilish koeffitsientlari bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Masalan, kristall uzunligiga parallel yo'nalishda qirqib olingan kesma siqilish koefitsienti uning, kristall bo'yicha perpendikular yo'nalishda kesib olingan kesma siqilish koeffitsientidan farq qiladi. Kristall bo'yicha qiya holatda qirqib olingan kesma siqilish koefitsienti esa ulardan ham boshqacharoq qiyamatga ega bo'ladi.

Xulosa shundaki, kristallar anizotropik xususiyatga ega bo'lganligi uchun ularning yo'nalishlari bo'yicha siqilish koefitsienti o'zgaruvchan qiyamatga ega. Bunday xususiyat o'rta va quyi tabaqa kristallarida siqilish koeffitsienti barcha yo'nalishlari bo'yicha birdek qiyamatga ega. Chunki ular izotropik xususiyatga ega.


8.8. Issiqlik o'tkazish xususiyatlari. Kristallarning issiqlik o'tkazish xususiyatlarini aniqlash uchun ko'pgina tajribalar o'tkazilgan. Shulardan eng oddysi sham (parafin) yordamida kristallarning issiqlik o'tkazish xususiyatlarini aniqlash. Masalan, kub shaklidagi kristall tomonlarini bir xil qalinlikda sham bilan qoplab, markaz qismiga qizdirilgan nina tutildi. Bu holda nina uchi tekkan nuqtadan sham barcha tomonlarga bir xil tezlikda eriy boshlaydi. Ma'lum vaqt o'tgandan keyin erish nuqtalari o'zaro birlashtirilsa doira shakli hosil bo'ladi (65-rasm a).



65-rasm. Kub (a), geksagonal prizma (b) va rombik prizma (v) tomonlarida shamning erish shakllari.

Bundan kubning barcha tomonlari bo'yicha issiqlik, bir xil tezlikda tarqaladi, degan xulosa chiqarish mumkin. Shuning kabi yuqori tabaqa kristalarining barchasida ham shu hodisani kuzatish mumkin. Demak, yuqori tabaqa kristallarining, izotropik xususiyatiga ega bo'lganligi uchun, issiqlik barcha tomonlarga bir xil tezlikda tarqaladi.

Yuqorida ko'rsatilgan tajribani o'rta tabaqa (geksagonal, trigonal, tetragonal singoniyalari) kristallarida o'tkazsak umuman boshqacha holni kuzatish mumkin. Masalan, trigonal prizmaning uchinchi darajali o'qiga perpendikular joylashgan tomonni (pinakoidni) olaylik.



66-rasm. L3 o'qiga perpendikular joylashgan tomondag'i shamning erish shakli.

Tajribani L3 o'qi bilan bog'langan tomonda takrorlasak, shamning erish tezligi O nuqtadan Oa, Ov, Os yo'nalishlari bo'yicha birdek bo'ladi, ya'ni bir xil tezlikda tarqaladi. Ma'lum bir vaqtadan keyin ularning erish nuqtalarini birlashtirsak O nuqtasi markazi bo'lgan doira shakli hosil bo'ladi. Shuning kabi to'rtinchchi, oltinchi darajali o'qlarga perependikular bo'lgan tomonlarda, ham issiqlik o'tish (erish) tezligi doira shaklida bo'ladi. Lekin trigonal, tetragonal va geksagonal prizmalar-

ning L3, L4, L6 o'qlariga parallel bo'lgan tomonlarida issiqlik tarqalish tezligi yo'nalishlar bo'yicha o'zgaradi. Ularda issiqlik tarqalish tezligining shakli ellipsni ifodalaydi (65-rasm, b). Demak, o'rta tabaqa kristallarining anizatroplik xususiyatlari binoan issiqlik ikki yo'nalishda har xil tezlik bilan tarqaladi.

Quyi tabaqa kristalarining tomonlarida issiqlik o'tkazish tezligi har xil bo'lib, bir-biriga perpendikular holatda joylashgan o'qlari turli o'chamda-gi ellipsoidlar shaklida tarqaladi (65-rasm, v).

Real kristallarda issiqlik o'tkazish asosan ularning ichki tuzilishiga va tajribaga bog'liq. Ularning ichki tuzilishida mayda darzlar va boshqa nuqsonlar, tarkibida esa begona mexanik aralashmalar qanchalik ko'p bo'lsa, issiqlik o'tkazish xususiyati shunchalik past bo'ladi.

8.9. Issiqlikdan kengayish xususiyatlari. Issiqlik ta'sirida kristallarning kengayishi ularning issiqlik o'tkazish xususiyatlariiga bog'liq. Agar kub singoniyali kristallardan shar shaklida kesma qirqib olib qizdirilsa, uning hajmi kattalashadi, barcha tomonlarga birdek kengayadi, ammo shakli o'zgarmaydi. O'rta tabaqa (trigonal, tetragonal, geksagonal) kris-

tallaridan kesib olingan shar qizdirilsa u ham kengayadi, lekin yo'nalishlari bo'yicha barobar kengaymaganligi uchun cho'zinchoq, yoki yassi ellipsoid shaklida bo'ladi. Quyi tabaqa (triklin, monoklin va rombik singoniyalari) kristallaridan tayyorlangan shar qizdirilsa u kengayadi va uch o'qli ellipsoid shakliga aylanadi. Chunki sharning uch yo'nalishida kengayish hajmi (tezligi) uch xil bo'ladi. Bir gradusga qizdirilganda kristallning ma'lum yo'nalishi bo'yicha cho'zilish miqdori yo'nalishli kengayish koefitsienti deb yuritiladi va β harfi bilan belgilanadi. Bir gradusga qizdirilganda kristal hajmining o'zgarishi miqdoriga hajm kengayish koefitsienti deb ataladi va α harfi bilan ifodalanadi.

Natriyning izotipli galogenli birikmalarida hajm kengayish koefitsienti α bilan ionlar oralig'i masofasi d o'tasida uzviy bog'lanish aniq ko'rindi (15-jadval).

15-jadval

Nativ galogenlari	d, Ao	$\alpha \cdot 10^6$
NaF	2,31	108
NaCl	2,82	120
NaBr	2,98	129
NaJ	3,23	145

Kristallarning issiqlik ta'sirida kengayishi ularning ichki tuzilish xususiyatlariga va koordinatsiya soniga bog'liq. Koordinatsiya soni qanchalik yuqori bo'lsa issiqlikdan kengayish koefitsienti ham shunchalik yuqori bo'ladi va aksincha. Masalan; CsCl, NaCl va ZnS birikmlarining koordinatsiya sonlari pasayishi bilan ularning issiqlikdan kengayish koefitsientlari pasayadi; 8, 6 va 4 ga teng bo'ladi. Kub singoniyalili kristallarda issiqlikdan kengayish koefitsienti atomlar oralig'i masofasiga to'g'ri proporsional va ular tarkibidagi elementlarga teskari proporsional. O'rta va quyi tabaqa kristallarining yo'nalishlari bo'yicha har xil tezlikda kengayishi ularning bir xil tomonlari orasidagi burchaklarning o'zgarishiga olib keladi.

Harakat ta'sirida tomonlar orasidagi burchaklar qiymatining o'zgarishi 1829 y. E.Mitcherlix tomonidan qayd qilingan edi.

8.10. Elektr o'tkazuvchanlik xususiyatlari. Kristallar tarkibi, ichki tuzilishi, atom va ionlarning o'zaro bog'lanish turlariga qarab elektr tokini

har xil o'tkazadi. Atomlari metall bog'lanishga ega bo'lgan, sof metall kristallar tokni yaxshi o'tkazadi.

Masalan: mis, temir va boshqalar. Aksariyat ionli va kovalentli bog'lanishga ega bo'lgan ko'pgina kristallar va minerallar oddiy sharoitda elektr tokini o'tkazmaydi (dielektrik). Lekin bu bog'lanishlardagi ko'pgina kristallar ishqalanganda, qizdirilganda, cho'zilganda, siqilganda zaryadlanish va tok o'tkazish xususiyatiga ega bo'ladi. Ba'zi bir kristallarni qizdirganda elektrlanishiga piroelektrik, siqqanda elektrlanishiga – pezoelektrik xususiyat deyiladi. Bular amaliy ahamiyatga ega bo'lib texnika sohasida keng ko'lamda ishlataladi.

8.11. Piroelektrik xususiyatlari. Issiqlik ta'sirida kristallarda elektr zaryadlarining paydo bo'lishiga kristallning piroelektrik xususiyati deyiladi.

Kristallarning piroelektrik xususiyatlari tasodifan kashf etilgan. Issiq kulda yotgan turmalin kristallining bir uchiga kul kukunlari yopishib qolganligi kuzatilgan. Buning sababi Kund (1883 y.) tomonidan o'tkazilgan tajribada aniqlangan. Kund turmalin kristallini qizdirib bir uchiga manfiy zaryadli, mayda sariq rangli oltingugurt kukunini sepgan, ikkinchi uchiga esa musbat zaryadli, qizil rangli qo'rg'oshin oksidi Pb_3O_4 kukunini sepgan. Turmalin kristallining musbat zaryadlangan uchi sariq rangga, manfiy zaryadlangan uchi qizil rangga bo'yalgan.

Shunga asoslanib, qizdirilgan turmalin kristallarining uchlarida qutblashgan elektr zaryadlari yuzaga keladi, degan xulosa chiqarilgan.

Piroelektrik xususiyat kristallarning uzunchoq, ko'pincha yakka yo'nalishga mos tushadigan o'qlari (L3, L4, L6) bo'ylab vujudga keladi. Undan tashqari, kristallning inversiya markazi bo'lmasligi va ikki uchi qutblashgan, bir xil shaklda bo'lishi shart. Bunday shartlarga turmalin (murakkab tarkibli) minerali javob bera oladi.

Turmalin ditrigonal prizma bilan ditrigonal dipiramida kombinatsiyasi shaklidagi kristallar hosil qiladi. Simmetriya elementlari – L33R L3 – o'qi yakka yo'nalishiga mos keladi. Shuning uchun qizdirganda yuqorida aytilganidek uning kristallarining uchlarida qutblashgan elektr zaryadlar hosil bo'ladi. Kristall sovigandan keyin qutlar o'rinn almashadilar. Lekin piroelektrik xususiyatining vujudga kelishini real kristallarda yakka yo'nalish uchlaridagi fazoviy panjara tugunlarining zichroq joylashishi bilan tushuntiriladi.

Piroelektrik xususiyatlari kristallar to'lqin uzunligi (30 chastota) qisqa bo'lgan ultratovush manbayi, stabilizator sifatida, radiotexnika va elektronika sanoatlarida keng ko'lamda ishlataladi.

Piroelektrik xususiyat kristallarning pezolelektrik xususiyatlari bilan bog'liq, chunki kristallni qizdirganda uning hajmi o'zgaradi.

8.12. Pezolelektrik xususiyatlari. Kristallarni siqish va cho'zish ta'sirida elektrlashtirish ularning pezolelektrik xususiyatlari deyiladi. Pezolelektrik so'zi grek tilidan olingan bo'lib, elektrlashtirish va bosim degan ma'noni bildiradi. Aniqrog'i kristallarning bosim ta'sirida elektrlanishi demakdir. Elektrlanish kristallarining ma'lum bir yo'nalishlari bo'yichagina yuzaga keladi. Bu yo'nalishga perpendikular joylashgan qarama-qarshi tomonlardan bittasi musbat zaryadga, ikkinchisi esa manfiy zaryadga ega bo'ladi. U qutplashgan yo'nalishlar deb yuritiladi.

Qutplashgan va qutplashmagan yo'nalishlarning farqi 67-rasmda keltirilgan. Cheksiz davom etuvchi AV to'g'ri chizig'i ustida yotgan a va b fazoviy panjara zarrachalarining (tugunlarining) oralig'i birdek. AV yo'nalishi bo'yicha qaraganda ham, VA yo'nalishi bo'yicha qaraganda ham ular oralig'idan masofalar ham birdek, o'zgarmaydi. Bunday holat qutplashmagan yo'nalishlar uchun xos. Lekin DE yo'nalishida zarrachalarning butunlay boshqacha joylashganligini ko'ramiz. Bu yerda «a» va «b» juftlashib, ularning oralig'ini masofasi birdek «a-b» holatida joylashadi va takrorlanadi. ED yo'nalishida qaraganimizda ham shu holatni ko'rishimiz mumkin. Lekin juftlashgan (ab) zarrachalarning (ba) oralig'i uzun. U juftlashgan zarrachalarning oralig'iga to'g'ri kelmaydi. Zarrachalarning bunday joylashishi qutplashgan yo'nalishlar uchun xarakterlidir.

Kristallarning pezolelektrik xususiyatlari shunday yo'nalishlar bo'yicha vujudga keladi. Bunday yo'nalishlar elektrik o'qi deb yuritiladi.

Kristallning inversiya markazidan o'tgan yo'nalishda pezolelektrik xususiyati bo'lmaydi. Chunki inversiya markazi S ning ikkala tomonida teng masofaga ega bo'lgan zarrachalar joylashgan. Shuning kabi simmetriya tekisligiga va bir xil darajali o'qlar soni juft bo'lgan yo'nalishlarda ham bu xususiyat bo'lmaydi. Demak, kristallarning pezolelektrik xususiyatlarini aniqlashda, ularning simmetriya elementlarini va fazoviy panjaralaridagi zarrachalarning joylashishini hisobga olish lozim. Pezolelektrik xususiyatining mayjudligini kvars kristalli misolida ko'rish mumkin. Kvars kristalli, aksincha, simmetriya turiga, trigonal



singoniyasiga mansub. Simmetriya elementlari L3, L2, bo'lgan kvarsning L3 – o'q bo'yicha yo'nalishi pezoelektrik xususiyatiga ega emas. Chunki unga perpendikular holda uchta ikkinchi darajali o'qlar joylashgan. L2 – o'qlari pezoelektrik xususiyatiga ega. Chunki uning biron ta ikkinchi darajali o'qini 180° aylantirib qarasak bu o'qning ikki uchi har xil vaziyatda joylashgan bo'ladi. Yuqorida ko'rsatilganidek elektr o'qiga mos keladi. Shuning uchun har bir L2 yo'nalishida qutublashgan elektr zarrachalari yuzaga keladi, pezoelektrik xususiyati namoyon bo'ladi.

Bunday kristallar siqilganda bir uchida musbat, ikkinchi uchida esa manfiy elektr zaryadlari paydo bo'ladi, cho'zilganda esa qutublashgan zaryadlar o'rinn almashtadi. Avvalgi musbat qutb manfiy qutbga, manfiy qutb esa musbat qutbga aylanadi. Kvars kristallidan L2 – o'qiga perpendikulyar yo'nalishda yupqa plastinka kesib olib, o'zgaruvchan tok maydoniga joylashtirilsa unda pezoelektrik xususiyati paydo bo'ladi. Bu sharoitda o'zgaruvchan tok ta'sirida siqilishi va cho'zilishi natijasida to'lqinlanuvchi harakat yuzaga keladi. U bir sekundda 10 – 50 marta to'lqinlanishi mumkin. Plastinkaning mexanik to'lqinlanish harakati atrof-muhitdagi zarrachalarga ta'sir qilib, bu muhitda ultra tovushli to'lqinlar tarqatadi. Bunday to'lqinlar suvda uzoq masofalarga tarqalishi mumkin. Shuning uchun dengizlardagi suv osti kemalarining o'zaro aloqa bog'lash, deniz chuqurligini o'lhash asboblarida, radiotexnikada, elektronikada va texnikaning yangi sohalarida keng qo'llaniladi.

Bugungi kunda 500ga yaqin har xil kristallarining pezoelektrik xususiyatlari o'rganilgan. Lekin ularning o'ndan biri amaliy ahamiyatiga ega. Kvarsdan tashqari turmalin, segnet tuzlari ($\text{NaKC}_4\text{H}_4\text{O}_6 \cdot 4\text{H}_2\text{O}$) pezoelektrik xususiyatiga ega va amaliyotda keng ko'lama ishlataladi.

8.13. Magnitlik xususiyatlari. Minerallar magnitli va magnitsiz xususiyatga ega bo'ladi. Magnitli xususiyat atomlarining bir-biriga nisbatan joyla-shishi va o'zaro ta'sir ko'rsata olish qobiliyatlariga bog'liq. Elektronlari o'zaro jipslashgan, magnit orqali qo'shilgan atomlarda magnitli xususiyat bo'lmaydi. Ular ikkita parallel qarama-qarshi yo'nalishli o'qlar $\uparrow\downarrow$ bilan ifodalanadi. Atomlari jipslashmagan elektronlar magnitli xususiyatiga va atom magnit momentiga ega. Ular bir tomoniga yo'nalgan yakka o'q \downarrow bilan belgilanadi.

Aslida kristallarning magnitli xususiyatlari elektronlarning atom yadrosi hamda o'z o'qlarining atrofida muttasil aylanishiga bog'liq. Bu xususiyatning asosiy omillaridan biri magnit ta'sirchanligidir. Magnit

ta'sirchanligi (χ), kristallning magnit birligi I, magnit maydoni kuchlanishi N nisbatiga bog'liq: $\chi q \chi l / H$

Magnit ta'sirchanligi kuchiga qarab kristallar diamagnitli, paramagnitli, ferromagnitli va antiferromagnitli turlarga bo'linadi. Diamagnitli kristallarning ichki tuzilishida ishtirok etuvchi atomlar magnitsiz, chunki ularning magnit momentlari orqali bir-biriga jipslashgan, har qaysisi alohida-alohida magnit momentiga ega emas. Bunga misol – sof mis va osh tuzini (galit) ko'rsatish mumkin.

Paramagnitli kristallar ichki tuzilishida qatnashadigan barcha atomlar magnitli xususiyatiga ega bo'ladi, yoki magnitli xususiyatga ega bo'lgan atomlarning aralashmasidan iborat bo'ladi. Metallarni magnit sifatida o'ziga tortish xususiyatlari sezilmaydi. Masalan, pirit (FeS_2).

Ferromagnitli kristallarning ichki tuzilishida atomlarning barchasi magnitlik xususiyatiga ega yoki bunday atomlar ma'lum miqdorda ularning tarkibida aralashma holida qatnashadi. Bunday kristallar kuchi magnitli xususiyatga ega. Misol qilib, tabiiy sof temirni ko'rsatish mumkin. Antiferromagnitli kristallar ichki tuzilishida qatnashadigan atomlarning barchasi magnitli xususiyatga ega yoki bunday atomlarning aralashmasidan iborat. Ularda magnitlik xususiyat kam bo'ladi. Masalan, gematit (Fe_2O_3). Lekin ular ikki turga bo'linadi: birinchisida atomlar o'zaro magnit orqali jipslashib magnitlik xususiyatini pasaytiradi. Bunday kristallarning magnitlik xususiyatlari yuqori darajada bo'ladi. Shunga o'xhash kristallar magnit maydonini hosil qiladi. Masalan, magnetit ($Fe_2O_3 \cdot FeO$).

9. MINERALLARNING KIMYOVIY XUSUSIYATLARI

Minerallarning tarkibini kimyoviy usul bilan aniqlangandan so'ng, uning formulasini hisoblab chiqish kerak bo'ladi. Buni ilmenit minerali misolida ko'rib chiqamiz. Ilmenitning kimyoviy analiz natijasini oladigan bo'lsak, u holda izomorf magniy, marganes aralashmalar borligini ko'ramiz. Ilmenitning asl formulasi esa – $FeTiO_3$. Kimyoviy tahlil natijasida esa – $(Fe, Mn, Mg) TiO_3$ ko'rinish kelib chiqadi. Ushbu formuladagi temir, marganes, magniy va titan atomlarining haqiqiy koeffitsientlarini hisoblab chiqish talab qilinadi. Hisoblash tartibi quyidagicha bajariladi (16-jadval):

Hamma komponentlar bir ustunga yoziladi.

2. Ikkinchı ustunga har bir komponentning % miqdori yoziladi TiO_2 uchun – 53,80).

3. Uchinchi ustunga har bir komponentning molekular massasi yoziladi (TiO_2 uchun – 79,00).

Molekular massasini aniqlash uchun Mendeleev davriy jadvalidan titan topiladi va uning atom og'irligini olamiz – 47,88. Xuddi shu tariqa kislorod jadvaldan topiladi – 15,9994. Formulada kislorod ikkita bo'lgani uchun uning atom og'irligi ikkiga kupaytiriladi. Natijada $Ti=47,88; 0+2 \times 15,9994=79,8788$ 79,90 ga teng bo'ladi.

4. To'rtinchi ustunga har bir komponentning molekular miqdori yoziladi. Molekular miqdor kimyoviy tahlil natijasining molekular massasiga nisbatidir.

TiO_2 uchun – 53,80:79,90=0,6733.

5. Kationning atom miqdorini aniqlaymiz, buning uchun molekular oksid miqdorini formuladagi kation soniga ko'paytiramiz, TiO_2 uchun $0,6733 \times 1=0,6733$.

6. Kislorodning atom miqdorini aniqlaymiz, buning uchun molekular oksid miqdorini formuladagi atom kislorod soniga ko'paytiramiz (TiO_2 da kislorod miqdori $0,6733 \times 2+1,3466$). Bu ustunga yozilgan barcha kislorodlar atom miqdorining yig'indisini hisoblash kerak:

$$1,3466+0,0675+0,5386+0,672+2,0199$$

Bizda nazariy ilmenit $Fe TiO_3$ da kislorod miqdori 3,00 ga teng. Topilgan yig'indining mana shu kislorod miqdoriga nisbati

$$2,0199:3,00=0,6733$$


Bu miqdor umumiyl bo'lувчи deyiladi.

7. Mineral formulasidagi atomlar koefitsientlarinng miqdori aniqlanadi, buning uchun beshinchi ustundagi kationlar miqdorini umumiyl bo'lувchiga bo'lib, har bir kimyoviy modda uchun alohida-alohida yoziladi. Ti uchun


$$0,6733:0,6733=1,00$$

8. Arifmetik hisob-kitoblarning to'g'riligini zaryadlar miqdori orqali aniqlaymiz. Musbat zaryad sonining yig'indisi manfiy zaryad sonining yig'indisi bilan teng bo'lishi shart.

Bizdagи ilmenit mineralida uch kislorod atomi oltita manfiy zaryadga ega. Demak,



9. Hisoblab chiqilgan formula quyidagicha yoziladi:





9.1. Mineral tarkibidagi birikmalarni aniqlash. Minerallar – bu shartli birikmalardir. Mineral formulalarini izomorf aralashmalar bilan ifodalash mumkin. Masalan, sfaleritni – $(Zn, Fe)S$, ikki mineral ZnS va FeS aralashmasi deb qarash mumkin. Mineraldagi minallar miqdori molekular yoki foizlarda beriladi. Ularning hisobini qorishma tarkibli ilmenit misolida ko'rishimiz mumkin.


1. Ilmenit tarkibi (1-namuna) va hisoblangan formulasi 16-jadvalda berilgan, shu natijalar asosida minal tarkibini chiqarish kerak. Formuladan ko'rinish turbdiki, bu mineral uch moddaning (minalning) izomorf qorishmasidan iborat – ilmenit $FeTiO_3$, pirofanit $MnTiO_3$, geykolit $MgTiO_3$. Formuladagi koefitsientni asos qilib olib, minal tarkibini osongina chiqarib olish mumkin (mol. %):



Agar oksid molekular miqdorining dastlabki o'lchamini 17-jadvaldan olinsa, yuqoridaagi natijani osongina keltirib chiqarish mumkin. U holda:



2. 2-namunadagi ilmenit tarkibi (16-jadval) va formulasi




birinchi namunadagi ilmenitdan farq qiladi. Farqi shundan iboratki, alyuminiy, uch valentli temir izomorf aralashma sifatida topilgan va ular taxminan Al_2O_2 , Fe_2O_3 minal ko'rinishda bo'lsa kerak.

Ilmenit $Fe TiO_3$ formulasi va yuqoridaagi izomorf aralashmalar formulasi bir xil emas. Koefitsientni hisoblash tartibi 17-jadvalda berilgan, molekular miqdori bo'yicha esa 18-jadvalda keltirilgan. Albatta, ularning natijalari bir xil bo'ladi.

3. Kimyoviy tarkibi bo'yicha mineralarning formulasini umumiyl qilib keltirishning sodda usuli ham bor. Bu olingan kimyoviy tarkib natijasining atom og'irligiga nisbatidir. Masalan, barit – $BaSO_4$:

1. Va – 58,8; S – 13,7; O – 27,5; Ba + 58,8 : 137 + 0,43
Ba-137 – Mendeleev davriy sistemasidagi atom og'irlilik
 $S + 13,7 : 32 + 0,43 ; O + 27,5 : 16 = 1,72 ; Ba - S - O ; 0,43 \times 4 + 1,72 ; Ba : S : 0,43 + Ba : SO_4$

Plagioklaz: Al – 10,30; Si – 32,97; O – 48,83; Na – 8,78;
 $Al : 10,30 : 26,98 + 0,38 ; O : 48,83 : 15,99 + 3,05 ; Si : 32,97 : 189,08 + 1,14$



Ko'p hollarda berilgan mineralarning nazariy formulasiga qarab uning tarkibiy qismidagi elementlar miqdorini hisoblash zarurati tug'iladi. Masalan, yuqorida keltirilgan albit minerali $Na (Al Si_3 O_8)$ berilgan bolsa, u holda natriy va boshqa elementlarning atom og'irligi olinadi va ular yig'indisidan proporsiya tuzilib, har bir elementning molekular foiz miqdori keltirib chiqariladi:

$$\begin{array}{l} Na - 22,98 \\ Al - 26,98 \\ Si - 28,08 \times 3 + 84,24 \\ O - \frac{15,99 \times 8 = 127,92}{\Sigma = 262,12} \end{array}$$

$$Na \text{ uchun } 262,12 - 100\% \\ 22,98 - x$$

$$x = \frac{22,98 \cdot 100}{262,12} = 8,76\% \quad Na - 8,76\% \quad Na - 8,76\%$$

$$Al \text{ uchun } 262,12 - 100\% \\ 26,98 - x$$

$$x = \frac{22,98 \cdot 100}{262,12} = 10,29\% \quad Al - 10,29\%$$

$$Si \text{ uchun } 262,12 - 100\% \\ 84,24 - x$$

$$x = \frac{84,24 \cdot 100}{262,12} = 32,13\% \quad Al - 32,13\%$$

$$\begin{aligned} O \text{ uchun } & 262,12 - 100 \% \\ & 127,92 - x \\ x = \frac{127,92}{262,12} \cdot 100 & = 48,8\% \quad O - 48,8\% \end{aligned}$$

Shunday qilib, minerallarning nazariy kimyoviy tarkibini keltirib chiqarildi.

10. MINERALLAR TASNIFI

Minerallar fizik-kimyoviy jarayonlar natijasida yer yuzi va ichki qismida vujudga keladi. Har bir mineral faqat o'ziga xos kristallik tuzilishiga ega bo'lgan aniq tabiiy birikma'dan iborat va kimyoviy elementlardan tuzilgan.

Minerallar tasnifini yaratishda ularning kimyoviy tarkibi va ichki tuzilish tamoyiliga amal qilinadi. Minerallarning kimyoviy birikmalari turiga qarab sinflarga va guruhlarga ajratiladi. Xullas, ma'lum bo'lgan minerallarning barchasi kimyoviy tarkibi va kristall tuzilishiga qarab sinflarga bo'linadi (19-jadvalga qarang).

1. Sof tug'ma elementlar sinfi. Bu elementlar soni 30 dan ortiq, ko'pchilik qismini metallar tashkil etadi. Sof elementlarning yer qobig'idagi miqdori – 0,1%.

Metall xillariga oltin, kumush, mis, platina va nometall turlariga oltin-gugurt, grafit, olmos kiradi.

2. Sulfidlar va sulfotuzlar sinfi. Bu guruhgaga kiruvchi 40 dan ortiq metallar otingugurt, selen, tellur, margimush va surmalar bilan birikmalar hosil qilib, og'irlilik miqdori Yer qobig'ining 0,15% ga teng. Bu guruhgaga oid minerallarning eng muhimlari: xalkozin – CuS₂, argentit – Ag₂S, galenit – PbS, sfalerit – ZnS, grinokit – CdS, kinovar – HgS, nikelin – NiS, pentlandit – (Fe Ni)S₈, xalkopirit – CuFeS₂, auripigment – As₂S₃, realgar – As₂S, antimonit – Sb₂S₃, vismutin – Bi₂S₃, molibdenit – MoS₂, pirit – FeS₂, kobaltin – SoAsS, arsenopirit – FeAsS va boshqalar.

3. Oksidlardar sinfi. Kislorod bilan 40 ga yaqin elementlar turli xil birikmalar hosil qiladi. Yer po'stidagi oksidlarning umumiyligi og'irligi 17% ni tashkil etadi. Bundan 12,0% kremnezoyom oksidi, 3,9% temir oksidi va gidroksidi va qolgan qismida alyuminiy, marganes, titan va xrom oksidlari va gidroksidlari tashkil qiladi. Bu guruhgaga kiradigan mineralllar sodda va murakkab oksidlardan va hidroksidlardan deyiladi. Tabiatda keng tarqalganchalariga: kuprit – CuO, korund – Al₂O₃, gematit – Fe₂O₃, ilmenit – FeTiO₃,

megnetit – $\text{FeO} \cdot \text{Fe}_2\text{O}_3$, shpinel – MgAl_2O_4 , xrizoberill – BeAl_2O_4 , rutil – TiO_2 , kassiterit – SnO_2 , prolyuzit – MnO_2 , uranit – UO_2 , kvars – SiO_2 va boshqalar kiradi.

4. Karbonatlar sinfi. Karbonatlar sinfiga kiruvchi minerallar tabiatda keng tarqalgan. Bularga kalsit – CaCO_3 , magnezit – MgCO_3 , siderit – FeCO_3 , smitsonit – ZnCO_3 , rodoxrozit – MnCO_3 , serussit – PbCO_3 , malaxit – $\text{Cu}_2[\text{CO}_3] (\text{OH})_2$, azurit – $\text{Cu}_3[\text{CO}_3]_2 (\text{OH})_2$ suvli karbonatlarga soda – $\text{NaCO}_3 \cdot 10 \text{H}_2\text{O}$ kiradi.

5. Sulfatlar sinfi. Ushbu sinf minerallari xilma-xil birikmalar hosil qiladi, ammo tabiatda kam tarqalgan. Sulfatlar: barit – BaSO_4 , selestin – SrSO_4 , anglezit – PbSO_4 , angidrit-CaSO₄, gips – $\text{CaSO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$, mirabilit – $\text{NaSO}_4 \cdot 10 \text{H}_2\text{O}$ va boshqalar.

6. Silikatlar sinfi. Silikatlar sinfiga juda ko'p minerallar kiradi. Bizga ma'lum minerallarning 1/3 qismini tashkil etadi. Bu guruhga kiruvchi minerallar barcha tog' jinslarining asosiy qismini tashkil etadi va jins hosil qiluvchi minerallar deb ataladi. Shuning uchun ham ular sinchkovlik bilan batafsil o'rganilgan.

7. Galoid birikmalar sinfi. Bu sinfiga ftoridlar va xloridlar, bromidlar kiradi. Bularning ko'philigi ion bog'lanishli birikmalar hosil qilib, kimyoviy nuqtayi nazardan qaraganda HF, HCl, HBr va HJ kislotalarining tuzlaridan iborat. Bu guruhga mansub minerallar ftoridlar – flyuorit – CaF_2 xloridlar – galit – NaCl silvin – KCL, kerargirit – AgCL va karnallit – $\text{MgCl}_2 \cdot \text{KCl} \cdot 6\text{H}_2\text{O}$.

Rentgen yordami bilan o'tkazilgan tekshirishlar (kristallokimiyoziy kuzatishlar) tufayli silikatlarning ichki tuzilishi ularning kimyoviy tarkibi bilan uzviy bog'liqdir, shu bilan birga minerallarning muhim fizik xususiyatlarini, hatto ma'lum darajada genezisini (hosil bo'lishini) aks ettira oladi.

Silikatlarning tuzilishini rentgenoskopik yo'l bilan tekshirish natijasida ular quyidagi sinflarga bo'linadi: orolsimon, zanjirsimon, lentsimon, varaqasimon va karkassimon silikatlar.


Bu guruh minerallarning soni 80 dan ortiq. Bulardan 30 tasi metallar va ularni ba'zan asl elementlar ham deyiladi. Mendeleev jadvalining oxirida joylashgan inert gazlari – He, Ne, Ar, Xe va Rn ham ushbu guruhga kiradi. Yer po'stida sof tug'ma elementlarning umumiy miqdori 0,1% ni tashkil etadi. Bu miqdorning 0,04% azot va 0,01 – 0,02% kislород tashkil etadi. Sof tug'ma elementlarga platinoid va temir guruhi minerallari ham kiradi. Kimyoviy jadvalning o'ng qismida joylashgan marginush, surma va vismut minerallari boshqalariga nisbatan kengroq tarqalgan.

Sof tug'ma elementlarning kristall strukturasi juda xilma-xil. Atomlari orasidagi bog'lanish o'ta kuchli bo'ladi.

Ushbu guruhga kiradigan metallar elektrni va issiqlikni yaxshi o'tkazadi. Yana bir xususiyatlari ularni jilolaganda yuzasi kuchli yaltiraydi va yuqori darajada nur qaytarish xususiyatga ega bo'ladi. Bu guruhga kirgan platinoidlar va oltinlarning solishtirma og'irligi barcha ma'lum minerallar solishtirma og'irligidan juda katta. Bu guruhga kiruvchi metallarning yana bir xususiyati ularning egiluvchanligidir.

10.1. Sof tug'ma elementlar sinfi – Mis – Cu. U kimyoviy jihatdan sof holda bo'ladi, ba'zan tarkibida aralashma holda – Ag, Au va Fe uchraydi. Masalan, oltinli misda Au – 2-3%, vitneit mineralida Au miqdori 11,6% gacha, kumush esa mis tarkibida 3-4 dan 8% gacha bo'ladi. Ayrim hollarda katta miqdorda rux bo'lishi mumkin. Mis kubik singoniyali bo'lib kristallarining to'g'ri shakldagi turlari kam uchraydi (68-rasm).

Mis-toq' jinslarining darzlik va yoriglarda ko'pincha noto'g'ri shaklda dendritlar ba'zan plastinkachalar holida bo'ladi. Ba'zi konlarda yirik, og'irligi bir necha tonnaga teng bo'lган uyumlari (Amerikaning «Yuqori ko'l» viloyatida) topilgan. Sof holda misning og'irligi 1000 tonna atrofidagi bo'lagi Rossiya'ning Gumejevskiy konida topilgan.



68-rasm. Misning kristall strukturalari:
a) Cu atomlari kubning uchlarida; b) atomlarning joylashishi

Misning rangi qizil. Metall kabi yaltiroq, qattiqligi 2,5 – 3, yaxshi egiluvchanlik xususiyatiga ega. Sinishi ilgakli, ulanish tekisligi yo'q. Solishtirma og'irligi 8,5 – 8,9 u elektr tokini yaxshi o'tkazadi. Ushbu xususiyatlari bilan boshqa minerallardan farqlanadi. Mis HNO_3 kislotada oson eriy-di, HCl da qiyinlik bilan erib, mis xlorni yuzaga kelтирadi. Sof mis turli geologik jarayonlarda yuzaga keladi, ammo ko'p miqdorda gidrotermal va ekzogen sharoitida paydo bo'ladi. Sof misning yuzaga kelishiga misol qilib Amerikaning Michigan shtatidagi «Yuqori ko'l» konini ko'rsatish mumkin. Gidrotermal sharoitda sof misning paydo bo'lishi quyidagicha ifodalanadi.



Ba'zan sof mis o'zgargan asosli intruziv jinslarning oralarida uchraydi. Ularning bu joyda mavjudligi xalkopirit va boshqa sulfidli birikmalarning parchalanishi tufayli yuzaga kelgan. Bunga misol qilib, Uraldag'i Turinsk va Qozog'istondagi Qalmoqtosh konlarini olish mumkin:

$$\text{Cu}_2\text{S} + 2\text{O}_2 = \text{CuSO}_4 + \text{Cu}$$


Ushbu tenglamadagi sof misning yuzaga kelishini sulfid konlarining oksidlanish zonasining ostki qismida joylashadi. U kuprit Cu_2O , malaxit- $\text{Cu}_2(\text{CO}_3)_2 \cdot \text{nH}_2\text{O}$, ba'zan xalkozin – Cu_2S va boshqa minerallar bilan birgalikda uchrashi aniqlangan. Mis metall sifatida – elektrotexnikada, mashinasozlikda, har xil asbob-uskunalar va boshqa idishlar tayyorlashda ishlataladi.

Oltin – Au. Tabiatda oltin toza holda uchraydi – 98-99%, ba'zan aralashmada 65-75% atrofida. Oltinning tarkibida kumush 30%, mis 9,2% – 20% gacha bo'lsa – kuproaurit deyiladi.

Oltinning kub singoniyali turi tabiatda kam tarqalgan. Ba'zan oktaedr, rombobodekaedr shaklida uchraydi. Rangi – tilla sariq (kumushga boyi och sariq). Oltin odatda yaltiroq metall, qattiqligi 2,5 – 3. Oltin egiluvchan va cho'ziluvchan. U osonlik bilan parchalanib yupqa varaqchalarga aylanadi.

Tabiatda oltin yupqa – dispers holda bo'ladi. Oltinning bir oz qisi sulfid mineralarida pirit, xalkopirit va arsenopiritlarda joylashadi. Oltinning yirik kristallari mavjud, ammo kam uchraydi. Chilida sochma cho'kindi jinslar oralarida 153 kg sof oltin topilgan. Avstraliyada (Uelsda) 93,5 kg, Rossiya ning Chelyabinsk viloyatida (Mias) 36,0 kg og'irlilikdagi oltin topilgan. Oltin kislotalarda erimaydi (faqat KCN da eriydi).



69-rasm. Sof oltin

O'ta asos magmatik tog' jinslarda oltinning miqdori boshqa magmatik jinslarga nisbatan 10 barobar ko'p (3·10-6%) bo'ladi, ammo oltinning aksariyat konlari nordon magmaning gidrotermal qoldiq eritma evaziga paydo bo'ladi. Masalan, Zarmiton (Shimoliy Nurota) va Muruntov (Qizilqum) oltin konlari shu holda yuzaga kelgan. Oltin kvars tomirlarida va ba'zan shtokverk shakllarida sulfid mineralları, telluridlar, sheelitlar bilan birga uchraydi (69-rasm).

O'rta va past haroratli mayda dispersli oltin konlari esa asos, o'rta va nordon vulqon jinslari bilan genetik bog'liqligi aniqlangan. Masalan,

Baley, Chelyabinsk (Rossiya), Akenobe va Ikuno (Yaponiya). Oltin konlari mayda zarrachali oddiy ko'z bilan ko'rib bo'lmaydigan oltin sulfid minerallarida o'simta ravishda va kvars tomirlarida yuzaga keladi.

Gidrotermal jarayonlarda yuzaga kelgan sulfid-oltin konlarining ok-sidlanish zonasida limonit, azurit, qo'rg'oshin, vismut, surma oxiralari bilan birga assotsiatsiyada qayta yuzaga kelgan mahsulot sifatida uchraydi. Oltin asosan valyuta sifatida hamda bezak ishlarida, zeb-ziynat buyumlarini tayyorlashda, tibbiyotda, fizik-kimyoviy asboblar tayyorlashda va boshqa ko'plab maqsadlarda qo'llaniladi.

Platina – Pt guruhi minerallari. Sof tug'ma platina guruhi mansub minerallar xilma-xil, ular platina, iridiy, osmiy, palladiy, rodiy va boshqalar. Platina guruhi minerallari orasida poliksen va palladiyli platinalar yer po'stida keng tarqalgan (20-jadval).

Poliksen (Pt, Fe). Tarkibida platina 80 – 88% va temir 9 – 11%, u kub singoniyali. Tabiatda yaxlit kub shaklida kamroq uchraydi asosan noto'g'ri donalar ko'rinishida bo'ladi. Poliksen rangi – kumushdek oq, ba'zan po'latdek kulrang. Qattiqligi 44,5. U ham boshqa metallardek ezi-luvchanlik xususiyatiga ega, ulanish tekisligi yo'q. Poliksen magnitga tortiladi va elektrni yaxshi o'tkazadi, ammo kislotalarda erimaydi. Platina guruhi minerallari genetik jihatdan o'ta asos magmatik jinslar bilan uzviy bog'liq bo'lgan magmatik konlar hosil qiladi.

Osmiy-ruteniy (Os, Ru) va osmiyli iridiy guruhi minerallari, nisbatan kam tarqalgan.

Nevyanskit – (Ir, Os). U birinchi marta Uralning Nevyansk hududida topilgan. Tarkibi o'zgaruvchan (% hisobida) Ir-46,8-77,2; Os-21,0-49,3; Ru-0-0,5; Rh-0,5-7,7; Pt-0,1-5,5; Cu-0-0,9; Fe-0-1,4. Nevyanskit – geksagonal singoniyada kristallanadi, rangi qalayi kabi oq, metall kabi yaltiroq. Qattiqligi 6-7, ancha mo'rt, solishtirma og'irligi 17,0 dan 21,0 gacha.

Ushbu guruhi minerallari genetik jihatdan o'ta asos (dunit, peridotit) jinslar bilan uzviy bog'liq. Bu jinslarda platina guruhi minerallari asosan xromshpinelidlar bilan ba'zan mis sulfidlari bilan birga uchraydi.

Siserskit – Os, Ir. mineral nomi topilgan joyi Uralning Ekaterinburg viloyati Siversk hududidan kelib chiqqan. Geksagonal singoniyali, rangi och kulrang, ba'zan to'q kulrang. Solishtirma og'irligi o'zgaruvchan – 17,8-22,2 gacha. Bu mineral ham o'ta asosli intruziv jinslar natijasi hosil bo'ladi. Yuqorida bayon etilgan minerallar bironta kislotaada erimaydi.

10.2. Yarim metallar guruhi minerallari. Ushbu guruh minerallari tabiatda kam uchraydi. Yarim metallarning ichki tuzilishining o'ziga xos xususiyati shundaki, har biri atom atrofidagi olti atomning uchtasi bilan kovalent bog'lanib o'zaro birikkan strukturani hosil qiladi.

Margimush – As tabiatda kam uchraydi. Tarkibi o'zgaruvchan bo'lib As – 84-95% tashkil etadi. Aralashma holda Sb – 1,7-9,2%, kamdan-kam Ag, Fe, Ni ba'zan V ishtirok etadi. Trigonal singoniyada kristallanaadi. Margimush buyraksimon, oqiq shaklli qobiqlar, stalaktit mahsulotlar holida uchraydi. Margimushning rangi qalayidek oq bo'lib vaqt o'tishi bilan sariq-qo'ng'ir tusga kirib keyinchalik batamom qorayib qoladi. U yaltiroq, qattiqligi – 3,5 ancha mo'rt, solishtirma og'irligi 5,6 – 5,7. Sof margimush gidrotermal jarayonda paydo bo'ladi. Margimush odatda surma, nikel, kobalt, kumush va qo'rg'oshinlar bilan birga uchraydi. Ba'zi adabiyotlarda margimush ma'dan konlarining nurash zonalarida ikkilamchi mineral sifatida yuzaga kelishi qayd etilgan. Bo'yraksimon ko'rinishidagi sof tug'ma margimushning yirik uyumlari Rossiya'ning Zabaykale viloyati Chikoya daryosi qirg'og'ida uchraydi. Bundan tashqari, Saksoniyadagi bir qator konlarda (Freyberg, Shneeberg, Annaberg) topilgan.

Vismut – Bi. Bu mineral margimush va surmaga qaraganda ko'proq uchraydi. Vismut trigonal singoniyada kristallanadi. Yaxshi kristallari kam uchraydi. Odatda hol-xol donali, ba'zan bargsimon va patsimon shakllarda uchratish mumkin. Vismut rangi kumushdek oq bo'lib, sarg'ish tovlanadi. Qattiqligi 2,5, ulanish tekisligi mukammal, qiyinchilik bilan ezladi. Solishtirma og'irligi 9,7-9,8. Vismut yuqori haroratlari hidrotermal jarayonda paydo bo'ladi va cassiterit – SnO₂, arsenopirit – FeAsS, vismutin – Bi₂S₃, volframit (Fe, Mn)WO₄, molibdenit – MoS₂ va boshqalar bilan birga uchraydi.

10.3. Uglerod guruhi minerallari. Bu guruhga olmos va grafit kiradi. Ular bir-birlaridan fizik xususiyatlari bilan keskin farq qiladi.


Olmos – S. Nomi grekcha – «adamas» yengilmas degan ma'noni anglatadi. U tabiatda o'ta qattiqligi va turli shakli: oktaedr, rombobodekaedr va kub shakllarida mavjud (70-rasm). Olmosning oddiy ko'z bilan payqamaydigan xillaridan tortib, to yuz va ming karatl (1 karat – 0,2 g) va undan ham yirik kristallari uchraydi. Dunyodagi eng yirik olmos kristalli – 3106 karatli «kullinan», 1905 yilda J.Afrikada topilgan (16-jadval).

16-jadval

Dunyodagi yirik olmos kristallari haqida
ma'lumotlar (V.A.Milashev bo'yicha, 1978)

Yirik olmos nomi	Og'irligi (karat hisobida)	Topilgan joyi va yili
Kullinan	3106	Janubiy Afrika, 1905
Eksselsior	971,5	Janubiy Afrika, 1983
Serra Leone yulduzi	968,9	G'arbiy Afrika, 1972
Buyuk Mogol	787	Hindiston XVII asr
Prezident Vargas	726,6	Braziliya, 1938
Nizomii	440	Hindiston, 1935
Viktoriya	428,5	Janubiy Afrika, 1880
Toj-Mahal	146	Hindiston, 1920
Shoh Akbar	119	Hindiston, 1918

Olmosning rangi, shaffofligi turlicha: rangsiz, shaffof, oq, havorang, yashil, sarg'ish, jigarrang, qizg'ish, to'q kulrang, ba'zan qora. Olmosning ichki tuzilishi uning hosil bo'lish sharoti haqida qo'shimcha ma'lumot beradi. Masalan, yuqori haroratda yuzaga kelgan olmos – oktaedr shaklida



70-rasm. Olmos.

rangsiz bo'ladi, haroratning asta-sekin pasayishi natijasida uning shakli rombobodekaedrdan kub shakliga qarab o'zgaradi va rangi quyuqlashib qora bo'ladi. Olmosning qattiqligi 10. Mutlaq qattiqligi kvarts qattiqligidan ming marta, korund qattiqligidan 150 marta ortiq. Olmos mo'rt bo'lib, ularish tekisligi (III) bo'yicha o'rtacha mukammal. Solishtirma og'irligi – 3,4-3,5, kuchsiz elektr o'tkazuvchan. Tabiatda

olmosning o'ta sifatlari, chiroqli xillari bilan birga yomon xillari uchraydi: 1) bort shaklchiz, darzliklardan tashkil topgan, mayda qo'shimchalarga boy; 2) ballas – shu'lasimon, sharsimon mayda zarrali turi; 3) karbonado – zich kristalli, qora rangli ba'zan mayin, g'ovak donali agregatlardan iborat.

Olmosning tub konlari genetik jihatdan o'ta asos jinslar – dunit, kimberlit, lamproitlar va peridotitli magmatik jinslar bilan uzviy bog'liq. Dunyodagi eng yirik konlari kimberlitli magmaning yer yuziga yaqinlash-

gandagi kuchli portlashi natijasida sodir bo'ladi (Janubiy Afrika, Tanzaniya, Zoir, Angola, Botsvana va boshqalar). Bularda olmos, olivin, xromshpinelid, xromdiopsid, pirop, ilmenitlar bilan birga uchraydi va ular olmos uchun mansub mineral hisoblanib, olmos to'g'risida qo'shimcha xabar beradi. E'tiborli tomoni kimberlitlardagi eklogit ksenolitlardagi olmosning uchrashi, olmos kristallariga qo'shib ketgan minerallardan granat, xromga to'yigan piroksen (enstatit), olivinlar olmos konini izlashda darakchi hisoblanadi.

Laboratoriya usulida olingan eksperimentlarning natijasiga binoan olmos konlari yuqori mantianing 100-200 km chuqurlikda yuqori bosim 5-9 KB, kuchli harorat 1470-1970°da kimberlitli va eklogitli magmalarining kristallanishidan hosil bo'ladi. Bulardan tashqari, ayrim olmos donalari serpentinlashgan garsburgitlarda va lertsolitlarda Rossiya'ning Karyak tog'larida hamda Kamchatkadagi dunit-piroksenit formatsiyalarida aniqlangan. Hozirgi vaqtida laboratoriya usulida sun'iy olmos olish bo'yicha yaxshi natijalarga erishilmoqda. 1953 yili shved mutaxassislarini birinchi marta sun'iy olmosni laboratoriyyada 3270°li haroratda va 10 KB bosimda olishga muvofiq bo'lishgan. Keyingi yillarda ko'p mamlakatlar sun'iy olmos olishni tezlashtirdi va oqibatda, olmos olish uchun harorat 1470-1770° atrofidaligi aniqlandi. Sun'iy olmos olishda grafit ishlatilmasdan oddiy ko'mirdan foydalanishgan. Olmosning aksariyat qismi cho'kindi - sochma jinslardan ajratib olinadi - Zoir, Angola, Serra Leoneda mamlakatlari misolida. Dunyo bo'yicha qazib olinadigan olmosning 75 - 95% sochma konlar hisobidan olinmoqda. Olmosning mutlaq shaffof xili qimmatbaho - brilliantlar tayyorlashda ishlatiladi. Texnik maqsadlarda esa olmosning sifatsiz turlari ishlatib kelinmoqda.

10.4. Oltingugurt va shunga o'xhash birikmalarning sulfid mineralari.

Oltingugurt - S. Tabiatda oltingugurtning bir necha polimorf modifikatsiyasi ma'lum. Bulardan biri rombik tuzilishga ega α -oltingugurt sof holda uchraydi. U oddiy sharoitda 96,5odan yuqoriroq haroratda qizitsa, unda u monoklitih singoniyali β - oltingugurtga aylanadi, sovitilsa avvalgi holatiga keladi.

Ko'pincha toza holda bo'ladi, ammo ba'zan gil yoki organik moddalar, neft tomchilar, gaz va boshqalar bilan mexanik aralashma holda bo'ladi. Ayrim hollarda oltingugurt tarkibida 5% selen bo'lishi mumkin. Rombik singoniyali, ba'zan rombodipiramidal shakllarda uchraydi. Oltingugurt yaxlit, tuproqsimon massalar holida topiladi. Buyraksimon, oqiq - tom-

ma shakllarda bo'ladi. Rangi to'q sariq, limon-sariq, asal-sariq, sariq, kulrang-sariq, qo'ng'ir va qora. Kristallari olmosdek, ba'zan yog'langandek yaltiraydi. Toza kristalli nurni yaxshi o'tkazadi. Oltingugurtning qattiqligi – 1 – 2, ancha mo'rt, ularish tekisligi mukammal, solishtirma og'irligi 2,05 – 2,08. U elektr va issiqlikni yomon o'tkazadi (yaxshi izolyator). Oltingugurtni boshqa o'ziga o'xhash minerallardan ajratish belgilari – rangi, kichik qattiqligi, mo'rligi, yaltirashi va boshqalar.

Sof tug'ma oltingugurt Yer po'stining ustki qismida joylashgan. Oltin-gugurt turli yo'llar bilan yuzaga keladi: 1) vulqon harakatida qator gazlar bilan oltingugurt havoga uchadi, ba'zilari vulqon mo'rilarini, jins yoriqlarida yopishib qotadi. Hozirgi vaqtida vulqonli mamlakatlarda Rossiya (Kamchatka, Kuril orollari), Yaponiya, Italiya ning vulqonlar uchraydigan joylarida solfator manbalarida erigan holda chiqadi va soylar va jarliklarda oqimlar ko'rinishida qotadi; 2) ma'dan konlari oksidlanish zonalarining ostki qismida sulfidlarning, ayniqsa, piritning parchalanishidan paydo bo'ladi; 3) cho'kindi gips qatlamlarining parchalanishidan ham hosil bo'ladi.

Oltin-gugurt sanoatning turli tarmoqlarida zarur element hisoblanadi. U turli kislotalar tayyorlashda rezina, bo'yoq, gugurt, mushaklar va qishloq xo'jaligida ishlatiladi.

SULFIDLAR VA SULFOTUZLAR SINFI

Xalkozin – Cu ₂ S	Aykinit – PbCuBiS ₃	Vismutin – Bi ₂ S ₃
Argentit – Ag ₂ S	Kalaverit – AuTe ₂	Tetradimit – Bi ₂ (Fe,S) ₃
Kovelin – CuS	Sfalerit – ZnS	Realgar – AsS
Shtromeyirit – (Ag,Cu)S ₂	Silvanit –	Molibdenit – MoS ₂
Xalkopirit –	AuAgTe ₄	Auripigment – As ₂ S ₃
CuFeS ₂	Vyurtsit – ZnS	Tungstenit – WS ₂
Gessit – Ag ₂ Te	Kinovar – HgS	Antimonit – Sb ₂ S ₃
Kubanit – CuFe ₂ S ₃	Grinokit – CdS	Alabandin – MnS
Diskrozit – Ag ₃ Sb	Metatsinabarit – HgS	Pirit – FeS ₂
Bornit – Cu ₅ FeS ₄	Galenit – PbS	Kobaltin – CoAsS
Domeykit – Cu ₃ As	Stanin – SnCu ₂ FeS ₄	Markazit – FeS ₂
Prustit – Ag ₃ AsS ₃	Djemsonit –	Lellingit – FeAs ₂
Pirargirit – Ag ₃ Sb ₃	Pb ₂ Sb ₂ S ₅	Sperrelit – PtAs ₂
Stefanit – Ag ₅ Sb ₈ 4	Bulanjert – Pb ₅ Sb ₄ S ₁₁	
Polibazit – (Ag,Cu)16Sb ₂ S ₁₁	Frankeit – Sn ₃ Pb ₅ Sb ₂ S ₁₄	
	Burnonit – CuPbSb ₃	

Oltungugurtli va shunga o'xhash birikmalar Yer po'stida keng tarqalgan birikmalar hisoblanadi. Bu guruh minerallari kimyoviy birikmalarning turlariga qarab – oltungugurtli, selenli, tellurli, margimushli va surmali turlarga bo'linadi. Ushbu guruh minerallari sanoatda juda katta ahamiyatga ega va turli xil konlar hosil qiladi. Oltungugurt bilan birikma hosil qiluvchi minerallar soni 40 dan ortiq va ularning aksariyati metall hisoblanadi.

Rentgenometrik ma'lumotlariga binoan sulfidlar va shunga o'xhash birikmalarini ion birikmalar qatoriga va ikkinchidan sof tug'ma elementlar qatoriga qo'shish mumkin. Qutblanish hodisasi kristall strukturalarda qarama-qarshi zaryadlangan qo'shni ionlar elektronlarini qisman birlashishga olib keladi.

Xalkozin – Cu₂S. Nomi yunoncha «xalkos» mis so'zini anglatadi. Uba'zan mis yaltirog'i ham deyiladi. Xalkozin uch modifikatsiyada uchraydi bulardan biri quyi haroratda bo'lib, 91° dan past haroratda turg'un bo'lib, rombik singoniyada kristallanadi. Qolgan ikkitasi yuqori haroratda (91° dan yuqorida) yuzaga kelib, geksagonal va kubik shakllarda kristallanadi. Tabiiy xalkozin ko'pincha quyi haroratda hosil bo'lgan rombik (β – xalkozin) va xalkozin aralashmasidan tashkil topgan.

Xalkozin tarkibida – Cu – 79,9% va S – 20,1%, bundan tashqari Ag, As, Fe, Co, Ni aralashmalari bo'ladi. Singoniyasi – rombik. Xalkozinning yaxshi kristallari kam uchraydi ammo ko'pincha qalin tabletkasimon, kalta ustunlar hosil qiladi. Ayrim hollarda geksagonal shaklda bo'ladi. Tabiatda yaxlit, mayda donali bo'lib – bornit, xalkopirit ba'zan sfalerit, galenit, kovelinlaming o'miga pesvdomorfozalar shaklida hol-xol bo'lib uchraydi. Xalkozinning rangi – qo'rg'oshindek kulrang, metall kabi yaltiraydi. Qat-tiqligi 2 – 3, solishtirma og'irligi 5,5 – 5,8, elektr tokini yaxshi o'tkazadi. Xalkozin HNO₃ da erib, oltungugurt ajraladi.

Xalkozin gidrotermal va ayniqsa, ekzogen jarayonda paydo bo'ladi. Xalkozin nurash zonalarida bardosh beraolmaydi va parchalanib kuprit, malaxit va azurit kabi mis oksidlariga aylanadi. Xalkozin misga eng boy sulfid bo'lib, mis qazib olishda katta ahamiyatga ega. Xalkozin ma'danining yaxlit massalari Shimoliy Uraldag'i Turinsk konida uchraydi. Uncha boy bo'limgan hol-xol xalkozin ma'danlari Qo'ng'iroq (Balxash ko'li) Qozog'iston va Olmaliq mis konlarida aniqlangan.

Argentit – Ag₂S. Nomi yunoncha «argentum» kumush so'zidan kelib chiqqan. Argentitning ikki modifikatsiyasi mavjud, bulardan biri – yuqori

haroratlari (1790S dan yuqori) kubik modifikatsiyali – argintit va 2) past haroratlari (1790 S past) rombik singoniyali – akantit.

Argentit tarkibida – Ag – 87,1%, S – 12,9%, bundan tashqari aralashma sifatida mis, qo'rg'oshin, surma uchraydi. Argentit – rombik singoniyali, rangi qo'rg'oshindek kulrang, metall kabi yaltiraydi, pichoqda yaxshi kesiladi. Tabiatda kub, ba'zan oktaedr ko'rinishlarda bo'ladi. Qattiqligi – 2 – 2,5, mo'rt mineral. Ulanish tekisligi kub bo'yicha mukammal, solishtirma og'irligi – 7,2-7,4. Argentitning aksariyati gidrotermal jarayonida paydo bo'ladi. Odatda tarkibida kumush bo'lgan boshqa minerallar bilan birga kumush oladigan manba hisoblanadi.

Galenit – PbS. Nomi yunoncha «Galena» qo'rg'oshin ma'dani so'zidan kelib chiqqan. Tarkibida Pb – 86,6% va S – 5-13,4%, aralashma tariqasida, Cu, Zn, Bi, Fe, As, Sb uchraydi. U kubik singoniyada kristallanadi. Rangi qo'rg'oshindek kulrang, metall kabi yaltiraydi. Qattiqligi 2-3, u ancha mo'rt mineral, ulanish tekisligi kub bo'yicha mukammal. Solishtirma og'irligi 7,4-7,6. U kuchsiz elektr tokini o'tkazadi.

Galenit asosan gidrotermal jarayonda vujudga keladi. Tashqi ko'rinishi bilan antimonit Sb₂S₃, bulanjerit Pb₅[Sb₂S₄]₂S₃ va burnonit – CuPb[SB₂S₃] larga juda o'xshash, ularning farqi: an-timonit – cho'zinchoq – zirapchasimon kristall hosil qiladi. Bulan-jerit esa, shu'lasimon, tolasimon ko'rinishda. Burnonit – cho'zinchoq ustunsimon shakli. Nurash jarayonida galenit oksidlanib serussitga – PbCO₃ va anglezit – PbSO₄ aylanadi. Galenit qo'rg'oshin olishda muhim asosiy manba hisoblanadi. Respublikamizda polimetall deb ataluvchi gidrotermal konlar yetarli darajada, ular Uchquloch (Shimoliy Nurota) va Olmalik konlaridir.

Sfalerit – ZnS. Nomi yunoncha «Sfaleros» – aldamchi degan ma'noni bildiradi. Tabiatda bir necha xillari mavjud: Kleyofon – oq rangli (deyarli aralashmlari yo'q), marmatit – qora rangli (temirga boy). Poshibramit (kadmiya boy). ularning tarkibida Zn – 67,1%, S – 32,9%. Aralashma sifatida – Fe – 20%, Mn – 8%, Cd – 2,5-9,2%, Cu – 2,5% gacha. Sfalerit kubik singoniyada kristallanadi. Yaxshi shakllari kam uchraydi ammo ba'zi bo'shliqlarda yuzaga kelib to'g'ri tetraedr shaklida uchraydi. Yaxlit donali kristallaridan iborat ulanish tekisligi yaxlit ko'rinish turadi. Ba'zan kristallarning yiriklari ham uchraydi. Rossiya'ning Chita viloyatidagi Klichkin konida sfaleritning 10 sm kristali bo'lsa, AQSHning Jopein konida 1 t og'irlikda tetraedr va rombobodekaedr ko'rinishida topilgan. Rangi qora yoki jigarrang olmos kabi yaltiraydi. Qattiqligi 3 – 4, ancha

mo'rt, u elektr tokini o'tkazmaydi. Suyultirilgan HNO₃ da eriydi va oltin-gugurt ajralib chiqadi. Sfalerit ko'pincha galenit va mis sulfidlari bilan birga uchraydi.

Sfalerit ekzogen sharoitida deyarli yuzaga kelmaydi. Olinadigan ruxning qariyb yarim polimetall konlardan olinib, ushbu konlarda sfaleritning miqdori galenitnikidan yuqori bo'ladi. Sfalerit rux olish uchun asosiy manba, ammo qo'shimcha ravishda kadmiy va galliy elementlari ajratib olinadi.

Grinokit – CdS. Kadmiy aldamchisi deyiladi va tabiatda juda kam uchraydi. Tarkibida – 77% kadmiy bor. Geksagonal singoni-yada kristallanadi va o'tkir piramida shakllarida bo'ladi. Ba'zan kukun, tuproqsimon holatlarda topiladi. Uning rangi sariq, qizg'ish-sariq, to'q qizg'ish-sariq, yaltirashi olmosdek, qattiqligi 3-3,5. U mo'rt mineral, ulanish tekisligi mukammal, solishtirma og'irligi – 4,9-5,0. U kislotalarda eriyotganda H₂S hidini chiqaradi. Kadmiyning yirik konlari uchramaydi. Grinokit polimetall konlarning oksidlanish zonalarida aniqlangan, bular – Qizil-Espe (Qozog'iston), Sibilevsk koni (Janubiy Ural), Arshibram koni Chexoslovakija, Pensilvaniya (AQSH).

Kinovar – HgS. Nomi Hindistondan kelib chiqqan deb taxmin qilinadi, ularda qizil smola, kinovar «ajdarho qoni» deyiladi. Simob sulfidi ikki modifikatsiyada – kinovar va metatsinabarit. Tarkibida Hg – 86,2%, S – 13,8%. Singoniyasi – trigonal, uning qalin tabletkasimon va romboedr kristallari uchraydi ba'zan noto'g'ri shaklli, hol-xolli donalar holida, ba'zan kukunsimon, yupqa po'stloq tariqalarida bo'ladi. Rangi qizil, ba'zan qo'rg'oshindek kulrang bo'lib tovlandi. U kuchli yarim metall kabi yaltiraydi. Uning qattiqligi – 2 – 2,5 mo'rt mineral. Ulanish tekisligi ba'zi yo'naliishi bo'yicha mukammal, solishtirma og'irligi 8, u elektr tokini yomon o'tkazadi. Kinovar va metasenobarit – past haroratli gidrotermal (teletermal) jarayonda yuzaga keladi. Ba'zan vulqon jinslari natijasida ham namoyon bo'ladi. Kinovar hosil qiluvchi teletermallardagi tog' jinslari kvarsplashadi (jesperoidlar yuzaga keladi), serisitlashadi, kaolinlashadi va scolitlashadi.

Kinovar konlarda quyidagi yetakchi ma'dan minerallari – kinovar, metasenabarit, antimonit, realgar, auripigment, aynama ma'dan (bleklaya ruda) hamda kvars mayda donalardan xalsedongacha, ba'zan flyuorit, barit va karbonatlar birga uchraydi.

Dunyoda eng yirik konlari Almaden (Syudad-Real) Ispaniyada mavjud. Ushbu kondan 200 yildan ortiq simob olinmoqda, ma'lumotlarga

qaraganda zaxirasi yana 100 yilga yetadi. Ukrainadagi Nikitovsk, Haydarkon Kirg'iziston va respublikamizning Turkiston tog'larining shimoliy etaklari yon bag'rilarida (Qorasuv, Sox va boshqalar) topilgan. Kinovar simob olimadigan birdan-bir manba hisoblanadi. Simob oltinni kimyoviy tayyorlashda, fizik asboblarda va portlovchi simob Hg(CNO) detonatorlar uchun modda tayyorlashda ishlataladi.

Realgar – AsS tarkibida As – 70% va S – 29,2% bo'ladi. Nomi arabchadan olingen realgar – «shaxta changi» ma'nosini anglatadi. U monoklin singoniyali. Kristall tuzilishi prizmatik holda uchraydi. Odatta prizmaning cho'zinchoq o'qi bo'yicha chiziqchalar bilan qoplanadi, ba'zan donador agregatlar, ba'zan po'st va tuproqsimon agregatlar hosil qiladi. Realgarning rangi sarg'ish-qizil, ba'zan to'q qizil, u yarim shaffof, olmosdek yaltiraydi. Realgar qattiqligi 1,5-2, ularish tekisligi mukammal, solishtirma og'irligi 3,4-3,6. Realgar vaqt o'tishi bilan sarg'ish-qizil kunkunga aylanadi, elektr tokini o'tkazmaydi. Tabiatda realgar har doim auripigment bilan birga uchraydi. Realgar konlariда uning yirik kristallari 1 – 2 sm kattalikda uchraydi (Luxumsk koni – Gruziya).

Antimonit – Sb₂S₃. Mineral nomi yunoncha «antimonium» surma so'zini anglatadi. Tarkibi Sb – 71,4%, S – 28,6%. aralashma sifatida As, Ag, Au uchraydi. Rombik singoniyali, ko'proq prizma shaklida ustunchaga, ignaga o'xhash, yonlari tik chiziqlar bilan qoplangan bo'ladi. Ba'zan antimonit kristallari qiyshaygan, hatto buralib ketgan bo'ladi. Antimonitning rangi qo'rg'oshindek kulrang, ayrim kristallari ko'kimtir qora bo'lib tovlandi. U shaffof emas, ammo metall kabi yaltiraydi, uning qattiqligi 2 – 2,5, ancha mo'rt mineral. Ularish tekisligi prizma bo'yicha mukammal, solishtirma og'irligi 4,6, elektr tokini o'tkazmaydi.

Uning yirik uyumlari gidrotermal jarayonda yuzaga keladi. Ba'zan vulqon mo'rilarida va atrofida, vulqon mahsulotlari orasida uchraydi. Oksidlanish zonalarida ancha osonlik bilan parchalanib turli oksidlarga – valcentenid, servantit, kermeztllarga aylanadi.

Mashhur konlarga Farg'ona vodiyisidagi – Qadamjoy, Yaponiyaning Shikoku orolidagi Itshinokava konlari yaxlit misol bo'la oladi. Surma qo'rg'oshin va rux bilan tayyorlangan qotishmasi «tipografiya metalli» deb yuritiladi. Surma, rezina, kauchuk, to'qimachilik sanoatida, shisha tayyorlashda va tibbiyotda ishlataladi. Surmani qazib olishda antimonit asosiy manba hisoblanadi.

Nikelin – NiAs. Tarkibida – 43,9% nikel – 56,1% marginush bo‘ladi, izomorf aralashma holida Fe – 1-2,5%, S – 1-5%, Cu – 0,1%, Sb – 2%, Bi – 0,1% uchraydi. Tabiatda geksagonal singogiyada kristallanadi. Nikelin kristallari kam uchraydi odatda yaxlit massalar, ba’zan hol-xol hamda buyraksimon ko‘rinishlarda yuzaga keladi. Qattiqligi – 5, mo‘rt, ularish tekisligi mukammal emas. U elektr tokini yaxshi o‘tkazadi. Nikelin rangi – misdek – qizil, metall kabi yaltiraydi. Fizik xossalari bo‘yicha bornitga o‘xhash, undan rangi va metall kabi yaltirashi bilan farqlanadi.

Nikelining aksariyat qismi gidrotermal jarayonda yuzaga keladi. Nikelin oksidlanish hisobiga och yashil rangli mineral annabergitga – $\text{Ni}[\text{AsO}_4]_2 \cdot 8\text{H}_2\text{O}$ – aylanadi. Saksoniyadagi ma’dan tog‘ konida nikelin sof tug‘ma vismutli (ginesberg) kobalt-nikel-kumush formatsiyasini hosil qiladi.

Pentlandit – $(\text{Fe}, \text{Ni})_9\text{S}_8$. Mineral nomi birinchi aniqlagan Dj.B.Pendlar sharafi bilan ataladi. Pentlandit – temir-nikel kolchedani deyiladi va Fe:Ni munosabati 0,2 dan 1,5 gacha. Ba’zan yuqori miqdorda kobalt uchraydi. Kobalt-petlandit (Varislaxti Finlyandiyada) kobalt – 49%, Langis (Kanadada) 54% So, nikel miqdori esa 10,5%. Bulardan tashqari, petlanditda mis – 6,5, kumush – 14% gacha (Talnax konida) aniqlangan. Petlandit kubik singoniyada yuzaga keladi. Uning rangi bronza – sariq, ba’zan och rangi uchraydi. Metall kabi yaltiraydi. Qattiqligi – 3,4, ularish oktaedr bo‘yicha mukammal. Solishtirma og‘irligi 4,5-5. U elektr tokini yaxshi o‘tkazadi, ammo magnitlik xususiyati yo‘q. Tabiatda xarakterli shakldagi kristallari kam uchraydi.

Petlandit magmatogen konlarda pirrotin va xalkopiritlar bilan uchrab, yirik uyumlar hosil qiladi. Ular bilan birqalikda platina minerallari – sperilit – PtAs_2 , palladiyli platina, kuperit – PtS lar uchraydi. Oksidlanish zonasida nikel sulfidlaridan suvda oson eriydigan ikkilamchi minerallari – morenozit – $\text{NiSO}_4 \cdot 7\text{H}_2\text{O}$, ryotgersit – $\text{NiSO}_4 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$ hosil bo‘ladi.

Dunyodagi nikelning 90%, jahondagi mashhur – Kanadadagi Syodberi, Janubiy Afrikadagi Bushveld va Rossiyadagi Norilsk, Talnax va boshqa konlardan qazib olinadi. Ushbu konlarning ma’danlaridagi nikel miqdori 1-5%, mis – 2-3% atrofida bo‘ladi.

Nikeldan maxsus asboblar, idishlar tayyorlashda hamda texnika jihatdan ahamiyatga ega bo‘lgan qotishmalar tayyorlashda va temir asboblarni tayyorlashda foydalaniladi.

Xalkopirit – CuFeS₂. Nomi yunoncha «xalkos» – mis, «Piros» – olov ma’nosini bildiradi. (Mis kolchedani) tarkibida – Cu – 34%, Fe – 30,54%, S – 34,9%. Bundan tashqari: Mn – 3%, As – 1,5%, Sb – 1%, Ag, Zn, Bi – 0,2%, atrofida aniqlangan. Uning tetragonal singoniyali yaxshi kristallari bo’shlilarda paydo bo’ladi. Rangi jez-sariq, to’q-sariq, ola-bula bo’lib tovlanadi. U shaffof emas, metall kabi kuchli yaltiraydi, mo’rt mineral. Xalkopiritga pirit o’xhash, farqi, rangi va qattiqligi bilan farqlanadi. Xalkopirit HNO₃ kislotada parchalanadi va oltingugurt ajraladi. Xalkopirit, pirrotin, petlandit va boshqalar birga intruziv jinslar oralarida magmatogen konlar hosil qiladi. Uni ba’zan gidrotermal konlarda uchratish mumkin. Xalkopirit nurash jarayonlarida parchalanib mis va temir sulfatlarini hosil qiladi. Mis-porfirsimon kristallar – xalkopirit, bornit, sfalerit va molibdenitlardan iborat (Chilidagi Chukikamata, Bolgariyadagi Medet). Xalkopirit uyumlari ba’zan vulqon jinslarida qora rangli ma’danlar hosil qiladi va ular mayda zarrachasimon xalkopirit, bornit, sfalerit, cassiterit va volframitlardan tashkil topgan (Yaponiyadagi – Akenobe, Ikuno konlari).

Xalkopiritning yirik uyumlari skarnlarda hosil bo’ladi Turinsk, (Rossiya), Olmaliq (O’zbekiston) va mis olishdagi asosiy manbalardan hisoblanadi. Sanoatbop ma’danlarda misning miqdori 2-2,5% bo’lishi lozim, shundagina qazib olishning imkoniyati tug’iladi. Albatta, bu ko’rsatkich o’zgaruvchan, chunki yerning chuqur qismidan qazib olish maqsadga muvofiq emas.

Molibdenit – MoS₂. Grekcha «molibdos» qo’rgoshin degan so’zni anglatadi. Tarkibida Mo – 60%, S-40%. Izomorf aralashma sifatida Re – 0,1-2,0%. Tu – 2% gacha va boshqalar bo’ladi. Molibden geksagonal singoniyada kristallanadi, u odatda qavat-qavat bo’lib uchraydi. Har qaysi qavatlardagi ionlar bir-biri bilan mustahkam bog’lanish hosil qilmaydi. Kristallari geksagonal shaklda uchraydi. Prizmatik kristallari kam uchraydi. Ko’proq varaqsimon, tangachasimon, sferolit ko’rinishlarda, qoramtilr rangli tuproqsimon hollarda uchraydi. Molibdenit rangi qo’rgoshindek kulrang, havorang bo’lib tovlanadi. U metalldek valtiraydi, yupqa varaqchalarini egilgan va bukilgan, qattiqligi – 1, solishtirma og’irligi – 4,7-5,0, molibdenitning asosiy belgilari – qo’lga yog’langandek tuyulishi va qog’ozda iz qoldirishidir. Molibdenitning elektr tokini o’tkazish qobiliyati o’zgaruvchan, ya’ni oddiy haroratda sust darajada o’tkazsa, harorat ortishi bilan o’tkazmaydi.

Tabiatda uchraydigan aksariyat molibdenit konlari nordon intruziv jinslar bilan genetik bog'liq. Molibdenit gidrotermal jarayonda kvars tomirlarida cassiterit – volframit, ba'zan muskovit, topaz va vismutinlar bilan paragenezis hosil qiladi. Karaoba Qozog'iston, Beluxa va Bokuka Chita viloyati Rossiya, Xermingi, Gavay, Birma. Bulardan tashqari dunyodagi eng yirik konlari yuqori haroratlgi hidrotermal mahsuloti – mis porfirli konlardir. Bunda molibdenit, xalkopirit, bornit va piritlar bilan birga uchraydi. (AQSHning Kolorado shtatidagi kon – Klavmaks, Kadjaran, Armaniston, Kounrad, Qozog'iston, Olmaliq, O'zbekiston). Ushbu genetik turdag'i konlar dunyoda qazib olinadigan molibdenning 80 – 90% bera-di. Undan tashqari, molibdenit skarn konlarda ham uchraydi (Chimyon intruzivi,)

Pirit – FeS₂. Yunoncha «piros» olov demakdir (urganda uchqun chiqadi). Tarkibida Fe – 46,6%, S – 53,4% ni tashkil etadi. Bulardan tashqari 10% gacha kobalt, Ni, Hg – 2% atrofida 0,2-0,5% hisobida, ba'zan Cu, As, Zn, Pb, Ti bo'ladi. Nisbatan kamroq miqdorda Au, Sb, Cd, Ge va boshqalar aniqlangan. Pirit kub singoniyali (71-rasm).

Odatda to'g'ri tuzilgan kristallari uchraydi. Ma'danlarda uchraydigan pirit kubik, pentagondodekaedr, ba'zan oktaedr ko'rinishda yuzaga keladi, bulardan tashqari tog' jinslarida hol-xol ko'rinishda uchratish mumkin. Piritning rangi och mis-sariq, sarg'ish-qo'ng'ir, ola-bula bo'lib tovlanadi. Bu metall kabi yaltiroq, qattiqligi 6-6,5, u elektr tokini yaxshi o'tkazmaydi. Keng tarqalgan pirit koni miskolchedanli (Urup – Karachay – Cherkesda, Sibay, Gay, Degtyarka, Karabash, Uchali Markaziy Ural). Kol-

chedan polimetalli (Buryatiya, Orlovsk, Tishirsk, Altay, Jeyran, Qozog'iston, Rio-Tinto, Uelva, Ispaniya), oltingugurt kolchedanli (rifeyvend jinslardagi (Kareliya, Rossiya) bulardan tashqari pirit skarn, oltin-sulfidli, qo'rg'oshin, rux ma'dan konlarda yuzaga keladi.

Albatta, turli genetik konlardagi pirit turining fizik xossalari bilan farqlanadi. Ushbularni e'tiborga olgan holda formatsiya turlarini ajratishda foydalanishi mumkin.

Kobaltin CoAsS. Sinonimi kobalt yaltiroq'i ham deyiladi, tarkibida – So – 35,4%. As – 45,3% va S – 19,3%, bulardan tashqari Fe -16% gacha, nikel – 7,7 atrofida uchraydi. Kobaltin kubik singoniyali, uning aniq va



71-rasm. Pirit.



to'g'ri kristallari: kub, oktaedr, pentagon dodekaedrik shakllari keng uchraydi. Kobaltinning rangi oq yoki po'latdek kulrang bo'lib, pushtiroq tovlanadi. Temirga boy turlari to'q kulrang va qora bo'ladi. U metall kabi yaltiraydi, qattiqligi 5-6, ancha mo'rt, ulanish tekisligi kub bo'yicha mukammal, elektr tokini yaxshi o'tkazmaydi. Kobaltin – gidrotermal jarayonlar uchun xos mineral bo'lib, kontakt – metasomatik temir konlariда uchraydi.

Kobaltinning sanoatbop minerallari – skarn-metasomatik ma'danlarida (Dashkesan, Ozarbayjon Respublikasi) magnetit, xalkopirit, pirit, sfalerit, molibdenitlar bilan birgalikda yirik uyumlar hosil qiladi. Yuqori haroratlari hidrotermal jarayonda yuzaga keluvchi konlarda kobaltin, safflorit, skutterudit, smalitin va boshqalar bilan ko'rish mumkin (Ontario, Kanada. Skuttered – Norvegiya, Tunaberg – Shvetsiya).

Sperrilit – PtAs₂. Tarkibida – Pt – 56,5%; As – 43,5% miqdorda va aralashma sifatida Rh – 1,6%, Fe – 0,4%, Cu – 0,7%, Sb – 0,6%, ba'zan Sn – 3,6% uchratish mumkin. Sperrilit – kub singoniyalı, shakli bo'yicha piritga o'xshab ketadi. Tabiatda bu mineral kub, oktaedrik ba'zan pentagon dodekaedr shakllarida uchraydi. Uning rangi qalayidek oq, metall kabi yaltiraydi. Qattiqligi – 6 – 7, solishtirma og'irligi 9,5-10,7, ulanish tekisligi kub bo'yicha mukammal. Mineral elektr tokini o'tkazmaydi. Sperrilitning hosil bo'lishi asos intruziv jinslar gabbro, gabbro-norit bilan uzviy bog'liq (Syodberi – Kanada, Bushveld – Janubiy Afrika, Norilsk – Rossiya). Bu konlarda sperrilit, pirrotin, xalkopirit, pentlandit va boshqalar bilan o'zaro paragenetik bog'langan.

Prustit – Ag₃AsS₃. Fransuz kimyogari J.L. Prusta nomi bilan atalgan. Mineral tarkibi: Ag – 65,4%, As – 15,2%, S – 19,4%. Trigonal singoniyalı. Ko'pincha cho'zinchoq romboedr shaklda mavjud. Bularidan tashqari, asosiy shakllarga – geksagonal, prizma va ditrigonal piramidalar holida uchraydi.

Prustitning rangi qizil, to'q qizil, olcha qizil. U yarim shaffof, olmos kabi yaltiraydi, ulanish tekisligi prizma va piramidalar bo'yicha mukammal, chig'anoqsimon yuza hosil qilib sinadi. Uning solishtirma og'irligi 5,5-5,6, elektr tokini yaxshi o'tkazmaydi. Prustit o'rtalari va past haroratlari hidrotermal jarayonda yuzaga keladi. Prustit – qo'rg'oshin-rux-kumush ma'danli formatsiyalarida keng tarqalgan. Oksidlanish zonalarida pirargirit parchalanib sof tug'ma kumush bilan argentit yuzaga keladi. Prustitning yirik konlari Rossiyada, Meksikada, Chili, Peru va Boliviya mam-lakatlarida aniqlangan.

Tetraedrit – Cu₁₂Sb₄S₁₃ yoki 3Cu₂Sb₂S₃. Mineral nomi uchraydigan kristall shakllariga muvofiq berilgan tetraedrit aynama ma'danlarining (bleklaya ruda) tipik vakillari hisoblanadi. Aynama ma'danlar tarkibida ayrim komponentlarning miqdori quyidagicha bo'ladi (% hisobida): Cu – 22-53, Ag – 0-18, Zn – 0-9, Fe – 0-13, Hg – 0-17, As – 0-20, Sb – 9-29,2, Bi – 0-4,5, S – 20,6-29,1. Tetraedrit singoniyasi – kubik. Bo'shliglardan topilgan kristallari tetraedrik shaklga ega, ammo ko'pincha yaxlit massalar, noto'g'ri shakllarda uchraydi. Rangi po'latdek kulrang, temirdek qora, ba'zan qo'ng'irroq ranglarda. Shaffof emas, yarim metalldek yaltiraydi. Qattiqligi 3 – 4, ularish tekisligi ko'rinnmaydi, solishtirma og'irligi 4,4-4,5 atrofida ancha mo'rt mineral, elektr tokini kuchsiz o'tkazadi. Tetraedrit, xalkopirit, pirit, oltin, aykinitlarda yirik kristalli (5-10 sm) Rossiyadagi Berezovsk oltin-kvars konida topilgan. Bu mineral Darasun (Chita, Rossiya) oltin konida ikkinchi darajali mineral. Tetraedrit vulqon jinslarga aloqador ma'dan minerallarida keng tarqalgan (Ikuno, Xonsyu, Yaponiya).

Enargit – Cu₃AsS₄. Nomi yunoncha «enargis» aniq, yoki aniq ko'rini turadigan ularish tekisligiga asoslangan. Tarkibida Cu – 48,3%, As – 19,1%, S – 32,6% miqdorida uchraydi. Aralashma sifatida Sb – 6,5%, Fe – 5,7% va kam miqdorda Pb, Zn, Ag bo'ladi.

Enargitning singoniyasi rombik. U taxtachasimon ko'rinishda, yaxlit donali massalar va hol-xol donalar bo'lib topiladi. Uning rangi po'latdek kulrang, ba'zan qora bo'ladi, u shaffof emas, yarim metall kabi kuchli yaltiraydi. Enargitning qattiqligi 3,5, mo'rt mineral, solishtirma og'irligi 4,5%, elektrni kuchsiz o'tkazadi. Enargitni soda bilan qizdirganda mis sharchasi ajralib chiqadi. Odatta, enargit gidrotermal jarayonda yuzaga keladigan aynama ma'dan (bleklaya ruda)larda xalkopirit, galenit, pirit va boshqalar bilan birga uchraydi. Yirik uyumlari mis va marginush olishda asosiy manba hisoblanadi.

Bulanjerit – Pb₅Sb₄S₁₁ yoki 5PbS·2Sb₂S₃. Tarkibida Pb – 55%, Sb – 25,7% va S – 18,9% uchraydi. Ba'zan 1% Cu uchraydi. Monoklin singoniyali, rangi qo'rg'oshindek kulrang va temirdek qora. U shaffof emas, metall kabi yaltiraydi. Qattiqligi 2,5-3, ancha mo'rt, solishtirma og'irligi 6,2, ularishi tekisligi ayrim tomonlar bo'yicha mukammal. Bulanjerit gidrotermal sharoitda yuzaga keladigan qo'rg'oshin-rux ma'danlarida galenit, sfalerit, pirit, arsenopiritlar bilan birga uchraydi. Oksidalish zonalarida bulanjerit parchalanib serussit PbCO₃ bilan surmaning hidrooksidlarini hosil qiladi (Zabaykale, Rossiya). Bulanjeritning katta uyumlari qo'rg'oshinining ma'dani sifatida ahamiyatga ega.

10.5. OKSIDLAR SINFI

I – oddiy oksidlar:

Kuprit – Cu ₂ O	Rutil – TiO ₂
Korund – Al ₂ O ₃	Anataz – TiO ₂
Gematit – Fe ₂ O ₃	Brukit – TiO ₂
Uraninit – UO ₂	Kassiterit – SnO ₂
Kvars – SiO ₂	Pirolyuzit – MnO ₂
Xalsedoron – SiO ₂	Koesit – SiO ₂
Opal – SiO ₂ ·nH ₂ O	Stishovit – SiO ₂

II – murakkab oksidlar

Ilmenit – FeTiO ₃	Shpinel – MgAl ₂ O ₄
Ferberit – FeWO ₄	Kolumbit – (Fe,Mn)Nb ₂ O ₆
Xrizoberill – BeAl ₂ O ₄	Gertsinit – FeAl ₂ O ₄
Gyubnerit – MnWO ₄	Tantalit – (Fe,Mn)Ta ₂ O ₆
Braunit – MnO·MnO ₃	Magnetit – FeO·Fe ₂ O ₃
Perovskit – CaTiO ₃	Camarskit – (Y,Er) ₄ [Nb,Ta]O ₇] ₃
	Xromit – FeCr ₂ O ₄

Suvli oksidlar

Brusit – Mg(OH) ₂	Manganit – MnO ₂ – Mn[OH] ₂
Gyootit – HFeO ₂	Diaspor – HAlO ₂
Gibbsit – Al(OH) ₃	Lepidokrokit – FeO OH

Bu guruh minerallari metall va metalloidlarning kislород va gidrooksidlar bilan qo'shilib hosil qiladigan eng oddiy birikmalarini o'z ichiga oladi. Keyingi ma'lumotlarga binoan kislород bilan 40 dan ortiq kimyoviy element turli xil birikmalar hosil qiladi.

Yer po'stida oksidli birikmalar og'irligi bo'yicha 17% tashkil qiladi, bulardan 12% ni kremluy oksidi (SiO₂), 3,9% temir oksidi va gidrooksidi tashkil qiladi. Boshqa elementlardan; alyuminiy, titan, marganes, xrom, mis oksidlari va boshqalar katta o'rın tutadi.

Atmosferada oksidlardan – karbonat angidrid (SO₂) va suv bug'lari keng tarqalgan va ularning tarqalish chegarasi yer yuzasidan 12 km balanddan o'tadi. Gidrosferaning tarkibi va asosiy qismi suvdan iborat, ular tabiatda keng tarqalgan.

Demak, yuqoridaqilardan ma'lum bo'ldiki, tarkibi xilma-xil bo'lgan oksid, gidrooksidlarning maksimal miqdori yer po'stining ustki qism-

larida – erkin kislorodli atmosfera chegarasida joylashgan. Yer po'stining chuqur qismiga kislorodning kirib borishi yer osti suvining sathiga bog'liq. Yer po'stining ustki qismi turli tog' jinslari va ma'dan konlarining oksidlanish zonasini minerallarni qayta hosil qiluvchi kimyoviy reaksiyalar yuzaga keladigan maydon hisoblanadi. Ushbu oksidlanish maydonlarida yuzaga kelgan minerallar orasida metall oksidlari va gidrooksidlari muhim rol o'yaydi. Oksidlanish zonasidagi ikkilamchi minerallarning paydo bo'lishida tarkibida karbonat angidrid bo'lган yomg'ir suvlarining ahamiyati juda katta.

Havoga to'yingan 1 litr yomg'ir suvida 25 – 30 sm³ gaz borligi aniqlangan. Bu gaz tarkibining 30% ni kislorod, 60% azot va 10% ga yaqinini karbonat angidrid tashkil etadi. Yomg'ir suvi Yerning chuqur qismiga borgan sari erkin kislorod sulfid va shunga o'xshash birikmalarni oksidlantirish uchun sarf bo'ladi. Tog' jinslari va ma'dan maydonlarida ishtirot etgan Fe+2, Mn+2, V3 tez oksidlanib, kislorodli birikmalar hosil qiladi. Oksidlanish zonalarida dastlab yuzaga kelgan tuzlar (sulfatlar, karbonatlar va boshqalar) ma'lum tezlikda suv bilan reaksiyaga kirib parchalanadi – gidrolizlanadi, natijada metallarning aksariyati suvda qiyin eriydigan gidrooksidlар holida ajraladi. Minerallarning fizik hossalari ulaming strukturasi (tuzilishi) va tarkibiga bog'liq. Oksidlar strukturasining (kubik, geksagonal) asosida zichlashgan kislorod atomi, hamda oktaedrlardagi bo'shliqda kationlar joylashadi. Kremniy, alyuminiy va magniy oksidlari ion-kovalent bog'lanishni hosil qilsa, qolgan oksidlari (mis. temir, xrom va boshqalar) metall bog'lanishdan yuzaga keladi. Shuning uchun ham kremniy, alyuminiy, magniy oksidlari yuqori qattiqlikka ega, ya'ni kvarts, shpinel, korund, xrizoberillarning qattiqligi – 7-9 ni tashkil etadi, qolgan oksidlari minerallarning qattiqligi – 5-6 atrofida. Oksidlarning zichligi 2,5 dan (kvarts) – 10,6 gacha (uranit) bu o'zgarish shu tarkibga kiruvchi elementlarning atom og'irligining ortib borishiga uzviy bog'liq.

Varaqsimon kristall strukturaga ega bo'lган gidrooksidlар qatlamlari orasidagi mavjud bo'sh bog'lanishga binoan, uncha mustahkam bo'lmanan kristall panjarasi bilan belgilanadi.

Kuprit – Cu₂O. Mineral nomi yunoncha «kuprum» – mis so'zidan kelib chiqqan. Tarkibida mis miqdori – 88,8%ni tashkil etadi. Kubik singoniyalı. Odatda donador ba'zan holsimon xillarda uchraydi. Rangi qizil, metall kabi yaltiraydi. Kupritning qattiqligi 3,5-4, solishtirma og'irligi 5,8-6,2. Ulanish tekisligi kub bo'yicha mukammal. Kupritga xos xususi-

yatlari: olmosdek yaltiraydi, qizil rangi. U misning gipergen zonalarida keng tarqalgan bo'lib, bornit, xalkozin, kovellin, aynama ma'dan (bleklaya ruda) lar bilan birga uchraydi.

Korund – Al_2O_3 . Tarkibida Al – 52,91% va O – 47,09%, aralashma sifatida birozgina xrom bo'lsa rangi qizil tusli, Fe^{+3} – jigarrang, Mn – pushti, Ti – aralashsa ko'k va Fe^{+2} qora ranglarda bo'ladi. Korund trigonal singoniyali bo'lib, odatda kristallari to'g'ri tuzilgan ustunsimon, piramidal ko'rinishlarda uchraydi. Uning rangi ko'kish, sarg'ish-kulrang, ba'zan shaffof bo'ladi. Korundning turli rangli – qimmatbaho xillari ham uchraydi. Ko'k sapfir va qizil rubin. U shisha kabi yaltiraydi. Qattiqligi – 9, solishtirma og'irligi – 3,95–4,0, ularish tekisligi yo'q. Korund odatda glinozemga boy, kremnezemi kam intruziv jinslarda sienit, anortozitlarda uchraydi hamda kontakt metasomatik jarayonlarda ham yuzaga keladi, kengroq miqdorda regional-metamorfizm natijasida yuzaga kelgan jinslarda hosil bo'ladi.

Gematit – Fe_2O_3 . Nomi – «gematikos»: rangi qonga o'xshash. Tarkibida Fe – 70%, O – 30%, kam miqdorda Ti bilan Mg ishtirok etadi. U trigonal singoniyali bo'lib, plastinkasimon, romboedrik, ba'zan kichik prizmatik kristallar holida uchraydi. Bulardan tashqari, zikh yaxlit massalar holida, varaq-varaq agregatlarga o'xshash ko'rinishlarda bo'ladi. Gematit rangi – kulrang, qora. Uning chizig'i olchadek qizil, shaffof, ba'zan yarim metall kabi yaltiraydi. Gematitning qattiqligi – 5,5–6,0, solishtirma og'irligi – 5,2, ancha mo'rt bo'ladi. U HCl da sekin eriydi.

Gematit asos, o'rtalama va nordon intruziv jinslarda paydo bo'ladi, ba'zan gidrotermal jarayonlarda yuzaga keladi. Regional metamorfizm hosilasi kristallik slaneslarda va kontaktli metamorfik jinslarda ko'p uchraydi.

Gematit temir olishda asosiy sanoatbop xomashyo hisoblanadi.

Rutil – TiO_2 . Nomi yunoncha «rutilus» qizil degani. Bunda Ti – 60%, 0–40% bo'ladi, bundan tashqari, Fe, Cr, V ishtirok etsa, Sn – miqdori 1,5% bo'ladi. Rutilning temirga boy xilini nigirin, niobiylar va tantalli turi – struyerit deb yuritiladi. Rutilning tolasimon, qilsimon ko'rinishidagisini – sagenit deyiladi. U tetragonal singoniyada kristallanaadi, odatda prizmasimon, ninasimon, ustunsimon shakkarda bo'ladi. Rutil – qo'ng'ir, to'q sariq, qizil va qora ranglarda uchraydi. U olmos kabi yaltiraydi, qattiqligi – 6, solishtirma og'irligi – 4,2, ancha mo'rt mineral. Rutil o'ziga o'xshash modifikatsiyalar – anataz – TiO_2 , brukit – TiO_2 lar orasida eng barqarori hisoblanadi.

Rutil xilma-xil sharoitlarda hosil bo'ladi. Kamdan-kam holda o'rtalarda nordon intruziv jinslarda va ular pegmatitlar hamda metamorfik jinslarda paydo bo'ladi. Rutilning yirik konlari – Norvegiya, Shvetsiya, Rossiya ning Ilmensk tog'larida, AQSHning Virgina shtatlarida mavjud.

Kassiterit – SnO₂. Yunoncha «kassiteris» – qalayi demakdir. Tarkibida – Sn – 78,8%, aralashma holda Nb, Ta, Ti uchraydi. U tetragon singoniyali. Kassiterit kristallari keng tarqalgan, ular mayda, ba'zan 10 sm gacha yiriklarini uchratish mumkin. Uning rangi – to'q qo'ng'ir, ba'zan qora smolaga o'xshash. U olmos kabi yaltiraydi. Qattiqligi – 6-7, solishtirma og'irligi – 6,8-7,0, mo'rt mineral. Kassiterit genetik jihatdan nordon intruziv jinslar bilan uzviy bog'liq. Kassiterit kontakt-metasomatik sulfid konlarda paydo bo'ladi, bundan tashqari, gidrotermal sharoitda kvars-kassiterit va sulfid-kassiterit formatsiyali yirik konlарini hosil qiladi. Kassiterit ma'danlari qalayi olinadigan birdan-bir xomashyo hisoblanadi.

Pirolyuzit – MnO₂. Tarkibida – Mn – 63,2% bo'ladi. Tetragonal singoniyali, yashirin kristallangan, kukunsimon, qurumsimon, buyraksimon agregatlar ko'rinishida uchraydi. Rangi qora, u metallarga xos ko'kintir tusda tovlanadi. Pirolyuzitning qattiqligi – 5-6, solishtirma og'irligi – 4,7-5,0. U HCl da eriydi va xlor ajralib chiqadi. Pirolyuzit – nurash jarayonidan hosil bo'ladi. Konlari Chiaturi – Gruziyada, Rossiyada, Hindistonda, Ganada, Braziliyada va Janubiy Afrikada mavjud.

Uraninit – UO₂. Mineral nomi tarkibiga qarab berilgan. Uraninitning uranga boy turini norvegiyalik kimyogar B.V.Breyogger (1851-1940) sharafiga breyoggerit, kam tarqoq elementlarga boy turini shvetsiyalik P.T.Kleva (1840-1905) nomiga kleveit deb atalgan. Uraninit kubik singoniyali oktaedr va rombik dodekaedr shakllarda bo'ladi hamda buyraksimon, oqiq shakllarda uchratish mumkin. Uning rangi qora, ba'zan rangsiz binafsha holda tovlanadi va yarim metall kabi yaltiraydi, odatda smolaga o'xshash qora. Qattiqligi – 5-6, solishtirma og'irligi – 10-10,6. U kuchli radioaktiv metall. Uraninitning yirik uyumlari ishqorli va nordon jinslarning pegmatitlarida aniqlangan. Ularda toriy va kam tarqalgan elementlarning minerali – struyerit, fergyusanit, blamstrandin va boshqalar bilan bir paragenezisda yuzaga keladi.

Uraninitning konlari gidrotermal jarayonlarda paydo bo'ladi. Bulardan tashqari, ekzogen sharoitlarda hosil bo'lgan yirik konlарini uchratish mumkin.

Kvars – SiO₂. Kremniy oksidi minerallari yer po'stida keng tarqalgan (minerallarning 12% dan ko'prog'ini tashkil etadi) va to'liq o'rganilgan.

Kremniy oksidi polimorf turlarining bu guruhga oid uch xili – kvars, kamroq ahamiyatlari tridimit va kristobalit bo'lib, ular o'z navbatida ikkita – yuqori va past haroratli xillarga bo'linadi. Past haroratda hosil bo'lgan – kvarsning kristallik tuzilishi, yuqori haroratda kristallanadigan β – kvars tuzilishidan ancha farq qiladi.

Kremniy oksidining turli xil singoniyali turlari (modifikatsiyalari) bir-biridan fizik xossalari va optik xususiyatlari bilan farq qiladi (19-jadvalga qarang).

U rangsiz, shaffof, sutdek oq (72-rasm). Ba'zilarining tarkibida rutil, aktinolit va boshqa minerallarning mayda zarrachalari bo'ladi. Kvarsning turli ranglarga bo'yagan xillarining alohida nomlari bo'ladi: 1) tog' billuri – rangsiz, shaffof (73-rasm); 2) ametist – binafsha (74-rasm);

3) rauxtopaz – kulrang qo'ng'ir tusli; 4) morion – qora rangli; 5) sitrin – tilla sariq, limon sariq rangli. Kvarsning qattiqligi – 7, ulanish tekisligi yo'q, solishtirma og'irligi – 2,5-2,8. Kvars asosan nordon vulkanik va intruziv jinslar uchun mansub mineral hisoblanadi.

Xalsedon – SiO_2 – tolasimon tuzilishga ega. Odatda rangsiz, oq, kulrang va boshqa ranglarda uchratish mumkin. Rangining o'zgarishiga sabab tarkibida xromofor – rang beruvchi – temir, xrom, nikellarning mavjudlidir.



72-rasm. Kvars.

Koesit – SiO_2 kremniy oksidining zich turlaridan bo'lib birinchi marta sun'iy ravishda yuqori bosim (35000 atm.) va kuchli haroratda (500-800o). Yapon olimi Koes (1953) tomonidan Na_2SiO_3 va $(\text{NH}_4)\text{HPO}_4$ birikmalaridan olindi.

Stishovit – SiO_2 . Tetragonal singoniyali bu kremniy oksidining eng zich turi (4,3 g/sm³). U yuqori bosim (160000 atm.) va kuchli haroratda (1200-1400oS) Rossiya olimlari Stishov va Popovlar (1961) tomonidan sun'iy ravishda olingan.



73-rasm. Tog' billuri.

Ilmenit – FeTiO_3 . Tarkibida Fe – 36,8%, Ti – 31,6%, O – 31,6%. Nomi Uraldagi Ilmen tog'i nomlaridan olingan. U trigonal singoniyali bo'lib tabiatda yo'g'on ustunsimon, plastinkasimon ko'rinishda paydo bo'ladi. Ilmenit – temir kabi qora, ba'zan po'latga o'xshash kulrang, yarim metall kabi ya'tiraydi,

qattiqligi – 5-6, solishtirma og'irligi – 4,7, kuchsiz magnitlik xususiyatga ega. Ilmenit titan olishda asosiy mineral hisoblanadi. Ilmenitlar asos intruziv jinsgabbroidlar bilan uzviy genetik bog'liq. Bunda ilmenit, magnetit, apatitlar bilan birga uchraydi.

Kimberlitlarda esa ilmenit-pirop, xromshpinelidlar bilan birgalikda yuzaga keladi. Magmatik jinslarda ilmenit tabletkasi-mon, ba'zan oltiburchakli shakllarda uchrasa, metamorfik jinslarda esa oddiy shaklda – psevdoooktaedr ko'rinishda bo'ladi. Mavjud ma'lumotlardan ma'lumki ilmenit shakli uning kimyoviy tarkibi bilan uzviy bog'liq.

Jadvalda ko'rish mumkin, ilmenitning kimyoviy tarkibi turli magmatik jinslarda sezilarli darajada farqlanadi.

Magnetit – Fe_3O_4 . Magnetit tarkibida 72,4% temir bo'ladi. Magnetit tarkibida TiO_2 miqdori bir necha foiz ko'proq bo'lsa – titanomagnetit deyiladi, agar xrom bo'lsa, xrommagnetit deb ataladi. U kubik singoniyali bo'lib, tabiatda oktaedrik, rombo-dodekaedrik shakllarda bo'ladi. Magnetitning rangi qora, yarim metall kabi yaltiraydi. Qattiqligi 5,5-6, solishtirma og'irligi – 4,9-5,2. Kub bo'yicha ulanish tekisligi mukammal. Magnitlik xususiyatlari juda yuqori, ammo 580°ga yaqin haroratda qizdirilganda bu xususiyat yo'qoladi, sovitilganda yana dastlabki holatiga qaytadi. Magnetit turli jinslarda uchraydi va magmatik jinslarda xol-xol donador shakllarda bo'ladi. Magnetit pegmatitlarda ham paydo bo'ladi, ammo yirik uyumlari yuzaga kelmaydi. Kontakt metasomatik jarayonlarda magnetit yirik konlar hosil qiladi va piroksen, granat, amfibollar va sulfid minerallari bilan birga uchraydi. Dunyodagi mashhur konlar (Rossiya, Ukraina, Kanada, Hindiston) regional metamorfizmda paydo bo'ladi.

Xromshpinelidlar – $(\text{Mg},\text{Fe})_2\text{O}_4$, $(\text{Cr},\text{Al},\text{Fe})_2\text{O}_4$. Kimyoviy tarkibiga ko'ra, xromshpinelidlar quyidagi turlarga bo'linadi: xromit – FeCr_2O_4 , magnoxromit $(\text{Mg},\text{Fe})\text{Cr}_2\text{O}_4$, alyumoxromit – $\text{Fe}(\text{Cr}_2\text{Al})_2\text{O}_4$ va xrompikotit $(\text{Mg},\text{Fe})(\text{Cr},\text{Al})_2\text{O}_4$. Ushbu turlarda Cr_2O_3 miqdori 18-62% gacha o'zgaradi, FeO – 0-18%, MgO – 6-16%, Al_2O_5 – 33%, Fe_2O_3 – 2-30%. Bulardan tashqari tarkibida TiO_2 – 2% gacha, 1,0% chaması MnO va biroz vanadiy oksidi bo'ladi. Ular kubik singoniyali. O'ta asosli jinslarda xromit oktaedrik shakllarda mavjud.



74-rasm. Ametist.

Donador, yirik kristalli yaxlit agregatlar tarzida uchraydi. Rangi qora, yarim shaffof ba'zan to'q qizil, jigarrangli. Xromshpinelidlarning yaltirog'ligi metalldek, qattiqligi – 5,5-7,5, ularish tekisligi yo'q, solishtirma og'irligi – 4,8, tarkibida temir bo'lgan xromshpinelidlardan kuchsiz magnit tortish xususiyatiga ega. Xromshpinelidlardan doimo o'ta asos magmatik jinslarning oralarida shtok, uyasimon, ustunsimon shaklli yirik konlar hosil qiladi. Ba'zi o'ta asos intruziv jinslarda xromshpinelidlardan platinoid guruhni minerallari bilan birga paragenetik bog'liqligi aniqlangan. Nurash zonalarida xromshpinelidlardan kimyoviy barqaror, ammo issiq iqlimli sharoitda ular ham oksidlanadi va parchalanadi.

Yirik xromit konlari Rossiya, Yangi Kaledoniya, Turkiya, Kuba va boshqa mamlakatlarda joylashgan.

Shpinel – MgAl₂O₄. Tarkibida MgO – 28,2, Al₂O₃ – 71,8% tashkil etadi. Bulardan tashqari FeO, ZnO, MnO, Fe₂O₃ va Cr₂O₃ uchraydi. Ushbu birikmalar tufayli shpinelning boshqa turlari hosil bo'ladi. Gersinit – FeAl₂O₄, ganit – ZnAl₂O₄, galaksit – (Mn,Fe)Al₂O₄. Shpinel kubik singoniyali. Odatda jinslar oralarida oktaedrik shakkarda uchratish mumkin. Uning kristallari uncha katta bo'lmaydi, ba'zan yirik (25 sm) donalari uchraydi. Shpinel rangsiz, shaffof, har xil rangli – qizil, pushti, yashil, ko'k ranglilari mavjud. U shisha kabi yaltiraydi, qattiqligi – 8, solishtirma og'irligi – 3,8, kislotalar ta'sir etmaydi.

Shpinellar kontakt-metasomatik jarayonlar mahsuli bo'lib, granatlar, piroksenlar bilan birga paragenetik uyushmalarda uchraydi. U ba'zan pegmatitlarda yuzaga keladi. Shpinellar o'rta darajali metamorfizm jarayonlarda yuzaga kelgan gneyslar va kristallik slaneslar oralarida uchratish mumkin. Qizil rangli qimmatbaho asl shpinellarning konlari Seylon, Birma, Tailand, Afg'onistonlarda topilgan. Shpinelning mutlaqo shaffof va darzi yo'q yirik kristallari qimmatbaho bezak toshlar sifatida ishlataladi.

Xrizoberill – BeAl₂O₄. Uning turlari – zumrad kabi yashili aleksandrit deyiladi. Xrizoberill tarkibi quyidagicha: BeO – 19,8%, Al₂O₃ – 80,2%, aralashma sifatida Fe₂O₃ – 3,5-6%, ba'zan TiO₂ – 3% gacha va Sr₂O₃ – 0,4% ishtirok etadi.

Aleksandritning zumrad kabi yashil rangi xrom aralashmasiga bog'liq. Xrizoberill – rombik singoniyali bo'lib, kristallari qalin taxtasimon, ba'zan qisqa va uzun ustunsimon prizmatik bo'ladi. Xrizoberill odatda sariq rangli, yashilroq goho rangsiz bo'ladi. Uning qattiqligi – 8,5, solishtirma og'irligi 3,8, ularish tekisligi ba'zi tomonlari bo'yicha mukammal. U kislotalarda erimaydi, ancha barqaror mineral.

Xrizoberillning mineral uyumlari pegmatitlarda, kontakt-metasomatik jarayonlarda yuzaga keladi. U slaneslar oralarida ham paydo bo'ladi va zumrad va dalashpatlari bilan birga uchraydi. Xrizoberillning shaffof, rangli xillari qimmatbaho bezak tosh sifatida ishlatalidi.

Kolumbit-tantalit – (Fe,Mn)N62O6-(Fe,Mn) Ta2O6 – uzlusiz izomorf aralashmalar qatorini hosil qiladi. Tabiatda kolumbit va tantalit alohida mineral holda uchraydi. Kolumbitda 10-12% Ta2O5, tantalitda esa – 46-62% Ta2O5 bo'ladi. Ba'zan tarkibida skandiy va lantanoidlar – 2%, titan – 4,6%, qalayi, volframlarning miqdori – 1% atrofida aniqlangan. Ular rombik singoniyali bo'lib, taxtasimon, ba'zan kalta ustunsimon kristallari aniqlangan. Ularning rangi qora, qo'ng'ir-qora, yarim metall kabi yaltiraydi, qattiqligi – 6, solishtirma og'irligi – 5,2-8,2 gacha. Kolumbit o'zidan elektr toki o'tkazadi hamda kislotalarda erimaydi. Kolumbit va tantalitni tashqi belgilari qarab ajratish qiyin.

Bularning yirik uyumlari nordon va ishqorli jinslarning pegmatitlarda yuzaga keladi va kvars, muskovit, turmalin, volframit, cassiterit, samarskit va monatsitlar bilan bir assotsiatsiyalarda uchraydi. U oksidlanish zonalarida barqaror, ularning sochma konlari ham uchrab turadi. Bu minerallarning konlari Norvegiya, Fransiya, Rossiya (Kola yarim oroli), O'zbekistonda Nurota tog'larida (Aqtog' va Aqchop intruzivlari) granitlarining pegmatitlarda topilgan. Ushbu minerallar niobiy va tantal metallarini qazib olishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

10.6. Gidrooksidlar. Bu guruhga kiradigan minerallar orasida eng muhim ahamiyatga ega bo'lgan gidratlar yoki gidrooksidlar deb yuri tiladigan minerallar, metallarning oksidlar tarkibidagi kislород va ON gidrooksil guruhi bilan hosil qilgan birikmalari kiradi. Masalan, magniy oksidi – MgO o'mida Mg(OH)2, alyuminiy oksidi Al2O3 o'mida 2Al(OH)3 yoki 2Al(OH)3.

Gidrooksidlarning aksariyati past haroratda hosil bo'ladi. Juda issiq iqlimli maydonlarda tarkibidagi suvni yo'qotib yana oksidlarga aylanadi.

Brusit – Mg(OH)2. Tarkibida 69% MgO va H2O – 31% mineral trigonal singoniyali bo'lib, qatlam-qatlam holda tuzilgan. Brusitda anion sifatida dipol gidrooksil guruhi [OH]-1 ishtirop etadi. Brusit mineralining uchraydigan kristallari qalin taxtachasimon shaklli, talkka o'xshash varaqsimon agregatlar holida uchraydi. Brusitning rangi oq, rangsiz, ba'zan biroz yashil tusda bo'ladi va sadafdek yaltiraydi. Brusitning qat-

tiqligi – 2,5, solishtirma og'irligi – 2,4. Brusit erigan magniy birikmalar ning ishqorli muhitda gidrolizlanish natijasida yuzaga keladi. Brusitning juda katta uyumlari magniyga xomashyo hisoblanadi.

Gyotit – HFeO₂. Mineralning nomi shoir Gyote (1749 – 1832) sharafiga qo'yilgan. Tarkibida Fe₂O₃ – 89,9%, H₂O – 10,1% bo'ladi. Rombik singoniyali. Odatda kristallari ignasimon, ustunchasimon shakllarda bo'ladi. Ko'proq minerallarning ichki tuzilishi ingichka radial yoki parallel tolalardan iborat oqiq buyraksimon shakllarda bo'ladi.

Gyotitning rangi to'q qo'ng'irdan qoragacha. U yarim metalldek yaltiraydi. Qattiqligi – 5,5, solishtirma og'irligi – 4,0-4,4. Gyotit ignasimon yoki ustunsimon kristall shakllarida ko'ramiz. U asosan ekzogen mineral bo'lib, doimo kolloromorf yoki metakolloid massalar shaklida tarqalgan. Demak, gyotit yer yuzasining eng ustki qismida kislorod va suv yetarli bo'lgan sharoitda hosil bo'ladi. Bu mineral ham temir olishda xomashyo hisoblanadi.

Psiromelan – MnO·MnO₂·nH₂O. Kimyoviy tarkibi o'zgaruvchan MnO – 60-80%, H₂O – 4-6% atrofida. Rombik singoniyali, ko'pincha konsentrik zonal tuzilishdan oqiq shakllar yoki dendritsimon holda uchraydi. Uning rangi qora ba'zan qo'ng'ir-qora, yarim metall kabi yaltiraydi. Qattiqligi – 4-6, solishtirma og'irligi 4,4-4,7, ancha mo'rt. Bu guruhga kiradigan minerallar ma'danlarning oksidlanish zonalarida cho'kish yo'li bilan hosil bo'ladi. Psiromelanli gigant cho'kindi marganes konlari (Chiaturi – Gruziya, Nikopol – Ukraina) mavjud.

10.7. Karbonarlar sinfi. Karbonat guruhi minerallari Yer po'stida juda keng tarqalgan. Keyingi yillarda olingen ma'lumotlarga qaraganda karbonat minerallarining soni 90 dan ortiq. Tabiatda eng ko'p uchraydigan xillari quyidagilar:

Kalsit – CaCO ₃	Rodoxrozit – MnCO ₃
Aragonit – CaCO ₃	serussit – PbCO ₃
Magnezit – MgCO ₃	Siderit – FeCO ₃
Stronsianit – SrCO ₃	Dolomit – CaMg(CO ₃) ₂
Smitsonit – ZnCO ₃	Malaxit – Cu ₂ [CO ₃](OH) ₂
Viterit – BaCO ₃	Azurit – Cu ₃ (CO ₃) ₂ (OH) ₂

Jumladan kalsit – CaCO_3 juda ko'p tarqalgan bo'lib, u asosan dengiz cho'kindisi evaziga juda katta qatlamlarni tashkil qiladi. Bulardan tashqari karbonatlar turli konlarda ma'dan minerallarining yo'ldoshi sifatida xizmat qiladi.

Karbonatlarning asosiy kationlari quyidagilar: Ca, Mg, Na, Fe; nisbatan kamroq – Cu, Zn, Pb, Mn, Tr, Bi. Suv siz korbanatlarning qattiqligi yuqori bo'lmaydi, odatda 3-5 atrofida karbonatlarning suvda cruvchanligi yuqori. Karbonat guruhi minerallarining rangi turlicha bo'ladi. U asosan tajribadagi ion-xromoform elementlarga bog'liq. Masalan, mis karbonatlar – yashil va ko'k, uranli-sariq. Lantanoidga boy karbonat minerallari – qo'ng'ir, kobaltli binafsha, ammo asosan ular rangsiz bo'ladi.

Aksariyat karbonatlar ekzogen va gidrotermal jarayonlarda paydo bo'ladi, chunki ularning ko'pchiligi okean va dengizlarda, nisbatan kamrog'i – gidrotermal sharoitda yuzaga keladi. Karbonat guruhiga kiradigan minerallar suvsiz va suvli turlarga bo'linadi.

Kalsit – CaCO_3 . Tarkibida CaO – 56%, CO_2 – 44%. Aralashma holda Mg, Fe, Mn – 8% gacha, kamroq – Zn – 2% gacha va Sr va boshqalar bo'ladi. Kalsit-trigonal singoniyali, qattiqligi – 3, solishtirma og'irligi – 2,8, ularish tekisligi mukammal, ancha mo'rt mineral. Uning yaxshi kristallari mavjud, kalsitning shakli o'ziga xos belgi bo'lib, hosil bo'lish sharoitiga bog'liq (75-rasm).



75-rasm. Kalsit.

Toza, shaffof kalsit – island shpati¹ deyiladi. U rangsiz nurni ikkilantirib sindirish ko'rsatkichi nihoyatda yuqori. Tabiatda magmatik kalsit karbonatitlarda dayka va kichik shtoklar hosil qiladi. Magmatik kalsit ishqorli magmatik jinslarda va ularning turlarida ko'proq uchraydi. Kalsit gidrotermal sharoitda ham paydo bo'ladi va juda yirik kristallar hosil qiladi. Masalan, AQSHning Nyu-York, Meksika shtatidagi vulqon mo'rilari tomirlarida 30

tonnalik kristallar aniqlangan. Kalsitning qalin qatlamlari va yirik uyumlari biogen va xemogen usulda yuzaga keladi, ular – ohaktosh, mergel, bor jinslari bilan birga bo'ladi. Uning minerallari – sement hamda optik (island shpati) asboblar tayyorlashda asosiy manba hisoblanadi.

¹ Island shpati qutblangan mikroskopning polyarizator va analizator qurilmalarida ishlataladi.

Rodoxrozit – Mn(CO₃) – yunoncha «rodon» – atirgul. Tarkibida – MnO – 61,7%, SO₂ – 38,3%. Izomorf aralashma sifatida – Fe, Mg, Zn, Co ishtirot etadi. Yaxshi kristallari kam uchraydi odatda mayda donador, zinch massa holda bo'ladi. Rangi pushti (malina rangiga o'xshash) bo'lib, donador mayin tuproqsimon massalarga o'xshaydi. Yaltirashi shishadek, qattiqligi – 3,5-4,5, solishtirma og'irligi – 3,6, ancha mo'rt mineral. Marganesning kam uchraydigan gidrotermal temir yoki metasomatik konlarida rodoxrozit, sulfid va marganes oksidlari bilan bir assotsiatsiyada braunit, gausmanit, baritlar bilan birga bo'ladi. Rodoxrozit yirik massalar holida dengiz cho'kindi konlarida ko'proq uchraydi.

Magnezit – MgCO₃. Tarkibida MgO – 47,6%, CO₂ – 52,4%. Tabiatda yirik kristallari ham uchraydi. Uning rangi – oq, sarg'ish va kulrang bo'lib tovlanadi. Uning yaltirashi shishadek, qattiqligi – 4,1-4,5, solishtirma og'irligi – 2,9-3,1, mo'rt, ularish tekisligi romboedr bo'yicha mukammal, sinishi notekis. Tabiatda keng tarqalgan magnezit, o'ta asos intruziv jinslari – dunit, peridotit va piroksenitlarning so'nggi jarayonlarda o'zgarishi va nurash oqibatida paydo bo'ladi.

Ushbu magnezitlar bronzit, serpentin, talklar bilan birga uchraydi. Quyidagi holda yuzaga kelgan magnezit, ba'zan yirik konlar hosil qiladi. Ba'zan yirik konlar gidrotermal-metasomatik jarayonlarda paydo bo'ladi, unda magnezit, dolomit, kalsit, barit, talk, kvars, pirit, xalkopiritlar bilan paragenetik assotsiatsiyada yuzaga keladi (Satka – Rossiya, Veytch – Avstriya, Kvebek – Kanada).

Siderit – FeCO₃ yunoncha «sideros» temir demakdir. Tarkibida FeO – 62,1%, SO₂ – 37,9%. Trigonall singoniyali, yaxshi kristallangan, donador, ba'zan yashirin kristallangan, shu'lasimon shakkarda uchraydi. Ba'zan yirik kristallari (1,5-2 sm) andezitlarda topilgan (Mulatalavavidi Vengriya). Sideritning rangi no'xatdek sariq, sariq-qo'ng'ir bo'ladi, yaltirashi shishadek, ba'zan sadafdek, mo'rt, qattiqligi – 4, solishtirma og'irligi – 3,9. Siderit gidrotermal jarayonlarda yuzaga kelgan polimellt konlarida katta uyumlarini hosil qiladi (Kornuoll, Angliya, Dreyberg, Germaniya). Sideritning eng yirik uyumlari ekzogen (xemogen) jarayonlarda paydo bo'ladi (Kerch koni, Kavkaz Jayram, Qozog iston). Siderit temir olishda asosiy manbalardan biri hisoblanadi.

Smitsonit – ZnCO₃. Tarkibida ZnO – 64,8%, SO₂ – 35,2%, bularidan tashqari – Fe, Mg, Mn, ba'zan So va Sa – 7,5% ni tashkil etadi. Yaxshi kristallari kam uchraydi. Odatda tuproqsimon yoki zinch yas-

hirin kristall agregatlari uchraydi. Smitsonit – oq rangli, rangsiz, ba'zan sariq, qo'ng'ir, yashil va favoranglarda uchratish mumkin. Shishasimon yaltiroq va yog'langandek, ba'zan sadafdek yaltiraydi. Uning qattiqligi – 4,5-5,0, solishtirma og'irligi – 4,5, ularish tekisligi romboedr bo'yicha. Smitsonit ohaktoshlar orasida uchraydigan qo'rg'oshin – rux polimetall konlarining ostki qismida uchraydi. Smitsonitning yirik uyumlari kon sifatida aniqlangan (Kerchinsk, Rossiya; Qoratog', Janubiy Qozog'iston). Smitsonit ma'danlari rux olinadigan manba hisoblanadi.

Serussit – $PbCO_3$. Yunoncha «serussa» oq bo'yoq demakdir. Tarkibida – PbO – 83,5%, SO_2 – 16,5%. Mexanik aralashma holida SrO – 3,2% gacha, ZnO – 4,5% gacha va boshqalar uchraydi. U rombik singoniyalı, tabletkasimon, plastinkasimon, ba'zan nayzasimon ko'rinishda bo'ladi. Serussit – oq, qordek oq, yarim shaffof, ba'zan kulrang, tutunsimondan qoragacha. Uning qattiqligi – 3-3,5, solishtirma og'irligi – 3,8, mo'rt, ularish tekisligi mukammal. Serussit polimetall konlarning oksidlanish zonalarida yuzaga keladi (Broken-xill, Avstraliya, Mindouli, Kongo, Bisbi – AQSH). Gidrotermal jarayonda yuzaga kelgan selestin, barit, kalsit va sulfidlar bilan uchraydi. Serussit gipergen sharoitda galenit va anglezit hisobiga paydo bo'ladi. Serussitning yirik uyumlari qo'rg'oshin olishda manba hisoblanadi.


Stronsianit – $SrCO_3$. Bunda SrO – 70,2%, SO_2 – 29,8% bo'ladi. Mexanik aralashma sifatida CfO – 6-72, BaO , PbO , CaO juda oz miqdorda uchraydi. Stronsianit rombik singoniyalı, donador, ingichka nayzasimon yoki tola-tola agregatlar hosil qiladi. U rangsiz, shaffof, sarg'ish, qo'ng'ir, ba'zan qizg'ish tuslarda ko'rish mumkin. Tabiatda shishadek, ba'zan sadafdek yaltiraydi, kristallari yog'langandek tuyuladi. Stronsianitning qattiqligi – 3,5-4, solishtirma og'irligi – 3,8, mo'rt strontsianitning yirik uyumlari gidrotermal sharoitda yuzaga keladi. Germaniyadagi Gamm konida tomir va tomirchasimon shakkarda mavjud. Stronsianit stronsiy olinadigan manba hisoblanadi.

Viterit – $BaCO_3$. Mineralning nomi angliyalik mineralog V. Viteren sharafiga qo'yilgan. Tarkibida VaO – 77,7%, SO_2 – 22,3% bo'ladi, aralashma sifatida MgO , CaO – 1% atrofida va Sr – 1,5% gacha aniqlangan. Yaxshi kristallari kamroq, ba'zan bo'yraqsimon, varaqasimon agregat holda uchraydi. U rangsiz, qordek oppoq, ba'zan sarg'ish tuslarda bo'lib shishadek yaltiraydi, ba'zan yog'langandek ko'rindi. Uning qattiqligi 3-3,5, solishtirma og'irligi – 4,3, mo'rt, ularish tekisligi aniq emas.

Viterit gidrotermal sharoitda paydo bo'ladi va kalsit, dolomit, baritlar bilan birga uchraydi. Uning yirik uyumlari juda kam uchraydi. Dunyodagi eng yirik koni – Settlinston Angliyada. Ushbu konda – viterit kalsit, sulfidlar bilan birga uchraydi. Bariy olishda ikkinchi darajali mineral hisoblanadi.

Dolomit – $\text{CaMg}(\text{CO}_3)_2$. Fransuz mineralogi Dolome (1750-1801) nomi bilan atalgan. Tarkibida – CaO – 30,41, MgO – 21,86 va SO_2 – 47,73%. Trigonal singoniyali, kulrang, ba'zan sarg'ish, qo'ng'ir yashil tusda tovlanadi, shishadek yaltiroq, qattiqligi – 3,5-4, solishtirma og'irligi – 2,9, mo'rt, ularish tekisligi romboedr bo'yicha mukammal. Dolomit ham kalsitga o'xshash keng tarqalgan, ayniqsa, kembriy davrigacha yuzaga kelgan jinslar oralarida yirik qatlamlar hosil qiladi. Dolomit gidrotermal temir konlarda magnezit, kalsit, sulfidlar, kvars va boshqa minerallar bilan birga uchraydi. Dolomit qurilish materiali sifatida ishlatiladi.

Malaxit – $\text{Cu}_2[\text{CO}_3](\text{OH})_2$. Yunoncha «malaxe» gulxayri demakdir. Shu o'simlik rangiga o'xshashligi uchun nom berilgan bo'lsa kerak. Tarkibida – CuO – 71,9%, SO_2 – 19,9%, N_2O – 8,2% miqdorida aniqlangan. U monoklinal singoniyali. Tabiatda radial shu'la kabi tuzilgan (76-rasm), ba'zan oqiq shakldagi, massa holida ham uchraydi ba'zan konsentrik zonal tuzilishda bo'ladi. Malaxit yashil rangli, yaltirashi shishadek, olmosdek, ba'zan tolasimonlari ipakdek. Uning qattiqligi – 3,5-4, solishtirma og'irligi – 4, ularish tekisligi mukammal. Malaxit mis sulfid konlarning oksidlanish zonalarida uchraydi. Malaxitning hosil bo'lishida mis sulfat moddalarining karbonat kalsiyalar bilan uchrashishi tufayli paydo bo'ladi:



76-rasm. Malaxit.

Malaxit bilan yo'ldosh mineral sifatida azurit, xrizokolla, tenorit, kuprit, sof mis va boshqalar bilan birga paragenetik assotsiasiya hosil qiladi. Malaxit bezak buyumlar tayyorlashda ishlatiladi.

Azurit – $\text{Cu}_3[\text{CO}_3]_2(\text{OH})_2$. Nomi fransuzcha «azure» havorang demakdir. Tarkibida – CuO – 69,2%, SO_2 – 25,6%, N_2O – 5,2% bo'ladi. U monoklinal singoniyali, tabiatda kalta ustuncha yoki prizma, qalin tabletkasimon shakllarda topilgan. Azuritning rangi to'q ko'k, havorang, yaltirashi shisha

kabi (77-rasm). Uning qattiqligi – 4, solishtirma og’irligi – 3,9, ulanish tekisligi mukammal emas. U sulfid konlarining oksidlanish zonalarida yuzaga keladi. Kuzatishlardan ma’lumki namgarchilik hududlarda azurit malaxitga aylanadi:



77-rasm. Azurit.

Azurit va malaxit odatda birga uchrashadi, ammo miqdori bo'yicha malaxit keng tarqagan. Yirik uyumlari – Sumeb, Namibiya, Broken-Xill, Avstraliya, Kayrakto' (Qozog'iston).

Soda – $\text{Na}_2\text{CO}_3 \cdot 10\text{H}_2\text{O}$, tarkibi: $\text{Na}_2\text{O} - 21,6\%$, $\text{SO}_2 - 15,4\%$ va $\text{N}_2\text{O} - 63\%$. U monoklin singoniyali, rangsiz yoki kulrang, yaltirashi shishadek, qattiqligi – 1-1,5, solishtirma og’irligi – 1,4. Sodaning yirik uyumlari natriyga boy bo’lgan sho’r suvli ko’llarda paydo bo’ladi.

10.8. SULFATLAR SINFI

Suvsiz sulfatlar

Tenardit – Na_2SO_4

Selestin – SrSO_4

Glauberit – $\text{Na}_2\text{Ca}[\text{SO}_4]_2$

Barit – BaSO_4

Angidrit – CaSO_4

Anglezit – PbSO_4

Suvli murakkab sulfatlar:

Broshantit – $\text{Cu}_4[\text{SO}_4](\text{OH})_6$	Goslarit – $\text{ZnSO}_4 \cdot 7\text{H}_2\text{O}$
Alunit – $\text{KH}_3[\text{SO}_4]_2(\text{OH})_6$	Melanterit – $\text{FeSO}_4 \cdot 7\text{H}_2\text{O}$
Yarozit – $\text{KFe}_3[\text{SO}_4]_2(\text{OH})_6$	Morenozit – $\text{NiSO}_4 \cdot 7\text{H}_2\text{O}$
Mirabilit – $\text{Na}_2\text{SO}_4 \cdot 10\text{H}_2\text{O}$	Biberit – $\text{CoSO}_4 \cdot 7\text{H}_2\text{O}$
Kizerit – $\text{KFe}_3[\text{SO}_4]_2(\text{OH})_6$	Xalkantit – $\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$
Astraxanit – $\text{Na}_2\text{Mg}[\text{SO}_4]_2 \cdot 4\text{H}_2\text{O}$	Pikkerigit – $\text{MgAl}[\text{SO}_4] \cdot 22\text{H}_2\text{O}$
Gips – $\text{CaSO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$	Algonogen – $\text{Al}_2[\text{SO}_4]_3 \cdot 16\text{H}_2\text{O}$
Epsomit – $\text{MgSO}_4 \cdot 7\text{H}_2\text{O}$	Mendotsit-NaAl $[\text{SO}_4]_2 \cdot 12\text{H}_2\text{O}$
Butit – $\text{CuSO}_4 \cdot 7\text{H}_2\text{O}$	Uranopilit-U $6\text{O}_{12}(\text{OH})_{10}[\text{SO}_4] \cdot 12\text{H}_2\text{O}$

Sulfatlar sinfiga kiruvchi minerallarga sulfat kislotaning selenatlari va selenitli birikmalari kiradi. Bu sinfiga kiruvchi minerallar 175 dan ortiq, ularning ayrimlari qo'shimcha anionlar $[\text{PO}_4]$, $[\text{AsO}_4](\text{CO}_3)$ tufayli hosil bo'ladi. Sulfatlarning tuzilishida $[\text{SO}_4]_2^-$ anionining ahamiyati ulkan, bunda olti valentli oltingugurt ni kislородни qurshab olgan va ular faqat yirik

ikki valentli kationlar bilan birikishi natijasida barqaror panjaralar hosil qiladi. Sulfat minerallarini hosil qilishda faol kationlardan: Ca, Ba, Na, Pb, K, Mg, Cu, Zn ning roli katta.

Barit – BaSO₄. Yunoncha «baros» – og'irlik demakdir. Kub-singoniyalı, kristallari donador, kamdan-kam zich, yashirin kristallangan, tuproqsimon bo'ladi. Barit – qordek oq, shaffof, ba'zan sarg'ish, ko'kish, qo'ng'irroq bo'ladi. Uning yaltirashi – shishadek, ulanish tekisligi sadaf-dek mukammal, qattiqligi – 3,5, solishtirma og'irligi – 4,5. Barit uyumlari o'rta va past haroratlari gidrotermal jarayonda yuzaga keluvchi – barit-polimetall konlarning – 50-60% ni tashkil etadi, barit-flyuorit tomirlarida esa undan ham ko'plab uchraydi Shimoliy Angliya, Garts, Gyuringi, Germaniya, ba'zan galenit, sfalerit va kinovarlar bilan birga uchraydi (Xaydarkon, Farg'ona). Barit vulqon jinslari orasida tomir va tomirchalar hosil qiladi (Bolnis, Gruziya). Barit sanoatning turli tarmoqlarida keng qo'llaniladi.

Selestin – SrSO₄. Yunoncha «selestis» havorang demakdir. Tarkibida – SrO – 56,4% bo'ladi, ba'zan Sa va Va – 1,5-2% atrofida. U rombik singoniyalı, kristallari tabletkasimon, ustunsimon yoki prizma ko'rinishda bo'ladi. Uning rangi havorang, sarg'ish, qizg'ish, ba'zan rangsiz, shaffof, yaltirashi shishadek, ulanish tekisligi mukammal, sadafdek tovlanadi. Selestinning qattiqligi – 3,5, solishtirma og'irligi – 4, mo'rt mineral. Uning asosiy uyumlari cho'kindi – xemogen sharoitda paydo bo'ladi va gips, angidrid, stronsianit va baritlar bilan birga uchraydi ba'zan shu jinslarning muayyan bir qatlami bilan bog'liq holda topiladi. U dengiz organizmlarida, jumladan, radiolyariya va ammonitlarning toshqotgan chig'anoqlarida aniqlangan. Selestine perm davri cho'kindi jins qatlamlarida keng tarqalgan (Arxangelsk, Boshqirdiston, Orenburg, Rossiya). Selestine stronsiy olishda birdan bir manbadir.

Anglezit PbSO₄. Birinchi marta Anglezi orolida topilgan bo'lib, nomi shundan kelib chiqqan. Tarkibida: PbO – 73,6%, SO₃ – 26,4% bo'ladi, bundan tashqari VaO – 8,5% bo'lishi mumkin. U rombik singoniyalı, tabletkasimon, ba'zan kalta ustunsimon, piramidal shakllarda bo'ladi. Odatda, u rangsiz, shaffof, kulrang, olmosdek yaltiraydi, qattiqligi – 3, solishtirma og'irligi – 6,4, ulanish tekisligi rombik bo'yicha mukammal. Qo'rg'oshin va boshqa sulfid konlarining oksidlanish zonalarida paydo bo'ladi. Anglezit galenit sifatida, ulanish tekisligi bo'ylab oksidlanishi tufayli vujudga keladi: PbS+O₄=PbSO₄.

Tenardit – Na₂SO₄. Tarkibi: Na₂O – 43,7%, SO₃ – 56,3%. U rombik singoniyalı donador agregatli, dipiramidalli, tabletkasimon shaklga ega.

U rangsiz, shaffof, shishadek yaltiraydi. Qattiqligi – 2-3, solishtirma og'irligi – 2,6, mo'rt, suvda eruvchan. O'ta to'yingan eritma'dan, faqat – 32,5 odan yuqori haroratda cho'kadi, bundan past haroratda mirabalit $\text{Na}_2\text{SO}_4 \cdot 10\text{H}_2\text{O}$ yuzaga keladi. Ba'zi kulda Na va SO_4 ionlari o'ta to'yingan namakobda bevosita cho'kib tenardit paydo qiladi. Tenarditning fumarol vulqonlar harakatining mahsuloti sifatida yuzaga keladi (Vezuviy, Italiya). Tuz konlari tenardit, mirabilit, astraxanit, galit va gipslar bilan birga uchraydi. Tenardit yirik konlari Uzun-Su Turkmaniston va Barabin, Rossiyada mavjud.

Mirabilit – $\text{Na}_2\text{SO}_4 \cdot 10\text{H}_2\text{O}$. (Ko'pincha uni glauber tuzi deyildi). Tarkibi – Na_2O – 19,3%, SO_3 – 24,8%, N_2O – 55,9%. Monoklinal singoniyali, kristallari kalta ustunsimon shaklga ega. Odatda, yaxlit donador, po'stloq ko'rinishda topiladi. U rangsiz, shaffof, ba'zan xira sarg'ish, ko'kimir yashilroq tusda tovlanadi. Uning qattiqligi – 1,5-2, solishtirma og'irligi – 1,5, shishadek yaltiraydi, quruq va issiq havoda, tarkibidagi suvi yo'qoladi va tenarditiga aylanadi. Mirabilit suvda oson eriydi. Natriy va sulfat anionlari bilan to'yingan sho'r suvli ko'llarda hosil bo'ladi. Yirik donalari shimoliy Kaspiy bo'yida, Shimoliy-Sharqiyo Qozog'istonda (Qulundi cho'llarida), Shimoliy Kavkazda Stravropoldan janubda joylashgan, bulardan tashqari AQSHning katta sho'r ko'li, Argentina va Meksikalarda uchraydi.

Angidrit – CaSO_4 . Tarkibi – CaO – 41,2%, SO_3 – 58,8%. Qalin tabletkasimon yoki prizmatik. Tabiatda yaxlit donador massalar, ba'zan nayzasimon holida uchraydi. Uning rangi oq, havorang, kulrang, qizg'ish tusda bo'ladi, ba'zan rangsiz shaffof xillari mavjud, shishadek yaltiraydi, ulanish tekisligi mukammal, qattiqligi – 3,5, solishtirma og'irligi – 3,0. Namgarchilik ko'p joylarda, angidrit gipsga aylanadi, natijada hajmi 30% gacha kengayadi. Angidritning katta uyumlari cho'kindi tog'jinslar oralarida qatlama-bo'lib joylashadi. U tuz konlarining asosiy minerallaridan biridir, dengiz va ko'llarda harorat 420 dan yuqori bo'lganda kristallanadi. U galit, silvin, karnallit va boshqalar bilan qavat-qavat yupqa qatlamchalar tashkil etadi.

Angidrit konlari AQSHning Texas va Luisian tuzli gumbazlarda, Germaniya ning Shtasfurtda, Polshada va G'arbiy Pokistonlarda topilgan.

Gips – $\text{CaSO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$. Tarkibi CaO – 32,5% SO_3 – 46,6%, H_2O – 20,9%. Unda mexanik aralashma holida turli gillar, qum, organik moddalar bo'ladi. U monoklin singoniyali, yo'g'on tabletkasimon, ba'zan ustunsimon yoki prizmatik ko'rinishda bo'ladi. Gips yoriqlarida asbest-

ga o'xshash iraksimon holda joylashadi. Yirik alohida-alohida kristallari – qaldirg'och dumiga va ba'zan atirgulga o'xshash shakllarda uchraydi. Uning rangi oq, shaffof, ba'zan asaldek sariq, qizil va qoramtil bo'ladi. U shishadek yaltiraydi, ularish tekisligi sadafdek. Gipsning qattiqligi – 1,5-2 (timoqda chiziladi), solishtirma og'irligi – 2, ularish tekisligi mukammal. U suvda erish xususiyatiga ega. Gips ekzogen sharoitda (nurash) paydo bo'ladi. Yirik suv havzalarida ohaktoshdan keyin yuzaga keladi. Gipsning yirik konlari Jirjenta, Sitsiliyada, Fransiyada, Germaniyada, Polshaning Krakova hududida, Avstraliya, AQSHning Michigan, Nyu-York shtatlarida, Xilsbora Kanadalarda joylashgan. U qurilish ishlariada ishlataliladi.

Xalkantit – CuSO₄·5H₂O. Yunoncha «xalkos» mis «ante» – gul, ya'ni mis guli demakdir. Mis kuperosi yoki to'tiyo ham deyiladi. Tarkibi: CuO – 31,8%, SO₃ – 32,1%, N₂O – 36,1%. U triklin singoniyali, kristallari tabletkasimon, kalta ustunsimon, yaxlit massalar holida yoki radial tolasimon xillari uchraydi. Uning rangi havorang, ba'zan yashil-roq, shisha kabi yaltiraydi, qattiqligi – 2,5, solishtirma og'irligi – 2,3, mo'rt, chig'anoqsimon yuza hosil qilib sinadi. Suvda oson erib uni ko'k rangga bo'yaydi. U ekzogen sharoitda quruq iqlimli mamlakatlarda mis-sulfid konlarining oksidlanish zonalarida paydo bo'ladi.

Xalkantitdan tayyorlangan suyuqlik meva va tokzor zararkunandalariga qarshi kurashda, buyoqchilik va sanoatning boshqa tarmoqlarida ishlataliladi.

Alunit – KAl₃[SO₄](OH)₆. Tarkibi K₂O – 11,4%, Al₂O₃ – 37%, SO₃ – 38,6% va N₂O – 13%. Trigonai singoniyali, ditrigonal-piramidal ko'rinishda yoki tabletkasimon shaklli, kulrang, sarg'ish ba'zan qizg'ish – oq, shisha kabi yaltiraydi, qattiqligi – 4, solishtirma og'irligi – 2,8. Mis – sulfid konlarining oksidlanish zonalarining yuqori qismida joylashadi. Mis olishda qishloq xo'jalik zararkunandalariga qarshi kurash hamda bo'yoq sanoatida ishlataliladi.

Kaliyli achchiqtosh – KAl[SO₄]·12H₂O. Tarkibi: K₂O – 9,9%, Al₂O₃ – 10,8, SO₃ – 33,8%, N₂O – 45,5%. U rangsiz shishadek yaltiraydi, kub singoniyali, qattiqligi – 2, solishtirma og'irligi – 1,7, mo'rt, suvda oson criydi, tuproqsimon massa holida, qobiqsimon, ba'zan yaxlit donador agregatlari Tombovda, Dog'istonda, Turkmanistonda, O'zbekistonda – Sho'rsuvda topilgan. Kaliyli achchiqtosh qog'oz, bo'yoq, charm tayyorlashda ishlataliladi.

10.9. Volframatlar va molibdatlar. Bu guruhga 15dan ortiq minerallar kiradi. Ularning aksariyati volfram va molibden kislotalarinin tuzlaridir. Minerallarning asosiy qismini Ca, Fe, kamroq Pb, Mn⁺², Cu⁺², kationlar tashkil qilib, ba'zan o'zaro izomorf qatorlarini hosil qiladi.

Volframat guruhiba gyubnerit – MnWO₄ – ferberit – FeWO₄ izomorf aralashma qatori minerallari kiradi. Bularning ko'p xususiyatlari bir-biriga juda yaqin va tabiatda ular keng tarqalgan.

Volframit (Mn,Fe)WO₄. Yunoncha «bo'ri ko'pigi» ma'nosini anglatadi. Bu mineral bilan aralashgan qalayi ma'danlarini eritganda, qalayi ustida ko'pik paydo bo'ladi. Shuning uchun mineralning nomi shu xususiyati asosida yuzaga kelgan. Ferberit – FeWO₄, volframit – (Mn,Fe)WO₄, gyubnerit–MnWO₄lar izomorf qatorining tarkibi o'zgaruvchan, ularning chegaralari quyidagicha: ferberit – 100-80%, volframit – 80-20% va gyubnerit – 20,0% ni tashkil etadi. Ular tarkibida ba'zan (Nb,Ta)2O₆ – 2,5%, CuO – 1,3% miqdorda aniqlangan.

Volframit monoklin singoniyali, tabiatda qalin tabletkasimon yoki prizmatik shakkarda va ba'zan yaxlit yirik donador agregatlar bo'lib uchraydi. Uning rangi – qora, gyubnerit qizg'ishroq yoki binafsharang, ferberit esa qora bo'ladi. Yaltirashi oynadek, olmosdek, ba'zan yog'langandek tuyuladi. Mineralning qattiqligi – 5,5, solishtirma og'irligi – 7,5 gacha.

Volframit – gipogen mineral kontakt-metasomatik (skarn), greyzenlarda va yuqori haroratlari hidrotermal jarayonlarda yuzaga keladi. U ancha barqaror mineral va kon atrofida sochilmalar hosil qiladi. Volframit aksariyat holda kassiterit, vismutli sulfidlar, vismutin, topaz, berill, molibdenit, magnetit, arsenopirit, pirit, jilbertitlar bilan birga assotsiatsiyalarda uchraydi (Zabaykale, Rossiya, Qozog'iston, Ta-yu, Kit-an, Xitoy, Vietnam, Birma va AQSHning janubiy shtatlari). Volframit WO₃ qazib olishda asosiy manbalardan biri hisoblanadi.

Sheelit – CaWO₄. Shved kimyogari K.V. Sheell nomi bilan atalgan. Tarkibi: CaO – 19,4%, WO₃ – 80,6%, aralashma holida MoO₃ – 10% gacha, CuO – 7% uchraydi. U trigonal singoniyali, tetragonal prizmali, yassi tabletkasimon ko'rinishda bo'ladi. Ma'danlarda noto'g'ri shaklli donalar, ba'zan yaxlit massalar holida topiladi. U rangsiz, sariq, yashil-sariq, qo'ng'ir, kulrang, yog'langandek tuyuladi va olmosdek yaltiraydi. Qattiqligi – 4,5, solishtirma og'irligi – 6,2, mo'rt, notekis yuzalar hosil qilib sinadi.

Sheelitning yirik konlari kontakt – metasomatik (skarn) sharoitda paydo bo'ladi. Bunday konlar nordon intruziv (granit, granodiorit) jinslaming karbonatlar bilan tutash joylarda yuzaga keladi. Odatda sheelit – monoklin piroksen (diopsid-gedenbergit qatori), granat va sulfid minerallari –

xalkopirit, pirit, pirrotin, molibdenitlar bilan birga uchratish mumkin. Yirik konlari Sangdon, Koreya, Qo'ytosh, Ingichka, Langar – O'zbekiston.

Povelit – SaMoO_4 . Tarkibi $\text{SaO} = 28\%$, $\text{MoO}_3 = 72\%$. Nomi Amerika geologi – Jona Povella (1834-1902) sharafiga qo'ylgan. Uning kristallari mayda tetragonal-dipiramidal, ba'zan yassi tabletkasimon, tuproqsimon – varaqasimon shakkarda topiladi. Povelitning rangi och-sariq, yashil-sariq, olmosdek yaltiraydi. ularish tekisligi yo'q, qattiqligi – 3,5, solishtirma og'irligi – 4,5, mo'rt. U HCl va HNO_3 kislotalarida criydi. Povelit-molibden konlarining oksidlanish zonalarida va ba'zan gidrotermal konlarda katta uyumlari aniqlangan. Sanoatbop molibden olishda foydalaniladi.

Vulfenit – PbMoO_4 . Mineral Avstraliya mineralogi Fransa Vulfen (1728-1805) nomi bilan atalgan. Tarkibi: $\text{PbO} = 61,4\%$, $\text{MoO}_3 = 38,6\%$, aralashma holida CuO , MgO , WO_3 , Cr_2O_3 lar aniqlangan. U tetragonal singoniyada kristallanadi, ko'pincha tabletkasimon, ba'zan yassi va cho'ziq piramidalarga o'xshab uchraydi. Vulfenitning rangi mumdek qora, asaldek sariq, qo'ng'ir, qizg'ish tuslarda bo'ladi. Uning qattiqligi-3, solishtirma og'irligi-7, olmosdek yaltiraydi, yangi singan joyi sadafdek.

Vulfenit qo'rg'oshin konlarining oksidlanish zonalarida ko'proq uchraydi va odatda galenit, serussit, vanadinitlar bilan birga topiladi. Katta uyumlari boshqa ikkilamchi minerallar bilan molibden va qo'rg'oshin olishda asosiy manba hisoblanadi.

10.10. X r o m a t i a r. Xromatlar tabiatda kam tarqalgan va ular xrom kislotasining tuzlari hisoblanib, odatda kislorodga to'yingan muhitdagina yuzaga keladi. Xromatlar orasida keng tarqalgani qo'rg'oshinli turi bo'lib, ular polimetall konlarining oksidlanish zonalarida paydo bo'ladi.

Xromatlarga quyidagi minerallar kiradi:

krokoit – PbCrO_4 ;

magnoxromit – $(\text{Mg}, \text{Fe})\text{Cr}_2\text{O}_4$;

xrompikotit – $(\text{Mg}, \text{Fe})(\text{Cr}, \text{Al})\text{O}_4$;

xromit – FeCr_2O_4 .

Krokoit – PbCrO_4 . Tarkibida $\text{PbO} = 68,9\%$, $\text{CrO} = 31,1\%$. Aralashma holda kumush bo'ladi. U monoklin singoniyali, prizmatik shaklli, ba'zan yoriqlarda nayzasimon, uyasimon kristallar hosil qiladi. Krokoit qizil, qizg'ish-sariq rangda bo'ladi, olmos kabi yaltiraydi, qattiqligi-2,5-3, solishtirma og'irligi-6, ularish tekisligi mukammal. U qo'rg'oshinga boy bo'lgan ma'dan konlamining oksidlanish zonalarida paydo bo'ladi va

kolenit ($\text{Rb, Cu}_3\text{Cr}_2\text{O}_9$, lakemanit – $(\text{Pb, Cu})_5(\text{PO}_4)_2[\text{CrO}_4]_2$ va fetnisit – $\text{Pb}_3\text{O}[\text{CrO}_4]_2$ lar bilan uchraydi (Ural-Berezov oltin koni, Rossiya).

10.11 Fosfatlar, arsenatlar va vanadatlar. Ushbu guruh minerallari fosfor, marginush va vanadiylarning tuzlari bo'lib, tabiatda kam tarqalgan. Ularni hosil qiluvchi kationlar – Al, Fe, Mn, Ca, Zn, Cu va Rb. Fosfatlar, arse-natlar va vanadat minerallarining ichki tuzilishini tashkil qilishda quyidagi tetraedrlar radikali $[\text{PO}_4]^{-3}$, $[\text{AsO}_4]^{-3}$ va $[\text{VO}_4]^{-3}$ muhim hisoblanadi.

Monasit – $(\text{Ce, La...})\text{PO}_4$. Yunoncha «monaydzen» yakka qilish demakdir (monax so'zidan olingan). Tabiatda u yakka-yakka holda uchraydi. Tarkibi – seriy va lantan 50-68%, R_2O_5 – 22-31,5%. Izomorf aralashma holida ittriy – 5%gacha, toriy – 5-60% atrofida bo'ladi. Monasit monoklinal singoniyali, tabletkasimon, prizmatik shakllarda uchraydi. Magmatik jinslarda (intruziv va pegmatitlarda) mayda donali, ba'zan bir necha kilogrammlik xillari mavjud. Uning rangi xilma-xil – qo'ng'ir, sarg'ish-qo'ng'ir, jigarrang, qizil, ba'zan yashil, shishadek yaltiraydi, yog'langandek. Qattiqligi – 5,5, solishtirma og'irligi – 5,5. Monasit kam uchraydi odatda nefelinli sienit, granit, alyaskit va ulaming pegmatitlarida ko'proq tarqalgan. U seriy, lantan hamda toriy olishda asosiy manba hisoblanadi.

Ksenotim – YPO_4 . Tarkibida ittriy oksidi 63% gacha, biroz seriy, evropiy uchraydi ba'zan toriy va uran oksidlari – 5% gacha bo'ladi. U tetragonal singoniyali, prizmatik kristall va ba'zan yaxlit massalar holida topiladi.

Ksenotim – sarg'ish-qo'ng'ir, kulrang, qo'ng'ir ranglarda uchraydi. Uning yaltirashi shishadek, yog'langandek, notekis yuzalar hosil qilib sinadi.

Ksenotimning qattiqligi – 5, solishtirma og'irligi – 4,6. U kuchli radioaktivlikka ega. Ksenotim nordon va ishqorli intruziv va ulaming pegmatitlarida keng tarqalgan. U monasitdek barqaror mineral bo'lib, odatda sochma konlar hosil qiladi. Ulaming yirik uyumlari dengiz qirg'oqlarida aniqlangan. U ham monasitga o'xshash ittriy va uran, toriy olishda katta ahamiyatga ega.

Apatit – $\text{Ca}_5[\text{PO}_4]_3(\text{F, Cl})$. Tarkibida CaO – 55,5%, R_2O_5 – 42,3%, fltor – 3,8%, xlor – 6,8% va tarqoq elementlardan Cl_2O_3 – 5% gacha bo'ladi. U geksagonal singoniyali, igna shaklida kalta ustunsimon va tabletkasimon kristallari holida uchraydi.

Apatitning magmatik intruziv jinslarda qilsimon nayzadek va ba'zan qisqa tabletkasimon kristallari mavjud. U rangsiz, shaffof, oq, och-yashil

havorang, qo'ng'ir, ba'zan binafsharang, shishadek yaltiraydi, notekis yuzalar hosil qilib sinadi. Qattiqligi – 5, solishtirma og'irligi – 3,2, mo'rt, ularish tekisligi yo'q. Apatitning yirik konlari nefelinli sienit va ularning pegmatitlari bilan uzviy bog'liq. Bu jinslar tarkibidagi yaxlit donador massalarda nefelin, sfen, evdialit, ishqorli amfibollar, egirinlar bilan bir assotsiatsiyada bo'ladi (Kola yarim oroli, Rossiya – mashhur Xibinsk apatit koni). Bulardan tashqari, apatit uyumlari kontakt-metasomatik jarayonlarda vujudga keladi.

Vanadinit – Pb₅(VO₄)₃Cl. Tarkibida PbO – 78,3%, V₂O₅ – 19,3% va Cl – 2,4% bo'ladi. Aralashma holda R₂O₅, Al₂O₅ uchraydi. U geksagonal, prizma va ignasimon shakllarda uchraydi. Ba'zan radial shu'la, tola-tola holida aniqlangan. Vanadinitning rangi sariq, qo'ng'ir va qizg'ish tuslarda bo'ladi. Uning yaltirashi shishadek, yog'langandek tuyuladi, qattiqligi – 3, solishtirma og'irligi – 7, mo'rt, notekis yuzalar bilan sinadi. Vanadinit qo'rg'oshin-rux konlarining oksidlanishi zonalarida hosil bo'ladi. U vanadiy manbayi sifatida sanoat ahamiyatiga ega.

Annabergit – Ni₃[AsO₄]₂. Nomi Saksoniyadagi Annaberg konidan kelib chiqqan. Tarkibida – NiO – 37,5%, As₂O₅ – 38,5%, N₂O – 24%. U monoklin singoniyali, prizmatik kristallar hosil qiladi, ba'zan tuproqsimon massalar yuzaga keladi.

Annabergit yashil, to'q-yashil ranglarda uchraydi. Yaltirashi shishadek, ularish tekisligi mukammal, kislotalarda asosan eriydi.

10.12. Boratlar. Boratlar bor kislotasining tuzlari, ularning soni 40 dan oshmaydi va er po'stida kam tarqalgan. Borning asosiy minerallari silikatlar sinfiga kiradi. Boratlar kalsiy, magniy va natriyli turlarga bo'linadi va ularning aksariyatining tarkibida suv bo'ladi. Boratlar shaffof, oq rangli, qattiqligi va solishtirma og'irligi past, kislotalarda va ba'zan suvda eriydi.

Tarkibi – MgO – 47,9%, V₂O₃ – 41,4% va N₂O – 10,7%. Rombik singoniyali, oq rangli, shaffof, shishadek yaltiraydi, sochiluvchan ba'zan qo'lga yuqadi. Uning qattiqligi – 3,5, solishtirma og'irligi – 2,6, ancha mo'rt mineral.

Aparit ikkilamchi mineral sifatida tuz qatlamlarida paydo bo'ladi. Boratlar yuqori miqdorda vulqon mo'rilarida aniqlangan (Italiya, Kamchatka), ba'zan nurash zonalarida boratlarni uchratish mumkin. Boratlarining yirik uyumlari bor olish uchun manba hisoblanadi.

Bura – Na₂B₄O₇·10H₂O. Mineral shakli prizmasimon, ba'zan tuproqsimon massa holida ham uchraydi. U rangsiz, kulrang, sarg'ish, ko'kimdir, yashilroq tovlanadi, yaltirashi shishadek, yog'langandek. Uning

qattiqligi – 2,5, solishtirma og'irligi – 1,7. Bura quriyotgan sho'r ko'llarda yuzaga keladi, suvda oson eriydi. Issiq havoda suvini yo'qotib, xiralashadi va nihoyat juda mayin oq kukunga aylanadi. Bura bor olishda asosiy manbalardan biri hisoblanadi.

10.13. Nitratlar. Nitratlar kuchli azot kislotasining tuzlari, suvda oson eriydi, issiq mamlakatlarda, deyarli hozirgi zamon mahsuloti sifatida yuzaga kelgan.

Natriyli selitra – NaNO_3 – Chili selitrasи.

Kaliyli selitra – KNO_3 – Hindiston selitrasи. Kristallari romboedr shaklida. Ko'pincha qobiq mog'olga o'xshash, yaxlit massalar holida uchraydi. U rangsiz, oq qizg'ish, qo'ng'ir, limondek sariq, shisha kabi yaltiraydi. Qattiqligi-2, solishtirma og'irligi-2,3, mo'rt, ulanish tekisligi romboedr bo'yicha.

Selitra suvda oson eriydi, mazasi sho'r, og'izni qattiq sovitadi. Nitratlar issiq mamlakatlarda tarkibida azoti bo'lgan organik moddalarning (parranda va hayvonlar qiyi va boshqa qoldiqlari), shuningdek, mikrosuv o'simliklari va nitrobakteriyalarning biokimyoviy parchalanishi natijasida yuzaga keladi. Bunday joylarda juda kam bo'ladigan yog'inlar hosil bo'lgan selitrani soyliqqa oqizadi, vaqt o'tishi bilan selitrali sho'rhok yerlarda selitra uyumlarini hosil qiladi. Bu joylarda selitra bilan bir paragenezisda gips, mirabilit va galitlar uchraydi. Uning yirik uyumlari Hindiston, Misr, Fransiya, Chili va boshqa yerlarda mavjud. Masalan, Shimoliy Chili selitrasining maydoni quyidagicha – uzunligi 140 km, kengligi 18-80 km va qalinligi 1,5 m atrofida qatlamsimon kon hisoblanadi. Selitra mineral o'g'itlarning eng yaxshi turi hisoblanadi. U shisha sanoatida, portlovchi moddalar tayyorlashda ishlataladi.

10.4. Galloid birikmalar (Galogenidlar). Kimyoviy nuqtayi nazardan qaraganda HF, HCl, HBr va HS kislotaning tuzlari bo'lib, vodorod o'miga ishqoriy, ishqoriy yer metallar, hamda Cu, Ag, Pb, Hg, Fe, Mn lar kation vazifasini bajaradi. Namunaviy ion bog'lanishli galogenlarda zaryadi kichik va ion radiusi katta, shunga muvofiq faol qutplashga moil bo'lgan yengil metallarning kationlari ishtirot etganligi uchun ushbu minerallar shaffof, rangsiz, solishtirma og'irligi kichik va oson eruvchanlik xususiyati hamda shishadek yaltirashi xarakterli.

Flyuorit – CaF_2 . «Flyuorum» – ftor elementining lotincha nomi. Tarkibi – Sa – 51,2%, F – 48,8%. Izomorf aralashma holda ittiri, seriy va uran bo'ladi. U kub singoniyali, to'g'ri tuzilgan kubik, ba'zan oktaedrik,

dodekaedrik kristallar holida uchraydi. Ba'zan hol-xol donali yaxlit massa bo'lib, ba'zan tuproqsimon massa shaklida topiladi. Odatda rangsiz, shaffof, ba'zan sariq, yashil, havorang, gunafsha, qoramtir bo'ladi.

E'tiborga sazovorligi flyuoritni qizdirganda rangi yo'qoladi, rentgen nurlamning ta'sirida yana bo'yalib qoladi. U shishadek yaltiraydi. Qat-tiqligi-4, solishtirma og'irligi-3,2, mo'rt, ularish tekisligi kub bo'yicha mukammal. Flyuoritning aksariyat qismi gidrotermal jarayonda paydo bo'ladi.

Flyuorit yirik konlarda barit, kalsit, kvars va sulfid minerallari bilan birga uchraydi. U intruziv jinslarda ikkinchi darajali greyzen va pegmatitlarda katta miqdorda bo'lishi mumkin. Flyuoritning 70% yaqini metallurgiyada oson eriydigan shlaklar olish uchun ishlataladi. U kimyo sanoatda, keramika va shisha sanoatida va boshqa juda ko'p joylarda foydalaniлади.

Galit – NaCl. Grekcha «galos» – dengiz, tuz demakdir. U osh tuzi ham deviladi. Tarkibi – Na – 39,4% va Si – 60,6%. Mexanik aralashma sifatida gil, organik moddalar bo'ladi. U kub singoniyali, tuz havzalarining ostida bir-birlariga yopishmagan dona-dona bo'lib, zinch kristallangan ko'rinishda topiladi. Galit shishadek yaltiraydi, qat-tiqligi-2, solishtirma og'irligi – 2,2, mo'rt, suvda oson eridi, mazasi sho'r. U juda gigroskopik. havo namini o'ziga tortib oladi. Galit ekzogen sharoitda quriyotgan ko'llarda yoki dengiz havzasidan qum to'siqlari bilan ajralgan sayoz qo'ltiqlardan quruq va issiq iqlimli sharoitlarda paydo bo'ladi. Galitning eng katta zaxirali konlari turli geologik davrlarda yuzaga kelgan. Ammo uning yirik konlari perm davriga mansub. Bu davr uchun uzoq davom etgan issiq kontinental iqlim xos bo'lgan (Evropa, Osiyo, Amerika va boshqa mamlakatlarda). Galit muhim oziq-ovqat mahsuloti. U sanoat va qishloq xo'jaligining turli tarmoqlarida ishlataladi.

Silvin – KCl. Tarkibi – K – 52,5%, Cl – 47,5%. Mexanik aralashma holda NaCl, Fe₂O₃ ishtirot etadi. U kub singoniyali, qavat-qavat teksturali yaxlit donador massalar holida topiladi. Silvining toza xillari – shaffof, rangsiz, oq, och qizil va pushti rangli bo'ladi, shishadek yaltiraydi, qat-tiqligi-1,5-2, solishtirma og'irligi-1,99. Uning mazasi o'tkir sho'r, ba'zan achchiq ancha mo'rt mineral. U galit kabi qurayotgan sho'r suvli ko'llarda yuzaga keladi. Silvining dunyodagi eng yirik koni Rossiya – Solikamsk hisoblanadi. Bundan boshqa katta konlarga Germaniyadagi – Strassfurt va Elzas. Fransiyada topilgan. Malumki, kaliy tuzlarining ko'p qismi o'g'it sifatida, bir qismi kimyo sanoatida, tibbiyotda, parfyumiya, qog'oz sanoatida, shisha va lak-bo'yoy tayyorlashda qo'llaniladi.

10.15 SILIKATLAR SINFI

Sirkon – ZrSiO₄. Nomi forscha «Sar»-oltin, «gun»-rang degan so'zlarni anglatadi. Uning tarkibida ZrO₂-67% va SiO₂-32% bo'ladi, aralashma tariqasida, gafniy HfO₂-4% gacha, siyrak Yer elementlaridan Y₂O₃ va Ce₂O₃ aniqlangan. Bularan tashqari, Nb va Ta, ba'zan ThO₂-1,5% bo'ladi.

Singoniysi – tetragonal. Tabiatda tetragonal – dipiramidal, ba'zan prizma shaklida uchraydi.

Qattiqligi – 7-8, metamikt parchalanishga uchragan xillarida uning qattiqligi 6 gacha kamayadi. U notejis chig'anoqsimon yuzalar hosil qilib sinadi. Solishtirma og'irligi – 4,6-4,7 uning o'zgargan xili – sirtalitlarda 3,8 gacha kamayadi. Sirkon turlari bo'lgan malakon va sirtalit, odatda radioaktivdir.

Aniqlash belgilari – sirkon kristallari ko'proq tetragonal kalta ustunsimon hamda dipiramidal shaklda uchraydi. Quyidagi minerallarni 1) rutildan (qattiqligi va sindirish ko'rsatkichiga qarab ajratiladi); 2) kassiteritdan (solishtirma og'irligiga qarab), 3) toritdan (qattiqligi va kuchli ikkilanib sinish ko'rsatkichiga qarab ajratiladi). Sirkon magmatik intruziv jinslar: nefelinli sienitlarda, granitlarda, gneyslarda hol-xol bo'lib joylashgan shakllarda bo'ladi. Odatda nordon va ishqorli jinslarning pegmatitlarida kengroq miqdorda uchraydi. Sirkonning shaffof hamda rangi chiroyli xillari zargarlikda ishlatalidi.

Torit – ThSiO₄. Uning xillari: oranxit-sarg'ish, qizil rangli shaffof xili. Uranotorit 10-16% gacha UO₂ bo'lgan xili – makkintoshit. U tetrogonal singoniiali. Uning tashqi ko'rinishi sirkonga o'xshash, ammo yaxshi kristallari kam uchraydi. Ba'zan xol-xol donalar ko'rinishda nordon va ishqorli jinslarning pegmatitlarida mavjud. Uning rangi qora, qoramtil, sariq va qizg'ish to'q sariq bo'ladi. Chizig'i to'q qora, yaltirashi shishadek, yog'langandek, qattiqligi – 4,5-5, mo'rt, ularish tekisligi yo'q, chig'anoqsimon yuzalar bo'yicha sinadi. Solishtirma og'irligi – 5,4. U NSI da erib, kremnezyom hosil qiladi.

Torit ishqorli va nordon intruziv jinslarda ikkinchi darajali mineral holida uchraydi. U pegmatitlarda keng tarqalgan. Ba'zan yuqori haroratli gidrotermal jarayonlarda ham yuzaga keladi.

Villemit – ZnSiO₄. Tarkibi ZnO-73%, SiO₂-27%. Trigonal singoniiali. Romboedrik ko'rinishda, fenakit strukturasiga juda o'xshash. Odatda uning kristallari prizma bilan romboedrik yonlaridan tashkil topgan.

Kristallari ko'pincha patga o'xshab tuzilgan, ignasimon yoki radial shu'la kabi tuzilgan agregat tarzida uchraydi. Villemit rangsiz yoki sarg'ish-qo'ng'ir, ba'zan yashilroq yoki qizg'ishroq (MnO aralashmasi bo'lgani) bo'ladi. U shishadek yaltiraydi, yog'langandek seziladi, qattiqligi – 5-6, mo'rt bo'ladi. Ulanish tekisligi (0001) bo'yicha aniq. U chig'anoqsimon yuzalar hosil qilib sinadi. Solishtirma og'irligi-3,89-4,18. Bu mineral qo'rg'oshin, rux va sulfid konlarining oksidlanish zonalarida uchraydi.


Fenakit – $BeSiO_4$. Tarkibi BeO -45,5%, SiO_2 -54,5%. Trigonal singoniyali, kristall shakli roboedrik, kalta ustunsimon. U shaffof, rangsiz yoki och-sariq, ba'zan pushti. Uning yaltirashi shishadek, yog'langandek, qattiqligi – 7,5. Chig'anoqsimon yuzalar hosil qilib sinadi. Solishtirma og'irligi 2,9-3,0.

Fenakit romboedrik yoki kalta ustunsimon shakli bilan berilning prizmatik kristallaridan farqlanadi. U nordon intruziv jinslarning pegmatitlarda ko'proq uchraydi. Pegmatitlarda berill (zumrad), xrizoberill, topaz, dala shpatlari, kvars, slyudalar bilan bir qatorda paragenetik assotsiatsiya da bo'ladi.

Topaz – $Al[SiO_4](F,OH)_2$. Nomi Qizil dengizdagagi Topazos orolidan kelib chiqqan. Tarkibi Al_2O_3 -62,0-48,2%, SiO_2 3-28,2%, F-13-20,4% H_2O -2,45% gacha. U rombik singoniyali, uning yaxshi kristallari kam uchraydi faqat bo'shilqlarda topiladi. Topazning yirik kristallari-25-32 kg pegmatitlarda topilgan (78-rasm). U ko'pincha pinakoid, dipiramidalar

va boshqa shakllari ko'proq uchraydigan prizmatik shakllarda mavjud. U rangsiz, ba'zan och sariq, somon sariq va och havorang, och pushtti, kamdan-kam och qizil tuslarda bo'ladi. Yaltirashi shishadek, qattiqligi – 8, ulanish tekisligi (001) bo'yicha mukammal.

Uning solishtirma og'irligi 3,5-3,57. To-



78-rasm. Qora kristallar. Topaz.

paz nordon intruziv jinslarda aksessor mineral sifatida juda kam miqdorda uchraydi ammo ularning pegmatitlarida, aksincha, juda ko'p uchraydi. Bularda flyuorit, turmalin kvars, berill, cassiterit, volframitlar bilan bir paragenetik assotsiatsiyalar hosil qiladi. Topaz ayniqsa, greyzenlarda keng tarqalgan. U slanes, gneytslar oralaridagi yuqori haroratlari gidrotermal tomirlarda ham yuzaga keladi. Topazning yirik, shaffof kristallari bezak tosh hisoblanadi.

Disten – $\text{Al}_2[\text{SiO}_4]\text{yoki Al}_2\text{O}_3$. SiO_3 yunoncha «Di» – ikki xil «stenos»-qarshilik ko'rsatuvchi, ya'ni ikki xil yo'nalishda va ikki xil qat-tiqlikka ega degan ma'noni anglatadi. Tarkibi Al_2O_3 -63,1%, SiO_2 -3,6 9%. U triklin singoniyali, «S» o'qi bo'yicha cho'ziq ustunsimon, ba'zan yassi taxtachaga o'xhash kristallari yuzaga keladi. Uning rangi havorang, ko'k, ba'zan yashil, yaltirashi shishadek, ulanish tekisligi yuzasi sadaf-dek yaltiraydi, qattiqligi 6-7,5. U mo'rt, ulanish tekisligi (100) bo'yicha mukammal solishtirma og'irligi 3,5-3,7.

Disten kristallangan slaneslar uchun tipomorf mineral hisoblanadi. U metamorfik jinslarda stavrolit va sillimanitlar bilan birga uchraydi.

Andaluzit – $\text{Al}_2[\text{SiO}_4]\text{O}$. Nomi Ispaniyadagi Andaluziya nomini anglatadi. Tarkibi distenga o'xhash. U rombik singoniyali simmetrik ko'rinishi rombo-dipiramidal. Bu mineral rangi, odatda kulrang, sariq, qo'ng'ir, pushti rangli bo'ladi. Qattiqligi 7-7,5, ulanish tekisligi (110) bo'yicha aniq. U notekis hamda zirapchasimon yuzalar bo'yicha sinadi, solishtirma og'irligi – 3,0-3,2.


Andaluzit nordon intruzivlari tog' jinslari bilan gilli slanes o'tasidagi kontakt-metamorfizmda paydo bo'ladi. U gneytslar va slyudali slaneslarda granat, korund, distenlar bilan bir paragenetik assotsiatsiyalarda uchraydi.

Stavrolit – $\text{FeAl}_4[\text{SiO}_4]\text{O}_2(\text{OH})_2$. Nomi yunoncha «Stavros»-krest demakdir. Tarkibi FeO -15,8%, Al_2O_3 -55,9%, H_2O -2%. Rombik singoniyali, simmetriya ko'rinishi rombo-dipiramidal. Odatda kalta va yo'g'on prizmali ko'rinishda, uning o'ziga xos qo'shaloq kristallari ham uchraydi.

Stavrolitning rangi qizil-qo'ng'irdan qo'ng'ir-qoragacha, kamdan-kam shaffof bo'ladi. U shishadek yaltiraydi, qattiqligi 7-7,5, ulanish tekisligi (010) bo'yicha mukammal, notekis yuzalar bilan sinadi. Solishtirma og'irligi 3,6-3,7.

Stavrolit regional metamorfizm jarayonida (kamdan-kam kontakt-metamorfizmida) yuqori haroratda yuzaga keladi. Bu mineral kimyoviy jihatdan barqaror hisoblanadi.

10.16. GRANATLAR GURUHI




79-rasm. Granatlar: A, B V – kristallar; G – qo'shaloqli kristalldan kesma; D – skeleti kristalldan kesma; E – begona aralashmalari bo'lgan kristalldan kesma.

quyidagi turlarga bo'ladi: piralspitlar (Al – granatlari) va ugranditlar (Sa – granatlari).

Piralspitlar tarkibida alyuminiyidan tashqari Mg , Fe^{2+} , Mn kabi elementlar keng tarqalgan, ugranditlar uchun esa, Sa va qisman Fe^{3+} , Sg xarakterlidir. Ko'pincha granatlar qattiq eritmalar – qorishmalar holatida uchraydi (grossulyar andradit bilan, almandin spessartin bilan, almandin uvarovit bilan va hokazo, 80-rasm).

Granatlarning umumiy xususiyati: kub singoniyali, rombododekaedr yoki tetragontrioctaedr shakllarda kris tallanadi (79-rasm). Qattiqligi 6,5-7,5, solish tima og'irligi 3,5-4,3. Umumiy formulasi $\text{X}_3\text{Y}_2[\text{SiO}_4]_z$, bu yerda $\text{X} = \text{Sa}^{2+}$, Fe^{2+} , Mg^{2+} , Mn^{2+} ; $\text{Y} = \text{Al}^{3+}$, Sg^{3+} , Fe^{3+} , Mn^{3+} , V^{3+} , Ti^{3+} , Ti^{4+} , Zr^{4+} . Vinchell mazkur guruhni



80-rasm. Granat guruhi minerallarining tarkibi, solishtirma og'riliklari va sindirish ko'rsatkichlari bo'yicha o'zaro bog'liqlik diagrammasi (Keneddi bo'yicha, 1947)

17-jadval

Granat guruhi minerallarining tasnifi va fizik xususiyatlari

Piralspitlar (Al-granatlari)	Kimyoviy formulasi	Rangi	Solishtirma og'irligi -	Sinish ko'rsatkichi
Almandin	Fe ₃ Al ₂ [SiO ₄] ₃	qizil, qo'ng'ir, qora	4,25	1,778-1,815
Pirop	Mg ₃ Al ₂ [SiO ₄] ₃	qizil	3,51	1,705-1,760
Spessartin	Mg ₃ Al ₂ [SiO ₄] ₃	sariq, qizil	4,68	1,792-1,800
Grossulyar	Sa ₃ Al ₂ [SiO ₄] ₃	Rangsiz, och yashil qahrabot rang (yantar rang)	3,52	1,736-1,763
Andradit	Sa ₃ Fe ₂ [SiO ₄] ₃	qo'ng'ir, yashil, qora	3,75	1,856-1,911
Uvarovit	Sa ₃ Cr ₂ [SiO ₄] ₃	yashil	3,52	1,836-1,870

Granatlар хар xil rangi, olmossimon o'tkir yaltirashi bilan o'ziga diqqatni jalb etadi va qimmatbaho toshlar (gavharlar) turkumiga kiradi (17-jadvalga qarang).

Bu guruh minerallari metamorfik tog' jinslari uchun xarakterli, lekin shuning bilan bir qatorda magmatik va cho'kindi jinslarda ham uchraydi.

O'rta Osiyoda grossulyarli va andraditli granatlар skarn jinslarida, volfram va magnetit konlarida juda ko'p miqdorda uchraydi (Qo'yotosh, Langar va To'rangli konlarida); gilos rang munchoq shaklidagi almandin va spessartinli granatlар, Turkiston va Qoratepa tog'laridagi pegmatit tomirlarida dala shpatlar, kvars, muskovit, turmalin va boshqa minerallar bilan birga uchraydi.

Piralspitlar (Al – granatlari) Almandin – Fe₃Al₂[SiO₄]₃.

Almandinni birinchi marta topilgan joy Alabanda (Turkiya) nomi bilan atalgan. Singoniyasi kub geksaedrli. Qimmatbaho toshlar qatoriga kiradi. Rangi odatda qizil, to'q qizil, binafsha-qizil rangdan qo'ng'ir, qora rang-gacha o'zgaradi. Shriftda almandin rangsiz yoki pushti qizil rangga ega. Almandin boshqa barcha granatlар kabi yuqori kristallanish qobiliyatiga ega va ko'pincha dodekaedrik va tetragontrioktaedrik shakllar hosil qiladi. Sun'iy almandinlar och qo'ng'ir rangga ega, ba'zan tabiatda uchraydigan kristallarga xos shakllar hosil qiladi. Qattiqligi 6,5-7,5, solishtirma og'irligi 4,2. Ajralish tekisliklari yo'q. Sinishi chig'anoqsimon, notejis. Odatda kristallari izometrik, donador ko'rinishdan tortib, bir-biriga zinch yopishgan mineral agregatlarini hosil qiladi.

Almandin ko'plab intruziv (granitlar) va effuziv (dasit, riolitlar) jinslarda nodir mineral sifatida uchraydi. Gilli jinslarning regional metamorfizmida hosil bo'lgan kristallik slaneslarda, gneyislarda keng tarqalgan. Undan tashqari, almandinning termal yoki kontakt metamorfizmida ham uchrashligi aniqlangan.

Piropl – $Mg_3Al_2[SiO_4]_3$ – yunonchadan –«piropos» – alangali so'zidan olingan. Magnezial – glinozemli granat. Singoniyasi kub geksoedrik. Rangi qizil, ba'zan binafsha. Tabiatda uchraydigan qizil rangga ega turlari qimmatbaho toshlar (yoqut) sifatida foydalangan. Yaltiroqligi shishasimon, moysimon. Shaffofdan yarim shaffofgacha o'zgaradi, chizig'ining rangi oq, qattiqligi – 6,5-7,5, solishtirma og'irligi – 3,5. Ajralish tekisligi yo'q, sinishi notejis. Ajralib chiqish shakli: to'g'ri shakli kamdan-kam uchraydi odatda yumaloq donalar hosil qiladi, ularning o'lchami o'rtacha 5 – 7 mm. Piroplar ultrabazitlarda, granatli peridotitlarda, piroksenitlarda, kimberlitlarda porfir ajralmalar hosil qiladi. Undan tashqari, bazalt brekchiyalarida hamda allyuvial-delyuvial sochilmalarda ham uchraydi. O'ta asos jinslarda pirop olmosning yo'ldoshi deb hisoblanadi. Pirop keng tarqalgan zargarlik mahsuloti sifatida ishlataladi.

Spessartin – $Mg_3Al_2[SiO_4]_3$. Birinchi topilgan joyi Shpessert (Bavariya) nomi bilan atalgan. Singoniyasi kub, geksaedrik. Rangi to'q sariq, qizg'ish-sariq, jigarrang-qizil, sarg'ish. Yaltiroqligi shishasimondan moysimongacha. Chizig'ining rangi oq, qattiqligi – 6,5-7,5, solishtirma og'irligi – 4,2. Ajralish tekisligi yo'q yoki juda kam nomukammal. Sinishi notejis, chig'anoqsimon.

Ajralib chiqish shakli: rombobodekoedrli, tetragontrioktaedrli. Spessartitni zargarlik sifati bo'lgan xillari petmatitlarda, marganesga boy bo'lgan skarnlarda va metamorfik tog' jinslarda uchraydi.


Ugranditlar (Sa granatlari).

Grossulyar – $Sa_3Al_2[SiO_4]_3$. Lotin tilida, tashqi ko'rinishi qulupnayga (Grossular) o'xshaganligi uchun grossulyar deb atalgan. Singoniyasi kub, geksaoktaedrik. Rangi oq yashil, yashil, yashil-kulrang, sariq, pushtirang, jigarrang. Yaltirashi shishasimon, moysimondan olmossimongacha. Chizig'ining rangi oq, qattiqligi 6,5-7,5, solishtirma og'irligi – 3,53-3,60. Ajralish tekisligi yo'q. Sinishi chig'anoqsimon, yuzasi g'adir-budur.

Shakllari: tetragontrioktaedrli kristallar yoki oddiy kristallar, qo'shaloqlar, noto'g'ri shakldagi donalar, zich va yaxlit agregatlar ko'rinishda uchraydi. Kontakt va regional metamorfik jinslarda, jumladan, ohak-toshlarda va skarnlarda keng tarqalgan.

Andradit – $\text{Ca}_3\text{Fe}_2[\text{SiO}_4]_3$. Portugal mineralogi d'Andrade E.Silva nomi bilan atalgan. Singoniyasi kub-geksaedrik. Andraditning rangi: qora rangdan, to qizil, qo'ng'ir, sariq, yashil ranggacha o'zgaradi. Shlifda u ko'pincha sariq yoki sarg'ish. Uning rangini xilma-xilligi tarkibida Ti va Mn larning borligi bilan belgilanadi. Chizig'ining rangi oq, qattiqligi 6,5-7,5, solishtirma og'irligi – 3,7-3,8. Ajralish tekisliklari yo'q. Kristallaring shakli rombobodeckaedr, tetragontrioktaedr, polisintetik qo'shaloqlar hosil qiladi, donador, ba'zan yaxlit yashirin kristallik massasini tashkil qiladi.

Andradit ohakli jinslarning kontakt va termal metamorfizmi natijasida hosil bo'ldi. Ayniqsa, metasomatik yo'l bilan hosil bo'lgan skarnlarda andradit tipik mineral hisoblanadi. Skarnlarda andraditning hosil bo'lishi Fe_2O_3 va SiO_2 larning ohaktosh va nordon magma dan keltirilishi bilan bog'liq va quvidagi tenglama bilan ifodalanadi:



Uvarovit – $\text{Ca}_3\text{Cr}_2[\text{SiO}_4]_3$. Graf S.Uvarov sharifi bilan atalgan. Singoniyasi kub-geksaoktaedrik. Uvarovit granat guruhidagi eng kam tarqalgan mineral hisoblanadi. Rangi to'q-yashildan yashilgacha o'zgaradi, shlifda yaqqol yashil rangga ega. Uvarovit ko'pincha kuchsiz anizotrop xususiyatiga ega bo'ladi, zonal ko'rinishi ham bo'lishi mumkin. Yaltiroqligi shishasimon, chizig'ining rangi och yashil. Kattiqligi 6,5-7,5, solishtirma og'irligi – 3,71-3,79. Ajralish tekisligi yo'q, sinishi chig'anoqsimon.

Uvarovit ko'pincha xromit rudalarida mayda yashil donachalar ko'rinishida uchraydi. Bushveld kompleksi, O'rol xromit ruda konlarini misol sifatida ko'rsatish mumkin. Uvarovit (tarkibida xrom bo'lган granatlar) kam miqdorda metamorfizmga uchragan ohaktoshlarda ham aniqlangan (Kvebek, Kanada).

Shlifda granatlar rangsiz yoki pushtirang, alohida dumaloq donalar yoki ularning bir-biriga yopishib ketgan yig'indilari holida uchraydi. Yumaloq donalarning chekkalari ko'pincha kemptik bo'ladi. Ba'zi granatlar o'zgarib, kvars, biotit, xlorit yohud boshqa minerallarga aylanganini kuzatish mumkin.

Granatlarning eng xarakterli belgilari: shakldor, donalarida ajralish tekisliklari yo'qligi, och pushti yoki sarg'ish rangi, juda g'adir-budur refezi, izotrop yoki zonali ko'kimtir kulrang anomal interferension ranguning mayjudligidir. Shpineldan deyarlik rangsizligi va kristall shakllari, levsitdan yuqori refezi va paragenezisi bilan farg' qiladi.

Granatlar guruhi minerallari ikki qatorga bo'linadi:

1) almandin qatori-(Mg,Fe,Mn)3Al2[SiO4]3

pirop-Mg₃ Al₂[SiO₄]₃

almandin-Fe₃ Al₂[SiO₄]₃

spessartin-Mn₃Al₂[SiO₄]₃

2) andradit qatori-Ca₃(Al,Fe,Cr)₂[SiO₄]₃

grossulyar-Ca₃Al₂[SiO₄]₃

andradit-Ca₂Fe₂[SiO₄]₃

uvarovit-Ca₃Cr₂[SiO₄]₃

Granatlar guruhi minerallari kub singoniyali; simmetriya ko'rinishi geksaoktaedrik. Kristall shakli rombik dodekaedr, tetragon-trioktaedr. Ko'pincha donador yaxlit massalar holida topiladi. Granatlarning rangi va tarkibi o'zgaruvchan bo'ladi (23-jadval). Odatda ular qizil, qo'ng'ir-qizil, sariq, zumrad-yashil, qoramtil, ba'zan qora. Qattiqligi 6,5-7,5, notekis yuzalar hosil qilib sinadi. Solishtirma og'irligi 3,5-4,2. Granatlarga xos belgi-kristallarning o'ziga xos shakli, yog'langandek yaltirashi, yuqori qatiqligi. Granatlar kontakt-metasomatik, regional metamorfizmda yuzaga keladi. Granatlarning shaffof rangi chiroyli xillari zargarlik ishlarida qimmatbaho tosh sifatida ishlatalidi.

Sfen – CaTi [SiO₄]O. Yunoncha «sfen» – pona ma'nosini bildiradi. Tarkibi CaO-28,6%, TiO₂-40,8%, SiO₂-30,6%, bundan tashqari FeO-6% gacha, MnO-3% gacha, (Y,Ce)2O₃-12% gacha aralashmalar borligi aniqlangan. U monoklin singoniyali, simmetriya ko'rinishi rombo-prizmatik, kristallarining ko'ndalang kesimi ponaga o'xshash, ba'zan tablet-kasimon. Sfen rangi sariq, qo'ng'ir, yashil, ba'zan qora, pushti yoki qizil bo'ladi. Yaltirashi olmosdek, yog'langandek, qattiqligi 5 – 6, solishtirma og'irligi 3,2-3,5, aniqlash belgisi sarg'ish-qo'ng'ir rangi va ponasimon shakli bilan ajraladi. U qizdirilgan HCl,H₂SO₄ kislotalarda Ca sulfat tuzi hosil qilib, butunlay parchalanadi. Sfen ikkinchi darajali mineral sifatida ishqorli va nordon o'rta intruziv jinslarda dala shpatlari, nefelin, egorin, sirkon, apatit va boshqa minerallar bilan bir assotsiatsiyalarda uchraydi biroq uning yirik kristallari ishqorli pegmatitlarda bo'ladi. U ba'zan metamorfik jinslar (gneyslar, kristallik slaneslarda, amfibolitlarda) uchun xos mineral holida yuzaga keladi.

Aksinit – Cu₂(Mn,Fe)Al₂Bsi₄O₁₅[OH]. Yunoncha «aksine» – bolta demakdir. Tarkibi o'zgaruvchan, triklin singoniyali, simmet-

niya ko'rinishi pinokoidal, kristallari bo'shliqlarda ko'pincha druzalar tarzida uchraydi. Odatda jigarrang, qo'ng'ir, pushti, oq, kulrang, shishadek yaltiraydi, qattiqligi 6,5-7, ulanish tekisligi (010) bo'yicha mukammal, solishtirma og'irligi 3,2-3,30. U gidrotermal mineral sifatida, kontakt zonalarida yoki dioritlarda uchraydi. Sanoatda bor elementini olishda manba hisoblanadi.

Datolit – Ca₂B₂[SiO₄]₂[OH]₂. Tarkibida CaO – 35%, B₂O₃-21,8%, SiO₂ – 37,6%, H₂O – 5,6% bo'ladi. Monoklin singoniyali, simmetriya ko'rinishi prizmatik. U donador agregatlari tarzida keng tarqalgan. Rangi oq, ba'zan kulrang-tovlauvchan och yashil, sariq, qattiqligi 5-5,5, ulanish tekisligi ko'rinnmaydi. U chig'anoqsimon yuzalar hosil qilib sinadi. Datolit shishadek yaltiroq, solishtirma og'irligi 2,9-3,0. Mineralni o'ziga xos shishadek yaltirashi, chig'anoqsimon yuzalar hosil qilib sinishi va shakli bilan boshqalardan farqlash mumkin. U skarnlarda, ma'danli tomirlarda bodosimon ko'rinishda magmatik jinslar oralarida uchraydi. U bor elementini olishda manba hisoblanadi.

Lamprofillit – Na₂Sr Fe Ti₂[SiO₄]₃(F,OH). Tarkibida ba'zan VaO-2% gacha, F-1,8 gacha bo'ladi. Rombik singoniyali, kristall shakli «S»-qi bo'yicha cho'zinchoq, ba'zan uzunligi 20 sm gacha bo'ladi. U oltin rang-qo'ng'ir tovlanadi, yaltirashi shishadek. Uning qattiqligi 2-3, mo'rt, ulanish tekisligi (100) bo'yicha o'ta mukammal, solishtirma og'irligi 3,5.

Lamprofillit nefelinli sienitlarda va ularning pegmatitlarida egirin, nefelin, evdialit, sodalit, murmanitlar bilan birga uchraydi.

Kalamin – Zn₄[Si₂O₇]₂[OH]·2H₂O. Tarkibida ZnO-67,5, SiO-25%, H₂O-7,5% aniqlangan. 500° gacha qizdirilganda tarkibidagi suvning yamisi ajralib chiqadi, shaffofligi yo'qolmaydi, qolgan qismi kristall panjarasi buzilgandan keyin yo'qoladi. U rombik singoniyali, simmetriya ko'rinishi rombo-piramidal. Mineral agregatlari ko'pincha radial shu'la kabi tuzilgan, ba'zan buyraksimon yoki stalikit massalar tarzida uchraydi. U odatda rangsiz, ba'zan sariq, qo'ng'ir, yashil va havorang kabi tovlanadi. Yaltirashi shishadek, ulanish tekisligi yuzalarda-sadafdek, qattiqligi 4-5. Ulanish tekisligi (110) bo'yicha mukammal, solishtirma og'irligi 3,5. Kalamin sulfid qo'rg'oshin – rux konlarining oksidlanish zonalarida smisonit, serussit, limonit va boshqa minerallar bilan birga paydo bo'ladi. U smisonit bilan birga muhim rux ma'dani hisoblanadi va odatda yirik uyumlar hosil qiladi.

Soizit – Ca₂Al₃[Si₂O₇]₂[SiO₄]O[OH]. Tarkibida CaO-24,6%, Al₂O₃-33,9%, SiO₂-39,5%, H₂O-2%, ba'zan Fe₂O₃-2-5% gacha bo'ladi.

Rombik singoniyali, simmetriya ko'rinishi rombodipiramidal, kristallari prizmatik, agregatlari nayzasimon yoki donador tuzilgan bo'ladi. U kulrang tovlanadi, yaltirashi shishadek, qattiqligi – 6, ulanish tekisligi (010) bo'yicha mukammal, notejis yuzalar hosil qilib sinadi, solishtirma og'irligi 3,3. Mikroskopda optik belgilariga qarab aniqlanadi. Soizit intruziv jinslardagi plagioklazlarning gidrotermal o'zgargan mahsuloti bo'lib yuzaga keladi. Bulardan tashqari kristallik slaneslarda va amfibollarda uchraydi.

Epidot – $\text{Ca}_2(\text{AlFe})_3[\text{Si}_2\text{O}_7][\text{SiO}_4]\text{O}(\text{OH})$. Tarkibida CaO 23,5%, Al_2O_3 -24,1%, Fe_2O_3 -12,6%, SiO_2 -37,9%, H_2O -1,9% gacha aniqlangan. Monoklin singoniyali, simmetriya ko'rinishi rombo-prizmatik. Kristall shakli prizmatik «V» o'qi bo'yicha cho'ziq, ba'zan nayzasimon. Epidotning rangi har xil tusda, yashilroq, sariq, qora, kulrang tovlanadi. Yaltirashi shishadek shaffof, qattiqligi 6,5, ulanish tekisligi (001) bo'yicha mukammal, solishtirma og'irligi 3,3 – 3,4. Tabiatda eng ko'p tarqalgan xillari pista rang-yashil rangiga va shakliga qarab osonlik bilan aniqlanadi. Epidot tabiatda hosil bo'lish sharoitlari va u bilan birga uchraydigan minerallar paragenezisi gidrotermal sharoitda yuzaga kelishi aniqlangan. Bulardan tashqari, kontakt-metasomatik konlarda kvars, xlorit, kalsit va sulfid minerallari bilan yirik uyumlar hosil qiladi.

Ortit – $(\text{Ca,Ce})_2(\text{Al,Fe})_3[\text{Si}_2\text{O}_7][\text{SiO}_4]\text{O}(\text{O},\text{OH})$. Tarkibida Ce_2O_3 -6% gacha bo'ladi. Bulardan tashqari, $\text{FeO}, \text{MgO}, \text{MnO}$ 8% gacha, V_2O_3 , Sc_2O_3 , ThO_2 -3,8% gacha aniqlangan. Monoklin singoniyali, simmetrik ko'rinishi rombo-prizmatik, qalin ustunsimon, ba'zan nayzasimon, ko'pincha hol-xol donalar tarzida topiladi. Rangi qoramdir, mumdek qora, goho sariq, yaltirashi shishadek (mumsimon), yog'langandek. Ortitning qattiqligi 6, ancha mo'rt, chig'anoqqa o'xshash yuzalar hosil qilib sinadi. Uning solishtirma og'irligi 4,1, radioaktivlik xususiyatga ega. Tabiatdagi qora rangi, mumsimon yaltirashi, notejis yuzalar hosil qilib sinishi ortit uchun mansub belgi hisoblanadi. Ortit hol-xol dona holida ko'pincha intruziv jinslarda granit, sienit va ularning pegmatitlarida, ba'zan gneys, kontakt-metasomatik konlarda ham topilgan.

Ilvait – $\text{CaFe}_2\text{Fe}[\text{Si}_2\text{O}_7].[\text{OH}]$. Tarkibi o'zgaruvchan. CaO – 13,7%, FeO -35,2% Fe_2O_3 -19,6%, SiO_2 -29,3%, H_2O -2,2%. Rombik singoniyali, ko'rinishi rombo-dipiramidal, ko'pincha prizmaga o'xshash. Tabiatda yaxlit donador massalar, ba'zan shu'la kabi joylashgan nayzasimon agregatlari holida uchraydi. Rangi qora, qo'ng'ir yaltiroq tovlanadi. Yaltirashi yog'langandek, yarim metall kabi. Uning qattiqligi 5,5 – 6, mo'rt

ulanish tekisligi (001) va (010) bo'yicha mukammal, notejis, qisman chig'anoqsimon yuzalar hosil qilib sinadi. Solishtirma og'irligi 3,8 - 4,1. Ilvait kontakt-metasomatik temir konlari granatlar (andradit), gedenbergit, magnetit temir va mis sulfidlari bilan bir assotsiatsiyada uchraydi. Nurash zonalarda parchalanib, limonit, ba'zan marganes gidrook-sidlari hosil qiladi.

Berill – $\text{Be}_2\text{Al}_2[\text{Si}_6\text{O}_{18}]$. Tarkibida $\text{BeO} - 14,1\%$, $\text{Al}_2\text{O}_3 - 19,0\%$, $\text{SiO}_2 - 66,9\%$, aralashma holida K_2O , Li_2O , $\text{Rb}_2\text{O} - 7\%$ gacha uchraydi. U geksagonal singoniyali, ko'rinishi digeksagonal-dipiramidal. Berillning kristallari aniq tuzilgan ustunsimon yoki prizmatik shaklga ega. Uning rangi och yashil, sarg'ish, yashil, havorang, tiniq yashil (81-rasm). Rangsiz shaffof hillari ham uchraydi. Rangiga qarab quyidagi xillarga bo'linadi: 1) zumrad och yashil, yashil va shaffof xillari eng qimmatbaho hisoblanadi; 2) akvamarin-tiniq ko'kimtir havorang, 3) vorobeit-pushti rangli va geliodor-sariq shaffof. Bularning barchasi shishadek yaltiraydi. Uning qattiqligi 7,5 - 8,0, ancha mo'rt, ulanish tekisligi (1010) prizma va (0001) pinakoid bo'yicha mukammal emas, notejis yuzalar hosil qilib chig'anoqqa o'xshab sinadi. Solishtirma og'irligi – 2,6-2,9.

Berill nordon va ishqorli intruzivlarning pegmatitlarida paydo bo'ladi. Ba'zan pnevmatolit-gidrotermal jarayonlarda yuzaga keladi. Ushbu jarayonlarda berill topaz, turmalin, flyuorit, fenokit, xrizoberill, volframit, cassiteritlar bilan bir paragenetik assotsiatsiyalarda ko'rish mumkin. Berill ayrim konlarda yirik, gigant kristallar (AQSHda og'irligi 16 ton-nagacha), uzunligi 5m gacha va ko'ndalangi 1,5m gacha topilgan. Rangli va shaffof xillari zumrad, akvamarin zargarlikda ishlatalidi.



81-rasm. Berill.

Ashirit – $\text{Cu}_6[\text{Si}_6\text{O}_{18}] \cdot 6\text{H}_2\text{O}$ yoki $\text{CuSiO}_3 \cdot \text{H}_2\text{O}$. Tarkibi $\text{CuO} - 50,5\%$, $\text{SiO}_2 - 38,1\%$, $\text{H}_2\text{O} - 11,4\%$. Trigonol singoniyali, ko'rinishi romboedrik. Kristall shakkllari kalta, uchlari nayza ustunchalar shaklida bo'ladi. Ashiritning rangi zumrad-yashil, chizig'i yashil, yaltirashi shishadek, shaffof. Qattiqligi-5, mo'rt, ulanish tekisligi romboedr bo'yicha mukammal, solishtirma og'irligi – 3,3. U mis konlarining nurash zonalarda paydo bo'ladi.

Krizokolla – $\text{CuSiO}_3 \cdot \text{H}_2\text{O}$. Tarkibi o'zgaruvchan, singoniyasi aniq emas, ko'pincha tiniq kolloiddan iborat. Sirti oqiq, tuproqsimon uyumlar hosil qiladi. U havorang, ba'zan yashil, ko'k, qo'ng'ir qattiqligi 2,

mo'rt, notekis yuzalar bo'yicha sinadi. Uning solishtirma og'irligi-2, tarkibidagi suv 100° yuqori darajada qizdirilganda ajraladi. U mis konlarining oksidlanish zonalarida yuzaga keladi, quruq issiq iqlimli joylarda keng tarqalgan. Xrizokollaning malaxit, azurit kalsit va boshqa minerallar o'mida psevdomorfozalari uchraydi.

Evdialit – (Na,Ca)6ZrSi₆O₁₈ (OH, Cl). Tarkibi (% hisobida): Na₂O 11-17,3, CuO-9-11,3, ZrO₂-12-15, [Ce,La,Y]2O₃-3 gacha, SiO₂-47-52, H₂O-1-3, Cl-1,5 gacha. Trigonal singoniyali, kristall shakli yo'g'on ustunsimon, plastinkasimon, ba'zan prizmatik.

Evdialitning rangi pushti, qizg'ish-qo'ng'ir, yaltirashi shishadek, qattiqligi – 5-5,5, mo'rt, ulanish tekisligi (0001) bo'yicha mukammal, solishtirma og'irligi – 2,8-2,9. Uni rangi har xil tusli, pushti yoki qizil bo'lishi xarakterli. U faqat ishqorli intruziv jinslar (nefelinli sienit) va ular pegmatitlarida nefelin, dala shpatlari, egirinlar bilan birga uchraydi. Odatda evdialit luyavritlarda uyumlami hosil qiladi, bu esa sirkoniylar olishda asosiy manba hisoblanadi.

Turmalin – (Na,Ca)(MgAl)6[B₃Al₃Si₆](O,OH). Tarkibi o'zgaruvchan-SiO₂-30-44%, B₂O₃-8-12%, Al₂O₃-18-41%, FeO-Fe₂O₃-38%, MgO-25%, gacha, Na₂O-6% gacha, CaO-4% gacha va H₂O-4% gacha. Turmalinning magnitga boy xili dravit, temirga boyini sherl, liitiyli xili-elvanit deyiladi. Uning singoniyasi trigonal, simmetriya ko'rinishi ditrigonal-piramidal. Agregatlari nayzasimon, radial shu'la kabi joylashgan, chalkashib yotgan ignachalar yoki tola-tola holida uchraydi. Uning rangi kimyoviy rangiga bog'liq. Odatda yashil, pushti, qizil va qora ranglarda bo'ladi. Yaltirashi shishadek, qattiqligi 7-7,5 «S» o'qi bo'yicha cho'zinchoq, notekis yuzalar hosil qilib sinadi, solishtirma og'irligi – 2,9-3,3. Turmalin pegmatitlarda pnevmo-gidrotermal jarayonlarda, ba'zan kristallik slaneslarda, gneysslarda paydo bo'ladi. U ko'pincha kvars, topaz minerallar bilan bir paragenetik assotsiatsiyalarda uchraydi. Turmalinning shaffof, rangi tiniq-chirolyi xillari zargarlikda bezak buyumlar tayyorlashda ishlatalidi.

Vollastonit – Ca₃[Si₃O₉]yoki CaSiO₃, nomi kimyogar V. Vollaston (1766-1828) sharafiga qo'yilgan. Tarkibi CaO-48,3%, SiO₂-57,7%, ba'zan FeO-9% gacha borligi aniqlangan. U triklin singoniyali, kristall shakli-tabletkasimon, ko'pincha «V» o'qi bo'yicha cho'ziq kristallar hosil qiladi. Agregatlari varaqsimon, radial shu'lasimon yoki nayzasimon ba'zan

tolasimon shakllarda uchraydi. U kulrang, oq, goho qizg'ish, shishadek yaltiraydi ulanish tekisligi yuzalari sadafdek tovlanib turadi. qattiqligi 4,5 – 5, ulanish (100) (001) bo'yicha mukammal, solishtirma og'irligi 2,7-2,9 atrofida. Vollastonit-kontakt-metasomatik jarayonlarda (skarnlarda) yuzaga kelib granatlar, diopsid, gedenbergit, vezuvian, sheclit va sulfid minerallari bilan birga uchraydi.

Rodonit – (Mn,Ca)SiO₃. Nomi grekcha «rodon» – pushti so'zidan olingan. Tarkibida MnO-46,0-30,0%, CaO-4-6,5% ba'zan FeO-2-12% bo'ladi. Triklin singoniyali, simmetriya ko'rinishi pinakoid, ko'pincha uchraydigan kristallari tabletkasimon izometrik, goho prizmatik yoki yaxlit zikh massalar holida uchraydi. Rodonitning rangi o'ziga xos pushti –kulrang, shishadek yaltiraydi, ulanish tekisligida yuzasi sadafdek tovlanadi, qattiqligi 5 – 5,5, ulanish tekisligi (110) bo'yicha mukammal, solishtirma og'irligi 3,4 – 3,7, u past haroratda paydo bo'lib, rodoxrozit, bustamit, boshqa marganes minerallari va sulfidlar bilan birga topiladi. Rodonit bezak buyumlari tayyorlashda ishlataladi.

Talk – Mg₃[Si₄O₁₀]OH₂. Tarkibida MgO-13,7%, SiO₂-63,5%, H₂O-4,8%, ba'zan FeO-2-5% bo'ladi. Monoklin singoniyali, kris-tallari geksagonal va rombik shaklda. Agregatlari varaq-varaq, tangacha-tangacha, yog'langandek zikh massa holda uchraydi. Uning rangi och yashil, yoki sarg'ish, qo'ng'ir, yashilroq oq, shishadek yaltiraydi va sadaf-dek tovlanadi. Uning qattiqligi 1, varaqchasimon, varaqlari egiluvchan, qayishqoq emas, ulanish tekisligi o'ta mukammal, solishtirma og'irligi 2,8, issiqlikni va elektr tokini yaxshi o'tkazmaydi. O'tga chidamli, 1300-1400oS da ham erimaydi. Uning yumshoqligi, qo'lga yog'langandek unashiga, rangiga va varaq-varaq tuzilishiga qarab aniqlanadi. Talk magniy-ga boy o'ta asos jinslarning gidrotermal o'zgarishidan paydo bo'ladi. Bunday paytlarda u qonuniy ravishda, xromshpinelidlaming qoldiq donalari va qayta hosil bo'lgan magniy karbonatlari bilan bir assotsiatsiyada bo'ladi. Minerallarning paragenezisiga qaraganda talk tarkibida karbon kislotasi bo'lgan gidrotermal eritma yordamida magniy silikatlari paydo bo'ladi.



Talk sanoatda keng qo'llaniladi, qog'oz, rezina, parfyumeriyada, bo'yochilik, qalamlar ishlab chiqarishda ishlataladi.

Profillit – $\text{Al}_2[\text{Si}_4\text{O}_{10}](\text{OH})_2$. Tarkibida Al_2O_3 -28,3%, SiO_2 -66,7%, H_2O -5,0%, aralashma holida MgO -9% gacha, FeO -5% gacha bo'ladi. Monoklin singoniyali, odatda shu'la kabi tuzilgan agregatlar, ba'zan yashirin tangachalardan iborat zinch jins holida topiladi. U sarg'ish oq, och yashil, yarim shaffof, shishadek yaltiraydi, varaqchalari sadafdek tovlana-di. Uning qattiqligi – 1, qo'lga yog'langandek tuyuladi, solishtirma og'irligi – 2,9. Profillitni talkdan ajratish qiyin. U past haroratda yuzaga kelgan mineral hisoblanadi.

10.17. Xloritlar guruhi minerallari. Bu guruhg'a mansub minerallar keng tarqalgan. Ko'p jihatdan slyu-dalarga o'xshaydi. Ular monoklin singoniyada kristallananadi. Qattiqligi va solishtirma og'irligi kichik, odatda shishadek yaltiraydi. Ushbu guruhg'a kiradigan minerallar tasnifi bilan Chermak, Vinchell shug'ullangan. Ular fikricha xloritlar-pennin, klinoklor, piroxloritlarga ajratiladi.

Pennin – $(\text{Mg}, \text{Fe})_5\text{Al}[\text{AlSi}_3\text{O}_{10}]_2(\text{OH})_8$. Kimyoviy tarkibi o'zgaruvchan: MgO -17,4-35,9%, FeO -1-17,4%, Fe_2O_3 -55,7%, Al_2O_3 -13,8-21,3%, SiO_2 -29,8-33,7%, H_2O -11,5-14,6% atrofida, monoklin singoniyali, plastinkasimon, tabletkasimon bo'ladi.

Uning rangi har xil tusli shishadek yashildan qoramtil yashilgacha, ba'zan pushti, ba'zan oq bo'ladi. Qattiqligi 2-2,5, varaqchalari egiluvchan, ulanish tekisligi (001) bo'yicha o'ta mukammal, solishtirma og'irligi 2,8. U ko'pincha xloritli slaneslarda uchraydi.

Shamozit – $\text{Fe}_4\text{Al}[\text{Si}_3\text{AlO}_{10}]_2(\text{OH})_6 \cdot n\text{H}_2\text{O}$. Tarkibi o'zgaruvchan (% hisobida) FeO -34-42, Fe_2O_3 , Al_2O_3 -13-20,1, SiO_2 -22-29, H_2O -10-13, aralashma holida MgO -4,4%, CaO -1,6% bo'ladi. U monoklin singoniyali, rangi yashildan qoragacha, shishasimon yaltiraydi, qattiqligi-3, solishtirma og'irligi 3,4, shamozit har xil yoshdag'i, cho'kindi temir, ma'danlarida tarqalgan, temir sulfidlari, siderit bilan birga uchraydi. U ba'zan katta-katta qatlama jinslar tarzida topiladi va shunday paytlarda temir ma'dani sifatida sanoat ahamiyatiga ega.

Vermikulit – $(\text{Mg}, \text{Fe})_2[(\text{SiAl})_4\text{O}_{10}]_2(\text{OH})_4 \cdot 4\text{H}_2\text{O}$. Nomi yunoncha «vermikulus» – chuvalchang so'zidan kelib chiqqan, sababi uni qizdirganda uzun chuvalchangsimon ustunchalar va tolalar hosil bo'ladi. Tarkibida MgO -14-23%, Fe_2O_3 -5-17%, FeO -1-3%, SiO_2 -37-42%, Al_2O_3 -10-13%, H_2O -8-18%, bundan tashqari K_2O -5% gacha va NiO -11% bo'ladi.

Monoklin singoniyali, qo'ng'ir, sarg'ish, qo'ng'ir, sariq ba'zan yashil-roq slyudalardek yaltiroq, yog'langandek. Uning qattiqligi 1-1,5, ulanish tekisligi bo'yicha mukammal, solishtirma og'irligi – 2,4-2,7. Vermikulit 900-1000°C qizdirilganda 25 marta kengayadi. Tabiatda slyudalarning nurashidan yuzaga keladi.

Glaukonit – $K(Fe,Al,Mg)_3[Si_3][SiAl]O_{10} \cdot (OH)_{2n}H_2O$. Tarkibida K_2O -4-9,5%, Na_2O -3 gacha, Al_2O_3 -5,5-26,3%, Fe_2O_3 -6,1%, FeO -8,6 gacha, MgO -2,4-4,5%. SiO_2 -47,6-52,9%, H_2O -4,9-13,5% bo'ladi. U monoklin singoniyali, yaxshi kristallari kam uchraydi. Uning rangi to'q yashildan qoramtil-yashilgacha, shishadek yaltiraydi, yog'langandek, qattiqligi – 2-3, mo'rt, solishtirma og'irligi 2,8 gacha. Glaukonit dengiz va okeanlarning sayoz, qirg'oqlarida yuzaga kelgan, qumtosh, gil, karbonatli cho'kindi jinslarda, fosforithi qatlamlarda keng tarqalgan. U qand-shakar, to'qimachilikda va boshqa sohalarda qo'llaniladi.

Serpentin – $Mg_6[Si_4O_{10}](OH)_8$. Tarkibida MgO -43%, SiO_2 -44,1%, H_2O -12,9%. Monoklin singoniyali, yaxshi kristallari uchramaydi. Uning yaxshi kristallari antigoritda mavjud. Uning rangi yashil, shishadek yaltiroq, yog'langandek. Qattiqligi – 2-3, antigoritda 3,5 atrofida. Serpentinlar o'ta asos jinslarning (dunit, peridotit, va olivinga boy asosli) gidrotermal o'zgarishidan yuzaga keladi. Serpentinning xrizotil-asbest turi mavjud. U ingichka tolali.

Paligorskит – $MgO \cdot 3SiO_2 \cdot 4H_2O \cdot nAl_2O_3 \cdot 4SiO_2 \cdot 5H_2O$. Tarkibi o'zgaruvchan, odatda oq rangli sarg'ish tusli bo'ladi. Qattiqligi – 2-2,5, solishtirma og'irligi – 2,3. Bu mineral tabiatda kam uchraydi o'ta asos jinslarning nurashidan paydo bo'ladi.

Kaolinit – $Al_4[Si_4O_{10}](OH)_8$. Tarkibida Al_2O_3 -39,5%, SiO_2 -46,5%, H_2O -14%. Monoklin singoniyali, agregatlari sochiluvchan, tangachasimon zinch mayda. U rangsiz, oq sarg'ish, ba'zan ko'kimtir toylanadi, sadafdek yaltiraydi. Uning qattiqligi 1 ga yaqin. Tabiatda alyumosilikatlarga boy (dala shpatlari va slyudalarga) intruziv va kristallik slaneslarning nurash zonalarida paydo bo'ladi. Kaolinit sanoatning ko'p tarmoqlarida ishlataladi.

Galluazit – $Al_4[Si_4O_{10}]8.8H_2O$. Tarkibida Al_2O_3 -34,7%, SiO_2 -40,8%, H_2O -24,5%. U monoklin singoniyali, mayda disperslangan, zaralarni elektron mikroskoplarda aniqlash mumkin. Rangi har xil: sarg'ish, qizg'ish, qo'ng'irroq, yangi singan joyi chinniga o'xshash, goho mumdek

g'ovak-g'ovak va sochiluvchan, qattiqligi 1-2, mo'rt, mineralda timoq izi qoldiradi. Uning solishtirma og'irligi 2, kaolinitga o'xshaydi.

Galluazit tipik ekzogen mineral, ko'pincha asosli intruziv jinslarning nurash zonalarida paydo bo'ladi.

Montmorillonit – $Mg_3[Si_4O_{10}](OH)_2$. Tarkibi o'zgaruvchan (% hisobida) SiO_2 -48,56, Al_2O_3 -11-22, MgO -4-9, H_2O -12-24, monoklin singoniyalı, kulrang, ba'zan ko'kimtir, pushti qizil, yashil bo'ladi. U deyarli faqat ekzogen sharoitda asos va o'ta asos jinsning nurash zonalarida paydo bo'ladi. Uning ahamiyati katta, sanoatning ko'p tarmoqlarida ishlatiladi.

Lazurit – $Na_8[AlSiO_4]_6[SO_4]$. Tarkibida Na_2O -16,8%, CaO -8,7%, Al_2O_3 -27,2%, SiO_2 -31,8%, SO_3 -11,8%. U kubik singoniyalı, rangi to'q ko'k, binafsha, ba'zan havorang, shishadek yaltiraydi. Uning qattiqligi 5,5 – mo'rt, solishtirma og'irligi – 2,4. U odatda ishqorli va nordon-ishqorli jinslar va ularning pegmatitlarida topiladi. Lazurit ko'r kam bezak tosh sifatida ishlatiladi.

Natrolit – $Na_2[Al_2Si_3O_{10}] \cdot 2H_2O$. Tarkibida Na_2O -16,3%, Al_2O_3 -26,8%, SiO_2 -47,4%, H_2O -9,5%. Rombik singoniyalı, ustunsimon bo'ladi. Agregatlari radial-nursimon, goho tolali massa holida uchraydi. Qattiqligi-5,5, mo'rt, solishtirma og'irligi 2,2-2,5. U ko'pincha effuziv (bazalt) jinslarda va bodomsimon bo'shliqlarda uchraydi. Natrolit nefelinli sienitlarning nurash zonalarida yuzaga keladi.

Dala shpatlari guruhi. Dala shpatlar guruhi silikatlar orasida yer po'stida keng tarqalgan bo'lib, og'irligi bo'yicha 50% ni tashkil etadi. Dala shpatlari kimyoviy tarkibi (18-jadval) va ichki tuzilishi bo'yicha uch guruhga bo'linadi:

1. Natriy-kalsiyli $Na[AlSi_3O_8]-Ca[Al_2Si_2O_8]^x-$ qatorlaridan iborat bo'lib, plagioklazlar deb ataladi.

2. Kaliy-natriyli dala shpatlari, yuqori haroratda $K[AlSi_3O_8]-Na[AlSi_3O_8]$ uzluksiz qattiq eritma qatorini hosil qilib, asta-sckin soviganda kaliyli va natriyli minerallarga ajraladi.

3. Kaliy-bariyli dala shpatlari ham $K[AlSi_3O_8]-Ba[Al_2Si_2O_8]$ izomorf aralashmasidan iborat, tabiatda kam uchraydigan gialofanlar, deb ataladigan minerallarni hosil qiladi.

² x anortir (An) molekulalarning % miqdori

18-jadval

Dala shpati guruhiiga kiruvchi minerallarning kimyoviy tarkibi va optik konstantalari

Minerallarning nomi	Kimyoviy ifodasi	Ng	Nm	Np	Ng-Np
Ortoklaz	K Al Si ₃ O ₈	1,526	1,524	1,519	0,007
Sanidin	K Al Si ₃ O ₈	1,524-1,526	1,523-1,525	1,517-1,520	0,006
Mikroklin	K Al Si ₃ O ₈	1,525-1,530	1,522-1,526	1,516-1,522	0,007
Anortoklaz	(Na, K) Al Si ₃ O ₈	1,527-1,549	1,526-1,549	1,522-1,546	0,003-0,005
Plagioklazlar					
Albit	Na, Al Si ₃ O ₈	1,536-1,541	1,529-1,536	1,526-1,532	0,008-0,009
Anortit (An)	Ca Al ₂ Si ₂ O ₈	1,582-1,588	1,577-1,583	1,571-1,575	0,01
Selzian	Ba Al ₂ Si ₂ O ₈	1,594	1,589	1,584	0,01

10.18. Plagioklazlar guruhi. Bu guruhgaga kiradigan minerallar albit [Na AlSi₃O₈] va anortit [CaAl₂Si₂O₈] molekulalarining turli nisbatdagi qattiq izomorfik qorishmalaridan iborat.

Tabiiy va sun'iy birikmalar haqidagi ma'lumotlarga qaraganda, shu qatorning tarkibi sof albit (Ab) dan sof anortitgacha (An) bo'lib, uning uzlucksiz o'zgaruvchan hamma xillari mavjud. E.S.Fyodorov plagioklazzlarni ularning tarkibidagi anortit molekulasining foiz hisobidagi miqdoriga qarab raqamlar bilan belgilab, quyidagi minerallarga ajratdi (19-jadvalga qarang).

19-jadval

Minerallarning nomi	Molekulasi, % da		Plagioklaz raqami
	Ab	An	
Albit (Ab)	100-90	0-10	0-10
Oligoklaz (Ab, An)	90-70	10-30	10-30
Andezin (Ab, An)	70-50	30-50	30-50
Labrador (Ab, An)	50-30	50-70	50-70
Bitovnit (Ab, An)	30-10	70-90	70-90
Anortit (An)	10-0	90-100	90-100

Jadvaldan foydalanish:

Agar plagioklazning № 37 bo'lsa, unda 37 foiz anortit va 63 foiz albit molekulasi bo'lib, andezinning nordonroq xili deyiladi. Yozilishi quydagicha: An37 Ab63. Agar plagioklaz № 56 bo'lsa, anortit 56% va albit molekulasi 44%ni tashkil qiladi va labrador deb ataladi (An56 Ab44). Demak, plagioklaz nomerlari ularning tarkibidagi anortit molekulasidan xabar beradi.

Barcha plagioklazlar tarkibidagi Na va Ca miqdoriga qarab, nordon albit va oligoklaz, o'rta andezin va asosli labrador, bitovnit va anortit-larga bo'linadi hamda shu yo'nalish bo'yicha kremliy oksidining miqdori minerallarda kamayib boradi.

"Plagioklaz" yunoncha qiyshiqliq sinish demakdir. Albit lotincha "albus" oq demakdir; bitovnit, labrador, andezinlar birinchi topilgan joylari bo'yicha quydagicha: Ottawa (Kanada) shahriga yaqin Baytauna tog'i, Labrador va And tog'lari nomidan kelib chiqqan va nihoyat oligoklaz yunoncha kam ajraladi degan ma'noni anglatadi. Plagioklazlar qisqa to'g'ri burchaksimon yoki qisqa to'g'ri burchaksimon-prizmatik shaklga ega. Ular ko'pincha oq, sarg'ish, ko'kish, qoramtil bo'ladi. Tovlanuvchi qora ranglar ko'pincha labrador va bitovnitga xosdir, bu esa ularning tarkibidagi juda mayda gemati qipiqlchalarning ma'lum tartibda joylashuviga oqibatidir. Plagioklazlarni boshqa o'xhash minerallardan ajratadigan belgilari: oddiy va murakkab (polisintetik) qo'shaloqlar hosil qilishidir (murakkab-polisintetik qo'shaloqlar oddiy qo'shaloqlarning bir necha marta ketma ket takrorlanishidir). Plagioklazlarning nur sindirish ko'rsatkichi albitdan anortitga qarab ortib boradi. Nur sindirish ko'rsatkichini to'g'ri o'lchansa, u vaqtida plagioklaz guruhiга kiradigan minerallarni jadval yordamida kimyoiy tarkibini aniqlash mumkin. Plagioklazlarning relefni va undan o'tadigan yo'l farqi ancha past ($0,007 - 0,010$) va bu belgilari bilan ular kvarsiga o'xhash. Ularning bir-biridan farqi: plagioklazlarda o'zlariga xos oddiy va murakkab qo'shaloqlari mavjud, ularda ajralish tekisligi yaqqol ko'rinish turadi va (001) va (010) yo'nalishlarda bo'lib, bir-biri bilan to'g'ri burchak hosil qiladi. Bu guruhiга kiruvchi minerallar har xil sharoitda yuzaga keladi, ya'ni anortit 15500Sda kristallansa, albit 11000Sda yuzaga keladi. Plagioklazlarning ketma-ket kristallanish jarayonini tajriba yo'li bilan kuzatilgan va olingan ma'lumotlar termik (issiqlik) diagrammasi yordamida ifodalanadi (82-rasm). Diagramma ikkita qiyshiqliq chiziqdandan iborat. Ulardan yuqori chiziq kristallanishning boshlanishi bo'lib – likvidus deyilsa, pastkisi esa kristallanishning oxiri –


solidus deb yuritiladi. Jadvalni quyidagicha izohlash mumkin. Agar magmaning tarkibi ($An_{50} Ab_{50}$) bo'lsa, kristallanish 14500Sda boshlanadi va hosil bo'lgan mineralning tarkibi kristallanayotgan eritma'dan farq qiladi, ya'ni hosil bo'lgan plagioklaz anortit ($An_{82} Ab_{18}$) eritmaga nisbatan anortitga boy bo'ladi. Kristallangan mineralning tarkibi ($An_{82} Ab_{18}$) S chizig'i bo'yicha aniqlanadi, bu ikkala nuqta birlashib, VS izoterma hosil qilib, solidus yo'nalishida bo'ladi. Ana shu xilda V1 S1, V2 S2 plagioklazar ketma-ket bir necha marta hosil bo'ladi.

Plagioklazlarning nordon va o'rta xillari shlfda oq, ko'pincha kulrang bo'ladi. Odatda ularda relef va oq-kulrang interferetsiyali g'adir-budir yuzasi bo'lmaydi. Bu belgilari bilan kvarsga o'xshash.

Plagioklazlar asos vulkanik tog' jinslarining tarkibiy qismidir. Shuning uchun ularni puxta o'rghanishning ahamiyati katta. Bu jinslarining tarkibida gi plagioklazlar hosil bo'lishiga qarab ikkiga bo'linadi. Bulardan yiriklari porfirsimon holda uchraydi. Ularning tarkibida anortit molekulasi yuqori bo'lib, labrador va bitovnit yuzaga keladi.

Plagioklazlar qatoriga kiruvchi minerallar barcha turdag'i magmatik jinslarda uchraganligi uchun va ayniqsa, ularning miqdori va xillari magmatik jinslarining tarkibiga bog'liqligi tufayli ularning belgisi aniqlovchi sifatida ishlataladi. Kuzatishlar natijasida aniqlangan nordon jinslar tarkibida odatda plagioklaz nordon oligoklaz ($Ab_{80-70} An_{20-30}$), o'rta jinslarda andezin ($Ab_{60-50} An_{40-50}$), asos jinslarda labrador va bitovnitni ($Ab_{30-40} An_{70-60}$) uchratamiz.

Endi effuzivlarda sodir bo'ladijan jarayonlarni ko'raylik. Bazaltlarning tarkibida ikki xil plagioklazlarni uchratamiz. Ulardan biri – yirik porfir donali bitovnit, anortit bo'lsa, mayda donali asosiy qismi esa labradordan iborat bo'ladi.



82-rasm. Plagioklazlarning hosil bo'lish diagrammasi (Bouc, 1913).

Jadvaldan ma'lum bo'lishicha, (20-jadval), plagioklaz qatorida albit-dan anorit tomon SiO_2 (kremniy oksidi) va natriyning miqdori sezilarli darajada kamayib, kalsiy oksidi esa tobora oshib boradi. Shu yo'nalishda mineralarning optik xususiyatida sezilarli o'zgarish bo'ladi: nur sindirish ko'rsatkichi va nurni ikkilanib sindirish kuchlari hamda zichligi va solishtirma og'irligi ortib boradi. Bu xususiyatni inobatga olgan holda, magmatik jinslar tarkibidagi plagioklazlami mashhaqqat bilan ajratib, qimmatbaho kimyoiy usullarda aniqlash, albatta, og'ir va murakkab ish. Shuning uchun, petrograflar plagioklazlarni o'rganishda qulay bo'lgan optik usullardan foydalanadilar.

20-jadval
Plagioklaz qatoriga kiruvchi mineralarning
kimyoiy tarkibi (U.A.Dir va boshqalar, 1964)

Oksidlar	1	2	3	4	5	6
SiO_2	68,3	64,92	60,07	54,28	49,04	44,17
TiO_2	0,00	-	0,16	-	0,05	izi
Al_2O_3	19,64	22,2	24,84	28,28	32,17	34,95
Fe_2O_3	0,08	-	0,35	0,97	0,33	0,56
MnO	-	-	-	-	0,10	0,08
MgO	-	-	0,02	-	0,08	-
CaO	0,03	2,64	6,65	11,27	15,44	18,63
Na_2O	11,65	9,72	7,54	4,85	2,49	0,79
K_2O	0,08	0,68	0,34	0,41	0,19	0,05
H_2O	0,08	0,09	-	-	0,12	0,17
jami	100	100	100,27	100,06	100,19	100,24

1-albit (pegmatit, Shvetsiya); 2-oligoklaz (granit, Ontario, Kanada); 3-andezin (charnokit, Hindiston);
4-labrador (gabbro, Kvebek, Kanada); 5-bitovnit (norit, Rustenburg, Transvaal);
6-anorit (olivindi norit, Kaliforniya).

10.19. Kaliy-natriyli dala shpatlari. Kaliy-natriyli dala shpatlari nordon, o'rta va ishqorti magmatik jinslar uchun mansub minerallar hisoblanadi. Bular dala shpatlari orasida keng tarqalgan bo'lib, ahamiyati katta. Shunga qaramasdan, hozirgi kunda to'la o'rganilmagan va barcha uchun ma'qul bo'lgan tasnif yaratilmagan. Kaliyli dala shpatlari (KDSh) hosil bo'lish sharoitiga qarab ikki xil turda – monoklinal mikroklin – partit

turlari, hamda vulkanik jinslarda sanidin, sanidin-kripopertit (monoklin) va anortoklaz (triklin) hollarda uchraydi.

Kimyoviy tarkibiga ko'ra, kaliyli dala shpatlari ortoklaz (Or) – $\text{K} [\text{Al Si}_3\text{O}_8]$ va natriyli albit (Ab) – $\text{Na} [\text{Al Si}_3\text{O}_8]$ larning birlari bilan turli munosabatdagi qattiq, izomorf aralashmalaridan iborat. Nordon va o'rta intruziv jinslarning orasidagi KDSH ancha o'zgaruvchan bo'lib, Or_{20} dan Or_{97} gacha qiyymatda bo'lsa, ishqorli intruziv jinslarda esa Or_{20} dan Or_{50} gacha bo'ladi. Ushbu ko'rsatkich effuziv jinslarda sezilarli darajada o'zgaruvchan: riolitlarda – $\text{Or}_{40}\text{Or}_{65}$ atrofida bo'lib, traxitlarda bu ko'rsatkich ancha kamayadi – $\text{Or}_{20}\text{Or}_{30}$. Ishqorli dala shpatlariga kiradigan birikmalarini kimyoviy jihatdan qaralganda ularning ichki tuzilishida yirik kationlar K , Na , Ca va Ba ahamiyati katta bo'lib, ularning atrofida faqat $[\text{SiO}_4]$ tetraedrlarigina emas, balki $[\text{AlO}_4]$ tetraedrlaridan tashkil topgan kompleks anionlar ham ishtirok etadi. Bunda kremniyning alyuminiyga nisbati $\text{Si:Al}=3:1$, shuning uchun ham alyuminiy kremniy anionlari quyidagicha yoziladi: $[\text{Al Si}_3\text{O}_8]$ -1. Natijada KDSH hosil qilish uchun kaliy ioni kirishi uchun sharoit yaratiladi. Kaliydan tashqari ularning tarkibida natriy ham bo'ladi, ammo ancha kamroq miqdorda. Tekshirishlardan ma'lumki, KDSHning natriyli xili yuqori haroratdagina barqaror, aks holda izomorf birligini yo'qotadi va alohida albit yuzaga keladi. Natijada dala shpatlarda pertit va antipertitlar paydo bo'ladi. Bulardan birinchisi – pertit kaliyli dala shpatlari ichida albit kristallarining har xil shakllarda o'sib chiqishiga (joylashishiga) aytilsa, ikkinchisi aksincha, nordon plagioklazlar ichida KDSH minerallari joylashadi. KDSHlar tarkibidagi Si va Al atomlarining joylashishiga binoan tartibsiz (neuporyadochenniy) va tartiblilarga (uporyadochenniy) bo'linadi – $\Delta S = (2V - 440) \cdot 0,025$.

O r t o k l a z – $\text{K} [\text{Al Si}_3\text{O}_8]$. Yunoncha "ortoklaz" to'g'ri sinadigan ma'nosini anglatadi. Darhaqiqat, ulanish tekisliklari orasidagi burchak 900S ga teng. Uning tarkibidagi (%) hisobida $\text{K}_2\text{O} = 16,9$; $\text{Al}_2\text{O}_3 = 18,4$; $\text{SiO}_4 = 64,7$ oksidlar bo'ladi. Indikatrisa o'qlari qiymati: $\text{Ng} = 1,521-1,526$; $\text{Nm} = 1,518-1,523$; $\text{Np} = 1,514-1,519$; sinish ko'rsatkichi $\text{Ng} = \text{Np} = 0,007$. Kristallarining shakli prizmatik. Ulanish tekisligi (001) va (010) bo'yicha mukammal bo'lib, 900li burchakni tashkil etadi. Ortoklazning shaffof rangsiz xili adulyar deyiladi. U yuqori haroratda (9000) sanidinga (ayrim optik xususiyatlari bilan farq qiladigan turiga) aylanadi. Shaffof bo'Imagan ortoklazlar och pushti, och kulrang,

o'zgarganlari qizg'ish, qo'ng'ir bo'ladi. Shliflarda ortoklaz odatda, rangsiz, ammo magma'dan keyingi jarayonlar tufayli kaolin va boshqa ikkilamchi gil minerallarga aylanadi. Bu o'zgarishni petrografiyyada "pelitlanish" deb yuritiladi. "Pelitlashganda" qo'ng'ir dog'lar, ya'ni gilli hosilalar paydo bo'ladi. Ortoklaz mikroskop tagida kvarsiga o'xshaydi. Kvarsning ajralish darzligi yo'q va sinish ko'rsatkichi va ikkilanib nur sindirish qiymati ortoklazdan ancha yuqoriroq. Ortoklazning belgilari: relefisiz, kichik sinish ko'rsatkichli, kulrang interferension rangli, yaxshi ajralish darzligiga ega va pelitlashish oqibatida qo'ng'ir simon va dog'simon ko'rinishda bo'ladi.

M i k r o k l i n - K[AlSi₃O₃]. Yunoncha "mikroklin" sezilmas darajada qiyshaygan demakdir, ulanish tekisliklari (010:001) orasidagi burchak to'g'ri burchakdan atigi 200 farq qiladi. Kimyoviy tarkibi va barcha optik xususiyatlari bilan ortoklaznikiga o'xshash. Farqi, mikroklin triklin singoniyada kristallanadi va murakkab (polisintetik) qo'shaloqlari hosil bo'ladi. Bu qo'shaloqlar albit va periklin qonunlariga binoan vujudga kelgan va o'zarlo to'g'ri burchak ostida kesishib panjarasimon tuzilish hosil qiladi. Ba'zan bu kesimlarda qo'shaloqlardan tamomila nishon qolmaydi. Natijada "panjarasiz" mikroklinga aylanadi. Bu holda ularni Fedorov stoli yordamidagina aniqlash mumkin.

Mikroklinning optik belgilari: nur sindirish ko'rsatkichi o'zgaruvchan. Ng – 1, 525-1,530; Nm – 1,522-1, 526; Np – 1,516-1,522; sinish ko'rsatkichi Ng – Np=0,007-0,008. 2 v = - 770-840. Optik xususiyati manfiy.


10.20. FELDSPATITLAR

Bu guruhga kiradigan minerallar odatda kremniy oksidiga kambag'al, kaliy va natriya boy bo'lgan magma'dan yuzaga keladi. Bularga nefelin, leysit, analsim, nozean, gayuin va sodalitlar kiradi.

N e f e l i n - Na, K [Al SiO₄](yunoncha "nefeli" – bulut). U HCl da osenlik bilan parchalanib, bulutsimon kremniy oksidi hosil qiladi. Nefelin tarkibidagi kaliyning miqdori o'ta o'zgaruvchan. Odatda u nefelin (Ne) – Na Al SiO₄ bilan kalsilit (Ks) – K Al SiO₄ molekulalarining yuqori haroratdagi qattiq eritmalarining uzluksiz qatorini hosil qiladi. Nefelinning hosil bo'lish sharoitini aniqlovchi belgilardan biri tarkibidagi – K va Na kationlarining joylanishidadir. Ko'pincha intruziv jinslarda K : Na nisbati 3:1 ga teng, vulkanik jinslarda nefelin tarkibi sezilarli o'zgaruvchan. Afrika, Italiya va MDHda tarqalgan vulqon jinslarda noyob mineral sifatida kalsilit uchraydi. Kalsilit mikroskop ostida nefelinga o'xshaydi.

Bu ikki mineralni bir-biridan ajratish qiyin, shuning uchun kimyoviy usul yordamida tarkibini aniqlab bir-biridan ajratish mumkin. Nefelin ishqorli jinslarga mansub mineral sifatida, nefelinli sienitlarda kalishpatdar bilan, ishqorli gabbro va nefelinli gneyislarda plagioklaz bilan birga, o'ta ishqorli jinslarda esa olivin va piroksenlar bilan birga uchraydi. Uning singoniyasi geksagonal bo'lib, kristallarning shakli prizma, kalta ustunsimon bo'ladi. $Ng = 1, 529-1,546; Np = 1,526-1,542; Ng - Np = 0,003-0,005$.

U optik bir o'qli, belgisi manfiy. Odadat shlifda rangsiz, goho kulrang. Ko'pincha to'rt va olti burchakli donalar holida uchraydi. Nefelinning nur sindirish ko'rsatkichi Kanada balzaminikiga yaqinligi uchun relief va g'adir-budir yuza hosil qilmaydi. Nefelin optik belgilariiga ko'ra, kvars va ortoklazga o'xshash. Ammo nefelin va kvars birga uchramaydi, aks holda albitga aylanadi:



Nefelin ortoklazdan bir o'qligi, numi ikkilantirib sindirishi va nur sindirish ko'rsatkichining yuqoriligi bilan va kislotalarda erishi xususiyatlari bilan ajralib turadi.

L e y s i t – K [Al Si₂O₆] (yunoncha "leykos" – rangsiz, och rang) yosh vulqon jinslarga mansub bo'lib, past darajali bosimda yer yuziga yaqin yoki yer yuzasida hosil bo'ladi. Leysit dimorfizm xususiyatiga ega, 6250S dan yuqori haroratda kubik singomiyali kristall hosil qilsa, bundan past haroratda tetragonal turiga aylanadi. Leysit shlifda rangsiz, ulanish tekisligi yo'q, nur sindirish ko'rsatkichi (1,508-1,511) va numi ikkilantirib sindirish kuchi (0,001-0,002) past. Shuning uchun u mikroskopda o'zaro kesishgan nikollarda qora rangli bo'ladi. Leysit uchun xos belgilardan yana biri har tomonlama polisintetik qo'shaloqlarni hosil qilishidir. Ko'pincha leysit ichida egirin, magnetit, shisha mahsulotlarini qo'shimchalarini uchratish mumkin. Ba'zan leysit kristallari o'mida hosil bo'lgan ortoklaz va kaliyli slyudalar psevdomorfozalari uchraydi. Bunday psevdomorfozalar soxta (jevdo)³¹ leysit yoki epileysit deb ataladi.

10.21. SODALIT GURUHI MINERALARI

Bu guruhga oid minerallar kub singoniyasida kristallanib, tarkibiga ko'ra, nefelinga o'xshab qotadi, ammo tarkibida qo'shimcha anionlar sifatida Cl^- , S_2^- , $[\text{SO}_4]^{2-}$ ishtirok etishi bilan farg qiladi. Guruhga

³ "jevdo" - volg'on, o'xhash, soxta

sodalit, nozean, gayuin kiradi. Bu minerallar nefelin va leysitlar bilan birga nefelinli sienitlar, fonolitlar va boshqa ishqorli magmatik jinslarda uchraydi (21-jadval).

21-jadval
Sodalit guruhi minerallarining optik xususiyatlari

Mineral nomi	Tarkibi	Nur sindirish ko'rsatkichi	Ulanish tekisligi	Rangi
Sodalit	Na ₈ [AlSiO ₄] ₆ Cl ₂	1,483-1,487	(110) yo'nalishi bo'yicha kuchsiz sezilarli	rangsiz, ba'zan yashil, havorang, kulrang
Nozean	Na ₈ [AlSiO ₄] ₆ (SO ₄)	1,495	(110) yo'nalishi bo'yicha kuchsiz sezilarli	sarg'ish, yashilroq, havorang
Gayuin	Na ₆ Ca[AlSiO ₄] ₆ (SO ₄)	1,495-1,505	(110) yo'nalishi bo'yicha kuchsiz sezilarli	ko'k, havorang, yashil-ko'k, kamroq sariq

Sodalit – kub singoniyali, kristallari rombobodekaedrik shaklga ega. G'adir-budir yuzasi aniq. Boshqa ishqorli minerallardan optik xususiyatlari bilan farqlanadi. Sodalit ishqorli vulkanik jinslarning birlamchi minerali hisoblanadi. Ba'zan nefelinning o'zgarishidan ham hosil bo'ladi.

Nozean – kam tarqalgan mineral bo'lib, faqat vulkanik jinslarda uchraydi. Ko'p optik xususiyatlari sodalitga o'xshash. Nozean tarkibida boshqa minerallar (ilmenit, magnetit, ba'zan suyuqlik tomchilar va gaz pufakchalarini)ning aralashmasi bo'ladi.

Gayuin – fonolit va unga yaqin jinslarga mansub bo'lib, lavalarining tez sovish jarayonida hosil bo'ladi. U sodalitga o'xshash. Ahyon-ahyonda oktaedr shakldagi gayuinli vulqon lavalarida (Albaniya tog'lari) leysit, granat va melilit bilan birga uchraydi. Gayuinli bazaltlarda leysit, nefelin va avgit bilan birga uchraydi (Italiya vulqonlarida va Kanadaning Kvebek hududi).

10.22. SLYUDALAR GURUHI

Bu guruhga kiruvchi minerallar 50dan ortiq bo'lib, Yer po'stidagi umumiy jins hosil qiluvchi minerallarning qariyb 3,8%ni tashkil qila-

di. Slyudalar guruhiiga kiradigan minerallarning kimyoviy tarkibi juda o'zgaruvchandir. Bir xil kationlarning boshqa bir kationlar bilan almashinish hollari juda ko'p uchraydi. Kimyoviy jihatdan bu minerallar alyumosilikatlarning alohida guruhini tashkil etadi.

Bu guruha kiruvchi minerallarning umumiy ifodasi:

$R\cdot R_3\cdots [AlSi_3O_10] (OH_2)$ $R\cdot R_2\cdots [AlSi_3O_10] (OH_2)$, bunda $R = K$; $R_3 = Al$, ko'pincha Fe^{+3} , Mn^{+3} , kamdan-kam Cr^{+3} , V^{+3} , gohida Ti^{+4} ; $R_2 = Mg$, ko'pincha Fe^{+2} , Mn^{+2} , shuningdek, Li^{+1} . Na ioni slyudalar tarkibida kamroq ishtirot etadi. Slyudalar tarkibidagi $Mg: Fe^{+2}$; $Si : Al$ nisbatiga qarab 4 guruha bo'linadi: flogopit, istonit, annit va siderofillit. Shunday qilib, izomorf almashinishlar slyudalarda keng miqyosda ro'y beradi, bir tomondan, odatdagidek Mg^{+2} bilan Fe^{+2} , Al^{+3} bilan Fe^{+3} almashsa, boshqa tomondan hech shubhasiz, Mg^{+2} (Fe^{+2}) bilan Al^{+3} (Fe^{+3}) va boshqalar geterovalent izomorf almashinishlar ham mavjuddir. $Fe^{+2} \leftrightarrow Mg$, $Fe^{+2} \leftrightarrow Mn^{+2}$; $Fe^{+3} \leftrightarrow Al^{+3}$, $K \leftrightarrow Na$ geterovalentli 3 (Mg , Fe) $^{+2} \leftrightarrow 2 Al$; 4 $Al \leftrightarrow 3 Si$.

Biotitda Mg:Fe nisbati 2:1 dan kamroq, flogopitda Mg:Fe nisbati 2:1 dan katta. Biotitlarning temirga boy xillari ($f = 80-85\%$) lepidomelan deyiladi. Slyudalar guruhiiga mansub bo'lgan mineral turlarining hammasi ham monoklin singoniyada kristallanadi va tuzilishi o'ziga xos qavat-qavatdir.

Slyudalar kimyoviy tarkibiga qarab quyidagilarga bo'linadi:

biotit guruhi (Mg – temirli slyudalar);

muskovit guruhi (alyuminiyli slyudalar);

lepidolit guruhi (litiyli slyudalar).

Flogopit – $K Mg_3 [Si_3 AlO_10]_2$ (yunoncha "flogopos" – olovdek). $Ng = 1,566-1,606$; $Np = 1,534-1,562$; $Ng - Np = 0,003 - 0,047$. Optik xususiyati manfiy, so'nishi to'g'ri ($S : Ng = 0$), uzayish belgisi musbat. Odatda olti qirrali qavat-qavat yoki varaq-varaq agregatlar holida uchraydi. Ajralishi juda oson, rangi och sarg'ish-qo'ng'ir, qizg'ish-qo'ng'ir, jigarrang. Pleoxorizmi kuchsiz. Ulanish tekisligi (001) bo'yicha o'ta mukammal. Flogopit magniya boy bo'lgan metamorfik jinslarda uchraydi va kontakt-metasomatik hosilalar orasida tez-tez uchrab turadi. Flogopitning yaqin yo'ldoshlari diopsid, forsterit, shpinel, dolomit, kalsit, dala shpatlari, skapolit va boshqa minerallar hisoblanadi.

Flogopit odatda metamorfizm jarayonida yuzaga keladi va karbonatli metamorfik jinslar tarkibida uchraydi. Donalarning o'lchamlari har xil –

0,1 dan 1 sm gacha bo'ladi, gohida kristall cho'zinchoqligi eniga nisbatan 3-5 marta uzun bo'ladi. Flogopit o'ta asosli jinslarda, ayniqsa, kimberlitlarda uchraydi ammo hosil bo'lishi hanuz mavhumligicha qolmoqda. Yirik kristallari Sharqiy Kimberli (Janubiy Afrika) vulqon jinslarda topilgan. Undan tashqari, Kanada (og'irligi hatto 1,5 t). Madagaskar, Shri-Lanka, Hindistondagi kontakt-metasomatik jinslarda uchraydi.

Biotit – K (Mg, Fe)3[Si3AlO10] (OH, F)2. Nomi fransuz mineralogi M.B.Biota (1774-1862) J.B.Bio (1774-1862) sharafiga qo'yilgan. U taxlangan varaqlarga o'xhash kristallar hosil qiladi. Odatda qora, qo'shg'it. Ulanish tekisligi (001) bo'yicha o'ta mukammal. Biotit o'ziga xos pleoxorizmga ega, Ng – to'q qo'ng'ir rangli, Np – och-sariq, absorbsiya sxemasi: Ng = Nm > Np, so'nishi to'g'ri. Bu xususiyatlari bilan o'ziga o'xhash amfibollardan ajralib turadi. Yana shuni aytish kerakki, Ng o'qi bo'ylab ulanish tekisligi uzayishiga mos yotadi, ana shu belgilari bilan o'ziga o'xhash turmalin mineralidan farq qiladi.

Biotit jins tashkil etuvchi mineral sifatida hol-xol donalar, taxlangan varaqlarga o'xhash kristallar hosil qilib, juda ko'p magmatik jinslar tarkibida uchraydi. Biotit yirik kristallar – 7 m2 holida muskovit bilan birga pegmatitlarda uchraydi (Shimoliy Kareliya, Ilmen va Vishneva tog'lari, Ural, Grenlandiya). Bulardan tashqari, biotit yirik porfirsimon kristall tariqasida, nordon lavalarda ham ma'lum (Monte-Somma, Alban tog'lari, Italiya). Biotit metamorfik jinslarda – ayniqsa, har xil slaneslarda, gneyislarda granat, kianit, ayrim jedritlar bilan birga uchraydi. Biotit andaluzit, kordierit, plagioklaz, gipersten va avgit bilan birlikda kontakt metaforizmida hosil bo'ladigan rogoviklar tarkibida ko'p uchraydi (Nurota tog' tizmalari, Zirabuloq-Ziyovutdin tog'lari, Janubiy Tyan-Shan).

Muskovit – K Al2 [Al Si3O10] (OH)2 (nomi Moskvaning qadimgi nomi "Muska"dan olingan). Odatda rangsiz, ko'pincha varaq-varaqsimon bo'lib, ko'ndalang kesimi psevdogeksagonal yoki rombga o'xhash bo'ladi. Ulanish tekisligi (001) bo'yicha o'ta mukammal, u sadafdek yaltiraydi. Shlifda rangsiz, ba'zan sarg'ish, relyefi va g'adir-budir yuzasi aniq, kuchli interferension ranglariga ega. Odatda to'g'ri so'nadi, (001) bo'yicha polisintetik qo'shaloq tuzilishda ko'rindi.

Muskovit slyudalar orasida eng ko'p tarqalgan. U jins hosil qiluvchi mineral sifatida nordon magmatik jinslar (granitlar, pegmatitlar, aplitlar)da hamda metamorfik jinslar: slaneslar, gneyislarda bo'ladi. Shuni takidlash kerakki, intruziv jinslar tarkibidagi muskovitlar magma'dan ke-

yingi jarayonlar natijasida hosil bo'ladi. Muskovitning ko'p turlari mavjud: fuksit – tarkibida Cr₂O₃ – 6%, yashil va ko'kimtir yashil xili; roskoelit – tarkibidagi Al₂O₃ o'mini 15% chamasasi V₂O₃ egallab, rangi qo'ng'ir bo'ladi; paragonit – muskovitga juda o'xhash, farqi 12% N₂O bo'ladi. Juda mayda qipiqsimon muskovitlarga serisit deyiladi va ular magmatik jarayonidan keyin pnevmo-gidrotermal sharoitda yuzaga keladi. Umuman, slyuda (muskovit) konlari odatda pegmatitlar va metasomatik jarayonlarda yuzaga keladi.

Lepidolit – (yunoncha "lepis" – tangacha). Kimyoviy ifodasi – K[Li,Al]₂-3[Si₃AlO₁₀](OH,F)₂. Oq, pushti, ba'zan gunafsha ranglarda ko'rindi, varaq-varaq, plastinkachasimon, tangachasimon shakkarda uchraydi. Varaqchalari egiluvchan, egilganda ham qayishqoq. Optik xususiyati manfiy. Optik o'qlari burchagi 2 V = – 400. Optik o'qlar tekisligi (001)ga tik, uzayish belgisi musbat. Ko'p belgilari bilat muskovitga juda o'xhash. Shlifda rangsiz, ba'zan qizg'ishroq. Lepidolit litiyga boy pegmatitlarda va greyzenlarda ko'p uchraydi.

Tsinvaldit – K Li Fe Al [Si₃AlO₁₀] (F, OH)₂. Bu mineralning birinchi topilgan joyi Tsinvald (Chexiya). Tarkibi barqaror emas, o'zgaruvchan bo'lib, unda Fe O – 2 – 12%, Fe₂O₃ – 1-4.5%, Mn O – 8%, Rb₂O – 3-3.5%. F : OH nisbati ham o'zgaruvchan. Bunday o'zgarishlar uning optik xususiyatlari salbiy ta'sir ko'rsatib, uni batafsil o'zgartirib yuboradi. Odatda u kulrang, qo'ng'ir, kamdan-kam to'q yashil rangli bo'lgan yupqa va qalin taxtachasimon kristallari shakli bilan biotitga o'xshab ketadi.

Bu mineral shaffof, shishadek yaltirab, uning ulanish tekisligi yuzalari sadafdek tovlanadi.

Slyudalar orasida biotit to'liq o'rganilgan jins hosil qiluvchi mineral hisoblanadi. U magmatik jarayonlarda ro'y beradigan fizik va kimyoviy sharoitni tiklashda muhim rol o'ynaydi. Odatda, biotit o'rtalari va nordon jinslami tashkil etuvchi rangli mineraldan biridir. Batafsil tekshirishlar natijasida olingan ma'lumotlarga qaraganda biotitning tarkibi intruziv jinslarda sezilarli o'zgaruvchan. 22-jadvaldan ko'rinishicha, dioritlardan granodiorit orqali granitlarga qarab temir oksidi ko'payib, magniy oksidining miqdori esa kamayib boradi. V.S.Sobolevning diagrammasi bo'yicha biotitlarning tarkibidagi temirning miqdori nur sindirish qiymatiga to'g'ri bog'liqligi aniqlangan. Demak, biotitlarning nur sindirish ko'rsatkichlari bo'yicha uning kimyoviy tarkibi to'g'risida fikr yuritish mumkin. Hozirgi davrda biotitlarda kamyob va tarqoq elementlarning ko'pligi aniqlandi. Ayniqsa,

biotit tarkibidagi volfram, qalayi, molibden, berilli, niobiy-tantal va boshqa elementlarning miqdori aniqlansa, u vaqtida yuqoridagi elementlarning granit intruzivlariga bog'liq bo'lgan kon hosil bo'lishi to'g'risida fikr yuritish mumkin. Masalan, G'arbiy O'zbekistonda mavjud bo'lgan skarnli volfram, molibden, greyzenli kvarts-kassiteritli konlarni ko'rsatish mumkin. Haqiqatan Qo'yotosh, Langar, Ingichka va boshqa o'nlab volfram konlari granitlarning karbonatli cho'kindi jinslar bilan tutashgan joylarida kontakt-metasomatik jarayonlar natijasida ro'y bergan. Olingan ma'lumotlar Nurota va Zirabuloq-Ziyovutdin tog'laridagi granitoidlar W, Mo, Sn, Be, Nb va boshqa elementlarga to'yingan, shuning uchun ham biotitlarda u elementlarning miqdori boshqa hududlardagi granit-plutonlaridagi biotitning tarkibiga nisbatan 2 – 3 barobar ortiqroqdir.

22-jadval

Nordon intruziv jinslardagi biotitlarning kimyoviy tarkibi (U.A.Dir va boshqalar, 1966)

Oksidlar	Diorit	Granodiorit	Granit
SiO ₂	38,22	38,3	37,17
TiO ₂	2,96	3,6	3,14
Al ₂ O ₃	14,71	13,99	14,60
Fe ₂ O ₃	3,83	3,98	3,75
FeO	13,44	20,24	26,85
MnO	0,52	0,09	0,06
MgO	13,45	7,96	4,23
CaO	1,46	0,90	0,17
Na ₂ O	0,5	0,5	0,15
K ₂ O	7,90	8,31	8,25
H ₂ O	1,89	1,63	1,35
Jami	99,56	99,84	100,57
$f = \frac{\text{Fe}_2\text{O}_3 + \text{FeO}}{\text{Fe}_2\text{O}_3 + \text{FeO} + \text{MgO}} \cdot 100\%$	55	76	87

10.23. AMFIBOLLAR GURUHI

Amfibollar "yunoncha "amfibolas" – aniqmas, noaniq degan ma'noni bildiradi.

Amfibollarga oid minerallarning umumiy ifodasi – AVX [T4 O11], bunda A = Na, K; B=Na, Li, Mg, Ca, Fe⁺², Mn, Al, Fe⁺³, Ti; T = Si, Al : X = OH-. Tarkibining murakkabligi izo va geterovalent izomorfizmi oqibatidir: Ca^{2+} D Na Na; Ca^{2+} Mg^{2+} D Na⁺ Al³⁺, Na Mg²⁺ D Al³⁺, Na⁺ Si⁴⁺ D Ca²⁺ Al³⁺, Mg²⁺ Si⁴⁺ D Al³⁺ Al³⁺, Na Al³⁺ D Si⁴⁺, Na Fe³⁺ D Mg²⁺, Mg²⁺ Si⁴⁺ D Fe³⁺ Al³⁺, Na Si²⁴⁺D Na³ Ca²⁺ Al²³⁺, Fe²⁺ + OH \ominus Fe³⁺ + O²⁻.

Amfibollar ichida hozir ma'lum bo'lgan 70dan ortiq mineral turlarini uchratamiz. Bulardan 25 xili tabiatda keng tarqalgan. Tadqiqotlar nati-jasida amfibollarning ichki tuzilishida kreminiy-kislorod tetaedrlari [Si₄O₁₁]₆- tarkibli ikki qator zanjir bo'lib ishtirok etishi amfibollarning o'ziga xos belgisi hisoblanadi. Kislorodning qolgan ioni bir valentlik alohida [OH]⁻ anioni tarkibiga kiradi. Shunday qilib, kompleks anionlar ning umumiy manfiy zaryadi 7 ga teng.

Amfibollarning kimyoviy ifodasi xilma-xil bo'lishiga qaramay, ularning hammasi asosiy fizik va kimyoviy xususiyatlari bilan bir-birlariga o'xshab ketadi. Amfibollarning tabiatda paydo bo'lish sharoitlari piroksen-larning hosil bo'lish sharoitlariga qaraganda birmuncha boshqacharoqdir. Amfibollar tarkibida OH, F va Si bo'lishi, ularning magmatik va metamorfik jinslarda birmuncha past haroratda kristallanishi uchun sabab bo'ladı.


D.P.Grigurev sun'iy amfibollarni, faqat fitorli silikat qotishmasini kris-tallantirib olishga muvaffaq bo'ldi. Tarkibi tabiiy birikmalarga o'xshab ketadigan, ya'ni tarkibida (ON)-1 bo'lgan amfibollar sun'iy yo'l bilan I.A.Ostrovskiy tomonidan olingan.

Amfibollar prizma shaklida kristallanib, prizma tekisliklari (110) o'zarlo 124030/ burchak hosil qiladi. Bu belgisi bilan amfibollar o'zlariga o'xshash bo'lgan piroksenlar guruhidan farq qiladi. Amfibollarning prizma tekisliklari parallell joylashgan ajralish tekisliklari va ularning o'zarlo kesishgan burchagi ham (550 30/) xosdir. Barcha amfibollar kristall singoniyalari va tarkibiga qarab ikkiga: rombik va monoklin singoniyaliga bo'linadi.

Rombik singoniyali amfibollar

Antofillit va jedrit. Kimyoviy dalillardan ma'lum bo'lishicha, magniy va temir aralashmasidan iborat izomorf qatori mavjud. Bulardan birinchisining optik xususiyati musbat, ikkinchisiniki manfiydir. Bu

minerallar metamorfik sharoitda yuzaga kelib, magmatik jarayonda hosil bo'lmaydi. Demak, ular faqat ancha past haroratda barqarordir. Yuqori haroratda (10000) tarkibidan (ON)-1 chiqib ketishi bilan tuzilishidagi SiO₄ tetraedrlarining ikki qatorlik zanjirining bir qatorlik zanjirga aylanishi yuz beradi:




enstatit

Ulanish tekisligi 1260 burchak bilan (110) prizma bo'yicha mukammal. Uzayish belgisi musbat. Odatda nayzasimon, shu'lasimon, tolali agregatlardan iborat holda uchraydi. Bu ikki mineral uzlusiz qorishma hosil qiladi, shuning uchun ham ularning xususiyatlari barqaror emas, balki birinchisidan ikkinchisiga qarab asta-sekin o'zgarib turadi. Odatda rangsiz, kulrang, yashil, havorang, qo'ng'ir. Shrifda rangsiz, och yashil. Pleoxorizmi ancha aniq, Ng – och yashil, qo'ng'ir, havorang, Np bo'yicha och yashil, och sariq. Absorbsiyasi: Ng = Nm > Np yoki Ng > Nm = Np. Qattiqligi 5, 5-6, solishtirma og'irligi 2,8-3,2.

Monoklin amfibollar

Kummingtonit – gryunerit tarkib jihatdan bir-biriga juda yaqin va uziy bog'langan qorishma hosil qiladi. Temir miqdorining ko'payishi bilan minerallarning optik xususiyatlari, solishtirma og'irliji, nur sindirish ko'rsatkichi, nurni ikkilantirib sindirish kuchi ham ortib boradi va gryuneritda maksimumga yetadi. Shrifda rangsiz, ammo temirga boy xillari yashil hamda qo'ng'ir tusda bo'lib, sezilarli pleoxorizmga ega bo'ladi. Ko'pincha oddiy, gohida polisintetik qo'shaloqlar hosil qiladi. Kristallarning shakli prizmatik, ignasimon va tolasimon. Ikkalasi ham regional va kontakt metamorfik jinslarida uchraydi. Ammo kummingtonit magmatik mineral sifatida vulkanik jinslarda (dasit) kam bo'lsa-da uchraydi. Olimlarning fikricha, kummingtonitning asos jinslarda (gabbro, norit) uchrashi rombik piroksenlarning o'zgarishi oqibatida yuzaga keladi:



kummingtonit

Tremolit. Birinchi marta Tremol vodiysi (Shveysariya)da topilgan. Shrifda rangsiz, oq, kulrang. Odatda u "S" o'qi yo'nalishida cho'ziq, uzun

prizmatik ignasimon qildek ingichka kristallari tabiatda uchraydi. Ajralishi (110) bo'yicha yaxshi. Tremolit metamorfik kristallangan ohaktoshlar bilan dolomitlardan, shuningdek, slaneslar bilan rogoviklarda uchraydi. U ko'p xususiyatlari bilan aktinolitga o'xshab ketadi, ammo juda och rangi bilan undan ajralib turadi.

Aktinolit – yunoncha "aktis" – *nur, shu'la kabi joylashgan degan ma'nodan kelib chiqqan*. U och ko'k rangdan, to to'q ko'k ranggacha bo'ladi. Shlifda rangsiz yoki ko'k va qo'ng'ir-ko'k ranglarda uchraydi. Ajralish qobiliyati (110) bo'yicha yaxshi. Ko'ndalang kesimida ajralish tekisligi 1240 burchak ostida kesishadi. Aktinolit boshqa amfibollar kabi birmuncha past haroratlarda barqarordir. Odatda past darajali regional metaforizm jarayonida yuzaga keladi. Magmatik jinslarda ikkilamchi mineral sifatida odatda pirksen, rogovaya obmanka, kamroq olivinlar hisobiga hosil bo'ladi.

Rogovaya obmanka. Kimyoviy tarkibi o'zgaruvchan, bir xil bo'lavermaydi (chermakitlar alyuminiy oksidiga boy va ularda natriy bo'lmaydi; edenitlarda alyuminiy oksidi (Al_2O_3) kam, ammo natriy ancha etarli, pargasitlar alyuminiy oksidiga boy, natriy etarli, temir kamroq; gas-tingsitlar alyuminiy oksidiga boy, natriy etarli, temirga to'yigan). Ularning kimyoviy tarkibidagi ayrim elementlarning munosabati o'zgaruvchan, ya'ni Ca va Na, Mg va Fe^{+2} , Fe^{+3} va Al yoki Al va Si. Bulardan tashqari har xil miqdorda K, Li, Ba, Sr, Ti, Mn, Ni, Co, Cr uchraydi. Rogovaya obmanka tarkibining murakkabligi uchun optik xususiyatlarini bir-biri bilan uziyi bog'lab bo'lmaydi.

Demak, rogovaya obmankaning o'ziga xos kimyoviy tarkibi va shunga bog'liq optik xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladigan juda ko'p xillari mavjud. Rangi har xil tusda bo'ladi: yashil, qo'ng'ir, ko'pincha qoramitir qora. Shlifda qo'ng'ir, ba'zan yashil bo'lib, kuchli pleoxorizmga ega. Ng i Nm > Np. Ng – to'q yashil yoki qo'ng'ir, Nm – yashil, och qo'ng'ir va Np – och yashil va och qo'ng'ir. Ajralish qobiliyati (110) bo'yicha yaxshi, ko'ndalang kesimida ajralish tekisligi 1240 burchak ostida kesishadi. Bu mineral juda ko'p va xilma-xil o'rta intruziv magmatik jinslarda – diorit, sienit, granodiorit va lamprofir tomir jinslarga xosdir. Bu mineral juda ko'p va xilma-xil o'rta intruziv magmatik jinslarda – diorit, sienit, granodiorit va lamprofir tomir jinslarga xosdir. Bu mineral amfibolitlar yoki amfibolli slaneslar va gneyslar tarkibining asosini tashkil qilib, yuqori va o'rta darajali regional metamorfizmlarda yuzaga keladi. Bulardan tash-

qari kontakt-metasomatik jarayonlari mahsuli bo'lgan skarnlarda ham o'ziga xos mineral uyumlari hosil qiladi.

Bazal tik rogovaya obmanka. Vulkanik jinslar uchun xos bo'lgan mineral. Tarkibidagi uch valentli temir oksidining ikki valentligiga nisbati ($\text{Fe}_2\text{O}_3:\text{FeO}$) juda yuqoriligi asosiy xususiyatlaridan hisoblanadi. Kristallarining uzayish belgisi manfiy. Shlifda qo'ng'ir, ba'zan yashil. Pleoxorizmi juda aniq bo'lib. Ng – qora, to'q jigarrang, ko'kimtir-qo'ng'ir, Nm – qizg'ish, qo'ng'ir-qora. Np – och qo'ng'ir yoki sarg'ish rangli bo'ladi. Bazilarda ranglari o'zgaruvchan bo'lib, markazi qo'ng'ir, atrofi esa yashil rangli bo'ladi. Mineral yuzasi mikroskop ostida g'adir-budir. Ba'zaltik rogovaya obmanka boshqa amfibollardan (kersutit va barkevikitlardan tashqari) pleoxorizmnинг kuchliligi bilan farq qiladi. Barkevikitdan farg'i: optik o'qlari burchagining kattaligi, so'nish burchagining kichikligi va nur yo'l farqining kattaligida. Kersutitning optik xususiyatlari bazaltik rogovaya obmankaga shunchalik yaqinki, uni bir-biridan ajratish qiyin, faqat so'nish burchagi kichik, Nm va Np o'qlari bo'yicha nurni yutish qobiliyati yuqori.

Ishqorli amfibollar:

Arfvedsonit kristallari ko'pincha ustunsimon, nayzasimon, ba'zida kalta prizmalar shaklida bo'ladi. Gohida (100) bo'yicha qo'shaloqlar hosil qiladi. Uzayish belgisini manfiy.

U qora, gohida to'q yashil, shlifda sarg'ish-yashil, kulrang-yashil, och yashil yoki ko'm-ko'k. Pleoxorizmi aniq: Ng – yashilsimon sariq, Nm – och havorangdan qo'ng'irgacha, Np-to'q yashil, ko'k. Absorbsiyasi teskari: $\text{Ng} < \text{Nm} < \text{Np}$. Qattiqligi – 6-6,5, solishtirma og'irligi – 3,1-3,2. Shlifda arfvedsonit turmalinga o'xhash, faqat utanish tekisligi, burchak ostida so'nishi va ikki o'qliligi bilan ajraladi. U boshqa amfibollardan nurlar yo'l farqining kichikligi, pleoxorizmining kuchliligi hamda bissek-trisalar dispersiyasi kuchliligi bilan farq qiladi. Arfvedsonit ishqorli magmatik jinslarda uchraydi.

Ribekit – nemis tabiatshunos olimi E.Ribeka (1853) nomi bilan atalgan. Ribekit Tyan-Shan tog'lari (Turkiston va Talas)da ma'lum. Bu mineral ko'proq ishqorli granitlarda, kvarsli sienitlarda va nefelinli sienitlarda uchraydi (Tozabuloq massividagi Kuljuktov nefelinli sienitlar). Optik xususiyati manfiy. U cho'zinchoq va tolasimon kristallar holida uchraydi. Rangi to'q yashildan qoragacha. Pleoxorizmi keskin. Ng – zangori, sarg'ish-qo'ng'ir, sarg'ish-zangori, och sarg'ish-yashil, Nm – to'q

zangori, zangori, yashil-zangori, binafshasimon ko'k, Np – ko'm-ko'k, zangori, qoramtil-to'q ko'k.

Mikroskop ostida g'adir-budir yuzasi juda aniq ko'rindi. Ribekit asosiy jins hosil qiluvchi mineral sifatida ishqorli o'rtalari va nordon magmatik jinslarda va ba'zan metamorfik jinslar tarkibida uchraydi.

Glaukofan – metamorfizmning ma'lum sharoitida hosil bo'ladi (yuqori bosim, past harorat). Optik xususiyati manfiy, so'nish burchagi kichik, optik o'qlarining tekisligi (010) bo'yicha o'tadi. Kristallarining uzayish belgisi musbat. Qattiqligi 6-6,5, solishtirma og'irligi 3-3,2, rangi qora. Shlifda esa yashil rangdan binafsha ranggacha o'zgaradi. Kristallari prizmaga o'xshash cho'zinchoq shakllarda uchraydi. Pleoxorizmi kuchli: Ng- to'q ko'k, favorang, ko'k yashil, Np – rangsiz, ba'zan sarg'ish-yashil ranglarda bo'ladi.

Glaukofan boshqa amfibollardan pleoxorizmi va so'nish burchagini kichikligi bilan ajralib turadi. Glaukofan ko'pincha lavsonit, epidot, xlorit, muskovit, stilpnomen, jadeit va almandinlar bilan birga uchraydi.

Amfibol minerallariga xos belgilari: ko'pincha mineral shakllari prismatik, ustunsimon, nayzasimon, shu'lasimon hamda tolali agregatlardan iborat, ularish tekisligi chiziqlari orasidagi burchak 1240 ga yaqin. Umuman, rombik amfibollar to'g'ri so'nishi bilan, monoklin xillari burchak ostida so'nishi (so'nish burchagi (S: Ng) 300 dan ko'p emas, odatta 10-200), g'adir-budir yuzasi va relyefining aniq ko'rinishi bilan xarakterlanadilar.

Bulardan tashqari, amfibollarda ikkita kristallografik kesma mavjud. Bulardan birinchi kesma uchinchi kristallografik kesma mavjud. Bulardan birinchi kesma uchinchi kristallografik o'q "S"ga tik joylashadi. Bu kesma yo'nalishi bo'yicha ularning ularish tekisligi joylashib, ikkinchi kesma uchinchi kristallografik o'qqa parallel yotadi. Bu yo'nalishi bo'yicha amfibollarda ikkinchi ularish tekisligi joylashadi.

10.24. OLIVINLAR GURUHI

Bu guruhgaga oid minerallar forsterit (Fo) – Mg₂ [SiO₄] va fayalit (Fa) – Fe₂ [SiO₄] molekulalarining turli nisbatdagi qattiq izomorfik aralashmalardan iborat. Kam tarqalgan, Mn ga boy xili – tefroit – Mn₂ [SiO₄] deb ataladi.

Forsterit – londonlik mineral sotuvchi A.J.Forster, fayalit esa Fayal-Azor orolida birinchi topilganligi va tefroit – yunoncha "tefros"

– kulrangli ma’nosidan kelib chiqqan. Tarkibi xilma-xil bo’lgan bu silikatlarni rentgenometrik tekshirish. shu birikmalarning kristall tuzilishi xossalariaga mansub bo’lgan quyidagi eng muhim xulosalarga olib keldi, ya’ni tekshirib ko’rilgan silikatlarning hammasida Si^{+4} ioni atrofida. tetraedr uchlarida joylashgan to’rtta O^{-2} ioni bilan doimo zanjirda yoki bog’langan holda bo’ladi – $[\text{SiO}_4]^{-2}$. Kislorod bilan kremniy orasidagi aloqa silikatlarning kristall tuzilishida kationlik vazifasini bajaruuchi Mg^{+2} , Fe^{+2} , Mn^{+2} bilan kislorod orasidagi aloqaga qaraganda ancha kuchliroq bo’ladi. Bu silikatlarning kristall tuzilishida kremniy va kislorod tetraedri bir-biridan ajralgan yakka-yakka tuzilish birligi holda joylashgan bo’lib, yoki turli usullar bilan bir-biriga tutashib, murakkab kompleks anion radikallarini hosil qilish mumkin. Har qaysi tetraedrning hamma uchlari, shu tetraedrnin o’tab turgan atrofdagi to’rtta tetraedr $[\text{SiO}_4]$ uchlari bilan birlashsa, shundagina biz tetraedrlarning eng mukammalroq bo’lgan tutash holatiga ega bo’lamiz. Demak, olivin minerallarning kationlari Mg, Fe va Mn lardan iborat. Agar Mg^{+2} kationidan iborat bo’lsa, hosil bo’lgan mineral ifodasi $\text{Mg}_2[\text{SiO}_4]$ bo’lib, forsterit (Fo), agar kation Fe^{+2} bo’lsa, u holda fayalit (Fa) – $\text{Fe}_2[\text{SiO}_4]$ hosil bo’ladi. Bu ikin mineral molekulalarining ketma-ket turli nisbatdagi izomorfik birikmalari forsterit (Fo90Fa10), olivin-xrizolit (Fo90-70Fa10-30), gialosiderit (Fo70-50 Fa30-50), gortonolit (Fo90-70Fa10-30), ferrogortonolit (Fo30-10Fa70-90), fayalit (Fo10-0Fa90-100) minerallarini hosil qilib, Mg : Fe nisbati 100-0 gacha boradi.

Olivinlar guruhiaga mansub minerallarning hosil bo’lish sharoiti tajriba asosida tekshirilgan. Olingan natijalarga qaraganda bu ikkala minerallarning hosil bo’lishi quyidagicha: ya’ni forsterit 1890°S da paydo bo’lsa, sof fayalit 1250°S da yuzaga keladi. Demak, haroratning pasayishi natijasida hosil bo’lgan minerallarda borgan sayin temirning miqdori ortib boradi. O’ta asosli magmaning sekin-asta sovishi jarayonida hosil bo’lgan olivinlarni Dastlabki fazasida forsterit (Fo), molekulasi yuqori bo’lsa, keyingilarida esa fayalit (Fa) molekulasi ortib boradi va natijada zonal yaxlit yirik donali mineral hosil qiladi. Bu hosil bo’lgan minerallar markazida (Fo100-90 Fa0-10) bo’lsa, tashqi qismida Fo90-70 Fa10-30 dan iborat bo’ladi. Bunday kristallarni zonal tuzilishga ega deyiladi.

Lavalarning tarkibida uchraydigan yirik, holsimon olivinlarning tarkibida ko’proq magniy bo’lsa, asosiy massada uchraydigan olivinlarda temir miqdori oshib boradi. Olivinlarning asosiy qismi magmatik

jarayonda yuzaga keladi. Misol: olmos kristallarida uchraydigan mayda zarrali forsterit (Fo100-95) ning eng chuqurda, mantiyada kuchli bosim 4 GP va yuqori haroratda (1650°) yuzaga kelishi aniqlangan. Kimberlarning tarkibida ko'pincha forsterit (Fo94-86) bo'ladi. Ural tog'laridagi Kishtim, Denejin, Kamen, Ray-Iz intruzivlaridagi dunitlarning tarkibida olivinlar Fo90-70, peridotit formatsiyalaridan tashkil topgan Syodberi (Kanada), Bushveld (Janubiy Afrika), Norilsk (Shimoliy Sibir) plutonlaridagi olivinlar ancha o'zgaruvchan olivinlardan Fo80-50 tashkil topadi. Yirik holsimon shaklda uchraydigan olivinlar (Kavkaz, Sibir) va harakatdagi vulqon lavalaridagi (Kamchatka, Gavay oroli) olivinlar sezilarli o'zgaruvchan bo'lib, Fo80 – 40 dan iborat.

Bouen va Sherer tajribalari shuni ko'rsatadiki, magniyli olivinlar (forsterit, xrizolit, gortonolit) kremniy oksidiga to'yinmagan magmalardan hosil bo'ladi. Shuning uchun ham normal o'ta asosli jinslarda hech qachon olivin kvars bilan birga uchramaydi. Ammo temirga boy bo'lgan olivin xillari nordon magmatik jinslarda ikkinchi mineral sifatida uchrashi mumkin. Masalan, rapakivli-granit tarkibga ega bo'lgan Korosten, Kanev va Cherkas (Ukraina) intruziyalarida, sienitli Uayt-Mauntin (Kaliforniya, AQSH), adamellitli Nyu-Faundlend (Kanada) intruziyalaridagi olivinlar fayalitdan (Fa90-80) iborat. Fayalit AQSHdagi Yellowston parkidagi obsidian (vulqon shishasi) orasidagi bo'shliflarda kristall tarzida, hamda Linar orollarida va boshqa joylarda uchraydi. Bundan tashqari, fayalit (talaskit) – kremniy oksidiga ancha kambag'al bo'lgan turi granitli pegmatitlarda Talas Daryosi havzasidagi Jashi daryosi qirg'og'ida topilgan bo'lib, bu juda kamdan-kam uchraydigan holdir.

Forsterit magnezial skarnlarga xos mineral bo'lib, lyudvigit, shpinel va diopsidlar bilan birga uchraydi. Temir konlari hosil qiluvchi skamlar tarkibida esa fayalit ko'p miqdorda uchraydi.

Endi olivin minerallarini mikroskop tagida aniqlash belgilarini ko'rib chiqaylik.

Forsterit (Fo) – Mg₂SiO₄. Rombik singoniyalı mineral tarkibi: MgO – 57,1 % va SiO₂ – 42,4%. Ng = 1,670; Nm = 1,651; Np = 1,635; Ng-Np=0,035. Optik xususiyati musbat 2V = 820. Ulanish tekisligi (010) bo'yicha sezilarli darajada bo'lib, (100) yo'nalishida noaniq. Odadta magmatik jinslarda yaxshi kristallar holida uchraydi ayrim shakliz donachalar hosil qiladi. Shlifda rangsiz, relyefi va g'adir-budir yuzasi aniq ko'rindi. Forsterit kristallarining uzayish belgisi manfiy.


Olivin – $(\text{Mg}, \text{Fe})_2 \text{SiO}_4$. Uning ko'kintir-sariq rangiga qarab shunday nom berilgan. Shaffof xili xrizolit deyiladi. Tarkibi o'zgarib turadi. $\text{MgO} = 40\text{--}45\%$, $\text{FeO} = 8\text{--}12$, ba'zan 20% gacha, $\text{NiO} = 0, 1\text{--}0,3$; $\text{CaO} = 0, 01$. Rombik singoniyali. $\text{Ng} = 1,718\text{--}1,889$; $\text{Nm} = 1,706 - 1,670$; $\text{Np} = 1,681\text{--}1,651$; $\text{Ng-Np} = 0,035\text{--}0,037$.

Rangi yashilroq tovlauvchan sariq, ko'pincha rangsiz. Ulanish tekisligi (010) bo'yicha kamroq, (100) bo'yicha o'rta yoki mukammal emas. Olivin shlifda rangsiz, ammo tarkibida FeO miqdori ko'payishi bilan uning optik xususiyatlaridan nur sindirish ko'rsatkichi va zichligi orta boradi. Olivinda g'adir-budir yuza aniq ko'rinadi va uning interferensiya rangi ikkinchi hamda uchinchi tartibili, ya'ni to'q rangda bo'ladi. So'nishi ulanish tekisligiga tik bo'ladi, ya'ni to'g'ri so'nadi.

Fayalit (Fa) – Fe_2SiO_4 . Sof temirli xilida $\text{FeO}-76\%$ $\text{Ng} = 1,846$; $\text{Nm} = 1,836$; $\text{Np} = 1,804$; $\text{Ng} - \text{Np} = 0,042$. kristallari shakliz, ba'zan taxtachasimon yoki kalta prizmatik bo'ladi. Rangi to'q sariqdan qoramtil yashilgacha. Shishadek yaltiraydi, ba'zan olmosga o'xshash bo'ladi. Relyefi va g'adir-budir yuzasi aniq, interferensiya rangi yuqori va so'nishi ajralish (ulanish) tekisligiga parallel bo'ladi.

Olivinlarning nur sindirish ko'rsatkichi va nur sindirish kuchi aniq bo'lsa, maxsus diagramma asosida ularning kimyoviy tarkibini aniqlash mumkin.

Olivinlarga xos muhim xususiyatlardan yana biri magma'dan hosil bo'lgandan so'ng keyingi jarayonlar ta'siriga bardosh bera olmasdan o'zgarishidir, natijada ikkilamchi minerallardan serpentin, iddingsit va bouldingit hosil bo'ladi. Bu o'zgarishlar kristallarning ulanish chiziqlari orqali chekka qismidan ichkariga qarab boradi va u chiziqlarga parallel holatda juda ingichka tolalardan iborat xrizolit hosil qiladi. Serpentinlanish jarayoni tufayli olivinlarda to'rsimon tuzilishlar hosil bo'lib, uning o'rta qismlarida o'zgarmagan olivin qoladi va keyinchalik butunlay tolasimon xili xrizolitga aylanib ketadi.



23-jadval

Olivinlarning kimyoviy tarkibi (Dir, Xaui, Zusman, 1965)

Oksidlar	3	10	12	13	14	15	16	18
SiO ₂	40,7	39,87	37,33	38,11	34,96	34,04	31,85	30,15
TiO ₂	-	0,03	0,09	-	0,0	0,43	0,01	0,2
Al ₂ O ₃	0,6	-	0,18	0,00	-	0,91	-	0,07
Fe ₂ O ₃	1,6	0,86	1,6	0,15	-	1,46	0,11	0,43
FeO	4,47	13,20	21,58	31,48	36,47	40,37	58,6	65,02
MnO	0,32	0,2	0,27	0,22	0,52	0,68	0,85	1,01
MgO	51,84	45,38	38,13	30,05	27,04	20,32	8,49	1,05
CaO	-	0,25	0,38	0,2	0,1	0,81	0,18	2,18
Na ₂ O	-	0,04	0,03					
K ₂ O	-	0,01	0,05					
Jami	100,04	100,3	99,94	100,48	100,58	99,11	100,13	100,11

10.25. PIROKSENLER GURUHI

Piroksenler guruhiiga oid minerallar o'ziga xos metasilikat bo'lib, kris-tall tuzilishlarida SiO₄ tetraedrlarining uzlusiz zanjirini hosil qiladi. Barcha xususiyatlari va tabiatda uchrashi sharoitlariga ko'ra, yuqorida ko'rib o'tilgan olivin minerallariga o'xshab ketadi. Ba'zan farqi shundan iboratki, uning alohida-alohida kristallari odatda bir yo'nalishda cho'ziq bo'ladi. Bu hol Si-O-Si orasidagi qutbiy xarakterga ega bo'lgan ulanishing shu zanjirlar orasida joylashgan kichik zaryadli Ca⁺², Mg⁺² va Fe⁺² metall kationlarining bog'lanishiga qaraganda mustahkamroq bo'lishi bilan bog'liqidir. Shuning uchun ham kristallarining "C" o'qi bo'yicha ajralishi va zanjirlarning uzilishi osondir.

Piroksenlarda ulanish tekisligi ortosilikatlar (olivinlar)dagiga nisbatan aniqroq namoyon bo'lib, u prizma bo'yicha – kristallari bo'yiga qarab o'tadi; nur sindirish va nurni ikkilanib sindirish kuchi olivin minerallariga qaraganda kichikroq bo'ladi.

Bu o'rinda piroksen va amfibollar bir-biriga o'xshash bo'lishi bilan bir qatorda, ba'zi bir xossalari bilan farq qiladi. shulardan muhimlari quyidagilardir: a) rentgenometrik tekshirishlardan ma'lum bo'lishicha, piroksenlarning kristall tuzilishida kremliy, kislород тетраедрлари

ifodasi $[SiO_3]$ ∞ bo'lgan anion radikallari sodda bir qator zanjir hosil qilsa, amfibol tuzilishida esa ifodasi $[SiO_4]$ ∞ bo'lgan ilk qatorlik zanjir sifatida ishtirok etadi; b) piroksen guruhiiga mansub kristallarda konstitusyon suv bo'lmaydi; piroksen va amfibollarning zanjir bo'yicha parallel prizmatik ularish tekisligining burchaklarida farqi bor, ya'ni piroksenlar (110) bo'yicha 370 burchak hosil qilib, prizmalarga o'xshab ajraladi. amfibollarda ajralish darzliklari (100) bo'yicha o'tib, o'zaro 560 burchak hosil qiladi.

Piroksenlar guruhiiga mansub bo'lgan minerallar kristallangan singoniyalar va optik belgilariga qarab ikki guruhga: 1) rombik piroksenlar yoki ortopiroksenlar (Orx) va 2) monoklin piroksenlar yoki klinopiroksen (Srx) ga bo'linadi.

Rombik piroksenlar (Orx) enstatit – [En] – $Mg_2[Si_2O_6]$ va ferrosilit (Fs) – $Fe_2[Si_2O_6]$ metasilikatları uzlusiz izomorf aralashma qatorini hosil qiladi. Bularidan ortopiroksenlar xondritlar va o'ta asosli jinslarda olivinlar bilan birga uchrasa, ko'pincha asos magmatik tog' jinslarida (norit, traktolit) hamda bazalt, andezit vulkanik jinslarda monoklin piroksen va amfibollar bilan birga uchraydi.

Ba'zan rombik piroksen charnokit (nordon) tog' jinslarda va eklogitlarda (regional metamorfizmning yuqori darajasi) hosil bo'ladi. Rombik piroksenlar tarkibidagi ferrosilit (Fs) – $Fe_2[Si_2O_6]$ miqdoriga qarab ular quyidagilarga bo'linadi: enstatit (FS90-10), bronxit (FS10-30), gipersten (FS30-50), ferrogipersten (FS50-70), evlit (FS70-90) va ferrosilit (FS90-100). Rombik piroksenlarning tarkibida temir molekulasingin miqdori ortishi bilan ularning nur sindirish ko'satkichi, undan o'tayotgan nuring yo'llar farqi va mineralni solishtirma og'irligi hamda boshqa optik xususiyatlari kuzatiladi (7-8 jadval).

Enstatit – (En) – $Mg_2[Si_2O_6]$ – yunoncha "enstates" – qiyin eruvchan degan so'zdan kelib chiqqan. Rombik singoniyali. Shrifda rangsiz, pleoxorizmi yo'q. Nurlaming yo'li farqi (Ng-Np) kichik – 0,007-0,009; shuning uchun interferensiya rangi birinchi tartibli. Optik indiktrasi o'qlarining ishorasi kristallografiya o'qlariga mos ($a = Np$, $b = Nm$, $c = Ng$), optik o'qlarining tekisligi (010) bo'yicha joylashgan, kristallarinig uzayish belgisi musbat: qattiqligi – 5,5; ularish tekisligi (110) prizma bo'yicha o'rtacha bo'lib, shu tekisliklar orasidagi burchak 87%, solishtirma og'irligi 3,1; shishadek yaltiraydi, singan joyi esa oq sadaf rangli bo'ladi.

Gipersten – (FS30-50) – (Mg, Fe)2 [Si₂O₆] yunoncha “giper” va “stenos” – pishiq so’zlardan kelib chiqqan. Rombik singoniyalı, nur sindirish ko’rsatkichi yuqori (24-jadval). Odatda to’g’ri so’nadi. Interferensiya rangi to’q sariqgacha o’zgarib, birinchi tartibli bo’ladi. Prizma shaklidagi kristallarning ko’ndalang kesimi kvadratga o’xshaydi. Pleoxorizmi kuch-siz, ammo Ng – och yashil va Np bo'yicha binafsha ranglari kuzatiladi, ana shu belgilari bilan rombik piroksenlardan ajralib turadi.

24-jadval
Piroksenlar guruhiiga mansub minerallarning
optik xususiyatlari

Minerallar	Kimyoviy ifodasi	Ng	Nm	Np	Ng-Np
Rombik piroksenlar					
Enstatit (En00-90)	Mg ₂ [Si ₂ O ₆]	1,658	1,653	1,650	0,008
Bronzit (En70 Fs30)	(Mg, Fe) ₂ [Si ₂ O ₆]	1,650	1,668	1,665	0,005
Gipersten (En50 Fs50)	(Mg, Fe) ₂ [Si ₂ O ₆]	1,731	1,728	1,715	0,015
Ferrosilit (En10 Fs90)	Fe ₂ [Si ₂ O ₆]	1,788	1,700	1,768	0,02
Monoklin piroksenlar					
Diopsid	Ca Mg [Si ₂ O ₆]	1,694	1,671	1,664	0,030
Gedenbergit	Ca Fe [Si ₂ O ₆]	1,741	1,723	1,716	0,025
Avgit	Ca Mg Fe Al [(Si ₂ Al)O ₆]	1,800	1,780	1,750	0,050
Jadeit	Na Al [Si ₂ O ₆]	1,673	1,663	1,658	0,025
Egirin	Na Fe [Si ₂ O ₆]	1,730	1,710	1,700	0,070
Spodumen	Li Al [Si ₂ O ₆]	1,679	1,669	1,663	0,026

Monoklin piroksenlar. Diopsid Ca Mg [Si₂O₆] va Ca Fe [Si₂O₆] molekulalarining izomorf qatorining chekka birikmalaridan iborat bo'lib, ularning kristall tuzilmalarida ba'zan bir-biri bilan o'rinn almasha oladigan Mg⁺², Fe⁺², shuningdek, Sa, ayrim hollarda Na⁺¹, Li⁺¹ bilan Fe va Al⁺³ kationlari ishtirok etadi. Tarkibiga ko'ra, shu qator o'tasida joy olgan xili salit va ferrosalit deyiladi.

Diopsid – (Di) (Ca, Mg) [Si₂O₆] (yunoncha "di" – ikki (qo'shaloq) va "oppis" – yuzaga kelish, ya'ni qo'shaloq birikma ma'nosini anglatadi). Kristallari prizmatik ko'rinishda bo'ladi, odatda (100) va (010) pinakoid yonlari ko'proq kalta ustunsimon shaklga ega. Rangsiz, ko'proq och xira

25-jadval
Piroksenlarning kimyoviy tarkibi
(Dir, Xaxi, Zusman, 1965)

Oksidlar	1	6	8	25	31	35
SiO ₂	59,92	55,02	54,11	46,91	48,21	46,56
TiO ₂	-	0,12	0,19	0,51	0,17	0,03
Al ₂ O ₃	0,00	2,69	1,52	8,26	1,37	0,23
Fe ₂ O ₃	0,00	1,81		3,02	1,46	0,20
FeO	0,38	7,18	15,73	19,88	36,9	48,1
MnO	39,51	32,13	27,03	20,02	10,45	3,70
MgO	0,32		1,16	0,34	0,43	0,77
CaO		0,02		0,01		
Na ₂ O		0,1		0,06		
K ₂ O		0,21		0,30		
Jami	100,13	99,30	99,74	99,40	98,99	99,59

yashil (mosh rang) yoki kulrang bo'ladi. Shishadek yaltiraydi, qattiqligi 5,5-6; ancha mo'rt, solishtirma og'irligi 3,27-3,38. so'nish burchagi S : Ng = 38-460. Pleoxorizmi sezilarli bo'lib, Ng ~ och qo'ng'ir-yashiitsimon, Np ~ och yashil. Diopsid kristallida qo'shaloqlanish (100) va (001) yo'nalishi bo'yicha oddiy va polisintetik qo'shaloqlar hosil qildi.

Gedenbergit – Ca Fe²⁺ [Si₂O₆] – birinchi marta tekshirgan Shvet-siyalik kimyogar L.Gedenberg nomi bilan atalgan. Ko'rinishi prizmatik, rangi to'q yashildan qoramtil yashilgacha, mikroskop tagida och yashil, qo'ng'ir yashil. Shishadek yaltiraydi, qattiqligi 5,5-6. Mo'rt, ulanish tekisligi 870 burchak bilan (110) yo'nalishi bo'yicha. Solishtirma og'irligi 3,5-3,6. Pleoxorizmi ancha sezilarli bo'lib, Ng o'qi bo'yicha yashil va Np o'qi bo'yicha och yashil. So'nish burchagi (C : Ng) 47-480.

Avgit – (Ca, Mg, Fe+2, Fe+3, Ti, Al)2 [Si, Al]2 O6]. Nomi yunoncha “avge” – yaltirash so‘zidan kelib chiqqan. Shakli kalta ustunsimon, taxtachasimon, ba’zan izometrik (110) prizmalarining yonlari pinakoid yonlariga qaraganda ko‘proq taraqqiy etganligi bilan farq qiladi. O‘ziga xos belgilardan biri kristallari ko‘ndalang kesimining tomonlari bir-biriga teng bo‘lgan sakkiz burchaklik shaklida bo‘lishidadir. U qora, qo‘ng‘ir-qora, gohida to‘q yashil ranglarda uchraydi. Shishadek yaltiraydi, qattiqligi – 5-6. Solishtirma og‘irligi – 3,2-3,6. shlifda rangsiz, och qo‘ng‘ir, qo‘ng‘ir, och yashil-qo‘ng‘ir, och yashil. Pleoxorizmi sezilarli, ammo titanga boy avgitning pleoxorizmi kuchli bo‘ladi. Ng – och yashil, binafsha, Np – och yashil, yashil, sariq-yashil. Ba’zan kesishgan nikollarda qaralganda (010) yo‘nalishida o‘ziga xos “qum soati” shaklidagi konsentrik so‘nish hosil bo‘ladi. So‘nish burchaginiq qiymati (C : Ng) 35-480 ga teng. Shuni qayd etish lozimki, optik o‘qlarining qiymati (2V) tarkibidagi kalsiyning miqdoriga to‘g‘ri bog‘liq (SaO oshishi natijasida miqdori o‘sabordi). G‘adir-budir yuzasi va relyefi aniq ko‘rinadi.

Egirin – nomi islandcha “egir” – dengiz xudosi so‘zidan kelib chiqqan. Ishqorga boy jinslar tarkibida uchraydi. Optik xususiyati manfiy. 2 V = – 60-700. So‘nish burchagi (C : Ng) 0-100 Uning oddiy va polisintetik qo‘shaloqlari (100) bo‘yicha rivojlangan. Odatda cho‘ziq, prizmatik, ustunsimon, ignasimon shakllarda uchraydi. Ulanish tekisligi 870 bilan prizma bo‘yicha aniq ko‘rinadi. Yashil, to‘q yashil, qo‘ng‘ir, shlifda och yashildan to‘q yashilgacha, shishadek yaltiraydi, qattiqligi – 5,5-6. Solishtirma og‘irligi – 3,43-3,60. Pleoxorizmi kuchli: Ng – qo‘ng‘ir yashil, Np – to‘q yashil, egiringa xos belgi uning teskari absorbsiyaligidir (Ng < Nm < Np). G‘adir-budir yuzasi va relefli juda aniq, interferensiya rangi juda kuchli.

Jadeit (ispancha “pidra de jada”) – buyrak tosh degan ma’nani anglatadi – juda kam uchraydigan piroksen. Optik xususiyati manfiy, so‘nish burchagi (C : Ng) 30-400, optik o‘qlar burchaginiq qiymati 2V = – 67-700. Optik o‘qlarining tekisliklari (010) bo‘yicha kristallarining uzayish belgisi manfiy, rangi yashil, yashil-ko‘k, shlifda rangsiz. Kristallari kam, zirapchasimon yuzalar hosil qilib sinadi, shishadek yaltiraydi. Juda qovushqoq, natijada shlifda bir-biri bilan chirmashgan tolalar shaklida ko‘rinadi, ammo ancha mo‘rt.

III BO'LIM

11 MINERALLARNING TABIATDA HOSIL BO'LISHI

11.1 Yer po'sting tuzilishi va tarkibi. Yer po'sti – bu Yer sharning eng yuqori qavati bo'lib, yuqori mantiyadan Moxorovichich chizig'i bilan chegaralanadi. Yer po'sting kimyoviy va mineralogik tarkibi haqidagi bilimlar sayyoramizning ustki qismlarida olib borilgan kuzatishlarga asoslanadi. Yer po'sting qaliligi okeanlarda 3-10 km bo'lsa, qitalarda 80 km gacha yetadi (Pomir).

Yerning ichki qismlari mantiya va markazning tuzilishi va tarkibi haqda geofizik ma'lumotlar, boshqa kosmik jismlar bilan taqqoslash, meteoritlarni o'r ganish dalillariga asoslanib fikr yuritiladi.

26-jadval
Yerning geosferalari haqida ma'lumotlar

Geosferalar	Geosferaning bo'limlari	Balgisi	Pastki chegaraning chuqurligi
Yer po'sti	1. Cho'kindi – metamorfik jinslar 2. Granit-gneys 3. Eklogit – bazalt	A	20 km gacha 40 km gacha 70 km gacha
Mantiya	1. Substrat-gutenberg qatlami 2. Astenosfera – Golitsin qatlami 3. Quyi mantiya	V S D	100-400 km gacha 900 km gacha 2900 km gacha
Yer mag'zi (yadro)	Tashqi mag'iz Mag'iz	G' G' G	4800 km gacha 5100 km gacha 6371 km gacha

Keyingi 50 yillik geologik izlanishlar natijasi bo'yicha Yer shari uch qismga bo'linadi: Yer po'sti, mantiya va yadro (mag'iz). Yer po'sti o'z navbatida a) cho'kindi-metamorfik jinslar; b) granit-gneys va v) bazalt qavatlaridan tashkil topgan. Hozirgi kunda 1-qatlam (bazalt), 2-qatlam (granit) degan yangi tushunchalar paydo bo'ldi. Yer po'sti qaliligi geofizik ma'lumotlarga ko'ra, okean tublarida 5 – 10 km, kontinent tekisliklarda 30 – 40 km va tog'li (ogen) o'lkalarda esa 50 – 75 km

atrofida. Ushbu qavatlar bo'y lab o'tayotgan seysmik to'lqinlarning tezligi ancha o'zgaruvchan bo'lib, cho'kindi-metamorfik jinslardan 3 – 5 km/sek, granit-gneyslardan 5,5-6,5 km/sek va bazatlardan – 6,6-7,2 km/sek. Ma'lum bo'lishicha bu qavatlarning qalinligi o'zgaruvchan. Bulardan bir-inchi qavat cho'kindi jinslar qadimiy qolqonlarda (Aldan, Baltik) yo'q hisobi, kontinent (platformalarda) 5 km gacha bo'lsa, orogen o'lkalarda ularning qalinligi 15 kmni tashkil etadi. Xuddi shuningdek, Yer po'stining ikkinchi qavatining granit-gneys qalinligi platforma o'lkalarda 15 – 20 km atrofida bo'lsa, tog'li hududlarda 20 – 25 kmni tashkil etadi. Uchinchi qavat – bazatlarning qalinligi platformalarda 15 – 20 km, orogenik hududlarda 25 – 35 km orasida bo'ladi.

Yer po'stining kimyoviy tarkibi (og'irligi bo'yicha % hisobida) V.I.Vernadskiy, V.M.Goldshmidt, I.V.Nordak, G.Geveshi va boshqalar ma'lumotlari asosida keltiriladi.

27-jadval
Yer po'stining kimyoviy tarkibi (% hisobida)

Komponentlar	F.Klark	V.Goldshmit	A.Beus	B.Lutts	A.Ronov A.Yaroshevskiy
SiO ₂	60,3	60,5	60,6	63,0	59,3
TiO ₂	1,0	0,7	1,0	0,6	0,7
Al ₂ O ₃	15,6	15,7	16,1	15,7	15,0
GeO ₂	3,2	3,3	3,1	2,1	2,4
GeO	3,8	3,5	–	4,0	5,6
MnO	0,1	0,1	0,2	0,1	0,1
MgO	3,5	3,6	5,3	3,6	4,2
SaO	5,2	5,2	3,8	5,0	7,2
Na ₂ O	3,8	3,9	2,2	3,4	2,5
K ₂ O	3,2	3,2	2,0	2,5	2,1
P ₂ O ₅	0,3	0,3	0,2	–	0,2

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar Yer po'stining o'rtacha miqdori deb qabul qilingan.

Yer po'stining mineral tarkibi to'g'risida turli fikrlar mavjud.

Yer po'stining mineral tarkibi N.P.Yushkin, 1975 bo'yicha quyidagicha (% hisobida) – silikatlar-75, oksidlar-17, xromatlar-3,5, karbonatlar-1,7, sulfidlar-1,15, fosfatlar-0,7, sulfatlar 0,5 va boshqalar-0,6.

A.Poldervart (1954) bo'yicha Yer po'stining tuzilishida quyidagi jinslar qatnashadi: granodiorit – 70,8%, diorit va andezitlar – 10,3% va bazaltilar – 48,9%.

28-jadval
Yer po'stining o'rtacha mineral tarkibi (% hisobida)

Minerallar	Berg bo'yicha	Fersman bo'yicha
Plagioklaz	40,2	55
Ortoklaz	17,7	
Orto va metasilikatlar	16,3	15
Kvars va turlari	12,6	12
Magnetit va gematit	3,7	3,0
Slyudalar	3,5	3,0
Kalsit	1,5	1,5
Gil minerallari	1,0	1,5
Limonit va gidroperit	0,3	0,3
Dolomit	0,1	0,1
Fosfatlar	–	0,75
Sulfidlar	–	0,3
Ftoridlar	–	0,2
Aksessor minerallar	2,5	–

Yerning ichki tuzilishi va mineral tarkibi A.E.Ringvud, 1981 quyidagi raqamlarni keltiradi:

29-jadval
A. Granit-gneys qatlami (4-15 km) mineral tarkibi

Minerallar	Miqdori % hisobida
Kalishpat	31
Plagioklazlar	29,2

Kvars	12,4
Piroksenlar	12,0
Ma'dan minerallari	4,1
Biotit	3,8
Olivin	2,6
Rogovaya obmanka	1,7
Muskovit	0,6

30-jadval

**B. Bazalt qavati mineral tarkibi kontinentlarda
(30-50 km va 10-12 km okean tubi)**

Minerallar	Miqdori % hisobida
Rogovaya obmanka	33
Monoklinal piroksen	20,6
Dala shpatlari	14
Kvars	11,9
Granatlar	9,5
Epidot	5,8
Kianit	4,4
Ma'dan minerallari	0,4

31-jadval

V. Yuqori mantiya mineral tarkibi (400 km gacha)

Minerallar	Miqdori % hisobida
Olivin (forsterit)	57
Rombik piroksen	17
Omfatsit	12
Granat	14

32-jadval

**Yer po'stining tuzilishini tashkil qiluvchi jinslar turlari
(A.B.Ronov va A.A.Yaroshevskiy bo'yicha)**

Jinslar	Er po'stidagi hajmi (% hisobida)
1. Qum va qumtoshlari	1.83
2. Gillar va gilli slaneslar	4.48
3. Karbonatlar	2.79
4. Tuzli qazhamdar	0.09
5. Granitoidlar va nordon vulkanitlar	20.86
6. Gabbro - bazaltlar	50.34
7. Dunit, peridotitlar	0.07
8. Sienit, nefelini sienitlar	0.04
9. Kristallik slaneslar	06.91
10. Metamorfik karbonat jinslar	0.69
11. Temirli jinslar	0.17
Jami:	100

33-jadval

**Yer po'stining kimyoiy tarkibi
(A.P. Vinogradov bo'yicha % hisobida)**

I. O – 47,0 Si – 27,5	IV. Mn-0,09 S – 0,09 R – 0,08 Va – 0,05 S1 – 0,01 Sg – 0,04 Rb – 0,03 G – 0,03 Sg – 0,02 Zr – 0,02 V – 0,01 Sa – 0,01 Ni – 0,01	VII. Sc – 6*10-5 Sd – 5*10-5 Sb – 4*10-5 Bi – 2*10-5 Ag – 1*10-5
--------------------------	---	--

II. A1 - 8,6 Ge - 5,0 Sa - 3,5 Na - 2,5 K - 2,5 Mg - 2,0	V. Ni - 0,008 Li - 0,006 Si - 0,004 Sn - 0,004 Sr - 0,003 Y - 0,003 La - 0,002 Rb - 0,002 Sa - 0,001 Nb - 0,001	VIII. Hg - 7*10-6 Os - 5*10-6 Rd - 1*10-6 Te - 1*10-6
III. Ti - 0,6 N - 0,15 C - 0,1	VI. Th - 8*10-4 Ss - 7*10-4 Ve - 6*10-4 Sc - 6*10-4 As - 5*10-4 Ns - 3,2*10-4 Mo - 3*10-4 V - Z*10-4 U - Z*10-4 Tl - Z*10-4 Ta - Z*10-4 W - 1*10-4	IX. Au - 5*10-7 Rt - 5*10-7 Ru - 5*10-7 Zr - 1*10-7 Rh - 1*10-7 Re - 1*10-7

11.2 Mantianing tuzilishi va tarkibi. Mantiya Yer po'sti bilan o'zagi (yadroisi) orasida joylashgan qatlam, quyi chegarasi Yer yuzasidan taxminan 2900 km chuqurlikgacha boradi. Mantiya asosan magniy va temirdan iborat og'ir minerallardan tashkil topgan. Yer po'stida ro'y beradigan tektonik harakatlar, magmatik jarayonlar va boshqalar mantiya bilan uzviy bog'liq. Yuqori mantianing o'ziga xos xususiyatlaridan eng muhimmi Yer po'stida joylashgan o'ta asos va qoldiqli bazalt magma hosil qilishdir. Yuqori mantianing birlamchi kimyo-viy tarkibi D.X.Grin va A.E.Ringvud fikricha pirolit tarkibiga juda yaqin (34-jadval).

34-jadval
Yuqori mantyaning kimyoviy tarkibi % hisobida
(D.X.Grin, A.E.Ringvud bo'yicha)

Komponentlar	Pirolit	Piroksenli pirolit	Granatli pirolit
	Piroksent+olivin	Olivin+piroksen+shpinel	Olivin+piroksen+piropli granat
SiO ₂	43,06	44,69	45,58
MgO	39,32	39,8	39,22
GeO	6,66	9,54	6,41
Ge ₂ O ₃	1,66	0,09	0,27
Al ₂ O _e	3,99	1,11	2,41
SaO	2,65	2,42	2,10
Na ₂ O	0,61	0,18	0,24
K ₂ O	0,22	0,05	-
Sg ₂ O _e	0,42	0,45	-
NiO	0,39	0,26	-
SoO	0,02	-	-
TiO ₂	0,58	0,08	0,12
MnO	0,13	0,14	0,12
R ₂ O ₅	0,08	0,04	0,03
H ₂ O	0,21	0,43	-

Bunday tarkib bir qism bazalt va uch qism peridotitdan tashkil topgan jins tarkibiga to'g'ri keladi. Yuqori mantiya sharoiti – muhitida pirolit tarkibli magmadan yuqori bosim va kuchli haroratning o'zgarishi bilan bog'liq ravishda mineral tarkibi turlicha bo'lgan jinslar kristallanishi mumkin. Jumladan, 1) olivin, rombik piroksen va plagioklaz (plagioklazli pirolit); 2) olivin, pirokseni va shpinelli (piroksenli); 3) olivin, pirokseni va granatli (granatli pirolit) jinslar hosil bo'ladi. Granatli peridotitlar shpinelli peridotitlarning birmuncha yuqori haroratda yuzaga kelgan turlari. Mantiyada minerallarning bir necha assotsiatsiyada ishtirok etishi, ularning bosim va haroratda barqarorlik darajasining yuqori ekanligidan xabar beradi. Geofizik va petrologik ma'lumotlariga asosan mantyaning yuqori qismining moddalari tarkibiga ko'ra, – dunit, peridotit va eklogitlar tarkibiga to'g'ri keladi. Yuqori mantyaning mineralogik tarkibi haqidagi mavjud fikrlar quyidagi ma'lumotlarga asoslanadi:

1. Kontinentlarda keng maydonlarni egallagan dunit, peridotit tarkibli intruzivlarning mavjudligi.
2. Bazalt vulqon jinslari orasida tez-tez uchrab turadigan begona (ksenolit) holda dunit va peridotit bo'laklarining (ksenolit) borligi.
3. Okean tubidan olingan jinslarning kimyoviy tarkibi o'ta asos jinslarga yaqin bo'lishi.

Kimberlitlarning o'ta asos tarkibliligi.

Meteorit jismlari tarkibiga ko'ra, o'ta asos jinslarga o'xshashligi va ni-hoyat keyingi yillar davomida laboratoriya usulida yuqori bosim va kuchli harorat ostida olib borilgan eksperiment ishlarining samaralari yuqorida bildirilgan nazariyalarning to'g'riligiga ishonch hosil qiladi. P.Garris yuqori mantiyaning mineral tarkibini quyidagicha ifodalaydi.

35-jadval
Mantiyaning mineral tarkibi (% hisobida)

Minerallar	Yuqori mantiya	Quyi mantiya
Olivin	65,3	67,0
Rombik piroksen	21,8	12
Monoklinal piroksen	11,3	11,0
Pirop, shpinel	1,5	10,0

Mantiyaning quyi qismida – 400-500 km atrofida 160-180 kbar bosim ta'sirida olivin va piroksenlar kristall panjarasi tuzilishida zichroq birikmalar oksidlariga ajraladi degan fikrlar mavjud: $Mg_2 [SiO_4]$, $2MgO + SiO_2$.

Shunday qilib, silikatlarning parchalanishi natijasida oksidlarga ajralishi mumkin. MgO – periklaz, SiO_2 – stishovit, Al_2O_3 – korund, TiO_2 – rutil va boshqalar.

Yer po'stining mineralogik modeli. Ma'lumki, Yer po'sti turli tog' jinslaridan tashkil topgan. O'z navbatida tog' jinslarining Yer po'stining mineralogik tarkibi har xil. Geofizik ma'lumotlar asosida yer qobig'i uch pog'onaga ajratilgan. Yer po'stining yuqori qavati, cho'kindi va metamorfik jinslardan iborat bo'lib, ular xilmay-xil minerallardan tashkil topgan. Yer po'sti qita va okean tuzilishidagi turlarga (geostrukturalarga) bo'linadi. Bulardan keng tarqalgan-

lari va puxta o'rganilganlari qit'a yer po'sti hisoblanadi. Okean yer po'sti haqidagi dalillar ham kengaymoqda. Qit'alar Yer po'stining yuqori qismi-kvars, karbonat (kalsit va dolomit), qavatlari silikatlar – gil minerallari, xlorit, slyudalardan tashkil topgan. Chuqurroq qismi granit-gneyslar T.Bart bo'yicha nordon magmatik jinslar tarkibiga mos bo'lib, quyidagi minerallardan tashkil topgan (% hisobida): kaliyli dala shpatlari-31, plagioklaz – 29,2, kvars – 12,4, piroksen – 12, ma'dan minerallari – 4,1, biotit-3,8, olivin-2,6, rogovaya obmanka – 1,7, muskovit-1,4, apatit-0,6, xlorit va serpentin – 0,6, nefelin-0,3, sfen – 0,3 va boshqalar. Ushbu qavatda tabiatda uchraydigan minerallarning aksariyat qismi yuzaga keladi. Ikkinchi qavat – "granulit-bazalt" qismi tomon, temir va magniyli minerallarni turlari, ayniqsa, piroksen va amfibollar miqdori ortib boradi. A.E.Ringvud ma'lumotlariga ko'ra, "granulit-bazalt" qavatining mineral tarkibi (% hisobida): rogovaya obmanka – 39, piroksen – 20,5, plagioklaz – 24, granat – 9,5 va boshqa minerallar.

Yer qobig'ining pastki qismi, ya'ni "Moxorovichich" chizig'idan chuqurda bo'lgan yuqori mantiya, asosan o'ta asos jinslar tarkibiga mos bo'lib, quyidagi minerallardan iborat (% hisobida): olivin-57, piroksen-29, granat – 14.

Yer qobiqlari bo'y lab fizik-kimyoiy sharoitlari xilma-xil, shuning uchun ham qatlam bo'y lab minerallarning turlari va miqdori sezilarli darajada o'zgaruvchan bo'ladi. Yer qobig'ini tashkil qiluvchi minerallarni konstitutsiyasiga (tarkibiga, tuzilishiga) ko'ra, 4 guruhga: gomoatomli, sulfidli, kislrodli va silikatli birikmalarga bo'linadi. Shulardan kislrodli barcha mayjud birikmalar minerallarning 75,1% ni tashkil etadi, undan keyin sulfid va ularga o'xshashlar (arsenidlar, telluridlar, vismutitlar, antimonitlar va boshqa minerallar) kiradi.

11.3. Magmatik jarayonlar. Magmatik jarayon – bu magmaning kelib chiqishi; hosil bo'lgan magmaning tarkibiy qismlariga ajralishi; turli tarkibli magmalarning o'zaro bog'liqligi kabi masalalarni o'z ichiga oladi. Magmalar hosil bo'lishiga ko'ra, mantiya va qobiq magmalarga bo'linadi. Magmaning birlamchi tarkibi magmani hosil qiluvchi moddaning tarkibi va yuzaga kelish jarayoni hamda muhit bilan bog'liq bo'ladi. Ko'p tadqiqotchilar yuqori mantianyaning birlamchi tarkibi peridotitlardan iborat deb hisoblaydilar. Ushbu nazariya bazalt va kimberlitlar orasida saqlanib qolgan jins qoldiqlari

(ksenolitlar)ga asosan, amaliy tadqiqotlar tajribasida sinab ko'rilgan. Bulardan tashqari, yuqori mantiyadan seysmik to'lqlarning o'tish tezligining vaqtiga asoslangan.

Yuqori mantianing o'ziga xos xususiyatlardan eng muhimi yer po'stida sodir bo'ladigan geologik jarayonlar natijasida giper-bazit va qoldiqli bazalt magma hosil qilishidir (A.P.Vinogradov, A.E.Ringvud va D.X.Grin). Yuqori mantianing birlamchi kimyoiyi tarkibi A.E.Ringvud fikricha pirolit tarkibiga juda yaqin (SiO_2 -46,16; MgO -37,49; FeO -8,04; Fe_2O_3 -0,46; CaO -7,08; Al_2O_3 -3,54; Na_2O -0,57; K_2O -0,13; Cr_2O_3 -0,43; NiO -0,2; CoO -0,17).

Bunday tarkib bir qismi bazalt va uch qismi peridotitga to'g'ri keladi.

Yuqori mantiya turli sharoitda va muhitda o'ta asos tarkibli magmadan yuqori bosim va kuchli haroratning o'zgarishi bilan bog'liq mineral tarkibi tog' jinslar kristallanadi. Jumladan, 1) olivin, rombik piroksen va plagioklazli (plagioklazli pirolit) jinslar; 2) olivin, piroksen va shpinelli (piroksenli pirolit) jinslar; 3) olivin, piroksen va granatli (granatli pirolit) jinslar hosil bo'ladi.

Granatli peridotitlar, shpinelli periodotitlarning birmuncha yuqori haroratda yuzaga kelgan turidir. Mantiyada minerallarning bir necha assotsiatsiyada ishtirok etishi, ularning turli bosim va haroratda barqarorlik darajasining yuqori ekanligi bilan bog'liq.

Yuqorida ko'rsatilgan mineral assotsiatsiyalaridan granat va shpinelli periodotitlar assotsiatsiyasi ko'proq uchraydi. Moxorovichich chegarasidan pastda shpinelli periodotitlar joylashgan bo'lib, uning qalinligi geotermik gradient bilan Yer po'stining qalinligiga bog'liq. Kontinental qobiq ostida bevosita granatli periodotitlar joylashadi.

V.V.Belousov va V.A.Magnitskiylar geofizik, petrologik hamda eksperimental tekshirishlardan olingen ma'lumotlarga asoslanib kontinental qobiq ostidagi o'z tarkibiga ko'ra, granatli periodotitlardan iborat degan xulosaga kelganlar. Okeanik qobiq ostidagi mantianing tarkibi shpinelli (ertsolitli) periodotitlarga to'g'ri kelishi L.V.Dmitriev ishlarida o'z aksini topgan.

Tabiatda bazalt magmaning asosan ikki turi-toleit va olivinli ishqoriy turlari mavjud.

Ular kimyoiyi tarkibi ishqorlarning ($\text{Na}_2\text{O}+\text{K}_2\text{O}$) va kremniy oksidining miqdorlari bilan bir-biridan farq qiladi. Okean tubi va kontinental bazaltlar orasidagi farq avvalo mantianing okeanik va kontinental qobiq

ostidagi birlamchi farqi hamda shu mintaqalarda magmaning har xil fizik-kimyoviy va termodinamik sharoitlar natijasida yuzaga kelishi bilan bog'liq.

Granitlarning paydo bo'lishi masalasi fanning shu soha bo'yicha hozirgi zamon taraqqiyoti darajasida har tomonlama juda ko'p muhokama etilishiga qaramay hamon muammoligicha qolib kelmoqda.

Magmatik jinslar petrologiyasi muammolarining eng muhimini granitoid magmalarining paydo bo'lishi, yuzaga kelishi sabablari, kristallanishining fizik-kimyoviy muhit sharoitlarini aniqlash bilan bog'liq bo'lgan masalalar bilan shug'ullanadi. Keyingi yillarda granitoidlarning paydo bo'lishi bilan bog'liq masalalar ko'proq e'tiborni o'ziga jalb etmoqda, chunki juda ko'p ma'dan konlar shu jinslar bilan bevosita bog'liqidir.

Hozirgi davrda granitoidlarning hamda shunga yaqin tarkibli jinslarining erish suyuqlanish kristallanishini bosim, harorat, tarkibidagi suv miqdori va boshqa yengil-uchuvchan gazlar tarkibiy qismlarga bog'liq ligiga oid masalalar bo'yicha juda ko'p amaliy tajribalardan olingan ma'lumotlar bu muammoga bo'lgan qiziqishni yanada orttiradi.

Tajribalardan ma'lum bo'lishicha, quruq granit harorati 9000S, bosim 1 atm bo'lгanda eriy boshlaydi va harorat 9500S ga yetganda to'liq erib bo'ladi. Shuning uchun chuqurlikda eriyotgan moddaning tarkibidan qat'iy nazar, avval erigan moddaning boshlang'ich tarkibi bir xil, magmaning oxirgi tarkibi boshqacha bo'lib, u haroratga bog'liq. Agar harorat boshlang'ich qismining to'liq erishi uchun yetarli bo'lsa, magmaning tarkibi boshlang'ich jism tarkibi bilan bir xil: agar harorat boshlang'ich jismning to'liq erishi uchun yetarli bo'lmasa, past bo'lsa, hosil bo'lgan magma birmuncha nordon leykokrat tarkibiga ega bo'ladi. Erish jarayonida suv bosimining ortishi ham magmaning tarkibini o'zgarishiga sabab bo'ladi, asosan jins hosil qiluvchi minerallarning erish darajasini bir xil emas, turlicha pasaytiradi. Amalda tajribada sinab ko'riganidek, bu jarayonda suvning, ishqor elementlar va ftoning ishtirot etishi mineral va jinslarining erish haroratini 100 – 300°S gacha pasaytiradi. (Kadik va b., 1971). Tarkibida 9% suvi bo'lgan granit tarkibli jins 640°S da to'liq eriydi, 2% suvi bo'lгanda esa 20% eriydi (Menert, 1971). Shunday polimikt qumtoshlar suv bug'lari bosimida PH₂O 2 kbar 710°S da eriydi (Letnikov, 1975). Gillar RH₂O 1 kbar bosim, T 700°S harorat ta'sirida eriy boshlaydi, 810°da esa jinsning 40% dan 65% gacha qismi criydi (Dobretsov va b., 1970). Grauvakkalar yanada pastroq PH₂O 2 kbar bo'lгanda jinsning 70%

gacha qismi eriydi – suyuqlanadi. Keyingi yillar davomida Yer po'stida suvli, kamsuvli «quruq» magmatik jismlarning har xil harorat, suv bug'i bosimi ta'sirida o'ziga xos flyuidlari bo'lgan jinslarning hosil qilishi mumkinligini ko'rsatuvchi ishonchli ma'lumotlar to'plandi. Granitoidlar shunday magmatik mas'ul bo'lib, o'ziga xos mineralogik va kimyoiy tarkibga ega bo'ladi. (Kadik., 1975, Fershtater, 1969). Suvli magmalar T 650 – 700°S harorat ta'sirida, kam suvli «quruq» magma esa T 750 – 800°S da paydo bo'ladi va kristallananadi. Suvli magmalar ko'tarilish jarayonida ko'p suvni yo'qotish hisobiga sust siljiyidigan bo'lib qoladi. Kam suvli magmalar esa har qancha yuqoriga, hattoki Yer yuzigacha ko'tarilishi mumkin.

O'tkazilgan tajribalar asosida tarkibida 6% suvi, harorati 750°S, bosi mi 7 kbar (paydo bo'lish chuqurligi 25 km) bo'lgan magma yuqoriga ko'tarilar ekan, 1 km da 5°S ga soviydi; 10 – 12 km da erigan tarkibiy qismi butunlay kristallananadi. Granitoid magmaning paydo bo'lish chuqurligini yaqin-yaqingacha osonlikcha geotermik bosqich (1km da 30°S) asosida hisoblanadi. Bunday holda «granit» qatlami jinslarni erishi uchun zarur bo'lgan harorat T 750 – 950°S 25 – 30 km chuqurlikda yuzaga keladi. Shu bilan birga eriyotgan birlamchi moddadagi suvning miqdori magmaning paydo bo'lishi uchun etarli suv bug'i bosimiga ega bo'lgan litostatik sharoitga mos keladi. Granitoidlarning xilma-xilligi, eriyotgan birlamchi moddaning (jinsnning) tarkibi ham granitoidlarning kristallanish sharoitlari bilan bog'liq deb tushuniladi. Lekin keyinchalik metamorfik jinslarni o'rganish, granit jismlarni suvli muhitda hosil bo'lishi uchun zarur bo'lgan haroratdan ortiqroq haroratda ham barqaror ekanligini ko'rsatdi (Dobretsov, 1970). Shunday qilib, ikki piroksenli, biotit-sillimanithi va disitenli gneyslar granitning erish haroratidan yuqoriroq issiqlikda hamda qat-tiq holatda saqlanib qolaveradi. Ular tarkibida suv oz bo'lib, «quruq» moddalarning erishi qonuniga mos keladi.

Metamorfizmning turli fatsiyalari jinslari tarkibidagi suvning miqdori quyidagicha o'zgaradi: yashil slaneslar fatsiyasida 4-5%, amfibolitlar fatsiyasida 1-2%, granulit fatsiyasida – 0,3-0,4% va eklogit fatsiyasida yana ham kamroq miqdorda bo'ladi (Belousov, 1966).

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib granitoid jismlarning yuzaga kelishi haqida fikr yuritish mumkin. Granitoid magmalarning paydo bo'lishi bevosida Yer po'stida sodir bo'lgan burmalanish jarayonlari bilan bog'liq bo'lib, ungacha ko'tarilishi va kristallanishi asosiy burmalanish davridan (fazasida) keyin sodir bo'ladi. Shuning uchun bu jarayonni asosiy burmalangandan keyingi jarayon deb qarash mumkin.

Granitoidlarning intruzivli xususiyati: yon-atrofidagi jinslar bilan keskin chegarasidan, rogoviklarning paydo bo'lishidan, tarkibida cho'kindi va magmatik jins qoldiqlari mavjudligidan hamda yon-atrofdagi jinslar ichida granit apofizalari mavjudligidan ko'rindi.

Yer po'sti turli xil tog' jinslaridan tuzilgan. Tog' jinsi esa ma'lum shaklga, hajmga va yotish holatiga ega bo'lgan geologik jismlarni hosil qiladi. Ular turli mineral agregatlardan tuzilgan bo'lib, ma'lum tarkibga, ichki va tashqi tuzilishga egadir.

Tog' jinslari faqat bitta mineraldan (labradorit, olivinit, ohaktosh) yoki ko'p minerallardan (diorit, granodiorit) tashkil topgan bo'lishi mumkin. Tog' jinsining kimyoviy tarkibi uning qanday minerallardan tashkil topganiga bog'liqdir. Ammo shuni qayd etish lozimki, tog' jinsining kimyoviy tarkibini bitta formula orqali izohlash mumkin emas, chunki jinsn tashkil etgan minerallarning soni qat'yan bir xil bo'lmaydi. Garchi tog' jinslarning mineral va kimyoviy tarkibi o'zgaruvchan bo'lsada, ular tog' jinsini yetarli darajada aniq tariflaydigan omildir. Tog' jinslari ma'lum geologik sharoitlarda tarkib topadilar. Bunday sharoitlar tog' jinslarining yotish shakliga, tog' jinsidagi minerallarning xususiyatiga va ularning bir-biriga bo'lgan munosabatiga ta'sir ko'rsatadi.

Tog' jinslari bir-birlaridan yana fizik xossalari, ya'ni rangi, zichligi, mexanik mustahkamligi, eruvchanligi, g'ovakligi va boshqa xususiyatlari bilan farqlanadi. Tog' jinslari hosil bo'lishiga ko'ra, 3 ta guruhga bo'linadilar: 1) magmatik jinslar magmaning Yer po'stida sovib kris-tallanishdan tarkib topadi; 2) cho'kindi jinslar ekzogen (tashqi) jarayonlar natijasida magmatik va metamorfik jinslarning hosilalarini keyinchalik diagenez jarayoni (zichlanish, sementlansh) natijasida hosil bo'ladi; 3) metamorfizm-magmatik va cho'kindi jinslarning turli omillar ta'siridan o'zgarishi natijasida yuzaga keladi. Ammo, bu jinslar Yer po'stida bir xil tarqalmagan. Mutaxassis olimlarning hisoblashlariga ko'ra, litosfera 16-20 km chuqurlikda 95% magmatik va metamorfik jinslar bilan band va faqtgina 5% ni cho'kindi jinslar tashkil etadi. Ammo yer yuzasida cho'kindi jinslar ko'p, ya'ni yuzasining 75% cho'kindi jinslar va 25% ni magmatik va metamorfik jinslar qoplaydi.

Magma (yunoncha «Magma» – xamir) litosferada ma'lum qonuniyat asosida, murakkab fizik-kimyoviy jarayonlar natijasida hosil bo'lgan olovsimon silikatli eritma. Magma barcha elementlarning har xil miq-

dordagi yig'indisi bo'lib, gaz va qaynoq bug'larga to'yingan bo'ladi. Ko'pchilik olimlar fikricha, tabiatda to't xil magma mavjud – nordon, asos, o'ta asos va ishqorli. Yer yuzida uchraydigan barcha magmatik jinslar ana shu magmatik jinslar magmalarining hosilasi hisoblanadi. Magma tarkibining har xil bo'lishi litosferaning tuzilishiga, tarkibiga, ayniqsa, magmaning o'zida yuz beradigan differensiatsiya (ajralish, bo'linish) va assimilyatsiya (yutish)ga uzviy bog'liq. Magma Yer po'stining faolligi, rivojlanishi, issiqlik va tektonik evolyutsiyasi bilan yaqindan bog'liqdir. Magma o'chog'ining chuqurligi hozirgi zamon geologik fanlarning nazariyasiga binoan 20 – 25 km dan (litosferaning yuqorisi) va 100 – 700km gacha (mantianing ustki qismi)dir. Magmaning hosil bo'lgan joyidan litosferaning yuqori qismigacha ko'tarilishi to'g'risida fikrlar har xil, ulardan ba'zilari: 1) magmaning harakati kimyoviy tarkibiga, ayniqsa, harakatchan va uchuvchan elementlarga boy bo'lishiga bog'liq; 2) magma endogen (ichki) kuchga ega, u o'ziga yo'l ochib, atrofdagi jinslarni siqib, eritib va o'zlashtirib harakatlanadi; 3) magma vujudga kelgan joydagi jinslarning bosimi, yuqorida ta'sir etuvchi bosimdan ancha kattaligi tufayli yuqori tomon harakat qiladi; 4) tektonik harakatlar natijasida litosferani tashkil qiluvchi qatlamlarda yoriq va darzlik yuzaga keladi, bu esa o'z navbatida magmaning yuqoriga harakatlanishiga yordam beradi; 5) magmaning harakatchanligini yuzaga keltiradigan asosiy omillardan biri mineral fazalarning turg'unlik darajasi, ya'ni bir holatdan ikkinchisiga nisbatan turg'un holatga o'tishi, shu jarayonda eng kuchli issiqlik ajraladi. Ushbu omillar va boshqa qo'shimcha kuchlar magmaning yuqoriga ko'tarilishiga sabab bo'ladi. Magmatik jinslar magmaning sovishi, qotishi, kristallanishi natijasida yuzaga keladi. Ular o'z navbatida ikkiga bo'lindi: vulkanik va intruziv. Vulkanik jinslar Yer yuzida unga yaqin joylarda tez sovishi va qotishi natijasida shishasimon va juda mayda zarrali asosiy massaga ega bo'ladi. Intruziv jinslar magmaning yer po'stida sovib kris-tallanishi oqibatida vujudga keladi.

Tabiatda mavjud mineralllar bir-biridan kimyoviy tarkibi va fizik xususiyatlari (rangi, yaltirashi, qattiqligi, solishtirma og'irligi va h.k) hamda hosil bo'lish sharoitlari bilan ajralib turadi. Minerallarning tabiatda yuzaga kelishi tarqalishini va joylanishini o'rganish va mavjud nazariyalarga va olib borilgan eksperimental izlanishlarning natijalaridan ma'lumki, har bir mineral qandaydir muayyan fizik-kimyoviy sharoitlarda (haroratda, bosimda) hosil bo'ladi. Tabiatda ko'pgina mineralllar tash-

qi muhitning ta'siri ostida (oksidlaniruvchi, kimyoviy qaytaruvchi) sharoitlarning ta'sirida o'zgarishi bosim yoki haroratning ko'tarilishi yoki pasayishi natijasida o'zgarmasdan saqlanib qoladi. Ayrimlari esa, ushbu sharoitlarning tarixiy taraqqiyoti davomida o'zgarishi oqibatida bardosh bera olmaydi, ularning parchalanishi natijasida yuzaga yangi sharoitlarda barqaror bo'lgan minerallar bilan almashadi.

Magmatik jinslar bilan bog'liq bo'lgan ma'dan konlar va ularning mineral gurublari. Magma bilan uzviy aloqador bo'lgan konlar quydagilar: pirop-olmos, olivin-xromit, olivin-platinoid, ilmenit-titanomagnitet, xalkopirit-pentlandit va nefelin-apatit konlari kiradi. Ushbu mineral uyumlari, guruhlarining qanday yuzaga kelishi haqidagi ma'lumot quyida keltiriladi.

Kimberlit magmasi evaziga yuzaga kelgan pirop-olmos mineral guruhlari. Ushbu minerallar guruhlarining paydo bo'lishi o'ta asos va asos jinslaming alohida turi bo'lgan kimberlitlar bilan bog'liq. Kimberlitlar qadimiy platformalarda tektonik harakatlarning rivojlanishidan yuzaga kelgan o'ziga xos o'ta asos vulkanik jinsdir. Bunday o'lkalar Sharqiy Sibir, Sibir, Afrika, Avstraliya, Hindistonda mayjud.

Kimberlitlar vulqon mo'rilarini hosil qiladi. Kimberlit vulqon mo'rilarining diometri bir necha metrdan, bir necha yuzlab metrni, chuqurligi bir necha kilometrgacha bo'lgan jismlar hosil qiladi. Dunyoda eng yiriklardan Tanganikadagi «Ivaudi» vulqon mo'risi diometri 1625±1070 m bo'lib, Yer yuzidan chuqurlashgan sari diometri kichiklashib boradi (o'rtacha 5 – 6 barobar).

Kimberlit odatta porfirsimon tuzilishda sementlangan brekchiyalardan iborat. Brekchiya ni tashkil etuvchi bo'laklari ona jins: dunit, peridotitlarning jins hosil qiluvchi minerallaridan hamda litosferaning yuqori qavatlariga mansub bo'lgan jinslar-eklogit, amfibolit, gneys va kristallahgan slaneslardan tashkil topgan (29-jadval). Brekchiyalarni tashkil etuvchi jinslar kimberlit magmasini mantyanining yuqori qismi 100 – 150 km chuqurlikdan ko'tarilishi haqida xabar beradi.

Kimberlitlar bilan yon-atrofdagi cho'kindi jinslarda kuchli bosim va yuqori harorat ta'siri mexanik harakatlarning va gidrotermal eritmalarining ta'siri yaqqol sezilib turadi. Shu o'rinda yaxshi o'rganilgan Yoqutiston

(Sharqiy Sibir) olmos-pirop konining minerallar guruhining xususiyatlarini ko'ramiz. Yoqtiston olmos konining geologik tuzilishda to kembriy kris-tallik poydevorining ustki qismi va quyi ordovik jinslarining orasida yirik aylanasimon, diametri 45 – 50 metrgacha bo'lgan jismlar, ularning soni 150 dan ortiq. Bularning aksariyat qismida olmos uchraydi. Eng yiriklari: «Mir», «Udachnaya», «Ayxol», «Zarnisa» va boshqalar. Kimberlit tarkibli jinslar orasida joylashgan portlash trubkalarini har taraflama o'rganish hamda sun'iy olmos ustida olib borilgan eksperiment natijalari qattiqlik «sulton» – olmos konlarining katta bosim, yuqori harorat ta'sirida yerning chuqur qismida yuzaga kelgan kemberlit magmaning yer yuziga yaqinroq masofada (100 – 150 m) portlashi va joylanishi natijasida kemberlit jismlari paydo bo'lishligini ko'rsatadi.

Olivin-1 (Fo90-100Fa10-0) kimberlit tarkibida o'z shaklini saqlagan holda uchraydi. Ba'zan dumaloqlashib, qirralari yo'qola-di. Ba'zan pirop, ilmenit va olmos bilan o'simtalar hosil qiladi. Bu esa ushbu mineralarning deyarli bir vaqtida kristallanishini ko'rsatadi. Kimberlitda ikki hil paydo bo'lgan olivin uchraydi. Bularidan olivin-1 yirik (1-5 sm) porfirsimon, hol-xol donalar holida bo'ladi. Olivin-II nisbatan maydaroq (1-2 mm) idiomorf shaklida uchraydi. Bularning kimyoviy tarkibi va optik xususiyatlari bir-birligiga yaqin. Olivin-I magma ko'tarilishidan boshlab kristallanib, astasekin yiriklashadi va harakatlanish oqibatida silliqlanadi. Olivin-II yer yuziga yaqin sharoitda kristallanadi.

Pirop kimberlit jinslariga mansub mineral, uning «mosh» yoki «no'xot»dekk (0.1-2-3 sm) kristallari mavjud bo'lib mayda darzlilikleri serpentin, xlorit va kalsitlar bilan to'ladi. Pirop tarkibida mayda xrom-shpinelidlar ninasimon shakllarda uchraydi. Pirop har xil: qizil, binafsha rangidek rang-barangligi tarkibidagi xromning miqdoriga bog'liq. Kimberlitlardagi pirop o'z tarkibiga ko'ra, pirop-almandin qatoriga mansub bo'lib, bunda pirop qismi 80 – 95%, almandin esa 15-20% tashkil etadi.

Olmos. Kimberlitga mansub mineral. U tabiatda o'ta qattiqligi va har xil shaklli: oktaedr, rombobodekacdr, ba'zan kub shakllarida mavjud. Olmosning oddiy ko'z bilan payqamaydigan xillaridan tortib, to yuz, ming karatli (1 karat – 0.2 g) va undan ham yirik kristallari uchraydi. Olmosning rangi va shaffofligi turli: rangsiz, shaffof, oq, havorang, yashil, sarg'ish, jigarrang, qizg'ish, to'q kulrang, ba'zan qora. Olmosning ichki tuzilishi uning hosil bo'lish sharoiti haqida qo'shimcha ma'lumot beradi: masalan, yuqori haroratda yuzaga kelgan olmos-oktaedr shaklida

rangsiz bo'ladi, haroratning sekin-asta pasayishi natijasida uning shakli rombobodekaedrdan kub shakliga qarab o'zgaradi va rangi quyuqlashib qora bo'ladi.

Olmosning o'ziga xos xususiyatlardan biri tarkibidagi azotning miqdori (0,23%). Ushbu miqdor olmosning rangi, shakli va otik xususiyatlari haqida qo'shimcha ma'lumot beradi.

Olivin-xromit-platina minerallar guruhi. Bu guruh minerallar o'ta asos jinslar bilan, ayniqsa, dunit-garsburgit formatsiyalari bilan uzviy bog'liq. O'ta asos jinslar tabiatda kam tarqalgan bo'lib, barcha magmatik jinslarning 0,4%ni tashkil etadi. Bulardan kengroq tarqalganlari-peridotitlar. Ularning egallagan maydoni dunitga nisbatan 40 barobar ko'proq. Dunit-garsburgit formatsiyalarni tashkil qiladigan jinslar orasida joylashgan xromit uyumlari holsimon, uyasimon shakkarda bo'ladi. Ushbu xromit ma'dan konining mansub minerallaridan biri xromshpinelidlar (Mg,Fe) (Cr,Al, Fe) $2O_4$. bunday konlarga aloqador dunit-garsburgitli formatsiya orogen o'lkalarda ba'zan orogen va platformalarning tutashgan joylarida yuzaga keladi. Bu formatsiyalarning egallagan maydonlari 1 – 50 km² gacha bo'ladi.

Platforma o'lkalarda yanada kattaroq maydonlarni egallaydi. Xromit konlarini yuzaga keltiruvchi dunit-peridotit formatsiyalarining har xil davrlarda yuzaga kelgan: Hindistonda – to kembriy, Uralda – kaledon davri, Eron, Turkiyada – gertsin davri hamda Albaniya, Yugoslaviya va boshqalarda alp davri yuzaga kelgan. Shunday xromit konlaridan biri sifatida Qozog'iston Respublikasida joylashgan Kampirsoy koni. Intruzivning egallagan maydoni 920 km² bo'lib, o'rabi turgan metamorfik jinslar kembriy davriga mansub. Intruzivni tashkil etgan jins peridotitlardan iborat bo'lib, tarkibida (% hisobida): olivin-79,0; rombik piroksen – 19,5; xromshpinelidlar-1,5, magma'dan keyingi jarayonlarning ta'siri o'zgarib ikkilamchi minerallar: serpentin – 68, bastit – 7,5, tremolit – 3,5, talk – 2, xlorit – 0,5 yuzaga kelgan. Bulardan dastlab forsterit, xromshpinelidlar, keyin rombik piroksen, platinoidlar hosil bo'lgan.

Olivin (Fo90-20Fa10-20) dunit va peridotitlarning asosiy qismini tashkil qiladi. U panidiomorf ko'rinishda bo'ladi. Olivinin aksariyat qismi serpentinlashgan.

Xromshpinelid-dunit-garsburgit formatsiyalariga mansub mineral. Xromshpinelidlar ba'zan olivindan oldin, ba'zan undan ozroq keyin yuzaga keladi. Bu guruhga oid minerallarning barchasi tabiatda bir xil

sharoitda hosil bo'ladi va ularning tashqi belgilari bir-biriga o'xshab ketadi, shunga ko'ra, ularni bir-birlaridan kimyoviy tahlilsiz ajratib bo'lmaydi. Dunit-garsburgit formatsiyalaridagi xromit mineralallari quyidagi asosiy mineral turlaridan iborat: xromit FeCr_2O_4 , magnoxromit-(Mg,Fe)Cr₂O₄ alyumoxromit-Fe(Cr,Al)2O₄, xrompikotit-(Mg,Fe) (Cr,Al)2O₄. Bulardan ko'proq uchraydiganlari xromshpinelidlar bo'lib, tarkibdagi xrom oksidning miqdori ancha o'zgaruvchan-18% dan 62% gacha. Xromshpinelidlar deyarli o'ta asos jinslar tarkibida tarqoq donalar holida va shuningdek, uya, linza, ustunsimon, shaklli yaxlit uyumlar holida uchraydi. Bular bilan doimo och yashil serpentin, xromli xlorit, ba'zan zumrad yashil rangli granatlar bilan uchraydi. Xromshpinelidlar bilan platina mineralallari ham birga uchraydi.

Piroksenlarning ushbu formatsiyada ikki turi-rombik (enstatit, gipersten va bronzit) va monoklin (diopsid-gedenbergit qatori) ishtirok etadi. Rombik piroksenlar yaqqol o'zining shaklida uchraydi. Monoklinallar esa ular oralarida yoki chekka qismlarini ishg'ol etadi.

Serpentin-olivin hisobiga o'zgarishi natijasida yuzaga keladi va o'z navbatida quyidagi xillar-antigorit va lizarit ba'zan tolasimon xrizotil yuzaga keladi.

Platinoidlar-poliksen xili tarkibida temir miqdori -5-12%, mis-0,5-12%, iridiy-7%, osmiy iridiy-15%. Bundan tashqari, iridiyli platina (iridiy miqdori 10-30%) uchraydi. Platina mineralallari biroz magnitli xususiyatga ega.

Platinaning mineralallari oz miqdorda xromshpinelidlar orasida, aksariyat qismi formatsiyalarga mansub bo'lgan piroksenlardan keyin yuzaga keladi. Ushbu formatsiyalarga mansub bo'lgan platinaning boshqa xillari-misli platina kuprum platina (Cu-10-12%), nikelli platina (Ni-3-5%) turlari birga hosil bo'ladi. Yuqorida bayon etilgan minerallar bilan birga kam miqdorda oltingugurtning temir, mis, nikel va boshqa birikmalarini uchratish mumkin. Demak, dunit-garsburgitli formatsiyalari oralarida joylashgan xrom, platina ma'dan konlariga mansub minerallardan – olivin (Fo90-95 Fa10-5), xromshpinelidlardan iridiy va osmiyli xillari bo'lishi mumkin.

Asos intruziv jinslar bilan bog'liq konlar-ilmenit-titanomagnetit minerallar assotsiatsiyalari. Ilmenit, titanomagnetit minerallari gabbro, norit, piroksenit, anortozitlar orasida turli shakllarda-linzasimon, uyasimon, ba'zan tomirsimon ko'rinishda uchraydi. Titanomagnetit, ba'zan ilmenit, magnetitlar oralarida izomorf aralashma hosil qiladi. Yuqori haroratda izomorf qatorini tashkil qilgan bu minerallar harorat sekin-

asta pasayishi bilan alohida ilmenit va magnetitlarga ajraladi. P.Ramder olib borgan eksperimental ishlarning natijasida ma'lum bo'lishicha 800° atrofida ilmenit va magnetit aralashgan holda, 600-700°S haroratda ilmenit va magnetitlarga ajraladi.

Ushbu peridotit-gabbro formatsiyalarida mineral tarkibi quyidagicha: olivin (Fo50-40) – piroksen-ilmenit-magnetit-plagioklaz (2-jadval). Peridotit-gabbro formatsiyalariga bog'liq ayrim konlarning qisqa bayoni beriladi. Bushveld (Janubiy Afrika) koni gabbro-noritlar orasida joylashgan bo'lib, egallagan maydonining uzunligi 20-25 km, qalinligi-0,5-0,6 m. Ma'dan tarkibida Fe-50-60%, Ti-16-20%, Cr₂O₃-30-33%, platina miqdori it jinsda-10-15 g.

36-jadval
Peridotit-gabbro formatsiyalariga bog'liq konlarda titan miqdori
(% hisobida)

Formatsiya turlari	TiO ₂ miqdori	Konlar
Peridotit-gabbrolardagi ilmenit-titanomagnetit	12-18	Kusinsk, Kachkanar, Medvedovsk (Ural), Bushveld (Janubiy Afrika)
Gabbro-anortozitdagagi ilmenit-magnetit	7-20	Tegoaus (AQSH), Telness (Norvegiya)
Anortozitdagagi ilmenit-gematit	20-25	Lak-Tio, Pyuidjelan (Kanada)

Kusinsk koni (Janubiy Ural) gabbrolar orasida ma'dan ikkita bo'lakka bo'linadi. Ularning uzunligi 2-3 km ni, qalinligi o'rtacha 3 m ni tashkil etadi. Ma'dan tarkibida magnetit 60-70%, ilmenit-20-30%. Lak-Tio (Kanada) anortozitlar oralarida linzasimon va uyasimon ko'rinishda joylashgan bo'lib, maydoni 2,5x1,5 km atrofida. Ushbu konga xos xususiyatlardan biri – ma'danlarning intruziv jinslarda bir tekis tarqalganligi ushbu konning tektonik sharoitda yuzaga kelganligini ko'rsatadi. Bu konni hosil qilgan peridotit-gabbro formatsiyalarida kristallanish differensiyasi oqibatida intruzivning pastki qismi dunit, peridotit, yuqori tomoni gabbro, anortozit orqali qizil granitlarga o'tadi. Ma'dan anortozitlar oralarida joylashgan ilmenit tarkibida TiO₂-25-32%, Fe₂O₃-40-45%. Ushbu elementlarning zaxirasi 120-150 mln. tonnani tashkil etadi. Peridotit-gab-

bro formatsiyalari bilan bog'liq bo'lgan ilmenit-titanomagnetit konlarida ma'danlarning tarqalishi hol-xol (xoldor), ba'zan uyasimon, ba'zan tomirsimon shakllarda uchraydi. Ilmenit, magnetlardan tashqari pirit, xalkopirit, pirrotin uchraydi. Ma'dan minerallarning silikat minerallardan keyin hosil bo'lganligini ko'rsatadigan belgi sideronitli tuzilish (struktura) hosil qiladi, ya'ni piroksen va plagioklazlarning oralarida yuqorida ko'rsatilgan ma'dan minerallar sement vazifasini bajaradi.

Peridotit-piroksenitlar bilan aloqador pirrotin-pentlandit-xalkopiritlarning hosil bo'lishi. Dunyoda olinadigan 65% nikel magma evaziga hosil bo'ladigan mis-nikel sulfid ma'danlaridan olinadi. Bu minerallar olivin, rombik va monoklin piroksenlar bilan birga uchraydi. O'ta asos va asos jinslar tektonik xarakatlarning so'ngida orogenning platformaga o'tish davrida va platforma harakatlarining faollashgan joylarida maydonga keladi. Yerning tarixiy taraqqiyot jarayonida hosil bo'lgan rivojlanishida mis-nikel sulfid konlari juda uzoq geologik o'tmishda proterozoydan mezokaynozoygacha paydo bo'lgan. Bu konlarning xususiyatlaridan biri qatlamsimon intruziv jismlarda uchraydi.

Intruzivilarda yuzaga kelgan tektonik zARBalar, ma'dan jismlarda ham takrorlanadi, ularning o'zaro uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. So'z yuritilayotgan ma'dan konlarining minerallari asosan pirrotin, pentlandit, xalkopirit. Magnetit hamda pirit, kubanit, nikelin, millerit, violarit, platina guruhi minerallari, ba'zan xromit, nikel va kobalt arsenidlari, galenit, sfalerit, bornit va boshqalar.

O'ta asos va asos magmaning likvatsiya yo'li bilan tarkibiy qism-larga ajralishi natijasida yuzaga kelgan pentlandit-xalkopiritli ma'dan uyumlari magma natijasida hosil bo'lgan konlarning ayrim xili hisoblanadi. Ma'lumki magma haroratning pasayishi natijasida bir-birlariga aralashmaydigan sulfidli va silikatli qismlarga ajraladi. Magmaning bunday qismlarga ajralish sabablari ko'pchilik olim va mutaxassislarining e'tiborini o'ziga tortgan. Bu sohada N.Fogt, P. Ramdor, Y.Olshanskiy, M.Godlevskiy, A.Betextin va boshqalarinig izlanishlari katta ahamiyatga ega. Likvatsiya'ning geokimyoviy sababi magmadagi oltingugurt, temir, magniy va kremliy miqdorining oshishi bilan bog'liq. Misol: silikatli magmada temir ko'p bo'lishi, sulfidlarning eruvchanlik darajasini osxiradi. Magmaning sovishi va qotishi jarayonida temir miqdorining kamayib borishi sulfidli qotishmalarning ajralishiga va bir yerga yig'ilib qolishiga olib keladi. Magmaning silikatli va sulfidli qismlarga ajralishi tajribalar

osida tekshirilgan. Jumladan, Norvegiya olimi X.Fogt 1923 va rossiyalik I.I.Olshanskiyning 1947 yillarda olib borgan eksperimental ishlari 15000 tundan yuqori haroratda va ma'lum miqdordagi mineralizatorlarning htirokida sulfidlarning magmada erigan holda bo'lishini va haroratning isayishi sulfidlarning eruvchanligini kamayishiga va keyinchalik ularni likatl qismlardan ajralib ketishiga olib keladi. Likvatsion jarayonning istlabki paytlarida sulfidlар tomchidek, moshdek bo'lib, silikat jinslar alarida tarqalgan bo'ladi. Ba'zan, ular ayrim joylarda to'planib har xil itta-kichiklikdagi va turli shakldagi uyumlar hosil qiladi. Xuddi shu yo'l lan mis-nikel konlari hosil bo'ladi.

Bu konlarda nikelning miqdori – 0,5-1,5%, Cu-0,5-2%, Co-0,12%. shbu elementlarning nisbati Ni:Cu 1:1, 1:2, Cu:Co 20:1dan 40:1gacha zgarib turadi. Bundan tashqari, platina 4,5-5 gr (1 tonnada), oltin – 0,5 gr iqdorda ishtirok etgan. Albatta, barcha ma'dan konlarda ham keltirilgan ementlarning miqdori bir xil bo'lishi shart emas. Bu ma'dan tarkibidagi is va nikel minerallardan tashqari olivin, piroksenlarning ishtirok etishi uhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

Dunyodagi yirik likvatsion ma'dan konlarining misoli sifatida Norilsk, alnax, Kola yarim orolidagi Monche-Tundra, Kanadagi Syodberi va mubiy Afrikadagi Insiz konlarini ko'rsatish mumkin. Likvatsion konlarning eng yiriklaridan biri Kanadagi Syodberi konidir.

Likvatsion yo'li bilan yuzaga kelgan konlarning barcha ma'dan inerallari orasida oltingugurtli birikmalar ishtirok etadi. Shuning uchun init-periodotit formatsiya jismlar tarkibidagi oltingugurtning kelib chiqi-ii barcha mutaxassisllarning e'tiborini tortgan. Keyingi yillarda olingan a'lumotlarga qaraganda intruziv jinslardagi oltingugurt izotoplarning iqdori meteoritlarnikiga juda o'xshash. Bunday o'ta asos jinslar orasida shraydigan sulfid ma'dan konlarining magmalar bilan uzviy bog'liq vishda paydo bo'lishini ko'rsatadi (37-jadval).

37-jadval

Konlar	Namunalar soni	SS34%
Syodberi (Kanada)	32	0.26
Insizva (Janubiy Afrika)	6	0.26
Pechenga (Rossiya)	3	0.23
Norilsk (Rossiya)	15	0.24
Monche-Tundra (Rossiya)	2	0.18

Nefelinli sienitlar bilan bog'liq apatit konlarning hosil bo'lishi. Ishqorli magmatik jinslar Yer yuzida bir tekis tarqalmagan. Ularning eng katta miqdori – Markaziy Kola yarim orolida joylashgan. Bu o'lkada 20 dan ortiq intruziv jismlar bo'lib, eng yiriklari Xibin va Lovazer. Ushbu ishqorli intruzivlar bilan dunyodagi eng yirik nefelin-apatit-sfen konlari yuzaga kelgan.

Xibin intruzivi Imandra va Umbozer ko'llari oralarida joylashgan. Ulakkolit shaklida ochiq halqasimon ko'rinishda. Bu massiv proterozoy granito-gneyslarning ichida joylashgan. Xibin intruzivi to'rt xil jinslardan iborat va ularning hosil bo'lishi quyidagi ketma-ketlikka ega: xibinitlar, iyolit-urtit, rischorrit va fayaitlar. Bulardan xibinitlar intruzivning cho'kindi jinslar bilan tutashgan joylarda joylashgan. Uning tarkibi: dala shpatlari-40-45% va rangli minerallar (egirin-avgit, arfvedsonit) 15%. Ikkinci darajali minerallar-sfen, evdialit, apatit, titanomagnetit. Rischoritlar yirik donador kulrang, ba'zan yashil rangli. Unda nefelin miqdori 50% gacha bo'ladi. Ikkinci darajali mineral-evdialit, sfen, ba'zan rinkolit bo'ladi. Apatit va sfen konlarining aksariyat qismi rischorrit va iyolit-urtit oralarida joylashgan. Apatit va sfen konlari zanjirsimon bo'lib, quyidagi alohida konlardan iborat – Risvumchorr, Yuksior, Kukisvumchor, Kuelpor. Ushbu konlarni tekshirish natijalaridan ma'lumki, apatit konlari urtit-iyolitning ustki qismida bo'lib, rischoritlar bilan qoplanadi.

Apatit-sfen konlari linzasimon shakllarda uchraydi. Ularning ayrimlari – Kukisvumchorr-Yuksior bir necha linzadan iborat. Ularning uzunligi 4-5 km va qalinligi 200 – 400 m ni tashkil etadi. Apatit konlarida egirin, titanomagnetit, evdialitlar uchraydi. Apatit miqdori 50 – 75% ni tashkil etadi. Apatit konlarining yuzaga kelishi to'g'risida fikrlar ko'p. Keyingi maxsus izlanishlarning natijasi bo'yicha Xibin intruzivi ichida joylashgan barcha linzasimon konlar magmatogen yo'l bilan urtit-iyolit formatsiyalari evaziga hosil bo'lgan. Konni tashkil qiluvchi ayrim minerallarning bayoni keltiriladi.

Apatit-shakarsimon oq va qumoq-qumoq, ba'zan kulrang, yashil, hatto qora. Yashil va qora rangli apatit tanalarida mayda, tolasimon egirin va titanomagnetit joylashadi. Tarkibi bo'yicha fтор-apatit. Ba'zan kalsiy o'mida stronsiy bo'lishi mumkin.

Nefelin-yog'langandek sezildi. U izometrik, ba'zan cho'zinchoq apatitlar bilan aralashib yotadi. Nefelin egirin evaziga yashilroq ko'rindi.

Sfen-qo'ng'ir, ba'zan qizg'ish, ninasimon, ba'zan prizmatik ko'rinishda. Rangining o'zgarishi izomorf qo'shimchalarga bog'liq.

Egirin-ninadek ingichka, ba'zan cho'zinchoq prizma holda uchraydi.

Evdialit-malina rangiga o'xshash, cho'zinchoq, ba'zan tolasimon.

Kalishpat optik xususiyatlariga binoan ortoklaz va miroklinlardan iborat.

11.4. Pegmatit jarayonlar. «Pegmatit» atamasini birinchi marta R. J.Gayui (1743-1822) tomonidan fanga kiritilgan va «dala shpatlari va kvarts» minerallaridan tashkil topgan jins deb qaralgan. Yunoncha «pegmatit» – kvarts va dala shpatlarining mustahkam birikmasini anglatadi. Pegmatitlarni geologik jism sifatida o'rganish XIX asrda V.K.Breger (1851-1932), K.G.Rozenshush (1836-1914), G.L.Fogt (1858-1932), XX asming o'rtalarida Rossiya olimlari A.E.Fersman, D.S.Korjinskiy, A.N.Zavariskiy, K.A.Vlasov va boshqalar batafsil o'rganishgan.

Pegmatit jinslar magmatik jarayonlarning oxirgi bosqichida faol va uchuvchan komponentlarga boy bo'lgan qoldiq «pegmatit»simon magma'dan yuzaga keladi.

Pegmatitlar geologik jism sifatida yirik kristallangan mineral uyumlaridan tashkil topgan hamda tomirlar yoki har xil shaklli uyumlar bo'lib uchraydi.

Pegmatit mahsulotlarning asosiy qismi nordon va ishqorli jinslar bilan uzyvi bog'liq. Ko'p hollarda ularning birlamchi magmatik jinslarga nisbatan keyingi bosqichda yuzaga kelganligi yaqqol ko'rinish turadi. Pegmatitlarning mineralogik va kimyoviy tarkibi ona jinslarga yaqin bo'ladi va ular benihoya yirik donador agregatlardan iboratdir.

Pegmatit tabiatda keng tarqalgan, shuning uchun mutaxassislarini o'ziga jalb qilgan. Pegmatitlarning ahamiyati sanoat va texnikada benihoya katta. Tarkibining asosiy qismini tashkil etuvchi dala shpatlari va kvarts chinni va shisha mahsuloti, slyudalar elektrotexnika xizmatida, qolgan minerallardan kam va tarqoq elementlar litiy, rubidiy, berilliyl, niobiyl, tantal, sirkoniyl, gafniy va siyrak elementlarini olishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, tarkibidagi qimmatbaho minerallari: zumarad, safir, rubin, topaz va boshqalar zargarlikda ishlataladi. Mineral hosil qiluvchi jarayonlar juda murakkab bo'lib, yuqori haroratda (A.E.Fersman bo'yicha 700 – 1500) bir necha ming atmosfera bosim ostida va ancha chuqurlikda (A.Ginzburg bo'yicha 2 – 3 km) sodir bo'ladi.

Pegmatitlarning hosil bo'lishi masalasini butunlay hal qilingan deb bo'lmaydi. Ularning hosil bo'lishi to'g'risida ikkita qarama-qarshi fikrlar mavjud. Bulardan A.E.Fersman - «pegmatitlar» yengil uchuvchan va faol elementlarga boy qoldiq pegmatit magmaning kristallanish mahsuloti, deb qaragan. Ikkinchi, A.N.Zavaritskiy fizik-kimyoviy mulohazalarga asosan minerallarning yirik kristallari magmada to'plangan qoldiq va gaz ishqori faol elementlarning ta'sirida ona jinslarning qayta kristallanishi natijasida yuzaga kelishi mumkinligini bayon etdi. Pegmatitlar intruziv jinslar bilan chambarchas bog'langan bo'lib, ona jinslardan shakllarning tomirsimon, uyasimonligi hamda ularning ichki tuzilishi, jins hosil qiluvchi minerallarning benihoya kattaligi bilan ajraladi. Tabiatda tarqalgan pegmatitlar nordon magmatik jinslar bilan bog'liq bo'lib, granit-pegmatitlari, deb nom olgan.

Granitli pegmatitlar nordon tarkibli intruziv jinslar oralarida cho'kindi va intruziv jinslar tutashgan joylarida, ba'zan intruziv oralarida tomirsimon ko'rinishda bo'ladi. Pegmatitning aksariyat qismi dala shpatlari va slyudaldandan tashkil topgan.

Pegmatitlarga xos xususiyatlardan biri tarkibidagi minerallarning yirik kristallanishidir. Masalan, pegmatitlarda balandligi 2 m dan ortiq kvarts, 5 – 5,5 m lik berill, 14 m spodumen, muskovit va biotitlar, ba'zan 7 – 10 m² kenglikda uchraydi. Ayrim minerallarning og'irligi juda katta – kvarts – 750 kg dan 10 tonnagacha, topaz 60 kg gacha, dala shpatlariniki esa 5-10 tonnagacha boradi.

Pegmatit qotishmalarida N₂O, SO₂, SO, NSI, N₂, O₂, V, SI, S lar ko'p miqdorda uchraydi. Faol elementlar, uchuvchi gazlar va qaynoq parlar magmaning kristallanish haroratini va yopishqoqligini kamaytiradi. Agar magma tarkibida 1% suv bo'lsa minerallarning kristallanish harorati 30 – 50° pasayadi. N₂O miqdori 10 – 12% bo'lsa harorat 300 – 400oga tushadi. Yuqorida bayon etilgan suv miqdorining ortishi pegmatitlarni tashkil etuvchi minerallarning kristallanish haroratini kamaytiradi hamda magmani suyuqlantiradi, bu esa pegmatitsimon magmaning mayda darzlik va yoriqlar orqali qatlamlarini kesib jadal sur'atlar bilan yuqori tomon intilishga ko'maklashadi. Pegmatitlarning shakli oddiy va murakkab ko'rinishda bo'ladi. Murakkab tuzilgan tomirlar mayda bo'lib, tomirlar guruhi, tizimini hosil qiladi. Bulardan tashqari yotqiziq, linza, karmaysimon, ustunsimon ko'rinishda ham bo'ladi. Pegmatit shakllarning o'chamlari turlicha bo'lib, uzunligi bir necha santimetrdan to bir necha metrgacha

boradi. Masalan, G'arbiy O'zbekiston granitlarda tomirsimon pegmatitlar uzunligi 200-300 metrgacha. Ayrim yiriklari, Sibir o'lkasidagi Mamsk-Chuysk hududlaridagi pegmatitlarning uzunligi 300-350 km, eni 35-60 km. pegmatit shakllarining muhim xususiyatlaridan biri ularning cho'ziqligi va eni bo'yicha asta-sckin torayib borib to'xtashidir.

Pegmatitlarni o'rganish borasida A.E.Fersman katta ilmiy ishlar qildi. U o'z davrigacha bo'lgan pegmatitlar geologiyasi, mineralogiyasi va geokimyosi sohasida materiallarni to'plab, ularning hosil bo'lish jarayonlarini nazarij jihatdan asosladи.

A.E.Fersman fikricha pegmatitlar fizik-kimyoviy sharoitning yopiq holatida yuzaga keladi va o'z navbatida magmatik, epimagmatik (magma'dan keyingi), pnevmatolit va gidrotermal pog'onalarga va ular 10 ta geofaza bo'limlariga (A.V,S,D,E,F,G,N,J,K) ajratdi. Ushbu ajralish haroratning sekin-asta pasayishi natijasida yuzaga keladi. Geologik muhitlaming bayoni quyidagicha ifodalandi.

A geofazasi magmatik bo'lib, 900 – 800°S haroratda magmaning sovib kristallanishiga to'g'ri keladi.

V geofazasi epimagmatik deyilib, 800-700°S mayda donali aplitlar hosil qiladi.

S geofazasi pegmatitli bo'lib, 700 – 600°S kvars va dala shpatlari bir vaqtning o'zida kristallanadi va bir-birlari bilan qonuniy o'sishgan o'simtlar hosil qilib pegmatit strukturasini yaratadi.

D va E geofazalarli 600-500°S yengil uchuvchan birikmali yirik kristalli minerallar, kvars, dala shpatlari, biotit, muskovit, turmalin, topaz, berill minerallari yuzaga keladi.

F va G geofazalarida 500-400°S haroratda eritmalarining ta'siri ostida o'rin almashish sharoiti yuzaga keladi va pertitlar paydo bo'ladi. (Kaliyli dala shpatlarda nordon plagioklaz o'simtasi hosil bo'ladi). Ushbu sharoitda litiyli minerallari-spodumen, lepidolit, ambliganit, rubellit (gunafsha turmalin) hosil bo'ladi.

N, J, R-gidrotermal geofazalarini-magmalardagi eritma holidagi suv parlari haroratning pasayishi natijasida suyuqlik hidrotermaliga aylanadi va ular o'z navbatida: N-yuqori haroratlari 400°S – 300°S, J-o'rta haroratlari – 300 – 200°S va K-past haroratlari 200 – 50°S ga bo'linib, ushbu sharoitlarga mos keladigan mineral guruhlari hosil bo'ladi.

A.E Fersman pegmatitlarning sanoatda ahamiyatiga qarab quyidagi turlarga bo'lgan:

1. Topaz-berill pegmatitlar. Bu pegmatitlar deyarli mikroklin va kvarsning yirik kristallaridan iborat bo'lib, ularning oralarida, ba'zan bo'shliqlarida och rangli topaz va berilning (ekvamarin xili) chiroqli, ajoyib tuzilgan kristallari uchraydi. Bularidan tashqari albitning o'ziga xos plastinkasimon kristallari turmalin va lepidolitning kristallari goho kas-siterit, kolumbit va tantalit bilan birgalikda goho biotit, muskovit va turma-lining yaxshi kristallari bilan birga uchraydi.

2. Turmalin-muskovitli pegmatitlar (Mamsk-Vitinsk hududi) muhim sanoat ahamiyatiga ega. Ushbu turning tarkibi plagioklaz (nordon), mikroklin va kvars hamda muskovitning yirik kristall uyumlari yuzaga keladi. Bular bilan birgalikda turmalin, apatit, granat, ortit, monasit, sulfid minerallari uchraydi. Pegmatitlarning xalq xo'jaligida ahamiyati katta.

3. Kamyob va nodir elementli pegmatitlar. Ularning minerallari: kolumbit, tantalit, ilmenit, rutil, sirkon, ilmenit, torit, gadolinit, fergusonit, samarskit, evksenit, eshinit, cassiterit, monatsit, ksenotim, ortit, uranitlar hosil qilib yuzaga keladi. Bular bilan birgalikda, ba'zan apatit, granat, turmalin, berill, xrizoberill, fenakit, gelvin, topaz, flyuorit, karbonatlar, sulfidlar uchraydi.

4. Litiy minerallardan iborat pegmatitlar spodumen, lepidolit, ba'zan litiy fosfatlari (amblygonit, litiofillit), qizil (rubellit), ko'k, yashil turmalin, rangsiz, pushti berill (vorobevit), spessartin, marganesli yashil apatit, cassiterit, pollutsit, sirkon, monatsit, flyuorit kabi minerallari to'plamini o'z ichiga oladi. Bu turdag'i pegmatitlarda litiy, marganes, kalsiy va seziylarning ortiqroq miqdorda uchrashi bilan boshqalardan ajralib turadi.

Tabiatda pegmatitlar ba'zan magmatik jinslarning yon-atrofini o'rabi turgan cho'kindi jinslarga kirib borgan vaqtlarida, ularning mineral tarkibi ona (granitoid) jinslar ichida yotgan pegmatitlar tarkibidan ancha farq qiladi. Minerallar paragenezisi (yaqin sharoitda hosil bo'lgan) bunday holda yon jinslar bilan eritmalarining o'zaro natijasida yuz beradigan reaksiyalarning faol bo'lishidan dalolat beradi. Minerallarning shunday guruhlarining tarkibida faqatgina magmaga xos elementlarga emas, balki yon jinslarda ko'proq tarqalgan kalsiy va magniy oksidlari ham ishtirok yetadi. Yon jinslarning o'zi ham pegmatitlar bilan tutashgan joylarida o'zgarib ketadi. Pegmatitlarning bunday turi A.E.Fersman bo'yicha «chatishgan» qatoriga kiradi va yuqorida ko'rib o'tilgan «asl» pegmatitlardan ancha farq qiladi.

11.5. Kontakt-metasomatik jarayon – skarn hosil bo'lish sharoiti.

V.Fuks XIX asrning boshlarida birinchi marta «kontakt-skarn konlari» atamasini yaratdi. Keyinchalik B.Kogtt, 1864, A.Groddek, 1877 va boshqalar skarnlar nordon magmaning cho' kindi jinslar bilan tutashgan joylarida yuzaga keladi. Bu sohada jahon geologlari katta ilmiy izlanishlar olib borib, kontaktli metasomatik jarayon nordon, o'ita va ba'zan asosli intruziv magma sovishi va kristallanishida, ularni o'rabi turgan tutash cho' kindi-karbonatli (ohaktosh, dolomit) va ba'zan mergel va gilli jinslar bilan o'zaro munosabati tufayli yengil uchuvchan yon jinslar tomon harakat qilib, ularga kimyoviy ta'sir ko'rsatadi va kontakt metamorfizmi deb yuritiluvchi jarayon yuzaga keldi.

Shuning bilan birga eritma singib borayotgan yon jinslarda (yuqori qismida-intruziv shiplarida) kimyoviy reaksiyalar sodir bo'ladi. Metamorfizm darajasi va yuzaga kelgan mahsulotlarning tarkibi haroratdan ko'ra, ko'proq eritmaning kimyoviy faolligiga va u bilan reaksiyaga kirishadigan jinslarning tarkibiga bog'liq.

Kuzatishlardan ma'lum bo'lishicha jinslar bilan kontaktidagi jinslar orasida eng ko'p va intensiv o'zgarishlar ohaktoshlar va ohakli jinslarda yuz beradi. Bunday holda reaksiyalar natijasida metasomatoz deb ataluvchi kimyoviy almashishlar yo'li bilan asosan Ca,Fe,Al va boshqa elementlarning silikatlaridan tarkib topgan skarnlar hosil bo'ldi. Shu sohada mutaxassislarining fikricha, bir vaqtning o'zida shu jarayonning boshlanish davrigacha qotib kristallanib bo'lgan intruziv jinslarda ham kontakt bo'ylab o'zgarishlarning yuz berishi xarakterlidir. Shu bilan birga magmatik jins minerallari karbonat qatlamlaridagi elementlardan kalsiyi, magniyi, temirlarning kelib qo'shilganligini ko'rsatib turuvchi tarkibi yangi hosil bo'lgan jinslar bilan almashinadi.

Tabiatda uchraydigan skarnlar tarkibiga ko'ra, magniyili va kalsiyili xillarga bo'linadi (38-39-jadvallar).

Skarnlar muammosini yechishda Rossiya akademiklari – D.S.Korjinskiy, V.A.Jarikovlar ulkan ilmiy nazariya yaratishdi. Ular jahon miqyosida mavjud skarnlami ikki har xil yo'l bilan diffuzion va infiltrasiya natijasida yuzaga kelishini bildirishdi.

Bulardan birinchisi diffuzion (bimetasomatoz) kontakt bo'ylab ikkala qarama-qarshi tomonga, ya'ni magma'dan cho' kindi jinslar tomon ajralib chiqavotgan yuqori haroratlari eritmalar – faol elementlar, gaz va suv parlari harakat qilsa, o'z navbatida, cho'kindilardan magma tomon faol elementlar

harakati tufayli paydo bo'ladi. Ikkinchisi: infiltrasiya yo'li magmadan yon-atrofdagi jinslarga qarab siljuvchi komponentlarning o'zaro qo'shiluvidan paydo bo'ladi.

Skarnlarning aksariyat qismi ekzoskarnlar deyiladi. Bular dolomit va karbonatlar oralarida kontakt bo'ylab, goho 10 – 100 metrdan bir necha kilometrgacha ro'y berishi mumkin. Tabiatda kamroq bo'lsada, endoskarnlar ham uchraydi. Ular kalsiyga to'yingan intruzivlarning oralarida magmaning so'ngida ro'y beradigan jarayonda hosil bo'ladi.

38-jadval
Magniyli skarnlar va ularga mansub minerallar

Mineral birikmalar	Mansub minerallar	Ikkinci darajali minerallar
Silikatlar	Forsterit, rombik piroksen, granat	Monticillit, plagioklaz, skapolit, sfen.
Gidrosilikatlar	Serpentin, amfibol, flogopit, gummit	Pargasit, biotit, xlorit, epidot, talk
Oksidlar	Sheelit, magnetit, gematit, shpinel	Periklaz, brusit
Sulfidlar	Pirit, pirrotin, xalkopirit	Markazit, bornit

39-jadval
Kalsiyli skarnlar va ularga mansub minerallar

Mineral birikmalar	Mansub minerallar	Ikkinci darajali minerallar
Silikatlar	Monoklin piroksen, granat, vollostanit	Plagioklaz, sillimanit, andaluzit, sfen, danburit
Gidrosilikatlar	Amfibol, vezuvian, epidot, xlorit	Aktinolit, dolomit, antofilit, biotit, talk
Oksidlar	Sheelit, magnetit, gematit, kvars	Shpinel, perovskit
Sulfidlar	Pirit, xalkopirit, pirrotin, sfalerit, molibdenit, galenit, arsenopirit	Markazit, kovellin, bornit, xalkozin, vismutin, kobaltin, millerit

Skarn jinslaming shakli xilma-xil. Bulardan keng tarqalganlari qatlamsimon, linzasimon, ba'zan trubkasimon, tomirsimon ko'rinishda.

Ba'zan qatlamsimon skarnlarning egallagan maydoni: uzunligi 2 – 5 km va qalinligi 500 – 700 metrgacha. Skarnlar bilan bog'liq ravishda yirik ma'dan konlari yuzaga keladi (6-jadval).

40-jadval
Dunyodagi skarn konlarning zaxiralari

Kon turlari	Konlar zaxiralari (ming tonna hisobida)	
	Yiriklari	Kichiklari
Volfframli	50	1 – 15
Polimetalli	1000	50 – 200
Temirli	200.00	2500 – 100000
Misli	10-30	3 – 5
Flogopitli	200-400	10 – 50

Bulardan tashqari, skarnlar bilan bog'liq ravishda oltin, molibden, qalayi, bor va boshqalar hosil bo'ladi.

Skarnlarni tashkil etuvchi minerallar bir necha millimetrdan 1-2 sm gacha bo'ladi. Ba'zan yirik kristallar hosil qilib 10-15 sm, goho 30-50 sm bo'ladi. Skarnlar tuzilishi: dog'simon, yo'laksimon, ammo ko'proq massiv (yaxlit) holda uchraydi. Skarnlar ko'proq zonal tuzilishda bo'ladi. D.S.Korjinskiy Uraldagi Turinsk konida intruzivdan ohaktosh tomon quyidagicha o'zgarishni va ketma-ketlikni aniqladi: kvarsli diorit ® kamroq o'zgargan diorit ® piroksen-granatli skarn ® granatli skarn ®piroksenli skarn. Ushbu yo'nalish bo'ylab plagioklaz tarkibidagi anortit molekulasi ortishi va granatlar grossulyardan andratitga o'tishini bayon etgan. O'rta Osiyo volfram skarn konlarini kuzatishlar natijasida X.M.Abdullayev ularda uchraydigan o'zgarishlarni aniqladi, ular o'zgargan granitlar®endoskarnlar (granatli, granat-epidotli®granat-piroksenni®volostonitli skarn®marmarlashgan ohaktoshlar). Magnezial skarnlarni chuqur o'rgangan N.P.Persev ulardagi o'zgarishlarni quyidagicha ifodalandi: granitlar®piroksen-dolomitli skarnlar®shpinel-piroksenli skarnlar®shpinel-forsterithi skarnlar.

Skarnlar bilan xilma-xil ma'dan konlari bog'liq. Ularning ayrimlari ning geologik hollari bayoni keltiriladi.

Temir skarn konlari. Ushbu turdag'i ma'dan konlari Rossiyada Blagodat, magnitli, Visokiy, Kochar, Qozog'istonda Sokolov, Sorbay;

G'arbiy Sibirda Temirtau, Tashtagol, Shalim, Sheregesh; Sharqiy Sibirda Korshunov, Gorsk; Markaziy Qozog'istonda Keng-Tepa, Atonsur. Ushbu temir konlar diorit, montsonit, plagiogranit, plagiocienit va granitoidlar bilan ohaktoshlarning oralarida (tutashgan joylarida) hosil bo'lgan. Bu konlarning uzunligi bir necha kilometrgacha va eni hamda qalinligi bir necha yuz metrgacha cho'ziladi. Skam temir konlarining zaxirasi 400-600 mln. tonna va ularda temir miqdori 35 – 55% bo'ladi.

Mis konlari. Skarnlarda mis konlari keng tarqalgan. Bularga Uraldag'i Turinsk; Qozog'istonda Chotarkul, Echkio'Imas; AQSHda Bishop, Klifton, Merivil, Santa-Elamiya; Meksikada Tasu Imperial-Kanada; Banat-Ruminiyada hamda Shvetsiya, Finlyandiya, Peru, Boliviya, Chilli, Eron, Indoneziya va Avstraliyada mavjud. Skarnlar ohaktoshlarning granodiorit, plagiogranit va granosienitlar chegaralarida hosil bo'lgan. Ushbu konlarga mansub minerallar xalkopirit, pirit, pirrotin, bornit, sfalerit va molibdenitlar birga uchraydi.

Volfram konlari. Bu turdag'i konlar ayrim o'lkalarda mintaqalar hosil qiladi va ma'lum bir geologik qurilmalarga bog'liq bo'lib uzoq masofalarga cho'zilib yuzaga keladi. Ulardan eng yiriklari O'zbekistonda Qo'ytoch, Ingichka, Langar, Yaxton volfram konlari tizimi. Rossiyada Sixote-Alinda, Yakutiyada, Zabaykale o'lkalarida mavjud. AQSH da (Mills Siti va Bishop), Xitoy, Koreya, Mongoliya, Birma, Indoneziya, Yaponiya hamda Turkiyada keng tarqalgan. Skarn-volfram konlari granidiorit, adamellit, monositlarning karbonatlar bilan chegaralarida yuzaga kelganligi kuzatilgan. Ushbu volfram konlariga xos xususiyatlardan skarnlar-piroksen-granat, amfibol-granat-vollostonitli va granat bo'lib, magnetit va gematit minerallari kam miqdorda bo'lib, ular sheelit va molibdenitlardan ancha keyinroq yuzaga kelgan. Bu konlarda sulfid minerallari ham ancha keng tarqalgan.

Qo'rg'oshin, rux, skarn konlari, keng tarqalgan. Bularga Markaziy Osiyo respublikalaridagi Qizil Espc, Aksoran, Oltintopgan, Kansay, AQSHda Lourens, Bingem, Eronda Ravaj, Turkiyada Oqtog' va boshqalar. Skarn jismalarini yuzaga keltirgan intruziv jinslar granodiorit-porfir, granit-porfirlar Yer yuziga yaqin masofalarda hosil bo'lgan. Skarnlar tarkibida galenit, sfalerit, barit, pirrotin, xalkopirit, arsenopirit, pirit, argentit, vismutinlar ishtirok etadi. Ushbu turdag'i konlarga Oltintopgan koni misol bo'la oladi. Bu kon yuqori palecozoy granitoidlari bilan devon va quyi toshko'mir davr ohaktoshlarning chegaralarida yuzaga kelgan. Bu chegaralar bo'ylab tektonik yoriqlar va darzliklar keng tarqalgan.

11.6. Gidrotermal mineralarning hosil bo'lishi

"Gidrotermal" tushunchasi ikki grekcha so'zdan (gidro – suv; termos – harakat; harorat) olingan bo'lib, "issiq suv" ma'nosiga ega bo'lganiga qaramay, geologiyada "issiq kimyoviy eritmalar" tushunchasini beradi. Ma'lumki, postmagmatik suyuqliklar avvaliga magmatik o'choqlardan ajralgan paytlarida gaz holatiga ega bo'ladi va ularning harorati tabiiy, kritik harorat (400°S – geologiyada qabul qilingan kritik harorat) baland bo'ladi. So'ngra ular nisbatan sovuq bo'lgan tog' jinslari uchun buzilish zonalari tektonik yoriqlar, yer yoriqlari va g'ovaklari orasida siljishi natijasida o'z haroratlarini pasaytira boradi. 400°S chegarasidan o'tayotganlarida, gaz holatlarini yo'qotib, eritma holatiga o'tadi va o'z harakatlarini davom ettiradi. Ana shunday suyuqliklar gidrotermal eritmalar deb ataladi. Ular murakkab tarkibga ega bo'lib, asosini tashkil etuvchi suvdan tashqari, turli jins va ma'dan komponentlariga boy bo'ladi. Gidrotermal eritmalariga baland harorat va katta bosimdan tashqari kimyoviy reaksiyalarga kirishib, natijada bir xil komponentlarini tashlab yoki tog' jinslaridan o'zlashtirib olgan komponentlarga boyib, o'z xususiyatlarini va tarkiblarini o'zgartira boradilar. Bu hodisalar gidrotermal eritmalarning 400° dan 50°S gacha bo'lgan oralig'ida yuz beradi. Ushbu eritmalar tog' jinslari orasida turli ma'danlar to'planishi va foydali qazilma konlari tashkil topishi mumkin.

Gidrotermal konlar tabiatda eng ko'p tarqalgan bo'lib, juda katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Ulardan hozirgi vaqtida qora va legirlovchi (Fe, Mn, Co, Ni, W, Mo) va rangli (Cu, Pb, Zn, Sn, As, Bi, Hg, Sb) asl (Au, Ag), radioaktiv (U) metallar, siyrak eritmalar (selen, tellur va boshqalar), foydali qazilmalar – flyuorit, barit, optik, kvars, magnezit, asbest kabilar qazib olinmoqda.

Gidrotermal konlarni hosil qiluvchi eritmalar turli chuqurliklarda gi magma va undan kristallanayotgan magmatik konlari bilan bog'liq bo'lganlari uchun, gidrotermal konlari ikki guruhga bo'linadi: 1 km dan 5 – 7 km gacha bo'lgan chuqurlikda joylashgan magmatik jins massivlari yoki plutonlari bilan bog'liq bo'lgan gidrotermal konlarni chuqurlikdag'i yoki plutogen gidrotermal konlar deb ataladi.

Har ikki kon hosil qiluvchi gidrotermal eritmalar o'z haroratlarini va bosimlarini doimo pasaytira borganliklari, uyushmalari turli harorat yuzaga kelganligi uchun plutonegen va vulkanogen gidrotermal konlarni tashkil etadi va haroratiga qarab 3 turga bo'linadi:

Yuqori haroratli hidrotermal konlari (400°S - 300°S).

O'rta haroratli hidrotermal konlari (300°S - 200°S).

Past haroratli hidrotermal konlari (200°S - 50°S).

11.7. Mineral hosil qiluvchi ekzogen jarayonlar

Quruqlikda atmosfera agentlari (havodagi kislород, karbonat kislota, suv) bilan mikroorganizmlarning hayotiy faoliyati ta'sirida nurash jarayoni degan umumiy nom bilan ataluvchi kimyoviy jarayon yuz beradi. Bu endogen jarayonlar natijasida hosil bo'lgan mineral va jinslarning hammasi fizik-kimyoviy jihatdan nurab ketishiga ayni bir vaqtida Yer yuzida dunyoga kelgan yangi sharoitlarda barqaror bo'lgan yangi mahsulotlarning hosil bo'lishiga olib keladi.

Shu mahsulotlarning bir qismi yer yuzidagi oqim suvlar bilan erigan holda yoki mayda zarrachalar holatida olib keltiriladi va yo'l-yo'lakay suvning tezligi sekinlashgan joylarda-soylarda, ko'l va dengiz havzalarida ular yetqiziladi. Bu yerda ham o'ziga xos mineral hosil qiluvchi jarayonlar yuz beradi va uning natijasida cho'kindilar suv havzalari tubiga cho'kadi va qatlamlar hosil bo'ladi. Bunga cho'kindi hosil qiluvchi jarayon deb aytildi.

Nurash jarayonlari avvalo tog' jinslari va rudalarning hororati o'zgarishi natijasida sodir bo'ladigan mexanik parchalanishda o'z aksini topadi, bu jins tashkil etuvchi kengayish koeffitsienti turlicha bo'lgan minerallarni darzliklar va g'ovaklarda muzlab qolgan suv va boshqa faktorlar ta'sirida ajralib ketishga olib keladi. Biroq nurab borayotgan minerallarning tarkibida erigan holda kislород, karbonat kislotosi ham boshqa gazlari bo'lgan yomg'ir va Yer yuzidagi suvlar ostida kimyoviy parchalanishi yanada muhimroqdir. Shunga ko'ra, bu suvlar ancha kuchli oksidlantirish va qaytarish qobiliyatiga ega bo'ladi. Grunt suvlari sathigacha singib tusib borayotgan bu suvlar tarkibidagi kislород sodir bo'layotgan oksidlantirish, gidratlanish va karbonatlanish jarayonlari sabab sekin-asta yo'qola boradi.

Yuzaga kelgan erituvchi birikmalar va ba'zi minerallarni yuvib ketib g'ovaklar, ba'zan katta bo'shliqlar (karst-g'or) hosil bo'lishiga sabab bo'ladi. Bu bo'shliqlarning devorlari ko'pincha kolloidal oqiq-quyılma jinslar yoki qandaydir ekzogen minerallar kristallaridan iborat cho'tkalar yoki nihovat, tuproqdek ohaksimon mahsulotlar bilan qoplangan bo'lishi mumkin. Birmuncha osonroq eruvchan jinslar ko'p yuvilib ketgan joylarida katta-katta g'orlarda (gips bilan ohaktosh qatlamlarida) ulamingyuqori qis-

midagi tuproqning cho'kkanligi, ba'zan esa o'pitilishidan hosil bo'lgan voronkalar ko'rindi.

Yerning ustida o'sayotgan o'simlik qoplami shu bilan birga har xil organik moddalar ham eritmaga o'tib, jins va ma'danlarning kimyoviy parchalanish jarayonlarini ancha tezlashtiradi.

Kimyoviy barqaror minerallar (kvars, oltin, platina va boshqa minerallar), shuningdek, yangidan hosil bo'lgan qiyin eruvchan minerallar Yer yuzida qoldiq mahsulotlar orasida to'planib boradi va har xil och-to-q rangli, ko'proq temir gidrooksidli va qo'ng'ir rangga bo'yalgan gilsimon massalar ko'rinishida uchraydi.

Shunday yo'l bilan yer yuzida yoki shunga yaqin joylarda to'planib borayotgan erimaydigan kimyoviy nurash mahsulotlari, ko'proq gidrooksidlar va gidrosilikatlar uyumlaridan iborat qoldiq konlarini hosil qildi. Masalan, gil, kaolin, boksit, temir, nikel va boshqa tarkibiga ko'ra, shularga mos keladigan, ba'zan ancha katta maydonlarni egallagan tog' jinslarning kuchli parchalanishi natijasida paydo bo'ladigan rudalarning ko'pgina konlar shular jumlasiga kiradi.

Kimyoviy nurash qandaydir foydalil qazilma koni ustida ro'y bersa, yuzaga kelgan qoldiq mahsulot shlyapalar (qoplam) deb aytildi (temir, marganes, gips va boshqalar shlyapalar). Bu shlyapalarda qolgan foydali qazilmaning ayrim komponentlarining miqdori yuvilish hisobiga ko'ra, birlamchi parchalanmagan rudalarga, ya'ni grunt suvi sathidan pastda yotgan rudalarga qaraganda ancha ortiq bo'lib qoladi. Ba'zi yuvilib ketadigan metallar, ayniqsa, mis, shuningdek, ruh, kumush va boshqalar suvli eritma sifatida oksidlanish zonasining pastki qismlariga, ya'ni grunt suvi sathiga siljib borib birlamchi rudalar yoki kimyoviy faol yos jinslar (ohaktoshlar) bilan reaksiyaga kirishini ko'rsatib o'tish kerak. Mis sulfid konlarida shunday paytlarda ikkilamchi sulfidli boyish zonasini hosil bo'lib, zona rudalaridagi mis miqdori ancha ortadi.

Kimyoviy nurash jarayonlarida iqlimiyl omillar (yillik o'rtacha harorat va yog'ingarchilik miqdori) katta rol o'ynaydi. Namgarchilik kam va yillik o'rtacha harorat yuqori bo'lgan paytlarda oksidlanish va kimyoviy birikmalarning to'planishi birmuncha tezroq boradi. Bunda o'sha joyning refezi ham katta ahamiyatga egadir. Tog'li hududlarda erozion faoliyat kuchli bo'lganligi uchun kimyoviy nurash mahsulotlari to'planib ulgurmay yuvilib ketadi. Relyefi past bo'lgan hududlarda butunlay boshqacha holni ko'ramiz. Nurash jarayonida yuzaga kelgan konlarning shakli odat-

da unchalik to'g'ri bo'limgan uyasimon yoki qatlamsimon uyumlardan iborat bo'lib, yerning yuzasiga birmuncha parallel ravishda yotadi. Katta-katta yoriqlar, maydalanganda jinslar zonası bo'ylab hamda fizik va kimyoviy xususiyatlari turlicha bo'lgan jinslar kontakti bo'ylab, ya'ni yer yuzi nurash agentlari chuqurroq bora oladigan joylarda tik joylashgan, chuqurlasha borgan sari ingichkalanadi, yo'q bo'lib ketadigan ma'dan mahsulotlari yuzaga kelishi mumkin.

Cho'kindi hosil qiluvchi jarayonlar suvli muhitlarda, daryo, ko'l va dengizlarda yuzaga keladi. Dengiz havzalarida shu jarayonlar hamma geologik davrlarda ham juda qalin cho'kindi jins qatlamlarining yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. Bular mexanik va kimyoviy cho'kindilarga bo'linadi.

Mexanik cho'kindilar nurash mahsulotlarining yuvilib, kimyoviy barqaror minerallari bilan tog' jins parchalarining shag'al, qum va qumli gillar shaklida daryo vodiylarida ham suv havzalarida qayta yotqizilishi natijasida hosil bo'ladi. Agar tarkibida kimyoviy barqaror qimmatli minerallari bo'lgan kon va jinslarning nurash mahsuloti yuvilsa, u holda bularning qayta yuvilishi va mahsulotning solishtirma og'irligiga ko'ra, taqsimlanib qayta yotqizilishi natijasida daryo vodiylarida ko'pincha sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan sochilma konlar hosil bo'ladi. Oltin, platina, olmos va boshqalarning sochilma konlari shular qatoriga kiradi.

Mexanik cho'kindilar to'planishi jarayonlarida yangi minerallarning hosil bo'lishi yuz bermaydi. Jins parchalarida bo'lgan ayrim keyingi kimyoviy o'zgarishlar ba'zan qadimiy sochilmalardagina kuzatiladi.

Kimyoviy cho'kindilar asosan ko'l va dengiz havzalarida yuzaga keladi. Cho'kindilarning hosil bo'lishi turlicha yo'llar bilan sodir bo'lishi mumkin: tuzlar bilan to'yingan eritmalarining kristallanishi yoki gillarga aylanib borayotgan kolloid mahsulotlarning cho'kishi, yoxud organik dunyo hayotiy faoliyati mahsulotlari va organik qoldiqlarning to'planishi yo'li bilan yuzaga keladi.

Kristallangan cho'kindilarning hosil bo'lishi qurib borayotgan ko'pgina ko'llarda uchraydi ularda quruq issiq iqlimli sharoitlarda yuzadagi bug'lanish quyilayotgan chuchuk suv oqimidan katta bo'ladi.

Suvli eritma birmuncha o'ta to'yinishi bilan tuzlar kristallana boshlaydi. Minerallarning birin-ketin o'sish tartibi (N_2O) kuchli bug'lanayotgan paytda sistemalar muvozanatining ikkita asosiy omili: eritmalar tarkibi, to'g'rirog'i shu sistemaga kiruvchi komponentlar konsentratsiyasi-

ning o'zaro nisbati va kristallanishi yuz beradigan eritma harorati bilan belgilanadi. Dengiz suvlarida $\text{Ca}, \text{Mg}, \text{K}$ va Na sulfat va xlorit tuzlarining muvozanat sharoitlari har xil konsentratsiya va haroratlarda Vant-Goff, N.S.Kumakov va boshqa ko'pgina olimlar tomonidan batafsil tekshirilgan.

Kolloidal cho'kindilarning ko'l va dengiz havzalarida hosil bo'lishi ancha murakkab jarayon bo'lib, bu hodisa har tomonlama yetarli darajada tekshirilgan emas. Nurash natijasida yuzaga kelgan ba'zi birikmalarning faqat haqiqiy eritmalar shaklida emas, chuchuk suvlardan barqaror bo'lgan kolloid eritmalar-zollar shaklida oqava suvlari bilan olib ketiliши aniqlangan. Bu eritmalar yerning ustki suvlari bilan birga dengiz suvlari quyilib, erigan tuzlar ionlari shaklida dengiz suvlardan juda ko'p miqdorda bo'lgan elektroidlar ta'sirida ularning koagulyatsiyalanishi yuz beradi. Temir, marganes, kreminiy va boshqa elementlar oksidlari kolloid eritmalarini xuddi shunday yo'l tutadi.

Hosil bo'lgan gellar daryo suvlari oqizib kelgan zarrachalari, mayda jins parchalari va dengiz organizmlari qoldiqlari bilan birga kichik qatlamlar yoki birmuncha qalin to'g'ri-tekis qatlamlar shaklida suv havzalari qirg'oq bo'yи zonalari tubiga yotqiziladi. Vaqt o'tishi bilan shu cho'kindilarda ba'zi o'zgarish (diagenezis) va ularning zinch massalariga aylanish jarayonlari yuz beradi.

Cho'kindi marganes konlari misolida cho'kindilardagi minerallar paragenetik assotsiatsiyalarining suv havzalari tubidagi cho'kindi hosil qiluvchi fizik-kimyoviy sharoitlar bilan bog'liq ravishda qonuniy o'zgarishi aniqlangan. Qirg'oqqa yaqin sayoz joylarda to'rt valentlik marganesning kislородга boyroq birikmalari tarqalgan bo'lib, ular qirg'oq chizig'idan uzoqlashgan sari siyrak temir sulfidlari bilan birga topiladigan ikki valentli marganes karbonatlari bilan sekin-asta almashina boradi. Suvi sayoz joylarda cho'kindilarning to'planishi dengiz suvida ma'lum chuqurliklarga erigan holda kislород kelib turgan sharoitlarda sodir bo'lsa kerak, bermuncha chuqur suvli joylarda kislород yetishmagan va organik qoldiqlar karbonat kislotalar bilan qisman vodorod sulfid hosil qilib parchalangan. Buning hisobiga karbonatlar bilan bir qatorda oltingugurtli birikmalar yuzaga kelgan bo'lsa kerak. Shuning natijasida tarkibiga ko'ra, xilma-xil (oksid va karbonat) bo'lgan rudalar fatsiyalarni vujudga kelgan. Oksid, silikat va karbonatlardan iborat fatsiyalarning borligi qadimdan ma'lum bo'lgan temir konlarida xam turli tarkibli cho'kindilar o'zaro xudi shunday munosabatda bo'lsa kerak.

Dengiz havzalarining chuqur joylarida va okeanlarda yuz beradigan jarayonlar natijasida foydali qazilmalar hosil bo'ldi.

Organizmlarning juda murakkab hayotiy faoliyatları natijasida hosil bo'ladigan organogen yoki biogen cho'kindilar qatoriga dengiz jonivorları skelet mahsulotlarida tarkib topgan ohaktochlari, kreminiyli skeletlaridan tashkil topgan diatomitlar asosan o'simlik, qisman hayvon organizmlari hisobiga vujudga kelgan kaustobiolitlar (grækcha «kaustos»-yonuvchi demakdir) yuzaga keladi. Masalan, qazilma ko'mir, yonuvchi slaneslar, yonuvchi gazlar, qattiq bitumlar shular jumlasidandir.

Organogen cho'kindilar qirilib borayotgan hayvonlar skeletlarining (chig'anoqlarining) yuqori yoki quyi o'simliklar to'qimalarining to'plani-shi (torf, sapropel) yo'li bilan hosil bo'lishi mumkin. Shuningdek, ularning o'zi organizmlar hayotiy faoliyatining natijasi bo'lishi mumkin. Masalan, anaerob bakteriyalar organik qoldiqlar yoki sulfatlarni parchalab, niroyat shu jarayon natijasida oltingugurt uyumlari hosil qiladi. Niroyat, bakteriyalar faoliyati mahsuloti hisobiga laboratoriya sharoitlarida ferrobakteriyalar uchun isbot qilingandek tugunchasimon mahsulotlar ham yuzaga kelishi mumkin.

Keyingi qayta tug'ilishlar davomida ana shu cho'kindilarning bir xillari anorganik mahsulotlarga aylanadi (masalan, fosforitlar), boshqa xillari esa anorganik birikmaligicha qolib ketadi (toshko'mir va boshqalar).

11.8. Regional metamorfizm va uning bilan bog'liq bo'lgan mineral hosil qiluvchi jarayonlar

Endogen singari ekzogen jinslarning ham juda katta o'zgarishi regional metamorfizm deb ataluvchi jarayonlarda yer qobig'inining yuqori qismlari tektonik harakatlar natijasida chuqurlikka tushib qolgan paytlarda, ya'ni juda yuqori harorat va bosim sharoitlarida yoki tog' hosil qiluvchi qudratli jarayonlar namoyon bo'lgan sharoitlarda boshlanadi.

Bunday sharoitlarda tog' jinslari bilan rudalarning kimyoiy va mineral tarkibi, shuningdek, xususiyatlari bilan tashqi shakli ham ko'p o'zgaradi. Ekzogen sharoitlarda yuzaga kelgan suvga boy birikmalar suvsiz yoki kam suvli birikmalarga aylanib qoladi (masalan, opal-kvarsga, limonit-gematit yoki magnetitga aylanadi va h.k). Shu bilan bir paytda moddalarning qayta kristallanishi yuz beradi (masalan, organogen ohaktosh avvalgi struktura xossalari yo'qtib marmarga aylanadi). Ko'pgina jinslarda jumladan, magmatik jinslarda komponen tlarning yangi mineralllar

hosil qilib to'liq qayta guruhlanishi yuz beradi. Gips, sof tug'ma otingugurt, osh tuzi va shu kabilar ba'zi bir minerallar metamorfik jins qatlamlarida mutlaqo uchramaydi. Kimyoviy reaksiyalar yuqori bosim va haroratlar ta'sirida hajmi kichik va solishtirma og'irligi ortiqroq bo'lgan minerallar hosil qilish tomonga qarab intiladi. Minerallar paragenezisi metamorflanuvchi jinslar tarkibi bilangina emas, balki ko'p jihatdan metamorfizm sodir bo'layotgan chuqurlik ya'ni termodinamik sharoitlar bilan ham bog'liq bo'ladi.

Jinslarning o'zi kuchli dinamik ta'sir ostida yassi parchalarga va plitkalarga ajralish qobiliyatiga ega bo'lgan slaneslarga aylanadi (gil slaneslar, aspid slaneslar, slyudali slaneslar, gneysslar va boshqlar). Agar yupqa qatlamlili cho'kindi jinslar metamorfizm ta'siriga berilsa, shu bilan birga bosimning yo'nalishi qatlamlar bilan mos yoki shunga yaqin kelsa, u holda qatlamlar egilib, juda mayda burmachalar hosil bo'ladi.

Mineral moddalarning qayta guruhlanishida N₂O, SO₂ kabi komponentlar bilan boshqa mineralizatorlar shubhasiz rol o'ynaydi va ularning yordamida faqat moddalarning qayta kristallanishigina emas, balki metasomatoz hodisasi, hattoki mineral moddalarning qayta yotqizilishi ham sodir bo'ladi. Bunda magmatik jinslarga yoki metamorfizmga beriladigan jinslarning o'zi N₂O va SO₂ manbayi hisoblanadi. Ba'zi jinslardan, ayniqsa, cho'kindi jinslardan ular massasining qayta kristallanib suvsiz minerallar aggregatiga aylanishi jarayonida juda ko'p miqdorda suv bilan qisman karbonat kislota ajralib chiqadi. Yuqori harorat va bosim sharoitlarida shu metamorfik suv genezisi jihatidan magmatik intruzivlar faoliyati bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xos gidrotermallarning hamma xususiyatlariiga, ya'ni minerallarni ortiqcha eritish qobiliyatiga, darzliliklar bo'ylab, yoki metasomatoz yo'li bilan siljitimish va yotqizish qibiliyatiga ega bo'lishi kerak. Biroq bu metamorflanuvchi jinslarning magmatik suv bug'lari bilan ayniqsa, nordon magmatik jinslarning katta-katta intruzivlari ko'tarilgan hududlarda singdirilishi mumkinligi ham inkor etilmaydi.

Metamorflashgan qatlamlarda uchraydigan foydali qazilma konlari genetik belgilariга muvofiq quyidagi turlarga ajratiladi: a) metamorflashgan konlar, ya'ni metamorfizmga qadar mavjud bo'lgan konlar (masalan, temir va marganes cho'kindi konlari) va b) faqat metamorfizm jarayonidagina vujudga kelgan metamorfik konlar.

Organik qoldiqlari hisobiga metamorfik qatlamlarda hosil bo'lgan grafit shu keyingi turdag'i konlar uchun misol bo'la oladi. Yashirin kris-

tallangan va o'simlik izlari saqlanib qolgan graftiting toshko'mir qatlamlari hisobiga paydo bo'lgan hollari ham bo'lganligi ma'lumdir. (Uralning Sharqiy yon bag'irlaridagi metamorfik qatlamlarda). Bunday paytlarda grafit yangidan hosil bo'lgan jins sifatida bo'lib, endi u avvalgi xususiyatlari tubdan o'zgarib ketganligi va yengil-uchuvchan moddalarini yo'qolganligi natijasida yonuvchi foydali qazilma bo'lib qola olmaydi.

Mineralogik jihatdan ahamiyatga ega bo'lgan «alp tipidagi tomirlar» deb aytiladigan tomirlar ham huiddi shu tipga mansubdir (nomi birinchi topilgan joyiga qarab berilgan). Shu tomirlarda xilma-hil minerallarning juda ko'rak kristallari topilganligi mineraloglarning e'tiborini qadimdan o'ziga jaib etib kelmoqda.

Shu tomirlar metamorfik qatlamlarda jinslarning qatlamlanish tekisligiga ko'ndalang ravishda yuzaga kelgan yoriq bo'shlilari bilan bog'liq bo'ladi. Shunday tomirlar tarkibining eng xarakterli xossasi shuki, bularda metamorfizm jarayonida atrofidagi jinslarda yuzaga kelgan minerallar taxminan nisbatlarda kristallanadi. Faqat tarkibida Ti, P, Cl, B va boshqa elementlar ishtirok etuvchi yengil eruvchan minerallar darzlarda jinslar orasida kam uchraydigan yon jinslardagiga qaraganda birmuncha ko'proq miqdorda topiladi. Shunisi xarakterlikni, bu jarayonlarda magmatik suvlarning ishtirok etishi mumkin ekanligi inkor etilmasa ham, ularning genezisi jihatidan nordon magma intruziyasi gidrotermal faoliyati bilan bog'liq ekanligini ko'rsata oladigan kimyoviy elementlar va minerallar (masalan, oltin, kumush, qo'rg'oshin, rux, qalay, volfram va boshqa elementlar minerallari) odatda uchramaydi.

Metamorfik jinslardagi ingichka darzlar mineral moddalar bilan butunligicha to'ldiriladi. Masalan, kulrang marmarlardagi oq rangli kalsit tomirchalari, qizil yashmalardagi sutdek oq rangli kvarts tomirchalari va boshqalar. Shu bilan birga shu tomirchalardagi kristall donalari atrof jinslardagiga qaraganda doimo yirikroq bo'ladi.

11.9. O'zbekiston hududida topilgan minerallar

Chuqur geologik tadqiqotlar natijasida respublikamizda 701 ga yaqin mineral va ularning 141 yangi turlari o'rGANildi. Jumladan, 13 ta mineral va ularning 5 ta yangi xillari dunyoda birinchi marta aniqlangan.

Avisennit – tarkibida katta miqdorda (86 – 88%) talliy oksidiga ega bo'lgan mineral. Birinchi marta 1956 yili X.N.Karpova va V.F.Savelevlar Zirabuloq tog'lari, Juzumli qishlog'i yaqinida silur davriga mansub ohak-

toshlardagi limonitlashgan kalsit tomirlari ichidan topishgan. Shu bilan birga dolomit, ankerit va boshqa temirli minerallar borligi ham aniqlangan. Avisennit mayda kubchalar shaklidagi kristallar holida uchragan. Rangi kulrang-qo'ng'ir toylanuvchi qora. Metallsimon yaltiroq, mo'rt, notejis sinadi. Qattiqligi 3 bilan 5 o'rtasida. Solishtirma og'irligi 10,42. Kristallar sarg'ish qo'ng'ir parda bilan qoplangan. Mutaxassislar tomonidan mukammal o'rganib chiqilgan bu mineralga buyuk mutafakkir Abu Ali ibn Sinoning Yevropada tarqalgan nomi (Avitsenna) berilgan.

Birunit – dunyoda birinchi marta 1955 yili O'zbekiston Fanlar akademiyasi Geologiya va geofizika instituti xodimlari S.T.Badalov va I.M.Golovanovlar tomonidan Olmaliq shahri yaqinidagi Qo'rg'oshin-kondan topilgan. Birunit oq rangda, xira yaltirovchi tolasimon agregatlar holida uchraydi. Kimyoviy xususiyati kalsiy silikati, kalsiy karbonati va kalsiy sulfatidan iborat. Qattiqligi-2, solishtirma og'irligi-2,36, xlorid kislitasida eriydi. Aniqlanishicha birunit, konlarning oksidlanish zonasida gausmanit deb ataluvchi mineralning o'zgarishi natijasida hosil bo'la-di. Topilgan yangi mineral taniqli ensiklopedist olim, buyuk alloma va mineralogiya sohasida ko'plab asarlar varatgan mutafakkir Abu Rayhon Beruniy nomi bilan atalgan. Bu mineralning topilishi yer sathidan chuqur-roq joylarda hali oksidlanmagan ma'danli jinslar borligidan darak beradi.

Uklonskovit – mineralogiyada suvli sulfatlar deb ataluvchi guruhga mansub mineral bo'lib, 1964 yili geolog M.E.Slyusareva tomonidan Amudaryoning quyi oqimida joylashgan uchlamchi davrga mansub gillar ichidan glauberit, astraxanit, poligalit kabi tuzlar bilan birga topilgan. Mineral prizma shaklidagi shaffof, shishasimon yaltiroq kristall holida bo'lgan. Bu kristallar gillar ichidagi yoriq va bo'shilq devorlarini qoplab olgan. Solishtirma og'irligi 2,42, uncha kuchli bo'limgan kislotada eriydi. Suvda erimaydi. Kimyoviy tarkibining asosiy qismini natriy, magniy oksidlari va oltingugurt angidridi tashkil qiladi. Uklonskovit tuz konlari paydo bo'lishi jarayonidagi bosqichlarni aniqlashga imkon yaratadi hamda ma'lum darajada yirik xomashyojar manbayini topishga yordam beradi.

Sho'rsuvit – bu mineral "achchiqtosh" nomi bilan qadimdan O'zbekistonda ma'lumdir. Sho'rsuvit dunyoda birinchi marta 1995 yili N.T.Vinichenko tomonidan o'rganilgan va fanga kiritilgan. Kimyoviy tarkibi magniy, temir, natriy-sulfatidan iboratdir. Shuningdek, 12% alyuminiy ham bor. Rangi oq, ba'zan kulrangroq xillari ham bo'ladi. Ipak-dek toylanib turadi. Tolasimon kristallarining uzunligi 10 millimetrr bo'lib,

uncha qattiq emas, suvda yaxshi eriydi. Mazasi nordon, og'izni burish-tiruvchi xossaga ega. Sho'rsuvitda achchiqtoshlarning barcha xususiyatlari mayjud bo'lib, paydo bo'lish jarayoni ham unga o'xshashdir. Bu minerallar asosan yer po'stining ustki qismida ma'danli konlarning oksidlanish zonasida, ikkilamchi kvarsitlar (masalan, alunit) bor joylarda hamda oltingugurt konlarida hosil bo'ladi. Shu konlardagi oltingugurt yoki pirit (temir kolchedani)ning oksidlanishi tufayli paydo bo'ladigan sulfat kislotaning shu atrofidagi serisit gilli minerallarga ta'siri natijasida achchiqtoshlar, shu jumladan, sho'rsuvit minerali shakllanadi. Bu mineral bilan birga gips, oltingugurt, celestin, yarozit kabi minerallar ham uchraydi. Ularni yer yuzasidan 10 metr chuqurlikda uchratish mumkin.

Aniqlangan yangi mineral muallif taklifiga ko'ra, topilgan joyi-Sho'rsuv koni (Farg'ona viloyati) nomi bilan atalgan.

Ustarasit Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanidagi Ustarasoy qishlog'idagi vismut konida topilganligi uchun ham shu nom bilan atalgan. Ustarasit 1955 yili birinchi marta M.S.Saxarova tomonidan topildi. Keyinchalik E.A.Dunin-Barkovskaya, R.I.Nazarova va boshqalar tomonidan mukammal o'rganilgan vismut uchun xomashyo hisoblanadigan mineraldir. Kimyoviy tarkibi qo'rg'oshinli vismut sulfididan iborat bo'lganligi uchun uni uzoq vaqt «qo'rg'oshinli vismut» deb yuritilgan. Yuzaki qaraganda ustarasitni vismutdan farq qilish ancha qiyin. Ko'pincha, uzunligi 1,5 santimetrga yetadigan prizmasimon kristallar holida uchraydi. Qattiqligi 2,5 rangi to'q kulrang, metallsimon yaltiroq. Yaxshi tozalangan yuzasiga konsentrashgan azot kislotasi tomizilganda qaynab, qora tusga aynalib qoladi. O'tkazilgan kimyoviy tahlil yordamida tarkibida 10-51%dan 13-14% qo'rgoshin, 60-10% dan 65-33% gacha vismut borligi aniqlangan. Aralashma sifatida juda oz miqdorda mis, kumush, surma va margimush ham bo'ladi. Ustarasit margimush-vismut konidagi gidrotermal tomirlarda sheelit, pirit, pirrotin, kvars ankerit kabi minerallar bilan birga uchraydi. Ustarasit yer yuzasida va yer po'stining oksidlanish zonasida o'zgarib, vismut gidrokarbonatlariga aylanadi.

Gidroglauerit deb nomlanuvchi mineral ko'pchilikka ma'lum bo'lgan tuz konlарida tez-tez uchrab turadigan glauerit tuzining suvli birikmasi hisoblanib, mutloq yangi mineral sifatida 1969 yili M.N.Slyusareva tomonidan aniqlangan. Bu mineral Qoraqalpog'istonidagi Borsakelmas, Qoraumbet kabi joylarda uchraydi. Qorsimon, tolasimon oq mayda kristallar hosil qiladi. Solishtirma og'irligi 1,5; quruq havoda buzilmay, lekin sal nam tegishi bilan tezda erib ketadi.

Gips yoki glauberit tuzi tarkibida natriy-sulfat bor eritmalarining ta'sir etishi natijasida paydo bo'ladi. Tuz konlarining paydo bo'lish tarixi va tarqalish xususiyatlarini bilib olishda muhim rol o'ynaydi. Mineralga berilgan nom uning kimyoviy tarkibiga moslab qo'yilgan.

O'zbekit – birinchi marta 1926 yili I.D.Kurbatov (Qorachatir va ke'yinchalik Og'aliqda), S.T.Badalov (Nurota tog'larida), E.A.Konkovalar (Qizilqumda) tomonidan topilgan. Rangi to'q-yashil, qattiqligi-3, plastinkasimon kristallar holida uchraydi. Kimyoviy xususiyati jihatdan misning suvli vanadati guruhiga kiradi. Mis oksidining miqdori 30 – 37% dan 44 – 69%gacha, suvniqi esa 6 – 07% dan 12 – 98%gacha o'zgarib turadi. Suvning oz yoki ko'pligiga qarab, bu mineral «alfa» va «beta» turlarga ajratiladi. Bularidan tashqari uning tarkibida juda oz miqdorda magniy, stronsiy, bariy, titan, marganes va nikel bo'lishi ham mumkin.

O'zbekit vanadiyli qora ko'mirsimon slaneslar oksidlanishi natijasida paydo bo'ladi. Birinchi marta O'zbekistonda topilgani uchun shu nom bilan atalgan.

Konnelit. Markaziy Qizilqumdagagi Qopqatosh (Kokpato)da 1966 yili O'zbekiston fanlar akademiyasi Geologiya va geofizika instituti xodimi A.Q.Qosimov, 1968 yili D.A.Saxor Navqat (Farg'onha vodiysi)da uzoq vaqt tadqiqot ishlari olib borishlari natijasida topishgan. Bu mineral il-gari AQSH, Angliya va Afrikada ham topilgan edi. Rangi och lojuvard, ko'kimir, oynasimon yaltiroq. Uncha qattiq emas, ba'zan shaffof kris-tallari ham uchraydi. Tarkibida 54% mis, juda oz miqdorda magniy, titan, marganes, nikel, molibden, kumush, surma ham bor. Shuningdek, konnelit bilan birga malaxit va misning boshqa minerallari ham uchraydi. Bu minerallar oltinli sulfid konlarining oksidlanish zonasida birlamchi misli minerallarga sulfatlari eritmalarining ta'sir etishidan hosil bo'ladi. Uning topilishi shu atrofda mis va oltin konlari mavjudligidan dalolat beradi.

Xalkofanit ham birinchi marta A.Q.Qosimov tomonidan 1966 yili Qizilqumning Tesquduq degan joyidan topilgan. Fizik-kimyoviy xususiyati jihatidan mumsimon qora, ko'kish tovlanib turadigan plastinkasimon, kristallari uncha qattiq emas. Kimyoviy tarkibidagi asosiy komponent rux va marganes oksidlaridir. Shuningdek, oz miqdorda qo'rg'oshin, mis, nikel, kobalt va molibden ham bor. Xalkofanit ko'pincha, birlamchi ma'danli minerallarining o'zgarishidan hosil bo'ladi va o'ziga o'xshash ikkilamchi kalamin, gidrotsinkit, grinokit kabi minerallar bilan birga uchraydi.

Tintikit – suvli fosfatlar guruhiga mansub mineral bo'lib birinchi marta 1963 yili A.Q.Qosimov tomonidan Markaziy Qizilqumdagagi ol-

tin konlarining biridan topilgan. O‘z navbatida, bu topilma dunyoda ikkinchi hisoblanadi. Yashilroq tovlanuvchi tuproq rangida, tashqi shakliga qaraganda mineral gil moddaga o‘xshab ketadi. Qattiqligi 2 – 2,5 atrofida. Tilga tekkizganda yopishadi. Kimyoviy tarkibida asosiy komponentlaridan tashqari stronsiy, marganes, titan, xrom, bariy, kumush, mis va boshqa elementlar mavjud. Tintikit oksidlanish zonasida hosil bo‘ladigan minerallarning oxirgilaridan biri hisoblanadi.

Daloresit – dunyoda birinchi bor Ispaniyada topilgani uchun Ispaniya davlat arbobi Dolores Ibarruri nomi bilan atalgan. Bu mineral keyinchalik Qizilqumda qadimgi o‘ta o‘zgargan slaneslar ichidan I.G.Smislova tomonidan topilgan. U yashilroq tovlanadigan qora rangli, xira ignasimon kristallar holida aniqlangan. Kimyoviy tarkibiga qarab bu mineral murakkab oksidlar – vanadiyli gidrooksidlar guruhiга kiritilgan. Birlamchi minerallar o‘zgarishidan paydo bo‘lgani uchun daloresit uchragan joy atrofidan vanadiyli minerallar uyumini topish ham mumkin.

AQSHning sobiq prezidenti Ruzvelt sha’niga atalgan Ruzveltit minerali ham birinchi marta bir guruhi mineraloglar tomonidan Chotqol tog‘laridan topilgan. Rangi oqish-kulrang, ba’zan och yashil, juda mo‘rt, solishtirma og‘rligi 5,37. Konlarning oksidlanish zonasida birlamchi minerallarning o‘zgarishi natijasida uzumning shingiliga o‘xshash oqiq va boshqa minerallar ustida yupqa hosil qiladi. Xlorid va azot kislotalarida yaxshi eriydi. Kimyoviy tarkibining asosiy qismini vismutin va margimush oksidi tashkil qildi.

Sampelit – birinchi marta 1942 yili Chilida va keyinchalik 1959 yilda mamlakatimizda birinchi bor taniqli mineralog M.I.Moiseeva Qurama tog‘laridagi Qalmoqqir mis konidan uzoq vaqt ilmiy qidiruvlar natijasida topishga tuyassar bo‘lgan. Bu mineral suvli fosfatlar guruhi mansub bo‘lib, tarkibida 44%gacha mis oksidi, 34%gacha fosfat angidridi bor. Bulardan tashqari spektral tahlil yordamida juda oz miqdorda qo‘rg‘oshin, simob, sirkoniy, bariy, berilliyl va boshqa elementlar borligi ham aniqlangan. Sampelit tabiatda oksidlanish zonasidagi temir qo‘ng‘irtoshi, kaolin kabi minerallar usti yupqa tuproqsimon po‘stloqchalar holida uchraydi. Rangi och havorang, sadafsimon yaltiraydi. Uncha qattiq emas. Kislotalarda osongina eriydi. Sampelit topilgan joy tubida yoki shu atrofda mis uchun xomashyo hisoblanadigan ma’dan bor bo‘lishi mumkin.

Koronadit minerali ham murakkab oksidlar – gidrooksidlar guruhi mansub bo‘lib, uni birinchi bor 1958 yili mineralog I.M.Golovanov

Olmaliqdagi Qo'rg'oshinkon – polimetall konining oksidlanish zonasidan topgan. Koronadit qora, po'latga o'xshash kulrang tusda bo'lib, mayda kristall donachalar holida uchraydi. Qattiqligi 4,5, kimyoviy tarkibining asosiy qismini qo'rg'oshin oksidi (27%gacha), marganes oksidi (24%gacha), marganes ikki oksidi (64%gacha) va suv (5%gacha) tashkil qiladi.

Xamrabaevit (Ti, V, Fe) C. O'zbekistonda birinchi marta R.G.Novgorodova, R.G.Yusupovlar tomonidan 1984 yili Chotqolning Arashan tog'ida bazalt porfiritlari tarkibida aniqlangan. Mineral nomi akademik I.X.Xamrabaev sharafiga qo'yilgan. Jahon mineraloglar jamiyatini tomonidan 1986 yilda ro'yxatdan o'tgan.

Xamrabaevit tarkibida (% hisobida), titan-69,32, uglerod-20,05, temir-1,08, kremniy-0,1 uchraydi. Mineral kubik singoniyali, qattiqligi 9, rangi kulrang-qora, metallsimon yaltiroqlikka ega.

Kuramit Cu₃ Sn S₄ V.A.Kovalenker tomonidan 1979 yili Kochbuloq oltin konida topilgan. Mineral topilgan joy bo'yicha nomlangan (Qurama tog' tizmasi). Bu mineral oltin-sulfid-kvars konida pirit, tetracedit, xalkopiritlar bilan birga uchraydi. Kulrang mineral, qattiqligi -5. tarkibida (% hisobda): mis-36,54, qalayi-30,05 oltingugurt-28,02 miqdorda aniqlangan.

Biz yangi topilgan minerallar haqida qisqaqa to'xtalib o'tdik. O'zbekiston Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi, davlat mukofoti sohibi taniqli geolog olim I.H.Hamroboev (birinchi bo'lib ransettinni topgan), mineralog I.G.Smislova (dunyoda ikkinchi topilma-vanadiy mineralini aniqlagan), S.T.Badalov (1951 yili granatning vanadiyli turini topgan), L.N.Eneikeeva (1977 yili topgan granatning xrom-vanadiyli yangi turini topgan), A.Q.Qosimov (mamlakatimizda birinchi marta Qizilqumdan sirilovit, seruleolaktit mineralarini topgan), U.Rahmedov (dunyoda birinchi marta lenneit-politimit guruhiga mansub yangi mineralni topgan), Z.I.Hamraboeva (xedliit mineralini aniqlab topgan) va boshqalarining izlab topgan ana shunday yangi mineral-qazilma boyliklari hozirgi vaqtida iqtisodiyotimizni yuksaltirishda juda katta rol o'ynamoqda. Bunday minerallar keng jamoatchilik, mineralog olimlar va shu sohaning mutaxassislari tomonidan e'tirof qilinib, tegishli ensiklopediyalarga, atlaslar va qo'llanmalarga kiritilgan.

11.10. Eng muhim mineralarning asosiy metallari (elementlari) bo'yicha ro'yxati.

Quyida tarkibida ko'proq miqdorda sanoat uchun muhim ahamiyatli biron metall (yoki masalan boratlardan bor kislotasi olingani kabi rudalarni

qayta ishlab olinadigan birikmalar) ishtirok etuvchi ba'zi bir minerallar guruhining ro'yxati beriladi.

Bu minerallar qatoriga ayrim ikkinchi darajali deb hisoblangan o'zicha ahamiyatga ega bo'lmasan, lekin asosiy minerallar bilan birga topilib, texnologik qayta ishlash jarayonida asosiy metall yoki birikmalar olish uchun qo'shimcha manba bo'lib xizmat qila oladigan tabiiy birikmalar ham qo'shilgan.

Har qaysi guruhdagi minerallar kimyoviy turiga qarab, shu darslikda qabul qilingan tasnif bilan yoziladi (sof tug'ma elementlardan boshlanadi va silikatlar bilan tamomlanadi).

ALYUMINIIY

Kriolit-	Na ₃ AlF ₆	Kordierit-	Al ₃ (Mg,Fe)₂[AlSi ₅ O ₁₈]
Korund-	Al ₂ O ₃	Pirofillit-	Al ₂ [Si ₄ O ₁₀]₂[OH]₂
Shpinel-	MgAl ₂ O ₄	Muskovit-	KAl ₂ [AlSi ₃ O ₁₉]₂[OH]₂
Gidrargillit-	Al[OH]₃	Xloritoid-	Fe ₂ Al ₂ [Al ₂ Si ₂ O ₁₀]₂[OH]₄
Byomit-	Al O ON	Margarit-	CaAl ₂ [Al ₂ Si ₂ O ₁₀]₂[OH]₂
Diaspor-	H AlO ₂	Amezit-	(Mg,Fe)₄ Al ₂ [Al ₂ Si ₂ O ₁₀]₂[OH]₄
Achchiq toshlar-	KAl[SiO ₄] ₂ ·12H ₂ O	Kaolinit-	Al ₄ (Si ₄ O ₁₀) ₂ [OH]₈
Alunit-	KAl ₃ [SiO ₄] ₂ [OH]₆	Galluazit-	Al ₄ [Si ₄ O ₁₀]₂[OH]₈·4H ₂ O
Topaz-	Al ₂ [SiO ₄](F,OH)₂	Albit-anortit-	Na[AlSi ₃ O ₈]·Ca[Al ₂ Si ₂ O ₈]
Disten-	Al ₂ SiO ₅	Ortoklaz, mikroklin-	K[AlSi ₃ O ₈]
Andaluzit-	Al ₂ SiO ₅	Leysit-	K[AlSi ₂ O ₆]
Sillimanit-	Al ₂ SiO ₅	Nefelin-	Na[AlSi ₃ O ₄]
Dyumorterit-	Al ₁₈ BSi ₃ O ₁₉ [OH]		
Granatlar (glinozemli)-R ₃ Al ₂ [SiO ₄] ₃			

BARIY

Viterit-	BaCO ₃
Baritokalsit-	BaCa[Co ₃] ₂
Barit-	BaSO ₄
Selzian-	Ba[Al ₂ Si ₂ O ₈]

BERILLIY

Bromellit-	BeO
Xrizoberill-	BeAl ₂ O ₄
Fenakit-	Be ₂ SiO ₄
Evklaz-	Be ₂ Al ₂ Si ₂ O ₈ [OH]₂
Gadolinit-	V ₂ FeBe ₂ Si ₂ O ₁₀
Bertrandit-	Be ₄ Si ₂ O ₇ [OH]₂
Berill-	Be ₃ Al ₂ [Si ₆ O ₁₈]
Gelvin-	(Mn,Fe) ₈ [BeSiO ₄] ₆ S ₂
Danalit-	Fe ₈ [BeSiO ₄] ₆ S ₂
Chkalovit-	Na ₂ BeSi ₂ O ₆

BOR		Kurnakovit-	Mg ₂ B ₆ O _{11.13} H ₂ O
Sassolin-	[OH] ₃	Inderbit-	Mg Ca B ₆ O _{11.11} H ₂ O
Eremeevit-	Al ₂ Bo ₃	Pandermit-	Ca ₄ B ₁₀ O _{19.7} H ₂ O
Asharit-	MgHBO ₃	Datolit-	Ca B SiO ₄ [OH]
Lyudvigit-	(Mg,Fe) ₂ Fe[BO ₃] ₂ O ₂	Danburit-	Ca B ₂ [SiO ₄] ₂
Boratsit-	Mg ₆ B ₁₄ O ₂₆ Cl ₂	Aksinit-	Ca ₂ (Mn,Fe)Al ₂ Bs ₁ O ₄ O ₁₅ [OH]
Bura-	Na ₂ B ₄ O _{7.10} H ₂ O	Turmalin-	(Na,Ca) (Mg,Al) ₆ [B ₃ Al ₃ Si ₆ (O,OH) ₃₀]
Boronatrokalsit-	NaCaB ₅ O _{9.8} H ₂ O	Kalsioborit-	Ca ₅ B ₁₈ O ₁₇
Inderit-	Mg ₂ B ₆ O _{11.15} H ₂ O		

VANADIY		VISMUT	
Sulvanit-Cu ₃ VS		Vismut sof tug'ma-Bi	
Kolyuzit-	Cu ₃ (As,Sn,V)S ₄	Tetradimit-	Bi ₂ Te ₂ S
Kulsonit-	(Fe,V)S ₄	Vismatin-	Bi ₂ S ₃
Puxerit-	BiVO ₄	Matildit-	AgBiS ₂
Vanadinit-	Pb ₅ [Vo ₄] ₃ Cl	Vittixenit-	Cu ₃ Bi ₈ S ₃
Dekluazit-	(Zn,Cu)Pb ₃ [Vo ₄] ₂ [OH]	Klaprotit-	Cu ₆ Bi ₄ S ₉
Uzbekit-	Cu ₃ [VO ₄] _{2.3} H ₂ O	Kozalit-	Pb ₂ Bi ₂ S ₅
Karnotit-K ₂ [UO ₂] ₂ [VO ₄] _{2.3} H ₂ O		Gladit-	CuPb ₂ Bi ₅ S ₉
Metarossit-	CaV ₂ O _{6.2} H ₂ O	Bismit-	Bi ₂ O ₃
Roskoelit-	KV ₂ [AlSi ₃ O ₁₀] ₂ [OH] ₂	Bismutit-	Bi ₂ CO ₃ [OH] ₄
		Ruzveltit-	BiAsO ₄

VOLFRAM		GERMANIY	
Tungstenit-	WS ₂	Germanit-	Cu ₃ GeS ₄
Gyubnerit-	MnWO ₄	Argirodit-	Ag ₈ GeS ₆
Volframit-	(Mn,Fe)WO ₄		
Ferberit-	FeWO ₄		
Sheelit-	CaWO ₄		
Raspit-	PbWO ₄		

KALIY

Silvin-	KCl	Alunit-	KAl ₃ [SO ₄] ₂ [OH] ₆
Karnallit-	MgCl ₂ .KCl.6H ₂ O	Kaliyli achchiq toshlar-	KAl ₃ [SO ₄] ₂ [OH] ₆
Kaliyli seftira-	KNO ₃	Slyudalar (muskovit, flogopit, biotit)	
Kalitsinit-	KHCO ₃	Kaliyli dala shpatlari (ortoklaz, mikroklin)	
Langbeynit-	K ₂ Mg ₂ [SO ₄] ₃	Leysit-	K[AlSi ₂ O ₆]

ITTRIY VA SIYRAK YER ELEMENTLARI

Serianit- CeO ₂ Flyuoserit- (La,Ce...)F ₃ Dizanalit- (Ca,Ce,Na)(Ti,Fe,Nb) O ₃ Loparit- (Na,Ce,Ca...)(Nb,Ti) O ₃ Piroxlor- (Na,Ca,Ce...) Nb,O ₆ F Fergyusonit-(V,Er,Ce...) (Nb,Ta,Ti)O ₄ Evksenit-(V,Ge,Ca...)(Nb,Ta, Ti)O ₆ Polikraz- (V,Ce,Ca...) (Ti,Nb,Ta)O ₆	Eshinit- (Ce,Ca,Th)(Ti,Nb)2O ₆ Samariskit- (V,Er...)(Nb,Ta)6O ₂₁ Bastnezit- (Ce,La...)[CO ₃] Sinxizit- Ca(Ce,La...)[Co ₃]2F Parizit- Ca(Ce,La...)2[CO ₃]F Ambatoarint-Sr(Ce,La...)2[CO ₃]3O Lantanit-(La,Rr,Ce...)[CO ₃]2.8H ₂ O Monasit-(Ce,La...)PO ₄ Ksenotim- JPO ₄
KADMIY Grinokit- CdS Monteponit- CdO Otavit- CdCO ₃	

KALSIY

Flyuorit- CaF ₂ Perovskit guruhi-CaTiO ₃ Kalsit- CaCO ₃ Aragonit- CaCO ₃ Dolomit- CaMg[CO ₃] ₂ Angidrit- CaSO ₄ Gips- CaSO ₄ 2H ₂ O Sheelit- CaWO ₄	Povellit- CaMoO ₄ Apatit- Ca ₅ [PO ₄] ₃ [F,Cl] Vezuvian- Ca ₃ Al ₂ [SiO ₄] ₂ [OH] Sfen- CaTi[SiO ₄]O Aksinit- Ca ₂ (Mn,Fe)Al ₂ BSi ₄ O ₁₅ [OH] Vollastonit- CaSiO ₃ Piroksenlar guruhi Prenit- Ca ₂ Al ₂ Si ₃ O ₁₀ [OH] ₂
---	--

KOBALT

Linneit- Co ₃ S ₄ Bornxardit- CoSe ₄ Zigenit- (Co,Ni)S ₄ Karrolit- CuCo ₂ S ₄ Trotgalit- CoSe ₂	Kobaltin- CoAsS Safflorit- CoAs ₂ Skutterudit- CoAs ₃ Smaltnin- CoAs ₃₋₂
--	--

KUMUSH

Sof tug' ma kumush-	Ag	Poliargirit-	Ag ₂ 1Sb ₂ S ₁₅
Kumush amalgamasi-	Hg ₃ Ag ₂	Miargirit-	AgSbS ₂
Diskrazit-	Ag ₃ Sb	Smitit-	AgAsS ₂
Argentit (akantit)-	Ag ₂ S	Trechmanit-	AgAs ₂ S
Shtromeynit-	Cu ₂ S.Ag ₂ S	Argirodit-	Ag ₈ GeS ₆
Yalpait-	3Ag ₂ S.Cu ₂ S	Kanfieldit-	Ag ₈ SnS ₆
Agvilarit-	Ag ₂ (Se,S)	Matildit-	AgBiS ₂
Naumanit-	Ag ₂ Se	Shirimenit-	Ag ₄ PbBi ₄ S ₉
Shlernbergit-	AgFe ₂ S ₃	Alyaskait-	(Ag,Cu) ₂ PbBi ₄ S ₈
Gessit-	Ag ₂ Te	Kerargirit-	AgCl
Pettsit-	(Ag,Au)Te ₂	Embolit-	Ag(Cl,Br)
Polibazit	(Ag,Cu) ₁₆ Sb ₂ S ₁₁	Brominit-	AgBr
Stefanit-	Ag ₅ Sb ₈ 4	Jodobromit-	Ag(Cl,Br,J)
Pirargint-Ag ₃ Sb ₈ 3		Mayersit-	4AgJ.Cu ₃
Prustit-	Ag ₃ As ₃	Iodirit-	Ag ₃
Pirostilpniit-	Ag ₃ Sb ₈ 3	Argentoyerazit-	AgFe ₃ (Se ₄) ₂ [OH] ₆
Pirseit-	(Ag,Cu) ₁₆ As ₂ S ₁₁		

LITIY

Kriolitionit-	3NaF.2LiF2AlF ₃	Lepidolit-	KLi _{1.5} Al _{1.5} [Si ₄ O ₁₀][F,OH] ₂
Litoilithit-	Li(Mn,Fe)PO ₄	Sinnvaldit-	KLiFeAl[Si ₃ AlO ₁₀][Fe,OH] ₂
Ambligonit-	LiAlPO ₄ F	Kukeit-	LiAl ₅ [Si ₃ AlO ₁₀][OH] ₈
Spodumen-	LiAl[Si ₂ O ₆]	Petalit-	(Li,Na)AlSi ₄ O ₁₁

MARGANES

Alabandin-	MnS	Manganokalsit-	(Mn,Ca)CO ₃
Gauerit-	MnS ₂	Smikit-	MnSO ₄ .H ₂ O
Manganozit-	MnO	Gyubnerit-	MnWO ₄
Gausmanit-	Mn ₃ O ₄	Purpirit-	(Mn,Fe)PO ₄
Yakobsit-	MnFe ₂ O ₄	Lauenit-	MnFe ₂ PO ₄ [OH] _{2.8} H ₂ O
Braunit-	Mn ₂ O ₃	Arsenoklazit-	Mn ₅ [AsO ₄] ₂ [OH] ₄
Pirolyuzit-	MnO ₂	Susseksit-	Mn ₂ BO ₃
Manganit-	Mn MnO ₂ [OH] ₂	Tefroit-	Mn ₂ SiO ₄
Vernadit-	MnO ₂ .nLi ₂ O	Spessartin-	Mn ₃ Al ₂ [SiO ₄] ₃
Rodoxrozit-	MnCO ₃	Rodonit-	MnSiO ₃

MAGNIY

Bishofit-	MgCl ₂ .6H ₂ O	Gumit-	Mg ₇ [SiO ₄] ₃ [OH,F]2
Taxigidrit-	2MgCl ₂ CaCl ₂ 12H ₂ O	Pirop-	Mg ₃ Al ₂ [SiO ₄]3
Periklaz-	MgO	Enstatit-	MgSiO ₃
Shpinellar	guruhi-Mg Al ₂ O ₄	Antofillit-	(Mg,Fe)7[Si ₄ O ₁₁]2[OH]2
Brusit-	Mg[OH]2	Kupferit-	Mg ₇ [Si ₄ O ₁₁]2[OH]2
Magnezit-	MgCO ₃	Tremolit-	Ca ₂ Mg ₅ [Si ₄ O ₁₁]2[OH]2
Dolomit-	MgCa[CO ₃]2	Aktinolit-	Ca ₂ (Mg,Fe)5[Si ₄ O ₁₁]2[OH]2
Ankerit-	(Mg,Fe)Ca[CO ₃]2	Paligorskite-	murakkab tarkibli Mg va Al suvli silikatlar
Kizerit-	MgSO ₄ H ₂ O	Talk-	Mg ₃ [Si ₄ O ₁₀]2[OH]2
Vagnerit-	Mg ₂ PO ₄ F	Flogopit-	KMg ₃ [AlSi ₃ O ₁₀]2[F,OH]2
Asharit-	MgHBO ₃	Biotit-	K(Mg,Fe)3[AlSi ₃ O ₁₀]2[F,OH]2
Boratsit-	5MgO MgCl ₂ .7B ₂ O ₃	Pennin-	(Mg,Fe)5Al[AlSi ₃ O ₁₀]2[OH]8
Lyudvigit-	(Mg,Fe)2Fe[BO ₃]O ₂	Klinoklor	(Mg,Fe)4.75Al _{1.25} Al _{1.25} Si _{2.7} 5O ₁₀ [OH]8
Forsterit-	Mg ₂ SiO ₄	Vermikulit-	(Mg,Fe)3[(SiAl)4O ₁₀]2[OH]2 4H ₂ O
Olivin-	(Mg,Fe)2SiO ₄	Serpentin-	Mg ₆ [Si ₄ O ₁₀]2[OH]8
Xondrodit-	Mg ₅ [SiO ₄] ₂ [OH,F]2		

MARGIMUSH

Sof tug'ma margumish-	As	Arsenopirit-FeAsS	
Realgar-	AsS	Enargit-	Cu ₃ AsS ₄
Auripigment-	As ₂ S ₃	Arsenolit-	As ₂ O ₃
Lyollingit-	FeAs ₂	Skorodit-	FeAsO ₄ 2H ₂ O

MIS

Sof tug'ma mis-	Cu	Kuprit-	Cu ₂ O
Domeykit-	Cu ₃ As	Malaxit-	Cu ₂ [CO ₃]2[OH]2
Xalkozin-	Cu ₂ S	Azurit-	Cu ₃ [CO ₃] ₂ [OH]2
Xalkopirit-	Cu Fe S ₂	Xalkantit-	CuSO ₄ 5H ₂ O
Bornit-	Cu ₅ FeS ₄	Broshantit-	Cu ₄ [SO ₄]2[OH]6
Kovellin-CuS		Vernadskit-	Cu ₄ [SO ₄] ₃ [OH]2 4H ₂ O
Kubanit- CuFe ₂ S ₃		Lindgrenit-	Cu ₃ [MoO ₄] ₂ [OH]2
Karrolit-	CuCO ₂ S ₄	Libetnit-	Cu ₂ [PO ₄]2[OH]
Tennantit-	Cu ₃ AsS ₃	Olivenit-	Cu ₂ [AsO ₄]2[OH]
Tetraedrit-	Cu ₃ SbS ₃	Uzbekit-	Cu ₃ [VO ₄] ₂ 3H ₂ O
Sulvanit- Cu ₃ VS ₄		Feruza-	CuAl ₆ [PO ₄] ₄ [OH]8 5H ₂ O
Burnonit- CuPbSbS ₃		Ashirit (diopaz)-	Cu ₆ [Si ₆ O ₁₈].6H ₂ O
Atakamit-		Xrizokolla-	Cu ₈ SiO ₃ .nH ₂ O
CuCl ₃ 3Cu[OH]2			

MOLIBDEN

Molibdenit-	MoS ₂
Povellit-	CaMoO ₄
Vulfenit-	PbMoO ₄

NATRIY

Galit-	NaCl	Egirin-	NaFeSi ₂ O ₆ Arfvedsonit-
Villiomit-	NaF	Na ₃ (Fe,Mg)4(Fe,Al) Si4O ₁₁] ₂ [OH]2	
Kriolit-	Na ₃ AlF ₆	Glaukofan-Na ₂ (Mg,Fe)3Al ₂ (Si ₄ O ₁₁) OH]2	
Leparit-	(Na,Ce,Ca)(Nb,Ti)O ₃	Ribekit-	Na ₂ Fe ₃ Fe ₂ (Si ₄ O ₁₁) ₂ [O,OH]2
Piroxlar gurthi		Analtsim-	Na[AlSi ₂ O ₆]·H ₂ O
Natriyli selitra-	NaNO ₃	Nefelin-	NaAlSiO ₄
Soda-	Na ₂ CO ₃ ·10H ₂ O	Sodalit-	Na ₈ [AlSiO ₄]·6Cl ₂
Tenardit-	Na ₂ SO ₄	Nozean-	Na ₈ [AlSiO ₄]·6[SO ₄]
Mirabilit-	Na ₂ SO ₄ ·10H ₂ O	Gayuin-	Na ₆ Ca(AlSiO ₄)·SO ₄
Glauberit-	Na ₂ Ca[SO ₄] ₂	Lazurit(Lojuvard)-	Na ₈ [AlSiO ₄]·6[SO ₄]
Natrofilit-	NaMnPO ₄	Kankrinit-	Na ₆ Ca(AlSiO ₄)·[CO ₃ ,SO ₄]
Bura-	Na ₂ B ₄ O ₇ ·10H ₂ O	Natrolit-	Na ₂ [Al ₂ Si ₃ O ₁₀]·2H ₂ O
Jadeit-	NaAlSi ₂ O ₆	Desmin-	(Na ₂ Ca)[Al ₂ Si ₆ O ₁₆]·6H ₂ O

NIKEL

Melonit -	NiTe ₂	Xloantit-	NiAs ₃ ·2
Dinerit-	Ni ₂ As	Rammeelmbergit-	NiAs ₂
Pentlandit-	(Fe, Ni)S ₈	Gersdorfit-	NiAsS
Millerit-	NiS	Ulmanit-	NiSbS
Polidimit-	Ni ₃ S ₄	Bxunzenit-	NiO
Violarit-	FeNi ₂ S ₄	Trevorit-	NiFe ₂ O ₄
Vaesit-	NiS ₂	Ryotgersit-	NiSO ₄ ·6H ₂ O
Brovoit-	(Ni, Fe) S ₂	Shuxardit-	(Ni ₂ Fe,Al) ₆ [(Si,Al)4O ₁₀]·[OH]8
Nikelin-	NiAs	Revdinskit-	(Ni,Mg) ₆ [Si ₄ O ₁₀]·[OH]8
Breytgauptit-	NiSb	Garnierit-	Ni ₄ [Si ₄ O ₁₀]·[OH]4·4H ₂ O

NIOBIY VA TANTAL

Ilmenorutil-	(Ti,Nb,Fe)O ₂	Tantalit-	(Fe,Mn)Ta ₂ O ₆
Mossit-	Fe(Ta,Nb)O ₆	Loparit-	(Na,Ce,Ca)(Nb,Ti)O ₃
Tapiolit-	Fe(Ta,Nb)O ₆	Piroxlor-	(Na,Ca...) ₂ (Nb,Ti...)O ₆ (F,OH)
Kolumbit-	(Fe,Mn)NbO ₆		

OLTIN

Sof tug' ma oltin- Au		Kalaverit-	AuTe ₂
Elektrum- (Au,Ag)		Krennerit-	AuTe ₂
Aurostibit- AuSb ₂		Silvanit-	AuAgTe ₄
Peltsit- (Ag,Au)2Te		Nagiagit-	Pb ₅ Au(Te,Sb)4S ₅ ·8

PLATINOIDLAR

Platina-	Pt	Stibopalladinit-	Pd3Sb
Poliksen-	(Pt,Fe)	Stanopalladinit-	Pd3Sn2
Ferroplatina-	PtFe	Platinumli iridiy-	(Jr,Pt)
Kuproplatina-	(Pt,Fe,Cu)	Osmirid-	(Jr,Os)
Nikelli platina-	(Pt,Fe,Ni,Cu)	Nevyanskit-	(Jr,Os)
Palladiyli platina-	(Pt3Pd)	Sisertskit-	(Os,Jr)
Palladiy-	Pd	Kuperit-	PtS
Allopalldadiy-	Pd	Breggit-	(Pt,Pd,Ni)S
Potart-	(Pd,Hg)	Sperrilit-	PtAs2
Porpetsit-	(Au,Pd)	Laurit-	RuS2
		Palladit-	PdO

RUX

Sfalerit-	ZnS	Smitsonit-	ZnCO ₃
Vyurtsit-	ZnS	Mongeymit-	(Zn,Fe)CO ₃
Stileit-	ZnSe	Villemitt-	Zn ₂ SiO ₄
Sinkit-	ZnO	Kalamin-	Zn ₄ Si ₂ O ₇ [OH]2H ₂ O
Ganit-	ZnAl ₂ O ₄	Gardistonit-	Ca ₂ ZnSi ₂ O ₇
Franklinit-	(Zn,Mn)Fe ₂ O ₄	Sokonit-	Zn ₃ [Si ₄ O ₁₀] OH]2.nH ₂ O

SELEN

Naumannit-	Ag ₂ Se	Timanit-	HgSe
Agvilarit-Ag(Se,S)		Klokmannit-	CuSe
Evkayrit-	Cu ₂ Se.Ag ₂ Se	Ferroselit-	FeSe ₂
Klaustalit-	PbSe	Krestenit-	PbSeO ₄
		Xalkomenit-	Cu[SeO ₃] 2H ₂ O

SIMOB

Sof tug'ma simob-	Hg	Livingstonit-	HgSb ₄ S ₇
Kinovar-	HgS	Montroidit-	HgO
Metatsinnabarit-	HgS	Kalomel-	HgCl
Timanit-	HgSe	Eglestonit-	3HgCl.HgO
Koloradoit-	HgTe	Terlinguaít-	HgCl.HgO

STRONTSIY

Stronsianit-	SrCO ₃
Selestin-	SrSO ₄

SURMA

Sof tug'ma surma-	Sb	Gudmundit-	FeSbS
Allemontit-	AsSb	Tetraedrit-	Cu3SbS3
Antimonit-	Sb2S3	Bulanjert-	Pb5Sb4s11
Ulmantit-	NiSbS	Valentinit-	Sb2O3

TALLIY

Vrbait-	Ti(As,Sb)3S5
Lorandit-	TiAsS3
Gutchinsonit-	(Cu,Ag,Ti)3S PbS 2As2S3

TELLUR

Sof tug'ma tellur-	Te	Krennerit-	AuTe2
Seleniti tellur-	(Te,Se)	Kalaverit-	AuTe2
Tellurovismutit-	Bi2Te3	Silvanit-	(Ag,Au)Te2
Gessit-	Ag2Te	Melonit-	NiTe2
Pesit-	(Ag,Au)2Te	Niggliit-	PtTe3
Altait-	PbTe	Montanit-	Bi2TeO4[OH]4
Koloradoit-	HgTe		

TITAN

Ilmenit-	FeTiO3	Shorlomit-	Ca3(Al,Fe,Ti)2[Si,TiO4]3
Geykilit-	MgTiO3	Sfen-	Ca Ti SiO5
Pirofanit-	Mn TiO3	Murmanit-	Na Ti2[SiO4]2[OH].H2O
Rutil-	TiO2	Fersmanit-	(Ca,Na)2(Ti,Nb)(SiO4)[OH,F]3
Brukitt-	TiO2	Benitoit-	Ba Ti Si3O9
Anataz-	TiO2	Ramzait-	Na2Ti2 Si2O9
Perovskit-	Ca TiO3	Vinogradovit-	Na5Ti4AlSi6O24.3H2O

TORIY

Torianit-	ThO2
Monasit (toriyli)-	(Ce,La,Th)[PO4SiO4]
Torit-	ThSiO4
Ferritorit-(Th,Fe)SiO4	

XROM

Xromshpinelidlar-	(Mg,Fe)(Cr,Al,Fe)2O4
Krokoit-	PbCrO4
Uvarovit-	Ca3Cr2[SiO4]3

TEMIR

Pirotin-	Fe1-xS	Graftonit-	
Pirit	FeS2	(Fe,Mn)3[PO4]2	
Markazit-FeS2		Vivianit-	Fe3[PO4]2·8H2O
Lyollingit-	FeAs2	Skorodit-	FeAsO4·2H2O
Arsenopirit-	FeAsS	Shtrengit-	FePO4·2H2O
Gematit-	Fe2O3	Fayalit-	
Smitit (smizit)-	Fe3S4	Almandin-	Fe2SiO4
Ilmenit-	FeTiO3	Fe3Al2[SiO4]3	
Magnetit-FeFe2O4		Andradit-	Ca3Fe2[SiO4]3
Magnomagnetit-(Fe,Mg)Fe2O4		Gipersten-	
Gyotit-	H FeO2	(Mg,Fe)2[Si2O6]	
Limonit-	H FeO2	Gedenbergit-	CaFe[Si2O6]
Lepidokrokit-	FeOOH	Egrin-	NaFe[Si2O6]
Siderit-	FeCO3	Gryunerit-	
Kokimbit-	Fe2[SO4]3·9H2O	Fe7(Si4O11)2[OH]2	
		Lepidomelan-	KFe[Si3(Al,Fe)
		O10][OH]2	
		Shamozit-	Fe4Al[AlSi3O10]
		[OH]6.nH2O	
		TyuringitFe3,5(Al,Fe)1,5[Si2,5O10]	
		[OH]6.nH2O	
		Nonttronit-	(Fe,Al)2(Si4O10)
		[OH]2.nH2O	Yarozit-
		KFe3[SO4]2[OH]6	

URAN

Uraninit- UO2		Seynerit- Cu[UO2]2[AsO4]2·12H2O
Bryoggerit- (U,Th)O2		Metaseynerit- Cu[UO2]2[AsO]2·8H2O
Yantinit- 2UO2·7H2O		Bassetit- Fe[UO2]2[PO4]2·8H2O
Shchyopit- 4UO3·9H2O		Otenit- Ca[UO2]2[PO4]2·8H2O
Furmarterit- PbO·4UO2·5H2O		Tuyamuyinit- Ca[UO2]2[VO4]2·8H2O
Kyurit- 2PbO·5UO3·4H2O		Fergamit- [UO2]3[VO4]2·6H2O
Uranosferit- Bi2O3·UO3·3N2O		Karnotit- K2[UO2]2[VO4]2·3H2O
Ryotzurfordit- [UO2]3[CO3]2·7H2O		Kazolit- Pb[UO2]2[SiO4]·H2O
Sharpit- [UO2]3[CO3]5[OH]2·7H2O		Urgit- UO3·nH2O
Torbemit- Cu[UO2]2[PO4]2·12H2O		

SEZIY

Roditsit-	K Na Li4Al4Be3B10O27
Vorobevit-	Cs [Be2Li]Al2[Zr5O18]
Pollutsit-	Cs [AlSi2O6]

SIRKONIY

Baddeleit-	ZrO ₂
Sirkon-	ZrSiO ₄
Evdialit-	Na ₄ Ca ₂ ZrSi ₆ O ₁₇ (O,OH,Cl)?

QALAYI

Stannopalladinut-Pd ₃ Sn ₂	Kolyuzit-	Cu ₃ (As,Sn,V)S ₄
Gersenbergit -SnS	Kanfildit-	Ag ₈ SnS ₆
Tillit-SnS,PbS	Frankeit-	Pb ₅ Sn ₃ Sb ₂ S ₁₁
Stannin-Cu ₂ Fe Sn S	Kassiterit-	SnO ₂

QO'RG'OSHIN

Galenit-	PbS	Kotunit-	PbCl ₂
Altait-	PbTe	Surik-	Pb ₃ O ₄
Klaustahit-	PbSe	Serrusit-	PbCO ₃
Sartorit-	PbAs ₂ S ₄	Anglezit-	PbSO ₄

JADVALLAR

41-jadval

Minerallar assotsiatsiyalari titano-magnetit ma'danli o'ta asos (olivinitlar, peridotitlar, piroksenitlar), asosli (gabbro) jinslar^{**}

№	Ma'danni belgilovchi minerallar	Mansub minerallar	Ikkinchili darajali minerallar
1	Tomursimon va donador rogovaya obmanka, tomur simon donador titano-magnetit.	Olivin, diopsid-gedenbergit, rogovaya obmanka, anortit.	Epidot, titanit, serisit, kalsit.

42-jadval

Platina-xromit ma'danli o'ta asosli jinslar
(dunit, peridotit)

№	Ma'danni belgilovchi minerallar	Mansub minerallar	Ikkinchili darajali minerallar
1	zumrAd-yashil uvarovit, xromli yashil xlorit, yashil, sariq serpentin, yashil sariq xromli diopsid	Olivin, enstatit-gipersten, diopsid-gedenbergit, serpentin, talk.	Xromit, uvarovit, platina, iridiylplatina.

** Izoh: 15 ta jadval ma'lumotlari Bulax (1999) bo'yicha.

43-jadval

**Mis-nikel ma'danli o'ta asos
(peridotit, piroksenit) va asosli (gabbro, norit) jinslar**

No	Ma'danni belgilovchi minerallar	Mansub minerallar	Ikkinch darajali minerallar
1	Tomirsimon, uyasimon xalkopirit, magnetit va sulfidlar	Enstatit-gipersten, diopsid-gedenbergit, anortit.	Antofillit, xlorit, talk, magnetit, pirrotin, xalkopirit, bornit, pentlandit, sperrilit.

44-jadval

Nordon jinslar (granit)

No	Ma'danni belgilovchi minerallar	Mansub minerallar	Ikkinch darajali minerallar
1	Kaliyli dala shpatlari, slyuda	Kaliyli dala shpatlar, kvars, nordon plagioklaz, biotit, muskovit	Turmalin, xlorit, rutil, flyuorit, topaz, berill.

45-jadval

Nefelinli sienit, urtit, iyolit, melteygittlar

No	Ma'danni belgilovchi minerallar	Mansub minerallar	Ikkinch darajali minerallar
1	Nefelin, evdialit, sirkon	Nefelin, kaliyli dala shpatlar, albit, egirin, lepidomelan	Kankrinit, seolit, apatit, astrofillit, sirkon, ilmenit, titanit.

46-jadval

Granit-pegmatit minerallari

No	Umumiy minerallar	Mansub minerallar		
		Keramika va slyudali	Xrustalli	Spodumenli
1	Kaliyli dala shpatlari, oligoklaz, turmalin (sherl), muskovit, Granat (spessartin-almandin)	Monotsit, uraninit, sirkon (sirtolit)	Topaz, berill, fenakit, flyuorit	Albit, spodumen, lepidolit, rang-barang turmalin, kolumbit-tantalit, pollutsit.

47-jadval
Magnezial skarn minerallari

No	Ma'danni belgilovchi minerallar	Mansub minerallar	Ikkinchili darajali minerallar
1	Forsterit, diopsid apatit (yirik donali) shpinel, xondrodit	Forsterit, diopsid, flogopit, skapolit, kalsit.	Shpinel, magnetit, aktinolit, xondradit, sheelit, lazurit, lyudvigit.

48-jadval
Kalsitli skarn minerallari

No	Ma'danni belgilovchi minerallar	Mansub minerallar	Ikkinchili darajali minerallar
1	Grossulyar, andradit, diopsid-gedenbergit, vezuvian	Grossulyar-andradit, diopsid-gedenbergit, vezuvian, aktinolit, vollastonit, kalsit	Kassiterit, magnetit, sheelit, molibdenit, pirit, kobaltn, xalkopirit, galenit, sfalerit, datolit, danburit.

49-jadval
Yuqori haroratlari hidrotermal tomir minerallari

No	Ma'danni belgilovchi minerallar	Tomirli minerallar	Ma'dan minerallari
1	O'zgargan jinslar: greyzenlashish volframit, vismutin, muskovit	Kvars, flyuorit, muskovit, sinvaldit, berill	Volframit, sheelit, vismutin, pirit, arsenopirit, xalkopirit, molibdenit, sfalerit.

50-jadval
Greyzen minerallari

No	Ma'danni belgilovchi minerallar	Mansub minerallar	Ikkinchili darajali minerallar
1	Muskovit, kvars, topaz, berill	Mikroklin, ortoklaz, albit, kvars, muskovit, tsinvaldit, lepidolit	Topaz, berill, turmalin, flyuorit, sheelit, volframit, kassiterit, molibdenit, vismutin, xalkopirit pirit, arsenopirit.

51-jadval
O'rta haroratli polimetall (oltin bilan)
gidrotermal tomirlar

No	MA'DANNI belgilovchi o'zgarishlar	Tomir minerallar	Ma'danli minerallar
1	Berezitlanish, listvinitlanish, pirit, arsenopirit.	Kvars, kalsit, dolomit	Pirit, arsenopirit, pirrotin, sfalerit, oltin, galenit.

52-jadval
Past haroratli margimush-surma-simob tomirlar

No	Mansub minerallar	Tomir minerallari	Ma'dan minerallari
1	Kinovar, Antimonit, flyuorit, auripigment.	Kvars, kalsit, flyuorit, barit	Antimonit, kinovar, realgar, auripigment

53-jadval
Regional-metamorfizm jinslari minerallari

No	Jins turlari	Mansub minerallar	Ikkinchidagi minerallar
1	Yashil slaneslar, seristik fillitlar, gneyslar, amfibolitlar, marmaralar	Xlorit-epidot, aktinolit, albit, seristik kvars, plagioklaz, mikroklin, kvars, rogovaya obmanka, plagioklaz, kalsit, dolomit.	Talk, biotit, granat (spessartit, gematit, magnetit, grafit), granat (pirop-almandin), magnehit, apatit, sfen, forsterit, gumin, diopsid, shpinel, xondradit, flagopit.

5-jadval
Sulfidlarning oksidlanish zonalaridagi minerallar

No	Sulfid konlari	Minerallar
1	Mis	Sof mis, kuprit, malaxit, azurit, xrizokolla, kovellin
2.	Sink	Smitsonit, kafamin.
3.	Qo'rg'oshin	Serussit, anglezit
4.	Molibden	Povelit, molibdenit, vulfenit

55-jadval
Nurash minerallari

№	Nurash sodir bo'lgan jinslar	Yangi hosil bo'lgan minerallar	
		Mansub minerallar	Ikkinch darajali minerallar
1.	O'ta asos jinslar	Xalsedon, opal, temir gidrooksidlari, kalsit, aragonit, magnezit, garnierit	Marganes gidrooksidlari, brusit, gips, talk, poligorskit, vermekulit, hidroslyuda, kaolin
2.	Bazaltlar	Montmorillonit, galluazit, temir hidrooksidlari, xalsedon, opal	Marganes hidrooksidlari, montmorillonit
3.	Granit, diorit	Kaolin, temir va aluminiy oksidlari	Galluazit, gyotit, pint, markazit, siderit
4.	Gipsli jinslar	Gips, selestin, barit, aragonit, kalsit, oltingugurt	Poligorskit, hidroborotsit, asharit

56-jadval
Ilmenit formulasini hisoblash
1-namuna

Komponentlar	Miqdori % hisobida	Molekular massa	Molekular miqdor	Atom miqdori		Formuladagi koefitsient	Musbat zaryadalar
				Kation	Kislород		
1	2	3	4	5	6	7	8
TiO ₂	53,80	79,90	0,6733	0,6733	1,3466	1,000	4,000
MgO	2,72	40,32	0,0675	0,0675	0,0675	0,100	0,200
FeO	38,70	71,85	0,5386	0,5386	0,5386	0,799	1,598
MnO	4,77	70,93	0,0672	0,0672	0,072	0,099	0,198
H ₂ O	0,13	-	-	-	-	-	-
Yig'indi	100,12				2,0199		5,996

Umumiy bo'luvchi – 2,0199:3,00=0,6733
(Fe0,80 Mn0,1 Mg0,10)1,00 Ti1,00 O3,00

2-namuna

1	2	3	4	5	6	7	8
TiO ₂	45,09	79,90	0,5643	0,5643	1,1286	0,919	3,276
Al ₂ O ₃	6,39	101,96	0,0627	0,1254	0,1871	0,182	0,546
Fe ₂ O ₃	10,00	159,7	0,0626	0,1252	0,1968	0,182	0,546
FeO	33,76	71,85	0,4699	0,4699	0,4699	0,682	1,364
MgO	2,52	40,32	0,0625	0,0625	0,0625	0,091	0,170
MnO	2,24	70,93	0,0315	0,0315	0,0315	0,046	0,092
Li ₂ O	0,09	-	-	-	-	-	-
Yig'indi	100,09				2,0664		5,996

Umumiyl bo'luvchi – 2,0664:3,00=0,6888
 $(\text{Fe}20,68 \text{ Mg}0,03 \text{ Al}0,05 \text{ Mn}0,05)100 (\text{Ti}0,82 \text{ Fe}3+0,09 \text{ Al}0,09)100 \text{ O}3,00$

57-jadval
Ilmenit tarkibidagi mineralarni formuladagi koefitsientlar
miqdori bo'yicha hisobi

Kation	Formuladagi koefitsient	Minerallar					Qoldiq
		FeTiO ₃	MgTiO ₃	MnTiO ₃	Fe ₂ O ₃	Al ₂ O ₃	
Fe 2+	0,68	0,68	-	-	-	-	0
Mg	0,09	-	0,09	-	-	-	0
Fe 3+	0,09	-	-	-	0,09	-	0
Al	0,09	-	-	-	-	0,09	0
Mn	0,05	-	-	0,05	-	-	0
Ti	0,82	0,68	0,09	0,05	-	-	0
Fe 2+	0,09	-	-	-	-	0,09	0
Mol % hisob uchun boshlang'ich son		0,68	0,09	0,05	0,09	0,09	-
Mol % minal miqdori		68	9	5	9	9	-

58-jadval

Ilmenit tarkibidagi minerallarni molekular miqdor bo'yicha hisobi

Komponent	Miqdori % hisobida	Molekular miqdor	Minerallar					Qoldiq
			FeTiO ₃	MgTiO ₃	MnTiO ₃	Al ₂ O ₃	Fe ₂ O ₃	
Ti O ₂	45,90	0,5643	0,4699	0,0625	0,0315	-	-	0
Al ₂ O ₃	6,39	0,0627	-	-	-	0,0627	-	0
Fe ₂ O ₃	10,00	0,026	-	-	-	-	0,0626	0
Fe O	33,76	0,4699	0,4699	-	-	-	-	0
Mg O	2,52	0,0625	-	0,0625	-	-	-	0
Mn O	2,24	0,0315	-	-	0,0315	-	-	0
Mol % hisob uchun boshlang'ich son			0,4690	0,0625	0,0315	0,0627	0,0626	-
Mol % minal miqdori			68	9	5	9	9	-

2.2-namunadagi ilmenit tarkibi (1-jadval) va formulasi

(Fe₂-0.68 Mg_{0.09}Fe₃+Al 0.09 Mn 0.05)100 (Ti 0.82 Fe 3+ 0.09 Al 0.09)100 O₃₀₀

59-jadval

Platina guruhi minerallarining tarkibi va xususiyatlari (% hisobida)

Mineral	Pt	Fe	Ir	Os	Rh	Pd	Na	Cu	Zichligi	Qattiqligi
Platina	100								21,45	4
Ferro-platina	71-79	15-20	0-4,7	-	0,2-3	0,2-0,5	0,0-1,0	0,3-5,0	12-15	4-4,5
Poliksen	80-88	9-11	0,7	-	0,1-0,5	0,1-1,0	-	1,78	15-19	4-4,5
Platinli iridiy	19,64	-	79	-	-	0,89			22,6-22,9	6-7
Osmirid				65,4	31,2	1,18			20	4-4,5
Palladiy						100			10,84	4-4,5

60-jadval
Kremniy oksidining turli xil singoniyali turlari

Modifikatsiya nomi	Singoniyasi, tuzilishi	Nur sindirish ko'rsatkichi			Zichligi g/cm ³
		Ng	Np	Ng-Np	
Kvars	Geksagonal	1,553	1,544	0,009	2,65
Tridimit	Psevdogeksagonal	1,483	1,479	0,004	2,27
Kristobalit	Tetragonal	1,487	1,484	0,003	2,33
Xalsedor	-	1,539	1,534	0,006	-
Opal	-	1,460	-	-	1,8-2,2
Koesit	Tertagonal	1,604	1,599	0,005	3,01
Stishovit	Tetragonal	1,826	1,799	0,027	4,35

61-jadval
Granatlarning kimyoiy tarkibi (og'irligi bo'yicha % hisobida)

	MgO	FeO	MnO	CaO	Al ₂ O ₃	Fe ₂ O ₃	Cr ₂ O ₃	SiO ₂
Pirop	29,8	-	-	-	25,4	-	-	44,8
Almandin	-	43,3	-	-	20,5	-	-	36,2
Spessartin	-	-	43,0	-	20,6	-	-	36,4
Grossulyar	-	-	-	37,3	22,7	-	-	40,0
Andradit	-	-	-	33,0	-	31,5	-	36,5
Uvarovit	-	-	-	33,5	-	-	30,6	35,9

62-63 jadval

Dala shpati guruhiiga kiruvchi minerallarning kimyoviy tarkibi va optik konstantalari

Minerallarning nomi	Kimyoviy ifodasi	Ng	Nm	Np	Ng-Np
Ortoklaz	KaLSi ₃ O ₈	1,526	1,524	1,519	0,007
Sanidin	KaLSi ₃ O ₈	1,524-1,526	1,523-1,525	1,517-1,520	0,006
Mikroklin	KaLSi ₃ O ₈	1,525-1,530	1,522-1,526	1,516-1,522	0,007
Anortoklaz	(Na,K)AlSi ₃ O ₈	1,527-1,549	1,526-1,549	1,522-1,546	1,003-0,006
Plagioklazlar:					
Albit	Na _{0.5} AlSi ₃ O ₈	1,536-1,541	1,529-1,536	1,526-1,532	0,008-0,009
Anortit	CaAl ₂ Si ₂ O ₈	1,582-1,588	1,577-1,583	1,571-1,575	0,01
Selzian	BaAl ₂ Si ₂ O ₈	1,594	1,589	1,584	0,01

64-jadval
Sodalit guruhi minerallarining optik xususiyatlari

Mineral nomi	Tarkibi	Nur sindirish ko'rsatilishi	Ularish tekisligi	Rangi
Sodalit	Na ₈ [Al ₆ Si ₆ O ₂₄]Cl	1,483-1,487	(110) yo'nalishi bo'yicha kuchsiz sezilarli	Rangsiz, ba'zan yashil, havorang, kulrang
Nozean	Na ₈ [Al ₆ Si ₆ O ₂₄]SO ₄	1,495	(110) yo'nalishi kuchsiz sezilarli	Sarg'ish, yashilroq, havorang
Gayuin	(Na,Ca)[Al ₆ Si ₆ O ₂₄] (S _{0.3} S)	495-1,505	(110) yo'nalishi bo'yicha kuchsiz sezilarli	Ko'k, havorang, yashil-ko'k, kamroq sariq.

65-jadval
Amfibollarning optik xususiyatlari

Minerallarning nomi	Kimyoiyiv ifodasi	Ng	Nm	Np	Ng-Np	2V	C.Ng
Rombik amfibollar							
Antofillit	(Mg,Fe)[Si8O22](OH,F)2	1,623-1,664	1,616-1,651	1,596-1,651	0,026-1,017	650-580	0
Jedrit	(Mg,Fe)6-5(Al)12(SiAl)2(OH,F)2	1,658-1,691	1,651-1,676	1,642-1,663	0,016-0,020	800-700	0
Monoklin amfibollar							
1) Temirli va magniyilari							
Kumming-tonit	(Mg,Fe)7[Si8O22](OH)2	1,655-1,698	1,644-1,675	1,635-1,665	0,02-0,030	65-900	15-21
Gryunerit	(Fe,Mg)7[Si8O22](OH)2	1,698-1,729	1,675-1,709	1,665-1,669	0,030-0,045	90-950	10-15
2) Kalsiyili (temir va magniy bilan)							
Tremolit	Ca2Mg5[Si8O22](OH,F)2	1,625-1,655	1,613-1,644	1,600-1,628	0,025-0,027	79-850	10-20
Aktinolit	Ca2(Mg,Fe)5[Si8O22](OH)2	1,641	1,630	1,614	0,027	800	16
3) Natriy va kalsiyili (Mg,Fe, Al bilan)							
Oddiy rogovaya obmanka	(Ca,Na,K)2-3(Mg,Fe,Fe,Al)5						
Pargasit	6CaO3Na2O16(Mg, Fe) Al2O326SiO22H2O2F2 (E.Larsen, G.Berman bo'yicha)	1,635-1,652	1,618-1,658	1,613-1,635	0,017-0,029	56-65	21-26
Bazalt rogovaya obmankasi	3CaONa2O7(Fe,Mg)O3 2O3TiO212SiO22H2O	1,693-1,760	1,683-1,730	1,670-1,692	0,023-0,068	64-80	0-12
Kersutit	Titanli rogovaya obmanka	1,700-1,772	1,690-1,741	1,670-1,689	0,019-1,083	66-82	0-19
Barkeevikit		1,701-1,707	1,696-1,700	1,685-1,691	0,014-0,018	40-50	11-18
Ishqorli amfibollar							

Glaukofan	$3\text{Al}_2[\text{Si}_4\text{O}_11]_2[\text{OH},\text{F}]_2$	1,639- 1,668	1,638- 1,664	1,621- 1,659	0,012- 0,018	0-680	4-60
Ribekit	$\text{Na}_2\text{OfeOFe}_2\text{O}_3\text{SiO}_2$ (?)	1,668- 1,717	1,662- 1,711	1,654- 1,701	0,006- 0,016	40- 900	3-210
Arfedsonit	$\text{Na}_3(\text{Mg},\text{Fe})_4(\text{Fe},\text{Al})[\text{Si}_4\text{O}_11]_2[\text{OH},\text{F}]_2$	1,698	1,695	1,685	0,013	690	290

66-jadval
Piroksenlar guruhiga mansub minerallarning optik xususiyatlari

No	Minerallar	Kimyoiyi ifodasi	Ng	Nm	Np	Ng-Np
Rombik piroksenlar						
1.	Enstatit	$\text{Mg}_2[\text{Si}_2\text{O}_6]$	1,658	1,653	1,650	0,008
2.	Bronzit	$[\text{Mg},\text{Fe}]_2[\text{Si}_2\text{O}_6]$	1,650	1,668	1,665	0,005
3.	Gipersten	$[\text{Mg},\text{Fe}]_2[\text{Si}_2\text{O}_8]$	1,731	1,725	1,715	0,015
4.	Ferrosilit	$\text{Fe}_2[\text{Si}_2\text{O}_6]$	1,788	1,700	1,768	0,02
Monoklin piroksenlar						
5.	Diopsil	$\text{CaMg}[\text{Si}_2\text{O}_6]$	1,694	1,671	1,664	0,030
6.	Gedenbergit	$\text{CaFe}[\text{Si}_2\text{O}_6]$	1,741	1,723	1,716	0,025
7.	Avgit	$\text{CaMgFeAl}[(\text{SiAl})_2\text{O}_6]$	1,800	1,780	1,750	0,050
8.	Jadeit	$\text{NaFe}[\text{Si}_2\text{O}_6]$	1,673	1,663	1,658	0,025
9.	Egirin	$\text{NaFe}[\text{Si}_2\text{O}_6]$	1,730	1,710	1,700	0,070
10.	Spodumen	$\text{LiAl}[\text{Si}_2\text{O}_6]$	1,679	1,669	1,663	0,026

Sibir platformasidagi kimberlitlarning mineral tarkibi
(A.Bobrievich va boshqalar bo'yicha)

Kimberlit minerallari		Brekchiyalarning tarkibidagi minerallar		
Ilk bor yuzaga kelganlar	Sementlik vazifasini bajaruvchi minerallar	Kimberlitiga yaqin jinslar minerallari	Begona jinslar minerallari	Ikkilamchi minerallar
Olmos	Olivin-II	Pirop-almandin	Almandin-andradit	
Pirop				
Olivin-I	Avgit	Grossulyar	Diopsid-gedenbergit	
Ilmenit	Flogopit-II	Olivin		Serpofid
Pirop	Perovskit	Diopsid	Plagioklaz	Xlorit
Enstatit	Apatit	Xromdiopsid		
Diopsid		Xromit	Ilmenit	
Xromdiopsid		Plagioklaz		
Xromit				
Shpinel				
Flogopit				

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Барабанов В.Ф. Генетическая минералогия. М. «Недра», 1977. 327 б.
2. Булах А.Г. Минералогия с основами кристаллографии. С.Петербург. 1989. 352 б.
3. Булах А.Г. Общая минералогия. С.Петербург, 1999. 354 б.
4. Betexin A.G. Mineralogiya kursi. T. «O'qituvchi», 1969. 602 б.
5. Берри Л., Мейсон Б., Дитрих Р. Минералогия. М. «Мир», 1987. 592 б.
6. Виничелл и Г. Виничелл. Оптическая минералогия. Изд-во иностранной литературы. М. 1953. 562 б.
7. Годовиков А.А. Минералогия. Новосибирск. «Недра», 1975. 349 б.
8. Дир У.А., Хаук Р.А., Зусман Д.Ж. Породообразующие минерали. В 5 томах. «Мир», 1965, 196 б.
9. Долимов Т.Н., Мусаев А.А., Ишбаев Х.Д., Ганиев И.Н. Петрография. Т. «Iqtisod-moliya». 2012. 320 б.
10. Долимов Т.Н., Мусаев А.А., Ишбаев Х.Д., Ганиев И.Н., Кодиров М.Х., Кўшмуродов О. Петрография. Т. Университет, 2005.
11. Джонс М.П. Прикладная минералогия. М. «Недра». 1991. 384 б.
12. Захидов К.С. Геометрическая кристаллография. Т. 1987. 137 б.
13. Лазаренко Е.К. Курс минералогии. М. «Высшая школа», 1971. 608 б.
14. Минерали Узбекстане в 4-томах. Т. «Фан», 1989.
15. Новые данные о минералах Узбекстане. Т. «Фан», 1989. 316 б.
16. Станкеев Е.А. Генетическая минералогия. М. «Недра». 1986, 272 б.
17. Смирнов В.И. Геология полезных ископаемых. М. «Недра». 1982. 670 б.
18. Xamrobayev I.X., Radjabov F.SH. Petrografiya asoslari. Т. «O'qituvchi». 1984.
19. O'zbekiston ensiklopediyasi. 14 tomlik.
20. Qo'shmurodov O. Mineralogiya va petrografiya. Toshkent, "Iqtisodivot va moliya". 2010. 250 б.
21. Qo'shmurodov O. Foydalı qazilmalar va ularning konlari. Т. "Iqtisod-moliya", 2010, 157 б.
22. Qo'shmurodov O. Umumiy geologiya. Т., "Iqtisod-moliya", 2010, 172 б.

23. Qo'shmurodov O., Koneev R.I., Umarov A.Z. Mineralogiya. Toshkent, O'zMU, 2005. 248 b.
24. Qo'shmurodov O. Mineralogiya. Toshkent, O'zMU. 2006, 144 b.
25. Qo'shmurodov O., Koneev R.I., Umarov A.Z. Amaliy mineralogiya. Toshkent, O'zMU. 2007. 122 b.
26. Qo'shmurodov O., Ishbaev X.D., Umarov A.Z. Kristallografiya. Toshkent, O'zMU. 2004. 158 b.
27. Конеев Р.И., Кўшмуродов О., Турсебеков А.Х. Микроминералогия – предмети, методи, применение. Т. ТашГУ, 1994, 90 б.

MUNDARIJA

So'z boshi.....	3
Kirish.....	6

I bo'lim

KRISTALLOGRAFIYA

1. Kristall va kristallografiya fani xususidagi ma'lumotlar

1.1. Kristall haqida umumiyl tushunchalar.....	14
1.2. Fazoviy panjara to'g'risida tushuncha.....	16
1.3. Kristallarning asosiy xususiyatlari.....	18
1.4. Kristallografiya'ning vazifasi va boshqa fanlar orasida tutgan o'mi.....	19
1.5. Kristallografiya fani taraqqiyotining bosqichlari.....	20

2. KRISTALLARNING HOSIL BO'LISHI VA O'SISHI

2.1. Kristallarning hosil bo'lish sharoitlari	25
2.2. Kristallarni laboratoriya sharoitida hosil qilish usullari.....	25
2.3. Kristallarning hosil bo'lishi haqidagi nazariyalar.....	27
2.4. Kristallarni hosil qilishdagi usullar.....	28

3. KRISTALL TOMONLARI, QIRRALARI VA CHO'QQILARI ORASIDAGI QONUNIYATLAR

3.1. Tomonlar orasidagi burchaklar turg'unlik qonuni (Steno qonuni).....	29
3.2. Tomonlar orasidagi burchaklar turg'unlik qonunidan chetlashish.....	32
3.3. Kristallarning tomonlari, qirralari va cho'qqilari mutanosib-ligi haqidagi Eyler-Dekart formulasi.....	33

4. KRISTALLAR SIMMETRIYASI

4.1. Umumiyl tushuncha.....	33
4.2. Cheklangan kristall shakllarining simmetriya elementlari.....	34
4.3. Simmetriya tekisligi.....	35
4.4. Simmetriya uchlari.....	37

4.5. Simmetriya elementlari teoremlari.....	42
4.6. Yakka yo`nalishlar.....	45
4.7. Simmetriya elementlarining 32 turi.....	48
4.8. Yakka yo`nalishli kristall shakllari simmetriya elementlarining turi.....	48
4.9. Yakka yo`nalishsiz kristall shakllari simmetriya elementlarining turi.....	51
4.10. Toifalar va singoniyalar.....	54
4.11. Quyi toifa kristallari.....	55
4.12. O`rta toifali kristallar.....	55
4.13. Yakka yo`nalishsiz yuqori toifa kristallari.....	55

5. KRISTALLAR SHAKLLARI

5.1. Umumiy tushuncha.....	60
5.2. Oddiy shakllarni chiqarish haqida tushuncha.....	61
5.3. Oddiy va murakkab (kombinatsiyali) shakllar.....	62
5.4. Ochiq va yopiq oddiy shakllar.....	64
5.5. Quyi toifali oddiy shakllari.....	64
5.6. Triklin singoniyasi.....	64
5.7. Monoklin singoniyasi.....	65
5.8. Rombik singoniyasi kristallari.....	65
5.9. O`rta toifali oddiy shakllar.....	66
5.10. Yuqori toifali oddiy shakllar.....	75
5.11. Haqiqiy (tabiiy) kristallar shakllari.....	81

6. KRISTALLOGRAFIK BELGILAR

6.1. Gayui qonuni.....	82
6.2. Tomonlar belgilari.....	85
6.3. Kristallografik o`qlarni tanlash.....	88
6.4. Triklin singoniyali kristallarda kristallografik o`qlarining joylanishi.....	88
6.5. Monoklin singoniyali kristallarda kristallografik o`qlarining joylanishi.....	89
6.6. Rombik singoniyali kristallarda kristallografik o`qlarining joylanishi.....	90
6.7. Tetragonal singoniyali kristallarda kristallografik o`qlarining joylanishi.....	90
6.8. Kubik singoniyali kristallarda kristallografik o`qlarining joylanishi.....	91
6.9. Trigonal va geksagonal singoniyali kristallarda o`qlarining joylanishi.....	92
6.10 Trigonal singoniyali kristallarda kristallografik o`qlarining ikkita usulda joylanishi.....	94

7. KRISTALLARNING IChKI TUZILISHI

7.1. Kristallarning ichki tuzilishi xususidagi nazariyalar.....	95
7.2. Brav'e fazoviy panjaralarining o'n to'rt turli shu'balari.....	97

II bo'slim

MINERALLARNING TEKSHIRISH USULLARI

8. MINERALLARNING FIZIK XUSUSIYATLARI

8.1. Minerallarning morfologik xususiyatlari.....	107
8.2. Minerallarning shaffofligi.....	108
8.3. Minerallarning rangi.....	108
8.4. Solishtirma og'irlik.....	110
8.5. Qattiqlik.....	112
8.6. Mexanik deformatsiyalar.....	115
8.7. Kristallarning tarangligi.....	116
8.8. Issiqlik o'tkazish xususiyatlari.....	118
8.9. Issiqlikdan kengayishi.....	119
8.10. Elektr o'tkazuvchanlik xususiyatlari.....	120
8.11. Piroelektrik xususiyatlari.....	121
8.12. P'ezoelektrik xususiyatlari.....	122
8.13. Magnitlik xususiyatlari.....	123

9. MINERALLARNING KIMYOVIY XUSUSIYATLARI

9.1. Mineral tarkibidagi birikmalarni aniqlash.....	126
---	-----

10. MINERALLAR TASNIFI

10.1. Sof tug'ma elementlar sinfi.....	130
10.2. Yarim metallar guruhi minerallari.....	133
10.3. Uglerod guruhi minerallari.....	133
10.4. Oltingugurt va shunga o'xshash birikmalarning sulfid minerallari.....	135
10.5. Oksidlar sinfi.....	146

10.6. Gidrooksidlar.....	153
10.7. Karbonatlar sınıfı	154
10.8. Sulfatlar sınıfı	159
10.9. Volframatlar va molibdatlar.....	162
10.10. Xromatlar.....	164
10.11. Fosfatlar, arsenatlar va vanadatlar.....	165
10.12. Boratlar.....	166
10.13. Nitratlar.....	167
10.14. Galliod birikmalar.....	167
10.15. Silikatlar sınıfı	169
10.16. Granatlar guruhi	172
10.17. Xloritlar guruhi mineralları	182
10.18. Plagioklazlar guruhi.....	185
10.19. Kaliy-natriyli dala shpatları.....	188
10.20. Felshpatlar.....	190
10.21. Sodalit guruhi mineraları	191
10.22. Slyudalar.....	192
10.23. Amfibollar guruhi	196
10.24. Olivinlar guruhi.....	201
10.25. Piroksenler guruhi	205

III bo‘lim

11. MINERALLARNING TABLATDA HOSIL BO‘LISHI

11.1. Yer po‘stining tuzilishi va tarkibi.....	210
11.2. Mantiyaning tuzilishi va tarkibi.....	215
11.3. Magmatik jarayonlar.....	218
11.4. Pegmatit jarayonlar.....	232
11.5. Kontakt-metasomatit jarayon – skam hosil qilish sharoiti	236
11.6. Gidrotermal mineralarning hosil bo‘lishi	240
11.7. Mineral hosil qiluvchi ekzogen jarayonlar.....	241
11.8. Region metamorfizm va uning bilan bog‘liq bo‘lgan mineral hosil qiluvchi jarayonlar.....	245
11.9. O‘zbekiston diyorida topilgan minerallar.....	247
11.10. Eng muhim mineralarning asosiy metallari (elementlari) bo‘yicha ro‘yxat	252
Jadvallar	262
Foydalaniman adabiyotlar	274

QO'SHMURODOV OCHIL

MINERALOGIYA
(*darslik*)

Muharrir Radjapov D
Musahhih Mamatova I
Musavvir G'ulomov A

Bosishga ruhsat etildi 19.02.2016 Bichimi 60x84^{1/16}
Nashriyot hisobi tobog'i 18,3. Sharli bosma tobog'i 29,4
Adadi 100 nusxa Bahosi shartnoma asosida

"Universitet" nashriyoti. Toshkent – 100174.
Talabalar shahrchasi. M.Ulug'bek nomidagi
O'z M.U. Ma'muriy bino

«ISTIQLOL NASHRIYOTI» MChJ matbaa bo'limida chop etildi.
Toshkent sh., 100129, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Buyurtma № 4.